

6 2021

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


ILMIY AXBOROTLARI НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ILMIY-NAZARIY JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-THEORETICAL JOURNAL



ANIQ FANLAR
TABIY FANLAR
FALSAFA
PEDAGOGIKA
PSIXOLOGIYA
IJTIMOIY-GUMANITAR
FANLAR

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2021

6-son

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil
30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.*

MUNDARIJA

Umarov A.Yu. Ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	4
Bulatov S.S., Panayeva M.M. Badiiy asarlar tahlili jaryonida innovatsion yondashuv	11
Ismailova J.X. O‘zbekiston ikkinchi jahon urushi yillarida: bag‘rikenglik, jasorat, saxovat	17
G‘aniyev A.G. “Olamning zamonaviy fizik manzarasi” mavzusini o‘tishda o‘quvchilarda «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarini rivojlantirish	23
Ibragimov X.I., Salimova Z.K. Ingliz tilini o‘qitishda intensiv usulning samaradorligi	34
Tursunov I.E. Dasturiy ta‘minotlar asosida talabalari kasbiy qobiliyatini rivojlantirish	43
Umurova G.H. Zulfiya lirikasi va hozirgi she‘riyat poetikasi	49
Eshonqulov Sh.U. Elektron ta‘lim muhitida fanni o‘qitish mazmuni va muammolari	54
Abdullaeva M.A. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish	61
Mamatqulova M.V. O‘quv faoliyatida pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari	69
G‘aniyeva O.S. Axborot ta‘lim muhitida talabalarga axborot tizimlari haqida o‘qitish	76
Islomova H.A. Adabiy ta‘limda xalq dostonlari tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari (10-sinf Rustamxon dostoni misolida)	80
Buvorayeva G. SH. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish muhim omil sifatida	85
Achildiyeva M.E. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi	90
Soliyev O.F. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	94
Norquziyeva M.Sh. “Umurtqalilar zoologiyasi” fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirish omili	99
Ubaydullayev N.X. Avtobiografik bitiklarda ijodkor shaxs qiyofasining ko‘rsatilishi	103
Rashidova U.M. “Layli va Majnun” dostonida qo‘llangan somatik frazeologizmlarning funksional - semantik xususiyatlari	109
Xalova M.A. Lirikada tuyg‘ular olami	116
Narziyeva M.N. Abdulla Oripov poeziyasida Vatan-Ona yurt obrazi manzaralari	121

Yusupov X.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'rganishda loyiha ishining ahamiyati	127
Irmatov F.M. Nofizik mutaxassislik ta'lim yo'nalishlarida fizika fanidan amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'qitish	134
Ochildiyeva S.E. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish metodikasi	140
Choriyeva D.A. Zamonaviy pedagogikada monitoring va diagnostika ishlari	146
Ergashev.M.U. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati: xorijiy tajriba va milliy amaliyot	153
Abdurahmonova M.S. Axborot texnologiyalari muhitida kutubxonachi mutaxassislarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish holati: muammo va yechimlar	160
Ibragimov J.X. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirish	167
Bobomuxamedova Sh.A. Dasturlash tillari fanini o'qitishda blog-texnologiyasining o'rni va ahamiyati	172
Djurakulova M.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy rivojlanganlik darajasini aniqlash	179

IJTIMOYIY HAMKORLIK SHAROITIDA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

**Umarov A.Yu. - Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori,
fizika-matematika fanlari nomzodi**

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy hamkorlik sharoitida raqamli ta'lim kontentini yaratishning pedagogik shart-sharoitlari, ahamiyati va imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy hamkorlik, raqamli ta'lim, pedagogik shart-sharoitlar, Raqamli ta'limning kontenti.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

**Умаров А.Ю. – ректор Ташкентского государственного
педагогического университета, кандидат физико-математических наук**

Аннотация. В статье изложены педагогические условия, роль и возможности создания контента цифрового образования в условиях социального сотрудничества.

Ключевые слова: социальное сотрудничество, цифровое образование, педагогические условия, Контент цифрового образования.

THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF TEACHER TRAINING IN THE CONTEXT OF SOCIAL PARTNERSHIP

**Umarov A.Yu. - Rector of Tashkent State Pedagogical University,
candidate of physical and mathematical sciences**

Annotation. This article describes the pedagogical conditions, importance and opportunities for the creation of digital educational content in the context of social partnership.

Key words: social partnership, digital education, pedagogical environment, the basics of digital education.

Raqamli ta'lim kontentini yaratish insonning ichki dunyosini kengayib boruvchi sohalar: intellektual, emotsional-obrazli, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va

boshqalar shaklida aks ettirishga olib keladi. Ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, harakatchan va birgalikda insonning virtual ta‘lim maydoni deb atash mumkin bo‘lgan narsani shakllantiradi. Bu ma‘kon o‘quvchining hissiyotlari, hissiy-obrazli va intellektual qobiliyatlaridan foydalangan o‘quvchining faoliyati orqali o‘zi uchun uning tashqi sohalarini kashf etib, tashqi dunyoga kengayib borishga qodir [4].

Raqamli qurilmalardan foydalanish maxsus tashkil etilgan muhit, o‘zaro aloqalar va uning darajalari o‘zgarishida ifodalangan ta‘lim formatlaridagi o‘zgarishlar, pedagoglardan o‘zlarida yangi maxsus, jumladan, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishni talab etdi [3; 6; 7; 12];

Ta‘kidlash muhimki, “Raqamlashtirish” tushunchasi mazmunan nafaqat o‘zaro aloqaning raqamli usulini va raqamli qurilmalar yordamida ma‘lumotlarni uzatishni, balki insonning inson bilan va jamiyat bilan aloqasi paradigmasining o‘zgarishini, nafaqat ma‘lumotlarni raqamli ko‘rinishga o‘tkazishni, balki infrastrukturaviy boshqaruv, xulq-atvor, madaniy xarakterdagi kompleks yechimni anglatadi.

Raqamlashtirish - analog signalni diskret signalga aylantirish jarayoni, ya‘ni analog ma‘lumotlarni raqamli, kompyuter muhitida mavjud bo‘la oladigan va mashina o‘qiydigan tashuvchilarda saqlanadigan shaklga o‘tkazish. Analog tasvirlarni raqamlash ko‘pincha skaner yordamida bajariladi [1].

Shunday qilib, biz raqamlashtirishda internet va mobil aloqaning rivojlanishini asosiy omil sifatida ayta olamiz. Ta‘limning raqamlashtirilishi mehnat bozorida talab qilinuvchi yangi qo‘nikmalarning shakllanishiga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashga olib keladi va pedagogning rolini qayta ko‘rib chiqish hamda ta‘lim jarayonini qayta tashkillashtirishga qaratiladi.

Raqamlashtirish nafaqat matn ko‘rinishida balki, ovozli va vizual ko‘rinishlarda ma‘lumotning turli shakllarda mavjud bo‘lishini ta‘minlaydi. Axborotning mavjud bo‘lishi, uni doimo izlash, kerakli va qiziqarli bo‘lgan kontentni tanlash unga ishlov berishning yuqori tezligini talab qiladi. Binobarin, ta‘limni raqamlashtirish tizimni tubdan sifatli darajada qayta tuzishga olib keladi [14].

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichi fan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning barcha tizimi transformatsiyasi va integratsiyasini talab etadi. Jumladan ta‘limdagi innovatsion jarayonlar shakllanayotgan raqamli texnologiyalar asosidagi ta‘lim muhiti sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini amalga oshirish uchun muammolarni hal qilish kun tartibidagi masalaga aylandi. Shuni ta‘kidlash kerakki, e‘tiborga olingan holatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat pedagogik faoliyatni murakkablashtirishni shart qilib qo‘yadi, balki bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida ijtimoiy tashkilotlar bilan ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirib borishni talab qiladi.

Ta'kidlash mumkinki, hozirgi kunda ijtimoiy hamkorlik asosidagi ta'lim sharoitida pedagogik kadrlarni tayyorlash konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish zarurati va imkoniyati paydo bo'ldi. Bular:

- pedagog kadrlarga ta'lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va bunday kadrlarni tayyorlashning yaxlit tizimining nazariy va amaliy jihatlari yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;

- ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlashning nazariy jihatini ishlab chiqish va raqamli jamiyatda pedagogik kadrlarni kasbiy faoliyatga ko'p bosqichli tayyorlash jarayonining konsepsiyasi mavjud emasligi;

- o'qitish jarayonining ochiqligi, tegishli soha bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik darajasining oshishi, kasbiy rivojlanishning individual trayektoriyalarining shakllanishini talab etadigan ijtimoiy hamkorlik asosidagi ta'limning mavjud potentsiali va zamonaviy sharoitlarda pedagogik kadrlarni tayyorlash usullari, shakllari, metod va usullarini uslubiy asoslash tamoyillarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi.

“Ta'limning raqamlashtirilishi” kategoriyasining shakllanish jarayoniga alohida e'tibor qaratish joiz. Professional ta'limni raqamlashtirish maqsadlarini aniqlab beruvchi me'yoriy – hujjatlardan kelib chiqadiki, u axborot-raqamli resurslardan keng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash va o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishga mo'ljallangan. Bundan kelib chiqadiki, ta'lim muassasalarining faoliyati asosan o'qituvchilar va o'quv muassasasi ma'muriyatining o'zi raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarga qay darajada egalik qilishiga, ular mustaqil ravishda yoki axborot texnologiyalardan foydalangan holda, uni qanchalik tez tahlil qilishlari va qayta ishlashlari, shuningdek oxirgi iste'molchiga – talabaga yetkazishlari imkoniyati darajasiga bog'liqdir [2; 11].

Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashning pedagogik potentsiali uzluksiz o'sib bomoqda. Uning o'sishi quyidagi faktorlarning harakati va o'zaro harakati bilan bog'liq: faol hayotga AKTni egallagan millionlab oddiy yosh avlodning kelishi bilan; uy sharoitida katta miqdordagi mikro kompyuterlarning mavjudligi; axborot texnologiyalarining raqamli kodlanishi bilan; texnologiyalarning tasvir va interfaollik bilan mos tushishi bilan va boshqalar. Shunday qilib, bugungi kun o'quv jarayonida AKTdan foydalanish jamiyatda, iqtisodiyotda va madaniyatda yuz berayotgan obyektiv o'zgarishlarga ta'lim tizimining ehtimoliy mavjud bo'lgan yagona javobi hisoblanadi. “Raqamli iqtisodiyot atamasi” xo'jalik faoliyatini anglatish uchun xalqaro jamiyat tomonidan qabul qilingan bo'lib, unda “ishlab chiqarishning asosiy faktori bo'lib, raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar bo'lib, natijasi ishlab chiqarish, texnologiya, asbob-uskunalar, saqlash, savdo, mahsulot va xizmatlarni yetkazib berishning turli ko'rinishlarining samaradorligini oshirishga

imkon beradigan katta hajmlarga ishlov berish va tahlil natijalaridan foydalanish hisoblanadi” [10].

Raqamli texnologiyalar asosidagi ijtimoiy hamkorlik ta’lim sharoitida pedagogik kadrlarni professional faoliyatga ko‘p bosqichli tayyorlash quyidagi shartlar amalga oshirilganda ta’minlanadi, agar;

- ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga ko‘p bosqichli tayyorlashning maqsadlari, mazmuni va jarayonini tadqiq etishga imkon beruvchi, raqamli texnologiya asosidagi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga oluvchi kommunikatsion aloqalar tizimli yo‘lga qo‘yilsa;

- raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim sharoitida pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq muammolarning konseptual va terminologik jihati asoslangan bo‘lsa;

- raqamli texnologiyalar asosidagi ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagogik kadrlarni professional ta’limga ko‘p bosqichli tayyorlashning muhim tarkibiy afzalliklari sifatida pedagogik kadrlarni yangi faoliyat turini amalga oshirish uchun uzluksiz tayyorlash e’tirof etilsa;

- ijtimoiy hamkorlik sharoitida raqamli texnologiyalar asosidagi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga oluvchi pedagog kadrlarni tayyorlashning konseptual modeli ishlab chiqilsa;

- raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini amalga oshirish texnologiyasi ishlab chiqilsa;

raqamli texnologiyalar asosidagi ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonning samaradorligini ta’minlashning tashkiliy pedagogik shartlarining majmuasi sifatida nazariy-uslubiy, tuzilmaviy, texnologik, metodik, informatsion komponentlari funksiyasi aniqlashtirilsa;

Ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishda quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi lozim:

1. Raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim sharoitida pedagogik kadrlarni professional ta’limga ko‘p bosqichli tayyorlash jarayonining konsepsiyasini ishlab chiqish;

2. Raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim sharoitida pedagogik kadrlarni professional ta’limga ko‘p bosqichli tayyorlash modelining loyahasini tuzish;

3. Raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim sharoitida pedagogik kadrlarni professional ta’limga ko‘p bosqichli tayyorlash jarayoni realizatsiyasining texnologiyasini ishlab chiqish.

4. Raqamli texnologiyalar asosidagi ta’lim sharoitida pedagogik kadrlarni professional ta’limga ko‘p bosqichli tayyorlash modelini amaliyotga tadbiiq qilishga imkon beruvchi tashkiliy-pedagogik shartlarning majmuini asoslash.

Raqamli texnologiyalar asosidagi ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlashda axborotni saqlash va uzatish, uni to'plash usuli va taqdimot formatlari ham inobatga olinishi lozim. Bunda elektron axborot-ta'lim muhitidan foydalanish bilan tavsiflanadigan kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy, amaliy va shaxsiy tayyorgarlikni ta'minlaydigan ijtimoiy hamkorlik sharoitini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. O'zaro hamkor tomonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tashkil etishning o'ziga xosligi elektron axborot-ta'lim muhitining tuzilmaviy va tarkibiy qismlariga, har qanday joyda va istalgan vaqtda har xil turdagi o'quv materiallari kontentini taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishiga bog'liq bo'lgan jarayoni yaratilishi lozim. Shuningdek, onlayn va oflayn rejimlarda faoliyat kontentini birgalikda yaratish va muhokama qilish imkoniyati, ta'lim jarayonini boshqarish uchun aniq raqamli vositalar (ta'limni boshqarish tizimlari, o'quv platformalari va x.k); masofadan talabalar bilan birgalikda ishlashni tashkil etishga imkon beradigan o'qitishning yangi texnologiyalaridan foydalanish kasbiy faoliyatdagi vaziyatlar ehtimoli va oqibatlariga ta'sir ko'rsatadigan holatlari bilan tanishish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar asosidagi ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida: ijtimoiy hamkorlik sharoitida tanlangan ta'lim shaklining yaratilayotgan mavzu kontentiga o'zaro bog'liqligi va o'z navbatida, tanlangan o'quv shakliga taqdim etiladigan mavzu kontenti formatining bog'liqligi; o'qitish texnologiyasining mavjud kasbiy tajribaga bog'liqligi; qo'llaniladigan metodlar va ularni amalga oshirishning o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakliga bog'liqligi; tomonlar faoliyati integratsiyasida turli xil ma'lumot manbalaridan kompleks foydalanishga bog'liqligi ta'minlanishi muhim. Ularning amalga oshirilishi ilmiylik va uzviylik, spetsifik (interaktivlik, pedagogik maqsadga muvofiqlik, raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlaridan foydalanish va boshqalar) va maxsus (globallashuv, individual yo'nalish) tamoyillar bilan ta'minlanadi.

Ta'lim jarayoni ijtimoiy jarayon sifatida doimiy harakatda bo'ladi. Jarayonlar uzluksiz amalga oshiriladi. Ta'limning inson uchun va ijtimoiy ahamiyati, uning har bir inson va umumiy ma'noda jamiyat hayotida ijtimoiy institut sifatidagi o'rni to'g'risidagi an'anaviy tushunchalarni qayta tahlil qilish lozim [13].

Shunday qilib, raqamli texnologiya asosidagi ijtimoiy hamkorlik sharoitida pedagogik kadrlarni innovatsion-professional faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkil etish doirasida uzviy ta'limning mohiyati va muammolarini ko'rib chiqishining metodologik asosini aniqlash zarurati yuzaga keldi [8; 9].

Ijtimoiy hamkorlik sharoitida raqamli texnologiyalar asosida uzluksiz ta'limni tashkil etishning bazaviy tamoyillari quyidagilar:

- "jamiyatning barcha a'zolari tomonidan yangi bazoviy bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni egallanishi" – insonning butun hayoti davomida uning shaxs sifatida

ijtimoiy adaptatsiyasi uchun zarur bo'lgan bilimlarni olish va yangilab turishga barcha imkoniyatlarni ta'minlash;

- "inson resurslariga kiritiladigan sarmoyani oshirish" – moliyalashning yangi mexanizmlarini izlash va jalb etish, moliyalashtirish kirish manbalarining spektrini kengaytirish, resurs bilan ta'minlash konsolidatsiyasi;

- "o'qitishning innovatsion metodikalarini rivojlantirish" – o'qitishning qabul qilingan usullarini o'zgartirish, ularning zamonaviy talablarga nisbatan adaptatsiyasini ta'minlash o'qituvchilarning yangi avlodini shakllantirish;

- "olingan bilimni baholashning yangi usulini shakllantirish" – fuqarolar va ish beruvchilar uchun, shuningdek davlat kvalifikatsion tizimi uchun maqbul bo'lgan ta'limning istalgan shaklidagi natijalarini baholash va akkreditatsiya qilish tizimini rivojlantirish;

- "murabbiylik va ta'lim konsaltingi markazlarini rivojlantirish" – jamiyatning har bir a'zosi ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limning tizimini axborot vositalari bilan ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratish;

- "uydan ta'lim olish tarziga yaqinlashish" – axborot ta'lim texnologiyalari keng qo'llash masofadan o'qitish tizimlarini rivojlantirish [5, 20-b.].

Uzluksiz ta'limning quyidagi asosiy prinsiplarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq. Gumanistik tabiati ta'limning demokratlashuvi an'anaviy va yangi tipdagi formal va nofarmal ta'lim tuzilmalarining integratsiyasi o'quv jadvallari va dasturlarining moslashuvchanligi, o'quv jarayonini tashkillashtirishga yondashuvlarning alternativligi, imkoniyati cheklangan qatlamning ta'lim olishiga alohida e'tibor, ta'limning mustaqilligi va o'z yo'nalishini belgilashi, ta'limning hayot bilan bog'liqligi, individning professional va ijtimoiy faolligi. Ushbu prinsiplarning alohida ko'rsatilishi YUNESKO ta'limining halqaro instituti pozitsiyalariga ham muvofiqdir [15]. Demak, uzluksiz ta'lim – ta'limda raqamli texnologiyalarning qo'lanishi ta'lim oluvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Aripov A.N. va boshqalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. – Toshkent, 2004. – 199 b

2. Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л. «Цифровое образование» как системообразующая категория: подходы к определению / М.Е. Вайндорф-Сысоева, М.Л. Субочева // Вестник Московского государственного областного 314 университета. Серия: Педагогика. – 2018. – № 3. – С. 25–36. (авторство не разделено).

3. Вайндорф-Сысоева, М.Е. On-line технологии в подготовке будущего учителя / М.Е. Вайндорф-Сысоева // Социально-гуманитарные

знания. – 2006. – № 4. – С. 86–94. 0.7 п.л.

4. Вайндорф-Сысоева, М.Е. Современные подходы к организации повышения квалификации современного педагога / М.Е. Вайндорф-Сысоева // Проблемы современного педагогического образования. – 2017. – № 57 (3). – С. 16–22. 0,5 п.л.

5. Далабаев, Ж.К. Образование для всех на протяжении всей жизни - современный приоритет времени / Ж.К. Далабаев // Педагогический полилог. – 2006. – № 5-6. – С. 20–24.

6. Дворянкина, Е.К. Моделирование образовательной системы вуза по развитию студентов как субъектов будущей профессионально-педагогической деятельности : автореф. дис. ... докт. пед. наук : 13.00.08 / Е.К. Дворянкина; [Место защиты: ФГБОУ ВО МПГУ]. – М., 2012. – 42 с.

7. Делимова, Ю.А. Моделирование в педагогике и дидактике [Электронный ресурс] // Вестник Шадринского педагогического института. URL: <http://shgpi.edu.ru/files/nauka/vestnik/2013/2013-3-7.pdf> (дата обращения: 03.03.2018).

8. Жуковская, З.Д., Квасова, Л.В., Фролов, В.Н. О концепции непрерывного образования / З.Д. Жуковская, Л.В. Квасова, В.Н. Фролов // Высшее образование сегодня. – 2007. – № 8. – С. 12–17.

9. Зеер, Э.Ф. Концепция профессионального развития человека в системе непрерывного образования // Педагогическое образование в России. – М., 2012. – С. 122–127.

10. Кешелава, А.В. Введение в цифровую экономику. М., 2017. 28 с.

11. Кондаков, А.М. Цифровое образование: матрица возможностей: презентация : [2018] [Электронный ресурс]. URL : <http://ito2018.bytic.ru/uploads/materials/2.pdf> (дата обращения: 16.07.2018).

12. Леванова, Е.А. Социально-педагогическая компетентность специалистов социальной сферы : монография / Е.А. Леванова, Я.А. Баскакова, Е.В. Звонова и др.; под общей ред. С.Б. Серяковой. – М.: МПГУ, 2017. – 184 с.

13. Нурутдинова, А.Р. Предпосылки и условия и условия организации непрерывного образования в России [Электронный ресурс] / А.Р. Нурутдинова. – URL: http://www.naukapro.ru/konf2006/5_026.htm (дата обращения: 27.10.2017).

14. Jos Bersin. The Disruption of Digital Learning: Ten Things We Have Learned. [Электронный ресурс]. URL : <https://joshbersin.com/2017/03/the-disruption-of-digital-learning-ten-things-we-have-learned/> (дата обращения: 16.07.2018).

15. Unesco. The General Conference Adopts a Recommendation on Adult Education // Adult Education Information Notes. –1998. – № 1. – P. 2.

**BADIIY ASARLAR TAHLILI JARYONIDA
INNOVATSION YONDASHUV**

**Bulatov S.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlar doktori**

Panayeva M.M. - Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at tarixidan kompozitsiya va rang-tasvir mashg'ulotlarida Kamoliddin Behzodning badiiy asarlari tahliliga innovatsion yondashuv asosida ta'limning sifat va samaradorligini takomillashtirish bayon etilgan.

Kalit so'zi: milliy qadriyat, go'zallik, tuyg'u, madaniy meros, an'ana, ijodiy uslub, ramz, timsol, harakat, raqs, durdona, miniatura, ilhomlanish, kashfiyot, koinot.

**ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В ПРОЦЕССЕ АНАЛИЗА
ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ**

**Булатов С.С. - Ташкентский государственный педагогический
университет, доктор педагогических наук, профессор**

**Панаева М.М. - Магистр Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. В данной статье говорится об усовершенствовании качества и эффективности обучения на основе инновационного подхода к анализу художественных произведений Камалиддина Бекзада на занятиях композиции и цветоизображения по истории изобразительного искусства в системе непрерывного образования.

Ключевые слова: национальная ценность, красота, чувство, культурное наследие, традиция, творческий стиль, действие, миниатюра, вдохновение, изобретение, вселенная.

**INNOVATIVE APPROACH IN THE PROCESS OF ANALYSIS OF
ART WORKS**

**Bulatov S.S. - Tashkent State Pedagogical University, Doctor of
Pedagogical Sciences, Professor**

Panayeva M.M. - Master of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article describes the improvement of the quality and effectiveness of education based on an innovative approach to the analysis of works of art by Kamoliddin Behzod in the composition and color-imaging lessons from the history of fine arts in the system of lifelong education.

Key words: national property, beauty, feeling, cultural heritage, tradition, creative approach, action, miniature, inspiration, invention, Universe.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amalga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifasi belgilangan. Ota-bobolarimizning qanday buyuk shaxslar, yetuk alloma, olim va ulamolar bo‘lgani bilan faxrlanibgina qolmasdan, balki ularga munosib farzand bo‘lish, olamshumul kashfiyotlar qilishga qodir xalq ekanimizni, amalda isbotlashimiz ham lozim [1]. Bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarning sifatini oshirish, pirovardida, yurtimizning ilmiy-texnologik salohiyatini mustahkamlab, iqtisodiyoti taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Oliy ta‘limda tasviriy san‘at ta‘limi mazmuni va metodikasini takomillashtirish orqali uning sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy ta‘lim tendensiyalar, texnologik yondashuvlar bilan birga ta‘lim-tarbiya borasida to‘plangan ko‘p asrlik qadriyatlar, milliy-tarixiy an‘analardan ham foydalanib kelinmoqda. O‘zbekistonning ilm va fani, madaniyati va san‘ati tarixida barcha zamonlar uchun o‘zining badiiy-estetik qiymatini yo‘qotmaydigan, ayniqsa, yillar va asrlar osha ma‘naviy nufuzini oshirib boruvchi manbalar mavjud. Shunday manbalar ichida, Sharq miniatura san‘atining ta‘limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zamonaviy ta‘limning, shu jumladan, oliy ta‘limda “Tasviriy san‘at tarixi” o‘quv fanining dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Sharq miniatura san‘ati uzoq tarixiy taraqqiyot davomida yaratilgan hamda umuminsoniy va milliy qadriyat sifatida ham moddiy, ham ma‘naviy meros sifatida e‘tiborga molikdir. Miniatura san‘ati umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-7-sinflarida va badiiy ta‘lim oliy o‘quv yurtlarining tasviriy san‘at tarixi darslarida o‘rgatiladi. Kamoliddin Behzod ijodi DTSga amal qilgan holda analiz, sintez va xulosalab chuqur o‘rgatiladi. Jumladan, boshqa fakultetda tarix, adabiyot, ma‘naviyat kabi fanlarda ham qisman bo‘lsa-da o‘rganiladi. Ming afsuski, hattoki o‘qituvchilarimiz Kamoliddin Behzodning asarlarini ko‘rsalar-da uni mazmun-mohiyatini to‘liq tushuna olmaydilar. Shu bois uning asarlarini tahlil qilishda o‘zimiz ishlab chiqqan “Tahlil” metodidan foydalanishni tavsiya qilamiz.


San‘at tarixi fanini o‘qitishning modullik texnologiyalari ishlab chiqiladi. Yaratilgan ushbu metodga ko‘ra talabalar jamoa va yakka tartibda qatnashadi. O‘qituvchi tasviriy va amaliy san‘at asarlarining badiiy, mantiqiy, falsafiy,

psixologik, astrologik kabi tahlil turlaridan birini “Tahlil” metodi asosida biron kompozitsiyasini tahlil qilish o‘rgatiladi. Tahlil qilishda oddiy jadval asosida bir tomoniga naqsh bo‘laklarining nomi yozib boriladi va ikkinchi tomoniga ramziy manosi yoziladi. Jadvallar asosida yakka holda, 2ta yoki guruhga bo‘linib, berilgan naqsh kompozitsiyasini yoki tasviriy san’at asarini badiiy tahlil qiladi. Musobaqa asosida doskada guruhlarga ball qo‘yib boriladi. Eng yaxshi guruh rag‘batlantiriladi. Xuddi shu usulda asarni mantiqiy falsafiy, psixologik usullarda tahlil qilinadi. “Tahlil” metodining maqsadi dars jarayonida talabalar erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash va izlanishga, taqqoslash usuli yordamida muammo yechimini topish, bajargan ishni erkin bayon eta olish o‘z-o‘zini baholash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash va har bir javobni isboti bilan izohlashga o‘rganadilar.

Sharq Renessansining buyuk vakillaridan biri naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzod jahon tasviriy san’ati, xususan, kitob bezagi sohasida, portret, manzara, turmush, tarixiy janrlarda yuksak g‘oyaviy, badiiy saviyada asarlar yaratdiki, ular jahonning ko‘pgina mamlakatlarida sevib o‘rganilmoqda. Uning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramay, Behzod asarlarining falsafiy va psixologik tomonlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Kamoliddin Behzod o‘z asarlarida bu o‘tkinchi, ya’ni sinov dunyosida inson o‘zligini qanaqa qilib anglashning sir-sinoatlarini mohirona tasvirlar orqali ifodalaydi. O‘zligini anglagan inson komillik darajasiga chiqa oladi. O‘zligini noto‘g‘ri anglagan inson, birinchi holatda, o‘ziga ortiqcha baho berib kibr-u havoga berilsa, ikkinchi holatda, o‘ziga past baho berib, o‘zidagi iqtidor, iste’dodni ocholmay, faolligi yetarli bo‘lmay, passiv, umidsiz, inqiroz holatiga tushadi. Bu ikki holat ham inson kamolatiga yomon ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har bir shaxs milliy o‘zligini, o‘z mohiyatini anglashi, shaxsiy fikrga ega bo‘lishi lozim. O‘zgalarning fikri uni yo‘ldan adashtirmasin, chunki o‘zlikni anglash jarayonida bilish obykti ham, subyekti ham insonning o‘zi bo‘ladi. Shularni chuqur anglagan Kamoliddin Behzod inson bilan koinot uyg‘unligini mantiqiy mushohada qiladi va o‘z asarlarida koinot falsafasini chiziq, shakl va rang timsollar orqali ifodalab, xalqqa yetkaza olgan. Dunyoga tanilgan mashhur bo‘lgan asarlaridan biri “So‘fiylar raqsi”ning shu vaqtgacha badiiy tahlili to‘liq o‘rganib chiqilmagan. Kamoliddin Behzod koinot bilan insonlar o‘rtasidagi sun’iy bog‘lanishning uchinchi yo‘li xalq an’analarini chuqur o‘rganadi va ushbu tadbirlarda o‘z tanasida va ruhida sinab ko‘radi. Buni I-guruhda davra qurib turgan 7ta yetuk so‘fiylar Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va boshqalar qatorida rassom

1-rasm



Inson bilan koinotning bog‘lanish

Kamoliddin Behzod ham o‘zini tasvirlagan. Bu esa yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Shundan so‘nggina asarlarida rang-tasvir tili orqali voqelikni bir tizimga soladi va uni aks ettiradi. Shu sababli, Kamoliddin Behzodning “Oriflar raqsi” asarini modellashtirgan holda tahlil qilib chiqishga jazm qildik. Kamoliddin Behzod asari orqali inson o‘zligini anglashning uchinchi yo‘lini bir tizimga solib, isbotlab bergan.

Tarixga nazar tashlasak XV asr oxirida Xurosonda va XVI-XVII asrlarda Movarounnahrda so‘fiylikka asoslangan miniaturalar paydo bo‘ldi. “So‘fiylik tasavvuf dunyosini bilishni, aniq kundalik hayotni, insonning dunyo va koinot, zamon va makon, lahza va abadiyat, hodisa va mohiyat haqidagi tushunchalari bilan bog‘liq qarashlarni o‘zida aks ettiradi. Insonlar koinot bilan uch yo‘l orqali bog‘langanlar. Birinchisi tush orqali, ikkinchisi ilhomlanish jaryonida, uchinchisi insonlar o‘ylab topgan yo‘l “Samo” tadbiridir. 1-rasmda inson bilan koinotning olti jarayonda bog‘lanish modeli berilgan. Inson g‘oyibona oltita yo‘l bilan bog‘lanadi, birinchisi tush orqali, ikkinchisi ilhomlanish, uchinchisi xayol, to‘rtinchisi ibodat, beshinchisi samo tadbiri, oltinchisi vahiy orqali (vahiy faqat payg‘ambarlarga orqali xabar kelishi).

(A - Alloh. S - inson 1 - Tush, 2 - Ilhomlanish, 3 - Xayol, 4 - Ibodat, 5 - Samo tadbiri, 6 - Vaxiy).

Samo tadbirini ko‘pgina rassomlar aks ettirganlar. Shulardan biri Kamoliddin Behzoddir.

Xuroson va Movarounnahrda “Samo” deb nomlangan diniy marosim ertalab yoki kechki payt o‘tkazilgan. Bu marosimda Kamoliddin Behzod juda ko‘p qatnashib, qalbidagi his-tuyg‘u va an‘analarning falsafiy psixologik ma‘nosini, ya‘ni koinot bilan inson o‘rtasidagi munosabatlar hamda komil inson falsafasi haqidagi hikmatni o‘z asarlarida chiziq, shakl va ranglar orqali ko‘rsatishga harakat qilgan. Hayoti va ijodi davomida qiziqarli va o‘lmas milliy an‘analarga tayanib, yoshlarni barkamol inson ruhida tarbiyalash zaruratini anglagan holda “Samo” deb nomlangan marosimidan ta‘sirlanib 1480-yil Hirotda “So‘fiylar raqsi” nomli asarini yaratdi.

Asarda tabiatning eng go‘zal fasli – bahor tasvirlangan.

Asarning umumiy ko‘rinishi simmetrik joylashgan bo‘lsa-da, qismlarining ko‘pi assimetrik holatda tasvirlangan. Asar koloriti jigar rang bo‘lib, kompozitsiyada biror bo‘shliq joy qoldirilmagan. Hamma joy bezab chiqilgan. Asar insonlarni go‘zallik olami, olam va Alloh go‘zalligini qalb bilan ko‘rishga undaydi. Go‘zallik qalbidagi falsafani qalbdan o‘qishga chaqiradi.

Asarning orqa planida qirlar ramziy ma‘noda to‘lqinsimon, ya‘ni dinamik holatda tasvirlagan. Qirlarning dinamik berilishi asar g‘oyasini amalga oshirishga qaratilgan. Insonlarning dinamik holati bilan yer, osmon, hatto tabiat bir yaxlit uyg‘unlikda tasvirlangan. Osmondagi bulutlarning jo‘shqin harakatda tasvirlanishi

asar g'oyasini amalga oshirishga yordam bergan. Bu esa asarning ham ko'rinishi, ham mazmunini yaxlit bir tizimga keltiradi.

Kompozitsiyaning yuqori qismida uchta terak simmetrik hamda ritmik takrorlanishi asarning dinamik holatini ta'minlagan. Teraklarda musavvir hayotda shoh bo'ladimi yoki gado, insonlar til va dil birligini hech qachon unutmasligi ya'ni o'zini anglagan holda yashashi lozimligiga ishora qilgan. Qirlarning to'liqinsimon shakli inson hayotining tun va kunduzdan iboratligiga ishora qilgan. Xuddi shu mazmunni osmondagi bulutlarning dinamik holatida ham ko'rish mumkin. Asarning umumiy tuzilishi to'g'ri to'rtburchak shaklida joylashtirilgan. Asarning bo'yi eniga qaraganda katta olingan. Bu asarning g'oyasini, yechimini amalga oshirishga xizmat qilgan. Musavvir asar kompozitsiyasida орифлар besh guruhga ajratadi bu hammasi umumiy maqsadga qaratilgan.

Kompozitsiyada musavvir nima uchun asarni besh guruhga ajratadi? Buning 1-chi sababi kompozitsiya muvozanatini saqlash bo'lsa, ikkinchisi 5 raqami besh kunlik dunyoni, ya'ni insonlar bu dunyoga vaqtincha sinovga kelganligini anglatadi. Har bir inson ruhiy poklikka erishishi kerakligiga ishora qiladi. Asar aylana shaklda joylangan bo'lib, 5ta qism simmetrik joylashgan bo'lsa-da, uning mohiyati dinamik holatda aks ettirilgan.

Xullas, Samo marosimini o'tkazish quyidagi bosqichda amalga oshirilganligini so'fiylar raqsi orqali anglab yetsa bo'ladi:

1. Ertalab yoki kechki payt so'fiylar davra qurib o'tirishgan.
2. So'fiylar diniy sanolar, duolar o'qishgan. Keyin jo'r bo'lib o'qishgan.
3. Musiqachilar kuy chalganlar.
4. Raqsga tushgan.
5. Ular raqs orqali jazavaga tushish holatida bo'lganlar.
6. Raqs so'ngida muraqaba xayolot ummoniga g'arq bo'lib, aslida boshqa dunyo ilohiy olam g'ami bilan mashg'ul bo'lganlar.

Oriflar "Ishroq" (arabcha porlash, jilva) murakkab psixologik holatida bo'lgan. Ya'ni so'fiylar zikr tushganlarida jazavaga tushishlarining so'nggi davrida Parvardigorga yaqinlashgan Behzodning insoniy kechinmalar, dunyoviy va diniy falsafiy qarashlari lirotik va romantik sujetlarda yorqin tasvirlangan. "Орифлар рақси" asardagi inson bilan koinot uyg'unligi mohiyatini anglash psixologiyasining modeli berilgan bo'lib, unda Kamoliddin Behzod asaridagi tizimlar uyg'unligi va bog'liqligi aks ettirilgan.

7. Raqs so'ngida muraqaba xayolot ummoniga g'arq bo'lib, aslida boshqa dunyo ilohiy olam g'ami bilan mashg'ul bo'lganlar.

O'rta Sharq xalqlari asriy orzu armonlarni aks ettiruvchi mavzularga o'ziga xos yangilik kiritgan. Behzod dunyoning fusunkor tarovati, hayotning boy va

serqirraligini yorqin aks ettirib bera olgan. U Tabriz maktab yutuqlarini ijodiy o'zlashtirib, inson va tabiatni o'zaro uyg'unlikda, yorqin bo'yoqlarda gavdalandirgan.

Behzod miniaturalari umuminsoniy kechinmalar bilan yo'g'rilgan o'tmish hodisalarini yorqin jonlantirgan, ajdodlarimiz turmush manzaralarini aks ettiruvchi ko'hna tamaddun dunyosiga ochilgan yo'ldir.

Behzod ijodiy tasviriy san'atdagi yuksak cho'qqilardan biri sifatida Movarounnahr, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston musavvirlarini o'ziga ohangrabodek jalb etib, ularni yangi ijodiy parvozlarga ilhomlantirib kelmoqda.

Kamoliddin Behzod "Oriflar raqsi" asariga qarab shunday xulosaga kelish mumkin. Diniy va falsafiy bilimlar bamisoli qushning ikki qanotidirki, qush shu ikki qanotsiz ucholmagandek, inson ham bu ikki ilmni bir-biriga uyg'unlashtirmay, o'rganmay turib, chin haqiqatni, hayot mohiyatini to'liq anglab yetolmaydi va oliy kamolotga erisholmaydi.

"Oriflar raqsi"dan quyidagi falsafiy-psixologik xulosaga kelish mumkin.

1. Kamoliddin Behzod "Орифлар рақси" orqali ajdodlarimizning ma'naviy merosi milliy va diniy an'analarini kelajak avlodga yetkazishga uringan va yoshlarni ruhiy poklanish orqali o'zlikni anglashga chaqirgan.

2. U ajdodlarimiz Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi ulug' va komil insonlarni ulug'laydi va ulardan ibrat olishga chaqiradi.

3. Olamdagi har bir zarracha insonlar bilan uzviy bog'liqligini, ya'ni koinot bilan inson o'rtasidagi munosabatlarning falsafiy va psixologik tomonlarini ko'rsatadi. Bu orqali Kamoliddin Behzod insonlarni olamni qalb ko'zi bilan ko'rishga chaqiradi.

4. Asrlar davomida yig'ilgan ulkan ma'naviy boyliklarni, xususan, tasviriy san'at asarlarining o'ziga xos tomonlari, uslublari, g'oyasi, ularni yaratgan musavvirlarning muborak nomlarini unutmaslik lozim. Bu sababli bu noyob sarhad durdonalarini saqlash, falsafiy, estetik, psixologik, tarbiyaviy va boshqa tomonlarini yoshlarga o'rgatish va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning burchimizdir.

Adabiyotlar

1. Sulaymonov A. "Tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari". – Toshkent: BAYOZ, 2017. – B. 136.

2. Xalq so'zi, 2017-yil 16-yanvar // Usmonov O va Madrahimov A, Kamoliddin Behzod. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 2000. – B. 36. // Hakimov A. Behzod G'arb-Sharq muloqoti (tarixiy hodisalar talqini) // San'at jurnali. – Toshkent, 2000. – № 4. – B. 24.

3. Юсупова М, Рахимова З, Ибрагимов О, "Суфийлик традиция в искусстве Маверуннахра XV-XVII вв". – Ташкент: Санъат. 2010. – Б. 102-108.

4. Bulatov S.S, "Rangshunoslik". Toshkent-2009

5. Bulatov S.S, Soipova M.S, "Badiiy tahlil tamoillari". Toshkent-2006

**O‘ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA:
BAG‘RIKENGLIK, JASORAT, SAXOVAT**

**Ismailova J.X. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi rahbari,
tarix fanlari doktori, professor**

Annotasiya. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining front orti hamda Vatanimizga ko‘chirib keltirilgan xalqlarga ko‘rsatgan insonparvarlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat va saxovatpeshalik fazilatlarini bayon etilgan. Evakuatsiya natijasida keltirilgan xalqlarga ko‘rsatilgan yordam hamda mehribonlik xislatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, jasorat, saxovat, evakuatsiya, bolalarga g‘amxo‘rlik, frontga xizmat

**УЗБЕКИСТАН ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ:
ТОЛЕРАНТНОСТЬ, МУЖЕСТВО, ЩЕДРОСТЬ**

Исмаилова Ж.Х. - заведующий Государственным музеем истории Узбекистана Академии наук Республики Узбекистан, доктор исторических наук, профессор

Аннотация. В данной статье описываются гуманистические, толерантные, добросердечные и великодушные качества узбекского народа в годы Второй мировой войны, а также людей, которые были переселены на нашу Родину. Анализировалось качество помощи и доброты, проявленной к народам в результате эвакуации.

Ключевые слова: толерантность, мужество, щедрость, эвакуация, забота о детях, служба на фронте

**UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II: TOLERANCE,
COURAGE, GENEROSITY**

Ismailova J.X. - Head of the State Museum of History of Uzbekistan of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan doctor of historical sciences, professor

Annotation. This article describes the qualities like the humanitarian, tolerance, kindness and generosity of the Uzbek people in the years of the Second

World War, as well as the people who were transferred to our homeland. The quality of assistance and kindness shown to the people as a result of evacuation was analyzed.

Key words: tolerance, courage, generosity, evacuation, care for children, help to the front

Ikkinchi jahon urushi o'zining ayanchli oqibatlari, yer yuzida katta vayronagarchilik, eng asosiysi millionlab insonlarning bevaqt o'limiga sabab bo'lgan yovuz urushlardan biri hisoblanadi. Bu urush dunyodagi 61 ta davlatni va yer yuzi aholisining 80 foizini ya'ni, 1,7 mlrd kishini o'z domiga tortdi.

Bu urush ko'plab talafotlarni keltirish bilan bir qatorda xalqimizni mard yigitlaridan judo qildi, yuzlab juvonlar beva qoldi. Bolalar o'limi va yetim bolalar sonini keskin oshib ketdi. O'zbekiston front uchun zarur ashyolarni yetkazib beruvchi muhim tayanch markazlardan biriga aylandi. Urushning dastlabki kunlaridanoq Toshkent shahridan 14 mingdan ortiq ko'ngillilar frontga jo'nab ketish uchun ariza berdi va Toshkent shahridan 100 ming yigit va qizlar frontga safarbar etildi [1].

Urush yillarida farg'onaliklardan bir necha yuz ming ko'ngillilar fashizmga qarshi kurashda ishtirok etdilar. Urushning birinchi haftasida farg'onaliklardan urushga safarbar etishlarini so'rab 1735 ta ariza (shundan 423 tasi xotin-qizlardan edi) tushdi. Joylarda hamshiralar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. Jumladan, Farg'onada 8 ta sanitar otryadi (ularida 280 ta xotin-qizlar o'qidi) va Qo'qonda 6 ta sanitar otryadi (ularida 220 ta xotin-qizlar o'qidi) tuzildi [2].

Samarqand viloyatida 22-iyundan 8-iyulga qadar ko'ngillilardan 1316 ta ariza kelib tushdi. 9-avgustga kelib ular soni 14000 taga yetdi. Ulardan 613 tasi ayollar edi. Samarqand viloyati bo'yicha urush yillarida front uchun 43 mln. rubl mablag' to'plandi [3]. 13-dekabrgacha respublika Davlat bankining bo'limlariga tank kolonnasi va aviaeskadrilya qurish uchun mehnatkashlardan 142 million 265 ming so'm mablag' tushdi.

Samarqand oblastida 29 million 587 ming so'm, Toshkent oblastida (Toshkent shahri bilan birga) 27 million 817 ming so'm, Xorazm oblastida 18 million 647 ming so'm, Farg'ona oblastida 18 million 588 ming so'm, Namangan oblastida 14 million 9 ming so'm, Qoraqalpog'istonda 14 million 836 ming so'm, Buxoro oblastida 7 million 983 ming so'm, Surxondaryo oblastida 6 million 910 ming so'm, Qashqadaryo oblastida 2 million 594 ming so'm to'plandi [4].

Urushning dastlabki davridanoq evakuatsiya jarayonlari boshlandi. Front uchun og'ir mehnat qilish va frontni o'q-dori, qurol-aslaxa, kiyim-bosh va oziq-ovqat bilan ta'minlash qatorida urush tufayli boshpanasiz qolib, O'zbekistonga keltirilgan oilalar va ota-onasiz qolgan bolalarni ham o'zining axvoli og'ir bo'lishiga qaramasdan bag'riga olib, yetim bolalar o'zbek oilalaridan panohtopdi.

1941-yil noyabr oyida “Frontga yaqin joylardan ko‘chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish haqidagi” qaror qabul qilindi. Toshkentdagi vokzalda “Bolalarni evakuatsiya qilish markaziy punkti” tashkil etildi. O‘zbekiston sari yo‘l olgan yuzlab poyezdlar sarosimaga tushgan, och-nahor ayollar va bolalarni shiddat bilan bag‘rikeng va qalbi daryo O‘zbekistonga olib kela boshladi.

Bir soniyada ham ota, ham onasidan ayrilgan, yoki poyezdda minglab bolalar qatori nima bo‘layotgani tushunib-tushunmay najot sari intilgan murg‘ak bolalar o‘zlari uchun umuman noma‘lum bo‘lgan tomonga qarab yo‘lga chiqdilar. Ular oz emas, 200.000 dan ortiq edi. Ularni oilalarga, bolalar uyiga joylash, tarbiyalash, o‘qitish, qarovsiz bolalarni topish va ro‘yxatga olish eng muhim masalalardan biri hisoblangan.

Respublikamiz ahli urush yillarida evakuatsiya qilingan aholiga samimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi. Keluvchilar soni minglab emas, balki yuz minglab kishilarni tashkil etardi. Zudlik bilan Xalq Komissarlari Kengashi qoshida evakuatsiya ishlari bo‘yicha komissiya tuzildi. U.Yusupov barchaga murojat qilib - "O‘ylaymanki, O‘zbekistonga yetib kelgan bolalarnigina joylashtirishga to‘liq imkoniyatimiz mavjud bo‘libgina qolmay, balki Kuybishevga qadar butun temir yo‘l bo‘ylab sochilib ketgan bolalarni yig‘ib olishga ham imkoniyatimiz bor. Hozirning o‘zidayoq, biror kunni kechiktirmay, yo‘lda qolib ketgan bolalarni yig‘ib kelgani o‘z vakillarimizni jo‘natishimiz kerak, ular bolalar uchun ovqat va kiyim-bosh olib borsinlar, hammasini O‘zbekistonga olib kelsinlar [5] ". Evakuatsiya rejasi bo‘yicha 1941-yil 15-dekabrga qadar ma‘lumotlarga ko‘ra respublikamizga 525000 nafar kishi kelishi rejalashtirilgan , lekin amalda ularning soni 665419 nafardan oshib ketdi [6].

Toshkent shahri xotin-qizlar faollari 1942-yil 2-yanvarda “*O‘zbekistonning barcha ayollariga*” shiori ostida murojaatnoma qabul qildi. Hukumat bu taklifni qo‘llab-quvvatlab, 3-yanvar kuniyoq “*Evakuatsiya qilingan bolalarni joylash bo‘yicha hukumat komissiyasi*”ni tashkil etdi va bolalarni oilalarga va internatlarga joylashtirish ishlarini boshlab yubordi. Bu harakat ko‘plab oilalarni bolalarni qabul qilish ishtiyoqini kuchaytirib yubordi. Buxoro viloyatidan “Toshkentga boshqa viloyatlarda bog‘cha yoshidagi bolalar bo‘lsa bizga yuboring, fuqarolarimizni talabini qondira olamayapmiz” degan xabar keldi.

Baxrixon Ashurxo‘jaeva 8 ta bolani, T.A.Xodjaev 2 ta rus bolasini, Axmad Shomaxmudov va Baxri Shomaxmudovalar oilasi esa 14 ta bolani o‘z qaramog‘iga oldi. Shomaxmudovlarning ko‘p millatli bolalarni o‘z oilasiga qabul qilishi jamiyatda katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Bu oilaga frontdan va fuqarolardan ko‘plab xatlar kela boshladi. Aviatsiya polkidan Andrey Kiyashko: “Mening ham otam-onam va singlim bor edi. Hozir ular qayerda bilmayman. Balki nemislar qo‘lida halok bo‘lgandirlar. Men sizdan o‘tinib so‘rayman, meni Volodya, Raya va kichkina

Katyani akasi sifatida qabul qiling. Men g'alaba uchun jon-jaxdim bilan kurashaman", - deb xat yozadi [7].

“O'rtoq” fabrikasining ishchisi Niyoz Aliyev o'zining 7 ta farzandi bo'lishiga qaramasdan 8 chi bolani, ya'ni Sonya Oxunovani oilasiga qabul qildi. O'qituvchi Yusupova esa oilasida 9 ta farzandi bo'lishiga qaramasdan yana bir bolani o'z bag'riga oldi. *Birgina Toshkentning o'zida 1942-yilda 643 ta oila va 69 ta kollektiv evakuatsiyada kelgan bolalarni qabul qilib oldi [8]*. Bundan tashqari Toshkent shahri bo'yicha 30 mingdan ortiq kiyim bosh bolalar uchun aholi tomonidan to'plangan.

Kollektivlar qishloq xo'jaligi artellari, bog'chalar, maktablar va turli tashkilotlar ham bolalarni o'z qaramog'iga olgan. Bolalar hamma qatori maktabga borgan, katta yoshdagilari o'ziga mos ishlarga jalb etilgan.

Evakuatsiyada kelgan aholi ko'p millatli, ayollar, erkaklar va bolalardan iborat edi. Birgina Toshkent viloyatining Toshkent tumani misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Toshkent tumani hududiga shu davrda kelganlar - **2712 nafarni** tashkil etdi. Shulardan erkaklar 1252 nafarni, ayollar - 1460, shu jumladan, ruslar - 1913, ukrainlar - 126. belorusslar - 33. yahudiylar - 569, armanlar - 9, tatarlar - 13, polyaklar - 6, nemislar - 3, greklar - 2, latishlar - 7, moldovanlar - 2, mordvinlar - 8, shvedlar - 1, chuvashlar - 6, estonlar - 5 nafarni tashkil etdi [9].

Toshkent viloyatiga 1942-yil yanvar oyining birinchi yarmida kelgan kishilar soni jami 5414 nafarni tashkil etdi. Farg'ona viloyatiga 1942-yil 1 fevralgacha (1942-yil 15-yanvardan 1-fevralga qadar bo'lgan ma'lumot bilan birga) 92415 nafar evakuatsiya qilinganlar joylashtirildi. 1941-yilning noyabriga qadar Ukrainadan O'zbekistonga 54029 nafar, shulardan Odessa viloyatidan 9508, Kiyevdan 7528, Dnepropetrovskdan 4238, Xarkovdan 3490, Vinniskdan 2810, Jitomirdan 2082 nafar kishi evakuatsiya qilingan edi.

Umuman, urush davrida Surxondaryo viloyatiga jami 20 mingdan ortiq aholi keltirilib joylashtirilgan bo'lsa, ulardan 3,5 mingtasi yosh bolalar bo'lib, ularning hammasi yakka va jamoa tarbiyasiga olingan edi. Bundan tashqari, viloyatga 1283 nafar polyak millatiga mansub bo'lgan grajdanlar ham kelgan edi [10].

Respublikaga bolalar bilan birgalikda bolalar uylari ham ko'chirib keltirila boshlandi. 1941-1942-yillar davomida O'zbekistonga front orti shaharlaridan 78 ta bolalar uyi evakuatsiya qilindi. Farg'ona shahriga, 9 tasi Buxoro viloyatiga joylashtirildi. Evakuatsiya qilingan bolalar uchun Samarqand viloyatining tumanlarida 8 ta bolalar uyi tashkil etildi. Ularda 4270 nafar bola tarbiyalandi. Andijon viloyatining Andijon tumanidagi Bo'taqora qishlok kengashi binosiga Chernigov bolalar uyi, Qo'rg'ontepa tumaniga Donbassdan ko'chirib keltirilgan ikkita bolalar uyi, Chinobod, Paxtaobod va Xoldevonbekga Quybishevdan ko'chirib keltirilgan to'rtta bolalar uyi joylashtirildi. Namangan viloyatiga 1941-yilda Ukraina,

Belorussiya, Bolgariya, Boltiqbo‘yi respublikalaridan 19 ming kishi evakuatsiya qilindi [11].

Qoraqalpog‘istonliklar ko‘chirib keltirilgan 3891 nafar kishilarni kutib oldi. 900 ta oila ota-onasidan ajralgan yetim bolalarni o‘z tarbiyasiga oldi. Masalan: Xo‘jayli tumanidagi kolxoz a‘zolari 29 ta bolani o‘z g‘am-xo‘rligiga oldi. Respublikaning barcha aholisi qatori qoraqalpog‘istonliklar ham evakuatsiya qilingan aholiga o‘zining munosib yordamini ayamadi. Masalan, ular evakuatsiya qilingan bolalar uchun 11,3 tonna don, Usmon Yusupov va Yo‘ldosh Oxunboboevlar oilasi ham yetim bolalarni o‘z tarbiyasiga olgan edi. Qarshi shahridan Xolyorova turmush o‘rtog‘ini urushga jo‘natib, 10 bolani o‘z tarbiyasiga oldi. Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Yana bir qahramon Samarqandlik urush nogironi (1944-yil kish oyida frontdan kaytgan) Abduhamid Samadovdir. U 12 bolani o‘z oilasi tarbiyasiga oldi va ularni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Bu haqda uning o‘zi keyinchalik shunday xotirlagan edi: *“Kunlarning birida uyda bozorga olib chiqadigan hech narsa qolmadi. Beriladigan yegulikning ham sira cho‘ti yo‘q edi. Ba‘zan kechalari uyqum kochib ketardi, yuragim tovlashib ketganda og‘zimga shinelning yengini olardim. Yig‘layotganimni bolalar bilishmasin derdim. Och nahor yotgandan keyin uxlarmidi ular. Faqat indashmasdi, xolos... Ertasiga bozordan to‘rt qop kepak olib keldim - shinel va soldat etigi uchun tekkani shu bo‘ldi. Shu kecha bosqinchilardan ozod etilgan 30 uydagi bolalarning hammasi shodonu xandon edi [12].*

Uning jasorati haqida bir qancha asarlar va kinofilmlar yaratildi. Ukrainalik kino ijodkorlar tomonidan “Olovli yer” hujjatli filmida A.Samadovning jangovar faoliyati aks ettirilgan. Germaniyaning Leypsig shahrida yashovchi Elka Otto ismli qizdan A.Samadovga kelgan xat shunday mazmunda edi: *“Hurmatli Abduhamid Samadov, nemis tilida chiqadigan jurnallardan birida sizning haqingizda ajoyib maqola o‘qidim. Bu maqola menga judayam yoqdi. Rostini aytsam. hayratdan yoqa ushladim. Axir, sizdek oliyjanob insonlar to‘g‘risida men hech qachon eshitmagan edim. Sizlarning odamiyligingizni ta‘riflashga, xatto so‘z ham topa olmayman. Bunaqasini hech ko‘rmaganman, ishonasizmi? [13].* Bu nemis qizining bildirgan dil so‘zlari edi. Darhaqiqat, matonatli xalqimiz o‘zining yuksak insonparvarlik xislatlarini namoyon etib, urush yillarida O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan 1 mln.dan ortiq boshpanasiz aholini, shulardan 200 mingga yaqin bolalarni o‘z bag‘riga oldi.

O‘zbekiston XKK 1942 yil 3 fevralda 187-sonli qaror qabul qildi. Unda bolalar uylarini oziq-ovqat bilan ta‘minlash asosiy vazifa qilib qo‘yildi. Unga ko‘ra, bolalar uylarida tarbiyalanadiganlarga bir kecha-kunduzdagi ovqat normasini pechene-xleb - 400 gr, un - 20 gr., krupa va makaron -7 0 gr., go‘sht va baliq -5 6 gr., yog‘ - 32 gr., qand - 20 gr., konditer mahsulotlari - 15 gr qilib belgilab berildi. Shu

tariqa, o'zbek xalqi sanab o'tilgan oziq-ovqatlarga ehtiyoj sezsa-da, o'zlari yemay ko'chirib keltirilgan ota-onasiz bolalarga berdilar. Bu O'zbekistonga evakuatsiya qilinganlarga nisbatan jiddiy e'tibor qaratilib, tinimsiz g'amxo'rlik ko'rsatilganidan dalolat edi. Dunyo xalqlari oldida o'zbek xalqi o'zining nimalarga qodir, qanday xalq ekanligini matonat bilan sinovlarga bardosh berib, namoyish etdi. Xalqimiz o'zining kulfatlariyu-musibatlarini bildirmasdan o'zining oilasidagi qayg'u-alamlarini bir chetga surib qo'ygan edi.

Evakuatsiya qilinganlar uchun shaharda maxsus tariflar ishlab chiqilgan. Xususan, hammom va sartaroshxonalar bepul xizmat ko'rsatgan. 1942-yil yozida yangi xo'jalik bo'limi tashkil etildi. Harbiylar oilasi, evakuatsiya qilinganlar uchun maxsus do'konlar xizmat ko'rsatgan. Toshkent shahar Soveti ijroiyy komiteti tomonidan front liniyasidan olib kelingan bolalar uchun vokzalni o'zida qabulxonalar, yotoqxonalar tashkil etdi.

1942-yilda bog'chalarga harbiy xizmatchilarning 20.000 ta bolasi qabul qilindi va 20 ming bola uchun bepul ovqatlanish shohobchalari ochildi. Toshkent Soveti ularning o'qishi, tarbiyasini nazorat qilish bilan bir qatorda ko'chada kunini o'tkazadigan uysiz bolalarni ham ro'yxatga olish ishlarini ham amalga oshirdilar. 1942-yilda uysiz bolalardan 9199 ta va ko'cha bolalaridan 8896 ta bola hisobga olinib, maktabga, ishga joylashtirildi. Bu soxada O'zbekiston xotin-qizlarining faoliyatini aloxida qayd etib o'tish lozim. Aynan ayollarning faolligi bu ishlarni amalga oshirishda asosiy kuch bo'lib xizmat qildi [14].

1943-yildan O'zbekiston hukumati tomonidan yozgi sog'lomlashtirish tashkilotlariga 20 mingta, 1945-yilda 150 mingta bolalarni jalb qildi. Demak, urush yillarida ham bolalar salomatligi hukumatning e'tiborida turgan.

Urush yillarida O'zbekiston ayollari front orqasida o'zlarining matonati va sabr-toqati bilan hayotning barcha jabxalarida faol mehnat qilganlar. Frontga harbiy aslahalar yetkazish, xususan, bronepoyezd va bronetank sotib olish uchun uylaridagi 50 kg dan ortiq qimmatbaxo taqinchoqlarni to'plab topshirganlar. 1941-il 19-dekabrda "Pravda Vostoka" gazetasida ayollarimizning bu jasorati alohida qayd etilgan. Bu harakat urushning oxirigacha davom etib, 300 milliondan ortiq pul mablag'i to'palangan va 1942-yil iyul oyida bu mablag'larga "O'zbekiston" bronepoyezdi frontga jo'natilgan.

Ko'plab ayollar nemislardan ozod etilgan hududlarni qayta tiklash uchun ixtiyoriy ravishda borishga rozilik bildirganlar. 1943-yil 18-mayda Toshkentdan Stalingradga birinchi quruvchilar yo'l olgan. Birinchi guruh orasida 12 ta qiz, ular orasida Artel tikuvchisi Solixa Xo'jaeva bor edi, boshqa guruh esa Donbass shaxtasini tiklash uchun jo'nab ketdi [15].

Bu davr o'zbekistonliklarning frontdagi, front orqasida qahramonliklari, sanoat korxonalarida, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, madaniyat soxalaridagi tinimsiz

mehnatlari, mehr-shafqati va matonati bilan nafaqatgina O‘zbekiston, balki jahon tarixi sahifalariga abadiy muhrlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan g‘alaba bog‘i va shon-sharaf muzeyi tashkil etildi. Bu majmua fashizm ustidan qozonilgan g‘alabada O‘zbekistonning o‘rnini to‘liq namoyon etish, otabobolarimizni xotirasini yod etish, urush hamda mehnat veteranlarini e‘zozlash hamda ajdodlarga ehtirom, tarixiy saboq olish bilan bir qatorda tinch kunlarimizga shukronalikni o‘rgatadi.

Adabiyotlar

1. Xotira. Toshkent shahri. 1 kitob. T., 1994. 6-b.
2. Xotira. Farg‘ona viloyati. 1 kitob. T. 1994. 5-b.
3. Салахутдинов Ф.З. Деятельность Самаркандской областной партийной организации в годы Великой Отечественной войны. Афтореферат дис .уч.степени канд.ист.наук. Т.1962 г
4. Toshkent shahri. 1-kitob. T. 1994. 6-b.
5. Салахутдинов Ф.З. Деятельность Самаркандской областной партийной организации в годы Великой Отечественной войны. Афтореферат дис .уч.степени канд.ист.наук. Т.1962 г
6. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 15-dekabr 194- yil № 246 (6158).
7. Xotira kitobi. O‘zbekiston Respublikasi (1941-1945 yu). T. 1995. 8-9 b.
8. X.I.Azimov O‘zbekistonliklar ikkinchi jahon urushi yillarida. T. 2006.40 b.
9. X.Гулямов. Коммунисты Узбекистана в период Великой отечественной войны советского союза. Т. 1952 г.1952 г. 63 с.
10. Ю.Ахунбабаев. Трудящиеся Узбекистана фронту. 1942 г. 30 с.
11. X.I.Azimov o'zbekistonliklar ikkinchi jahon urushi yillarida.T. 2006. 40 b.
12. Xotira. Namangan v. 1 kitob. T., 1994. 6-7 b
13. Azimov.X.I. O‘zbekistonliklar ikkinchi jahon urushi yillarida. T.2006-y. 40-41 b
14. Ш.Уразаев. Ташкентский совет в годы Великой Отечественной войны. Т. 1968 г. 52-54 с.
15. Юлдашева М. Женщины Узбекистана-фронту. 1972 г. 90-92 с.

“OLAMNING ZAMONAVIY FIZIK MANZARASI” MAVZUSINI O‘TISHDA O‘QUVCHILARDA “IJODIY FIKRLASH” KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

G‘aniyev A.G. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali direktori, fizika matematika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning «tasavvur» va «ijodiy fikrlash» ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Fizika fanini o'rganishda o'quvchilardan jarayonlarni «tasavvur» qilish talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida ularda bunday ko'nikmalarning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilarning «tasavvur» va demak «ijodiy fikrlash» ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida fizik jarayonlarni tavsiflovchi verbal ma'lumotlarni vizuallashtiruvchi «Intelлект xarita» ning foydali imkoniyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvur, ijodiy fikrlash, ijodiy fikrlash genitikasi, neyron, solishtirish, bilvosita idrok, manzara, ta'sirlashuvlar, atom, yadro, molekula, proton, neytron, kvark, gravitatsion, elektromagnit, kuch, maydon, bozon.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ «ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ» У УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМЫ “СОВРЕМЕННЫЙ ФИЗИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА ВСЕЛЕННУЮ”

**Ганиев А.Г. - директор Шахрисабзского филиала Ташкентского
государственного педагогического университета, кандидат физико-
математических наук, доцент**

Аннотация. В статье рассматриваются возможности развития у учащихся навыков «воображения» и «творческого мышления» в процессе обучения. В физике от учащихся требуется «вообразить» процессы. Это, в свою очередь, помогает им развивать эти навыки. Полезные функции карты интеллекта, которая визуализирует вербальную информацию, описывающую физические процессы, были исследованы с целью развития у учащихся «воображения» и, следовательно, навыков «творческого мышления».

Ключевые слова: воображение, творческое мышление, генетика творческого мышления, нейрон, сравнение, непрямоe восприятие, сцена, взаимодействия, атом, ядро, молекула, протон, нейтрон, кварк, гравитационное, электромагнитное, сила, поле, бозон.

DEVELOPING STUDENTS' “CREATIVE THINKING” SKILLS IN TEACHING “MODERN PHYSICAL VIEW OF THE WORLD”.

**G'aniyev A.G. - Director of the Shahrissabz branch of the Tashkent State
Pedagogical University, Candidate of Physical and Mathematical Sciences,
Associate Professor**

Annotation. The article discusses opportunities for students to develop “imagination” and “creative thinking” skills in the learning process. In physics, students are required to “imagine” processes. This, in turn, helps them develop such skills. The useful features of the Mind Map, which visualizes verbal information describing physical processes, have been explored in order to develop students’ ‘imagination’ and therefore ‘creative thinking’ skills.

Key words: Imagination, creative thinking, genetics of creative thinking, neuron, comparison, indirect perception, scene, interactions, atom, nucleus, molecule, proton, neutron, quark, gravitational, electromagnetic, force, field, boson.

Kirish. Fan va texnikaning jadal taraqqiyoti «ijodiy fikrlovchi» mutaxassislarni tayyorlashni taqozo qiladi [1.] «Ijodiy fikrlash»ga o‘rgatish esa ta‘lim jarayonida amalga oshiriladi.

«Ijodiy fikrlash» - muammoning yechimini topish uchun yangi narsani yaratish maqsadidagi fikrlashdir. «Ijodiy fikrlash» esa «tasavvur» siz bo‘lmaydi.

Ta‘limda ijodiy fikrlash-mavzuning ma‘nosini tushunishga yo‘naltirilgan, o‘quvchilarning tasavvur qilish va «ijodiy fikrlashini» rivojlantirishga undaydigan fikrlash.

Odamlarning fikrlash qobiliyatlari ya‘ni intellektual imkoniyatlari turlicha. Bunga sabab nima? Genetikami (insonning biologik tabiati) yoki muhit va tarbiyami?

Umuman olganda avloddan olinadigan genetik kod kishi intellektining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi [2]. DNK miz qaytarilmas va noyob bo‘lib uni o‘zgartirish sohasida dastlabki qadamlar tashlanmoqda xolos. 2020-yil kimyo fani bo‘yicha Nobel mukofoti genomni tahrirlash bilan jonzotlar va o‘simliklar DNK sini o‘zgartirishga bag‘ishlangan kashfiyotlari uchun E. Sherpante va Dj. Dudnalarga berildi [3]. Shu bilan birga olimlar shaxsning shakllanishida ta‘lim va tarbiyaning o‘rni beqiyosligini e‘tirof etishadi. Ularning fikricha, innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash bilan o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va xotiralarini o‘nlab marta yaxshilash mumkin. Demak kishining intellektual potentsiali uchun genetikaning o‘rni katta bo‘lsada u o‘sadigan muhitning ta‘siri ham salmoqlikdir [4].

Odamlarning miyalari bir xilmi yoki farq qiladimi? Har bir odam miyasi miya po‘stlog‘i, bosh miya o‘ng va chap yarimsharlaridan iborat. Amerikalik neyrofiziolog **Sperri Rodjer** – 1981-yilda «bosh miya yarimsharlarining funksional mutaxassisliklariga aloqadorlik kashfiyoti» uchun yarim Nobel mukofoti olgan.

Bosh miyaning chap yarim shari tananing o‘ng qismini boshqaradi. Unda mantiqiy fikrlash mexanizmlari rivojlangan.

Bosh miyaning o‘ng yarimshari tananing chap qismini boshqaradi. Unda obrazli fikrlash mexanizmi rivojlangan bo‘lib, nostandart fikrlarni vujudga keltiradi.

Ta'lim davomida inson miyasida qanday o'zgarishlar ro'y beradi? Neyrobiolog va bioximik Erek Kandel (2006 yilgi Nobel mukofoti sohibi) isbotlashicha ta'lim jarayonida inson miyasining ma'lumotlar "o'tkazgichi" (neyron tolasi) o'zgaradi. Hattoki eng kichik ma'lumot ham neyron tuzilishida o'zgarishlarga olib keladi [5].

Neyron tolalari o'ziga xos harakat kanallarini ochadi. Bu kanallar «so'qmoq yo'llar» ga o'xshab ketadi. Dunyoda aynan shu «so'qmoq yo'llari» bir xil bo'lgan ikkita odam mavjud emas. Har bir odam miyasining turli qismlari turlicha rivojlangan bo'ladi. Butun hayot davomida nima qilmaylik, nimani o'rganmaylik u miyamizdagi neyron tolalarining shakliga va ko'rinishiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda uning «so'qmoqlari» ni o'zgartiradi [4].

Keyingi ma'lumotlar oldin ochilgan kanaldan harakatlanadilar va vaqt o'tishi bilan bu kanal ustunlikka ega bo'lib, asosiy yo'lga aylanadi. Demak, barcha o'xshash ma'lumotlar ana shu «asosiy yo'lda» (miyadagi izda) ya'ni xotirada saqlanadi. Bu ma'lumotlarni idrok qilishdir. Yangi ma'lumotlarni miyadagilari bilan solishtirish («solishtirib o'rgatish») shu tariqa ro'y beradi. Agar shunday asosiy yo'l bo'lmay, har bir ma'lumot uchun alohida yo'l ochilganda edi miya yo'llarga to'lib ketgan bo'lardi.

«Solishtirib o'rgatish» ta'lim tizimida eng samarali usul hisoblanadi. Bu xususiyat faqat insongagina xos bo'lib uning kompyuterdan ustunligini ta'minlovchi asosiy omillar. Aynan shu usuldan foydalanish uchun turli «modellar» o'ylab topiladi. Masalan fizikada bunday model sifatida - «moddiy nuqta», «absolyut qattiq jism», «ideal gaz», «nuqtaviy zaryad» tushunchalarini keltirish mumkin.

Al-Beruniy o'z asarlarida tabiat qonunlarining universalligi haqidagi fikrlarni bildirgan. G. Galiley esa Oyda tog'larning soyasini ko'rib soya hosil bo'lish qonunlari Geliosentrik sistema uchun o'rinli ekanligini tajribada aniqlangan.

Geliosentrik sistemada planetalarning harakatini bilgan E. Rezerford tajriba natijasini tahlil qilib atomning «planetalar modelini» taklif qildi.

Elktrodinamikada zaryadlangan zarralarning ta'sirlashuvi foronlar vositasida amalga oshirilishini ko'rsatuvchi Feynman diagrammasiga asoslanib (kvantelektrodinamikasi) kvarklar orasidagi kuchli ta'sirlashuv ham shunga o'xshash glyuonlar (G) (inglizcha -kley) vositasida ro'y beradi (kvant xromodinamikasi) degan xulosaga kelingan.

Fizikada bunday unifikatsiyalash (bir xillashtirishga) ko'plab misollar keltirish mumkin.

«Solishtirib o'rganish» bosh miyani faollashtirishning yaxshi usuli bo'lib «tasavvurni» va «ijodiy fikrlash» ko'nikmalarini rivojlantiradi. «Tasavvur» qilish uchun miyaga ma'lumotlarni «idrok» beradi.

Idrok – ma'lumotlarni qabul qilib miyada tahlil qilish jarayoni. U tashqi olamdagi narsalar va hodisalarni baholab shunga mos harakat qilish imkonini beradi.

Narsalar yoki atrofda ro'y berayotgan real voqealar haqida sensor kanallari orqali olinayotgan ma'lumotlar asosida qilinadigan idrokka – bevosita idrok deyiladi.

Yozma og'zaki va boshqa (vizual) shakllarda beriladigan ma'lumotlarni idrok qilishga – *bilvosita idrok* deyiladi.[6]

Shu bilan birga idrokka ichki tuyg'ular, mavjud tajribalar qanday ta'sir ko'rsatadi degan masala juda qadim zamonlardan olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Aniqrog'i-tashqi olam haqidagi barcha ma'lumotlar sezgi organlarimiz orqali keladimi yoki ularning ma'lum qismi idrokka «tashqi olamga bog'liq bo'lmagan aql» yordamida beriladimi?

Bu masala «tabiiy fanlar» - ya'ni o'rganish obyekti tabiat qonunlari, inson faoliyatida hosil bo'lmagan qonunlar bo'lgan fanlar uchun ayniqsa muhimdir. Chunki bu toifaga kiruvchi fizika, kimyo, biologiya fanlarini o'rganishda olinadigan bilimlarning asosiy qismi «bilvosita» olinadi. Boshqacha aytganda ular turli texnik vositalar, kompyuterlar, o'zgalar tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar yordamida olinadi va o'z bilimlarini, tajribalarini analiz qilish bilan takomillashtiriladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha idrok uchun olinadigan ma'lumotlarimizning bir qismining borliqqa aloqasi yo'q. Ingliz faylasufi va psixologi Dj. Lokkning «nativis» tik (natura-tabiat) konsepsiyasiga muvofiq idrok insonga tabiat tomonidan beriladigan «aql», aniqrog'i DNK larimiz orqali o'tgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Faqat bu ma'lumotlar tajriba, bilim, fikrlashlar natijasida faollashadi. Miyamiz tashqi olamdan olinadigan ma'lumotlarni «xotira izlari» ko'rinishida saqlaydi. Ular esa o'z navbatida idrokka, «tasavvur» qilinayotgan obrazlarning xarakteriga, ma'no-mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tasavvur – narsa va hodisalar, holatlarni, voqelik obrazlarni eslash.

1) *Passiv yoki majburiy tasavvur*- ko'rilmagan voqealar, sayohat, lanshaftlar, tabiat manzaralari, muloqot, hayoliy tasvirlar insonning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelishi mumkin.

2) *Faol yoki ixtiyoriy tasavvur*- u insonning idrok qilgan va avval miyasida mavjud bo'lgan ma'lumotlar, asosidagi tasavvuri. Ijodiy tasavvur ham faol tasavvur hisoblanadi. Shu bilan birga «passiv tasavvur» ning ham «ijodiy jarayonda» gi o'rni katta.[7]

Tasavvur bir nechta vazifalarni bajaradi:

- Haqiqiy narsalarni obrazlarda (shakllarda) tasavvur qilish va undan ba'zi masalalarni yechishda foydalanish. Masalan «kichik odamchalar modeli» (KOM). Bunday tasavvur fikrlash jarayoni bilan bevosita bog'liq.

- Emotsional holatni boshqarish. Inson «tasavvur» yordamida ba'zi ehtiyojlarini qondiradi. Masalan yaxshi narsalarni tasavvur qiladi va shodlanadi.

- Bilish jarayonlarini va inson holatini boshqaradi. Xususan idrokni, diqqatni, xotirani, nutqni, emotsiyani boshqaradi. Masalan kishi badiiy obrazlar

yordamida diqqatini ma'lum voqeaga qaratishi mumkin. Shu obrazlar yordamida u idrok, xotira va nutqni boshqara oladi.

- Faoliyatni loyihalashtirish va dasturlash. Uni to'g'ri amalga oshirilishini baholash.

«Ijodiy fikrlash» ko'nikmalarini rivojlantiruvchi usullar ko'p. Quyida zamonaviy usullardan biri «Intellect xarita» bilan tanishamiz.

«Intellect xarita» «ijodiy fikrlash» asosida istalgan muammoning yechimini topishning qulay vositasidir.[7-9]

IX ning ustunliklari. Verbal ma'lumotlarga vizual ko'rinish berish ta'limning samaradorligini bir necha marta oshiradi. Shu nuqtai nazardan «Intellect xarita» «ijodiy fikrlash» ga o'rgatishning ideal usulidir.[10-14]

Intellect xarita -tuzishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

Rang. Ko'p ranglilik kishining xotirasining va ijodiy fikrlashining yaxshilanishiga yordam beradi. U tasvirni jonlantiradi va jozibadorligini oshiradi. Ma'lumotlarning xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi.

Tasvir. Miya so'zga nisbatan tasvirni tez qabul qiladi. Chunki u vizual ma'lumotni verbal ma'lumotga nisbatan 60 000 marta tez qayta ishlaydi. Tasvir tasavvurni rivojlantiradi va bosh miyaning o'ng yarimsharini faol ishlashga undaydi.

Miya ma'lumotlarni matn ko'rinishidagi shaklda emas IX shaklidagisini yaxshi qabul qiladi. R.Xober tomonidan 1970 yilda "tasvirlarni tanish" bo'yicha o'tkazilgan tajribaga muvofiq odamlarning bunday xotirasi amalda "fotografik" xotiradir. Eng oddiy odam o'ziga ko'rsatilgan 10000 fotosuratdan 98 foizdan ko'prog'ini eslab qola oladi. Bundan chiqdi rangli tasvirlardan iborat «Intellect xarita» dan ma'lumotlarni miyada saqlaydigan eng yaxshi vosita sifatida foydalanish mumkin.

So'z. IXning shoxlarida alohida so'zlar yoziladi. Bundan maqsad har bir so'zning o'z aloqalari mavjudligi. Bu esa o'z navbatida yangi g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi. Chunki keyingi shoxchalardagi so'zlar narsaning mazmuni bilan qiziqish va masalaning mohiyatigacha borishni ta'minlaydi. Boshqacha aytganda u miya uchun ilmoq vazifasini bajarib undan taassurotni osib qo'yishda foydalanish mumkin.

Demak «intellect xarita» ni tuzish tasavvurning rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida bosh miyani o'ng yarim sharining faollashuviga va demak "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarining yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Bu esa «Intellect xarita» ning ta'lim jarayonida keng qo'llanilishiga olib kelmoqda.

Natijalar. *Olamning zamonaviy fizik manazarasi. «Ta'sirlashuvlar» intellekt xaritasi.*

Insoniyat doimo o'z atrofidagi olamni bilishga va tushunishga intilgan. Bu yo'lda qilingan barcha harakatlar, asosan, quyidagi savollarga javob izlashdan iborat bo'lgan [15,16]:

- Materiya nimalardan tashkil topgan?
- Ularni nima birlashtirib turadi?

Shunday qilib Materiya nimadan tashkil topgan? Bu savolga javob izlash juda qadim zamonlarda boshlangan. Unga «Mantiqiy fikrlash» lari yaxshi rivojlangan qadimgi yunonlar: «Agar hamma narsa bo'linaversa, unda moddiy dunyo bo'lmasligi kerak-ku», degan fikrni bildirishgan. So'ngra, bo'linishning chegarasi bo'lmog'i, ya'ni bo'linmas zarralar mavjud bo'lishi kerak, degan xulosaga kelishgan. Demokrit, Levkipp va Epikur fikriga ko'ra, olam «bo'linmas» zarralardan, ya'ni atomlardan tashkil topgan. Levkipp, atomlar turli-tuman: aylana, piramida, yassi va boshqa shakllarga ega, shuning uchun ulardan tashkil topgan dunyo ham turli-tumandir, deb hisoblagan.

Lekin bu fikrlar tajribada tasdiqlanishi va atom to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun bir necha yuzlab yillar vaqt o'tgan. Faqat o'n to'qqizinchi asrning boshlariga kelib J.Dalton, A.Avogadro, Y.Berselius va boshqa olimlarning xizmatlari tufayli, kattaligi 10^{-10} m bo'lgan atom kimyoviy elementlarning eng kichik zarrasi sifatida tasavvur qilina boshlandi. O'n to'qqizinchi asrning o'rtalariga kelib, atom va molekula o'rtasidagi aniq chegara belgilab olindi. D.I.Mendeleyev tomonidan elementlar davriy sistemasining kashf qilinishi esa atomning murakkab tuzilishga ega ekanligini ko'rsatdi.

1895- yilda rentgen nurlarining, 1896- yilda radioaktivlikning, 1897- yilda esa elektronning kashf qilinishi, atomning bo'linmasligi to'g'risidagi tasavvurlarning to'g'ri emasligi aniq bo'lib qoldi.


α zarralarning og'ir elementlarning atomlarida sochilishini o'rgangan E.Rezerford, 1911-yilda atomning planetar modelini taklif qildi. Bu g'oyaga muvofiq, bo'linmas hisoblanmish atom, atomdan yuz ming marta kichik bo'lgan yadro va uning atrofida harakatlanuvchi elektronlardan tashkil topgan deb «tasavvur» qilinadi

1932- yilda esa yadroning proton-neytron modeli taklif qilindi. Bu modelga ko'ra, istalgan kimyoviy element atomining yadrosi ikki xil zarra–protonlar va neytronlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Bu zarralar bo'linmas, ya'ni elementar hisoblanib, ularni bitta nom bilan **nuklon** deb atashdi.

1964- yilda M.Gell-Mann va J.Sveyglar neytronlar va protonlar 3 ta: **u, d, s kvarklar** deb ataluvchi sodda zarralardan tashkil topganligi to'g'risidagi gipotezani olg'a surdilar. Kvarklar ichki tuzilishga ega emas va shu ma'noda haqiqiy elementar zarralar hisoblanadi. Keyinchalik yana *maftunkor c, go'zal b, v haqiqiy t* kvarklar kiritildi.

Shunday qilib, bugungi manzara quyidagicha: moddalar molekula va atomlardan tashkil topgan. Atom esa, o‘z navbatida, yadro va uni o‘rab turgan elektronlardan, yadro esa neytronlar va protonlardan iborat. Protonlar va neytronlar kvarklardan tashkil topgan.

Bu zarralarni nima birlashtirib turadi? Yuqorida ta’kidlanganidek, zarralar, bu–olamning eng kichik g‘ishtchalari. Yadrolar, atomlar, molekular, kimyoviy birikmalar, biologik to‘qimalar, sayyoralar, ulkan yulduzlar, koinot jismlari, jumladan, bizning o‘zimiz ham shu zarralardan tashkil topganmiz. Lekin bu zarralarni qanday kuchlar bir-biriga bog‘lab turadi?



Ta’sirlashuvlar «Intellect xaritasi» da olamni qanday kuchlar mujassamlashtirib turganligi akslangan. U haqda mulohaza yuritgan o‘quvchi «Olamning zamonaviy fizik manzarasi» haqida tasavvurga ega bo‘ladi. «Intellect xarita»dan ko‘rinib turibdiki

Bunday mulohazalar esa o‘quvchilarning «tasavvur» qilish va «ijodiy fikrlash» ko‘nkmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

elementar zarralar o‘rtasida to‘rt xil fundamental ta’sirlashuv va, demak, to‘rt xil ta’sir kuchi mavjud. Bular: *tortishish* (gravitatsion); *elektromagnit*; *kuchli* (yadro) va *kuchsiz* ta’sirlashuvlardir.

Gravitatsion ta’sirlashuv mavjud fundamental ta’sirlashuvlar orasida eng kuchsizi. U barcha zarralar orasida mavjud va faqat tortishish xarakteriga egadir. Bir-biridan 10^{-15} m masofada bo‘lgan ikkita protonning (massalarining) gravitatsion ta’sirlashuvi ularning elektostatik ta’sirlashuvidan 10^{36} marta kichik. Tortishish

kuchi butun koinotni, sayyoralarni, yulduzlarni, galaktikani va boshqa osmon jismlarining mavjud joylashuvini saqlab turadi. Aynan uning sharofati bilan biz ham Yerga bog‘lanib turibmiz.

Elektromagnit ta’sirlashuv elektr zaryadiga ega zarralar orasida vujudga keladi. U ta’sirlashuvchi zarralarning zaryadiga qarab ham tortishish, ham itarishish xarakteriga ega bo‘lishi mumkin.

Elektromagnit ta’sirlashuv elektronlarning yadro atrofidagi harakatini, ya’ni atomning barqarorligini ta’minlaydi. Elektromagnit ta’sirlashuv jarayonlarining ro‘y berish vaqti 10^{-18} - 10^{-20} s.

Kuchli ta’sirlashuv kichik masofalarda (10^{-15} m) namoyon bo‘ladi. U nuklonlar orasida mavjud bo‘lib, protonlar va neytronlarni birgalikda yadroda tutib turadi. Uning sharofati bilan turli xil yadrolar, atomlar va kimyoviy elementlar mavjud. Kuchli ta’sirlashuv jarayonlarining ro‘y berish vaqti 10^{-22} - 10^{-23} s. Ta’sirlashuv intensivligi taxminan birga teng bo‘lgan *Fermi doimiysi* bilan aniqlanadi.

Kuchsiz ta’sirlashuv nafaqat kuchli, balki elektromagnit ta’sirlashuvdan ham ancha kuchsizdir. Lekin u gravitatsion ta’sirlashuvdan sezilarli darajada kuchli. Kuchsiz ta’sirlashuvning ta’sir doirasi juda kichik va taxminan $2 \cdot 10^{-18}$ m ni tashkil qiladi. Aynan shu ta’sirlashuvning sharofati bilan yadro ichida protonning neytron, pozitron va neytrinoga aylanish reaksiyasi ro‘y beradi. Kuchsiz ta’sirlashuv Quyosh va yulduzlarning energiya manbay, termoyadro reaksiyalarining ro‘y berishida muhim ahamiyatga ega. Kuchsiz ta’sirlashuv jarayonlarining ro‘y berish vaqti 10^{-8} - 10^{-10} s.[17-19]

Kuchsiz ta’sirlashuvda to‘lqin funksiyasining juftligi saqlanmaydi.

Bu ta’sirlashuvlar qanday amalga oshadi, degan savolga javob izlaylik.

Barcha ta’sirlashuvlarning o‘z nomlari bilan ataluvchi maydonlari bor va ta’sirlashuv shu maydonlar vositasida amalga oshiriladi. Bu maydonlar materiyaning bir ko‘rinishidir. Materiyaning modda va maydon ko‘rinishlari doimo bir-birlariga aylanib turadi. Shuni ta’kidlash lozimki, olamda maydon-materiya modda-materiyadan ko‘ra ko‘proqdir.

Maydonlar ta’sirlashuvi zarralarining virtual almashinuvi sifatida tavsiflanadi. Boshqacha aytganda, bu ta’sirlashuvlar ularni eltuvchi qandaydir agent orqali amalga oshiriladi. Masalan, zaryadlangan zarralarning elektromagnit ta’sirlashuvi elektromagnit maydon orqali uzatiladi. Yadro maydoni ta’sir radiusining kichikligi maydon kvantlarining tinchlikdagi massasining noldan farqligining natijasidir. Bunday kvantlar, π – mezonlarning massalari elektronning tinchlikdagi massasidan 270 marta katta.

Kuchsiz ta’sirlashuv ham vektor bozonlar deyilguvchi o‘z eltuvchilariga ega. Ular uchta bo‘lib: W^+ -musbat zaryad, W^- -manfiy zaryadga ega bo‘lsa, Z^0 bozon

elektroneytral. Vektor bozonlarning foton va gravitonlardan asosiy farqlaridan biri *massalarning proton massasidan ham yuzlab marta kattaligidadir*. Buning asosiy sababi, kuchsiz ta'sirlashuvning juda qisqa masofa, atom yadrosidan ham ming marta kichik masofalarda o'rinli bo'lishligidadir. Fundamental ta'sirlashuvlarning energiyalari quyidagi munosabatda bo'ladi: *kuchli: elektromagnit: kuchsiz: gravitatsion* = $10^2:1:10^{-12}:10^{-36}$. [20]

O'tgan asrning 60-yillarida C.Vaynberg, Sh. Gleshou va A.Salamlar elektromagnit va kuchsiz ta'sirlashuvlarni birlashtiruvchi yagona elektrokuchsiz ta'sirlashuv nazariyasini yaratdilar.

Zamonaviy fizika nuqtayi nazaridan materiya ikki xil: modda va maydon ko'rinishiga ega.

Korpuskular-to'liq dualizmi – materiyaning barcha turlariga xos xususiyat.

Bizni o'rab turgan dunyodagi har bir o'zgarish materiyaning harakatidir. Bu harakatning manbai esa o'zaro ta'sirlashuvlar. Ta'sirlashuv maydonlari elementar zarralarni *yadrolar, atomlar, molekulalar, makrojismlar, sayyoralar* va hokazolarga birlashtirib turadi.

Shunday qilib, olam abadiy mavjud bo'lgan va abadiy mavjud bo'luvchi hamda doimo harakatdagi materiyadan iborat. Inson esa o'z atrofidagi olamni o'rganish, tushunish va bilish uchun yashaydi. Bilish jarayoni esa murakkab va cheksizdir.

Xulosa

- Garchi genetik kod inson intellektining shakllanishida muhim rol o'ynasada, ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va xotiralarini yaxshilash mumkinligi haqida mulohaza yuritilgan.

- Inson miyasi qabul qilinayotgan ma'lumotlarni mavjudlari bilan «solishtirish» va bu xususiyat ta'lim tizimida eng samarali bo'lib faqatgina insonga xos ekanligi ta'kidlangan. «Solishtirish» yordamida qilingan kashfiyotlardan misollar keltirilgan.

- Fizika fanida o'rganish uchun olinadigan ma'lumotlarning aksariyati «bilvosita idrok» qilinishi va bunda asosan «faol yoki ixtiyoriy tasavvur» vujudga kelishi asoslangan.

- «Tasavvur» ni rivojlantirish uchun esa verbal ma'lumotlarni vizuallashtirishga xizmat qiluvchi «intellekt xarita» usulidan foydalanish va bu usul «tasavvur» qilish muhim ahamiyatga ega bo'lgan fizika fanini o'rganishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

- Maqolada «Olamning zamonaviy fizik manzarasi» mavzusi haqidagi ma'lumotlar va shu nomdagi «intellekt xarita» e'lon qilinmoqda.

- «Интеллект харита»da mavzuga aloqador ko‘plab ma’lumotlarni vizuallashtirgan holatda jamlashganidan tashqari, o‘quvchini bo‘ladigan jarayonlarni «tasavvur» qilishga va ular to‘g‘risida fikrlashga undaydi.
- Keltirilgan «интеллект харита» o‘quvchilarga na faqat olamning zamonaviy fizik manzarasi haqida chuqur bilimlarga ega bo‘lishlarini ta’minlamasdan ularning «tasavvur» va «ijodiy fikrlash» ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham yordam beradi.

Adabiyotlar

1. М. И. Меерович, Л. И. Шрагина «Технология творческого мышления», Минск, ХАРВЕСТ.2003 г. 12-19 стр.
2. Р. С. Немов «Психология» книга 3. Москва. Владос. 2005 г. 56-62 стр.
3. 2020 йил кимё фанидан Нобель мукофоти лауриятлари Nur-Sultan.Kazinform 2020 yil.
4. Э.де Боно Серьезное творческое мышление. Мн. ооо. «Попурри» 2005 г. 20-80 стр.
5. Э.Р. Кандель.В поисках памяти/пер П. Петрова-М. Астрель. 2012. 736 стр.
6. Р. С. Немов. «Психология» книга1. Москва. Владос. 2005 г. (194-196 стр), (263-265 стр)
7. Т. Бюзен «Интеллект карты» Москва. « Манн. Иванов и Фервер» 2019 г. 25-90 стр.
8. www.imind map.com.
9. www.world mind mapping cannol. com.
10. G‘aniev Abduqahhor Gadayeovich - Shakhrisabz branch of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Department of Pedagogy, Ph.D., associate professor. Ensuring The Safety Of Objects Of National Interests Of The Republic Of Uzbekistan In The Information Sphere Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, Issue-06, 2020 .
11. A. G. Ganiev, Sh. A. Ganieva, Z. Sh. Abdunazarova Formation of "creative thinking" skills in 5-6-year-old children with the help of mind maps a Multidisciplinary Peer Reviewed Journal Researchfor Revolution ISSN No-2581 – 4230 Impact Factor-7.223 2020.
12. G‘aniev A. G. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларига хорижий тилларни ургатиш ва уларнинг тасаввурини ривожлантиришда Шахрисабз хайвонот боғига сайёҳат дарсларининг ахамияти. 2020 йил июнь Инновационное развитие науки и образования Международная научно-практическая конференция Сборник научных публикаций

13. G'aniev A. G. Using mind maps in formation of imagination and creative thinking skills in 5-6 year old children 2020yil Volume Issue 11 European journal of molecular & clinical medicine. Pages 339-343
14. G'aniev A. G. S. N. Tashev The role of "Imagination" in the process of "Creative thinking". developing students' "Imagination" and "Creative thinking" skills in teaching physics 3569-3575 202158 (1) psychology and education
15. Fanyev A. G. va boshqalar Fizika 11. Toshkent. «Niso Poligraf» 2018. (173-176 betlar)
16. G'aniyev A. G. Fizika III-qism, T. «Muharrir nashriyoti» 2018 yil. (217-220 bet)
17. Patrik Fullich Physics., Heinemann Advanced Science 1994 y (p.497-500)
18. Физический энциклопедический словарь. Москва. «С.Э» 1984 г. стр. 72-73
19. Р. Фейнман и др. Фейнмановские лекции по физике М. «МИР» 1977 г. (38-55 стр)
20. Барашенков. В. С. Кварки, протоны, вселенная. М. «Знание» 1987 г. (стр.9)
21. Платунов Е. и др. Физика. Словарь-справочник. ПИТЕР. 2005 г. ст. 40

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTENSIV USULNING SAMARADORLIGI

**Ibragimov X.I. - O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori**

Salimova Z.K. - Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning intensiv metodlarini qo'llashning mazmun-mohiyati to'g'risidagi tushunchalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, noan'anaviy o'qitish, innovatsiya, strategiya, o'qitish, o'quvchi, ilm-fan, ta'lim, tarbiya, bilim, tizim, sifat, samaradorlik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕНСИВНОГО МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

**Ибрагимов Х.И. - профессор Узбекского государственного
университета мировых языков, доктор педагогических наук**

Салимова З.К. - преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация. В статье освещены понятия содержания и сущности использования интенсивных методов преподавания английского языка в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: школа, нетрадиционное обучение, инновация, стратегия, обучение, учащиеся, наука, образование, воспитание, знания, система, качество, эффективность.

THE EFFECTIVENESS OF THE INTENSIVE METHOD IN TEACHING ENGLISH

Ibragimov X.I. - Professor of the Uzbek State University of World Languages, Doctor of Pedagogical Sciences
Salimova Z.K. - Lecturer at Termez State University

Annotation. The article highlights the concepts of the content and essence of the use of intensive methods of teaching English in compulsory secondary schools.

Key words: school, non-traditional, teaching, innovation, strategy, learning, student, science, education, upbringing, knowledge, system, quality, efficiency

Jahon hamjamiyati taraqqiyotining muhim xususiyatlaridan biri bu – muntazam amalga oshiriladigan ta’lim islohotlari, innovatsion jarayondir. Ta’lim tizimidagi har qanday o’zgarishni amalga oshirishda o’qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati, uning islohotlar jarayonidagi o’rni va ahamiyati salmoqlidir. O’qituvchi ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil qilar ekan, uni bevosita o’zi boshqaradi, davlat ahamiyatiga molik vazifalarni amalga oshiradi, davlat maqsadlari asosida yangi avlodni jamiyat uchun shakllantiradi. Shunga ko’ra, o’qituvchi o’z faoliyatini ta’limdagi innovatsiyalar asosida tashkil qilishga tayyor bo’lsagina, hali kashf qilinmagan kashfiyotlarga boy bo’lgan betakror pedagogik jarayonni tashkil qiladi hamda har tomonlama barkamol shaxs shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratadi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o’qitishda intensiv metodlarni qo’llash tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini ta’minlashga yo’naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Ta’lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish ko’p jihatdan o’quvchilarning zamonaviy pedagogik, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini samarali usullarini ishlab chiqish.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ingliz tilini oʻqitishda intensiv metodlarni qoʻllash jarayoni.

Ilmiy yangiligi mavjud ilmiy-pedagogik, nazariy, falsafiy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik manbalarni oʻrganish asosida nazariya va amaliyotdagi holati xususiyatlarini belgilandi;

- umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ingliz tilini oʻqitishda intensiv metodlarni qoʻllash tizimini takomillashtirish ijtimoiy zaruriyat ekanligini nazariy-amaliy jihatdan asoslandi;

- umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ingliz tilini oʻqitishda intensiv metodlarni qoʻllash tizimini takomillashtirish, uning innovatsion shakllari, vositalari va uslublari ishlab chiqildi;

- umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ingliz tilini oʻqitishda intensiv metodlarni qoʻllash tizimini takomillashtirish boʻyicha ilmiy-metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqilib va uning samaradorlik darajasini aniqlandi.

Intensiv taʼlim toʻgʻrisida Intensiv usuldagi dars oʻqituvchi va oʻquvchilar tomonidan amalga oshiriladigan umumiy va doʻstona tarzda boʻlib, bu yuqori intensivlik va mahsuldorlik bilan ajralib turadi. Pedagogik hamkorlik texnologiyasi, shuningdek, toʻlaqonli oʻqitish, tarbiyalash va rivojlantirishning pedagogik samarasini beradigan “pedagogik vosita” vazifasini ham bajaradi. Ushbu texnologiyani amalga oshirish boʻyicha oʻqituvchiga asosiy tavsiyalar quyidagilar:

Oʻquvchilarga mehribonlik bilan munosabatda boʻlish, ularning professional, oʻqimishli va ahloqli insonlar sifatida rivojlanishiga hissa qoʻshish; tabiiy xayrihohlik, demokratiya, ochiqlik, samimiylik, printsiplarga sodiqlik, adolatli qoʻllab-quvvatlash va muvaffaqiyatga erishishiga shonch bildirish kerak. Oʻquvchilar ishonchni qozonishga intilish - tajribali oʻqituvchi oʻquvchilarni majburlashiga hojat yoʻq. Ular oʻzlari uning soʻzlarini tushunadilar, qadrlaydilar va maslahatiga amal qiladilar; har bir tajribali oʻqituvchi oʻquvchilar bilan oʻzaro tushunish, oʻzaro hamdardlik, insonparvarlik, demokratiya asosida hurmatli munosabatlarni oʻrnatishadi.[6]

Oʻquv jarayonini “bir tomonlama oʻyin” sifatida emas, balki maqsadga erishish uchun oʻzaro harakatlarning faol jarayoni sifatida quriladi, muloqotni pedagogik sifatida, psixologik va pedagogik mulohazalarga asoslangan holda, doimo nima deyish va qanday gapirish haqida oʻylash orqali amalga oshiriladi.

Ingliz tilini intensiv usulda oʻqitishda uchta masala mavjud birinchidan nutq faoliyati turlarini oʻrgatish nisbati ;ikkinchidan nutq faoliyati turlarini oʻrgatishning ketma – ketligi;uchinchidan hamma nutq faoliyati turlarini bir vaqtning oʻzida zarur yoki zarurmasligi .Ushbu uchta masalalar boʻyicha ingliz tilini oʻrgatish tizimi qoʻyidagicha :ogʻzaki ilgarilash tamoyili,ogʻzaki kirish kursi,oʻqish orqali ingliz tilini oʻrgatish ishlab chiqilgan [1].

Intensiv usulda og‘zaki ilgarilash tamoyili orqali ingliz tilini o‘rgatishni yana nutq faoliyati turlarini yonma-yon o‘rgatish ham deyiladi.

Bunda:

- 1) Nutq faoliyati turlarini o‘rgatish biroz oldin bo‘ladi
- 2) Og‘zaki ilgarilash bo‘ladi ,ya’ni material oldin og‘zaki o‘rgatiladi ,so‘ng o‘qish bo‘ladi ,yoziladi,ya’ni tilni og‘zaki o‘rgatish 2-3 soat ilgarilaydi
- 3) O‘quvchilar ingliz tilini o‘qituvchidan keyin og‘zaki nutqda qaytarish, taflid filish orqali o‘rganadilar.Bu kurs orqali ingliz tili o‘rgatilganda ,ko‘rgazmalardan ,ayniqsa rasmlardan keng foydalanish ko‘zda tutiladi. Buning uchun, birinchi navbatda, mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar to‘g‘risidagi tushunchalarini hosil qilish va ularni anglash, ularning mustaqil fikrlashini ta‘minlash maqsadida “klaster” (tarmoqlar) metodidan quyidagicha foydalanish mumkin (1-rasm).

“Klaster” metodi o‘quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ingliz tili o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Huddi shu usul vositasida ingliz tilini o‘rganishning asosiy mohiyatini o‘quvchi ongiga singdirish mumkin “Ingliz tili” mashg‘ulotlarida bahs-munozara, o‘yin, musobaqa tashkil etish, viktorina, krossvord, chaynvord yechish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyatning hammasi “Klaster” metodida to‘g‘ri ishlashga sharoit yaratadi. “Klaster” metodi psixologik, pedagogik, didaktik, metodik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta‘lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarini bemalol bayon etishlari uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab qiladi.[2]


“Klaster” metodi aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta‘lim oluvchilar tomonidan puxta o‘zlashtirilgunga qadar fikrlash qobiliyatining bir me‘yorda bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi.“Klaster” metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan ta‘lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki sinf asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Sinf asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda ushbu metod sinf o‘quvchilari tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa sinfning har bir o‘quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtiradi, ular o‘rtasidagi aloqalarni bog‘lanishi va topa olinishiga sharoit yaratadi[4].

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi jihatlarga e‘tibor beriladi:

1. Mavzu bo‘yicha nimaiki o‘ylanayotgan bo‘lsa, shu qog‘ozga yoziladi. Masalan, “Geography” fikrlar sifatga jiddiy e‘tibor berilmagan holda davom ettiriladi.

2. Fikrlar uzoq-yaqinligi, o‘rninging almashinuviga qaramay, ular nihoyasiga yetmaguncha yozib boriladi.

3. Imkon qadar tushunchalar doirasida g‘oyalarni ilgari surish va ular o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘liqlikni ko‘rsatishga erishish orqali g‘oyalar yig‘indisiga ega bo‘lish uchun harakat qilinadi.



1-rasm. “Klaster” usulio‘quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ta’kidlash joizki umum ta’limmaktablarida “Ingliz tilini intensiv usullarda qo‘llash ” o‘quv jarayonida ma’lum muvaffaqiyatlarga erishish uchun o‘quv jarayonini bir tomonlama o‘yin sifatida emas , balki maqsadga erishish uchun o‘zaro harakatlarning faol jarayoni sifatida ko‘rish;

Muloqotni pedagogik sifatida ,psixologik va pedagogik mulohazalarga asoslangan holda ,doimo nima deyish va qanday gapirish xaqida o‘ylashorqali amalga oshirish;

o‘quvchilar bilan psixologik aloqani o‘rnatish muammosini hal qilish - bu fikrlar, his-tuyg‘ular, samimiylilik, suhbatdoshning aytganlariga e’tibor berish, uni tushunishga tayyorlik bilan tavsiflanadigan kommunikativ kayfiyatning o‘ziga xos turi, muloqotning o‘ziga xos muhiti ; psixologik aloqa o‘qituvchidan tabiiy xulq-

atvorni, o'quvchiga shaxs sifatida hurmat bilan munosabatda bo'lishni, alohida samimiylikni va samimiy muloqot ohangini, uni to'satdan buzishi mumkin bo'lgan so'zlar, harakatlar, hatti-harakatlarni istisno qilishni talab qiladi;

Darslarni ko'tarinki ruh olib borish, ilhom, ishtiyoq, qiziqish bilan o'tkazish.

Umumta'lim maktablarida o'quv jarayoniga pedagogik- psixologik yondashuvning amalga oshirilishi o'qituvchi oldiga qator talablarni qo'yadi. Xususan, o'qituvchilar o'qitish va tarbiyalashni, o'quvchilar bilimni xolisona baholash va nazorat qilishni bilishlari lozim. Ayniqsa, vijdonlilik, hayrixohlik, adolatlilik, dilkashlik kabi fazilatlari mavjud bo'lgan holda, o'quvchilarning yuqori darajadagi madaniyati, ma'naviyatini tarbiyalashda, eng avvalo, o'qituvchida kasbiy tayyorgarlikning bo'lishi hamda o'quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallaganligi, ilmiy-metodik tadqiqot ishlarini olib borishi, o'z ishini doimo takomillashtirishi, me'yoriy-huquqiy hujjat-larni yaxshi tushunishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foyda-lana olishi, ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullana olishi, ta'lim va tarbiya sifatini ta'minlash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu borada "Loyiha", "3x4", "O'yinli texnologiya", "Bumerang", "Blits", "Tarmoqlar", "Muammoli o'qitish", "Aqliy hujum", "Agar men", "FSMU" kabi texnologiyalardan keng foydalanish talab etiladi.

"Ingliz tilida intensiv metodlarni qo'llash" ni o'qitish jarayoniga olib kirishda, eng avvalo, uning amaliyotdagi holati va nazariyasini o'qib-o'rganishni tashkil etishga alohida e'tibor berildi [5].

Pedagogik texnologiyalarni o'rganish, kuzatish, nazorat qilish va uni ingliz tilini intensiv metodlarni qo'llashda o'quv jarayoniga tadbiiq etish bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish, ularni tanlash, tahlil qilish mashg'ulotlarning qiziqarli va mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

"Ingliz tilini intensiv metodlarni qo'llash" ta'lim jarayonida o'qituvchining yuksak pedagogik mahorati va unga yangicha yondashuvi asosida noan'anaviy darslar, ya'ni ishchan va o'yinli, seminar, sayr-sayohatli, kompyuterli, ijodiy-fantaziyali, umumlashtiruvchi, teatrlashtirilgan darslarni tashkil etish o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini o'stiradi, ularning ijodiy qobiliyati va mantiqiy tafakkurini tarbiyalaydi [3].

Umumta'lim maktablarida o'quvchining qomusiy, trenerlik, menejer-boshqaruvchilik vazifalarini o'zida namoyon etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'qituvchidan ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik mahorat, ijodkorlik, qobiliyat va kompetentlik talab etiladi.

Axborotni uzatish bo'yicha darsda o'qituvchi va talabalar tomonidan yuqori intensivlik va samaradorlik bilan ajralib turadigan umumiy va do'stona ravishda amalga oshiriladi.

Pedagogik hamkorlik texnologiyasi, shuningdek, to'laqonli o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning pedagogik samarasini beradigan "pedagogik vosita" vazifasini ham bajaradi.

Ushbu texnologiyani amalga oshirish bo'yicha o'qituvchi uchun asosiy tavsiyalar quyidagilar: ўқувчиларга o'zlarining professional, o'qimishli va odob-axloqli insonlar sifatida rivojlanishiga hissa qo'shishga bo'lgan samimiy va kuchli intilish bilan muloyim munosabatda bo'lish; tabiiy xayrihohlik, demokratiya, ochiqlik, yordam berishga tayyorlik, samimiylik, tamoyillarga sodiqlik, adolatli qo'llab-quvvatlash, muvaffaqiyatga erishish tarbiyalashga xos bo'lgan katta xayrihoh o'rtoq yoki murabbiy lavozimini egallash kepak.

Malakali o'qituvchi o'quvchilarni ingliz tilini o'rganishiga majburlashiga hojat yo'q. Ular o'zlari uning so'zlarini tushunadilar, qadrlaydilar va maslahatiga amal qiladilar, har bir malakali o'qituvchi yorqin shaxsiyat va individuallik tamg'asi bilan belgilanadi va o'quvchilarga insonparvarlik, o'zaro tushunish, demokratiya asosida hurmatli munosabatlarni o'rnatadilar.

O'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini oshirishda, ularning mustaqil fikr yuritish ustuvorligini ta'minlash masalasini muvaffaqiyatli hal etish jarayonida ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Demak, umumta'lim maktablarida amaliy va nazariy dars samaradorligini oshirish uchun real muhit yaratilishi kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, kundalik olib borilayotgan mashg'ulotlarni doimiy ravishda yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish orqali, intensiv usuldan ko'zda tutilgan aniq maqsadga erishish mumkin. Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim-tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillash-tirish masalalari hal etilmay qolaveradi. Shunga ko'ra, hozirgi kundagi dolzarb masala, "Ingliz tilida intensiv metodlarni qo'llash" o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. Intensiv usulidan foydalanib dars otganimizda, albatta bir nechta qoidalariga amal qilishimiz kerak. Asosiy e'tibor og'zaki nutq mahoratiga qaratiladi. Bu esa tinglab tushunish, talaffus, intonatsiya o'z fikringizni ingliz tilida ifoda etish kabilardir.

Dars jarayonida rolli o'yinlardan ish uslublaridan, munozaralardan, og'zaki taqdimotlardan, aloqa vaziyatlarini modellashtirishdan keng foydalaniladi. Ingliz tilini o'qitish rejasi o'qitishning turli yondoshuviga asoslanadi. Intensiv usulda o'qitishning asosiy ustunligi shundaki, guruh ichida o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlar shakllanadi. Bu faoliyatdan asosiy maqsad nutq faoliyatini o'yin deb

atash mumkin. Agar bunday o‘yin motivatsiyalangan, muvofiqlashtirilgan faoliyat doirasini oladigan bo‘lsa, unda u o‘quv jarayonini amalga oshirishning asosiy shakli bo‘ladi.

Intensiv usulda dars olib boradigan o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilar munosabatlarining o‘ziga xos muammolari bo‘ladi. O‘qituvchi nafaqat faollarni qo‘shimcha intellektual faoliyatgajalb qiladigan vaziyatni ta‘minlash kerak, balki darsdagi barcha o‘quvchilar muammolarni yengish uchun o‘zlarining aqliy harakatlarini birlashtirish kerak.[6]

Ushbu usuldan samarali foydalanish natijalarga erishish uchun guruhdagi o‘quvchilar optimal soni 10-15 nafardan iborat bo‘lib, o‘quvchilarning joylashishi qulay va bir-biriga qarama-qarshi bo‘lishi kerak. Intensiv usul bir qator ta‘lim muammolarini boshqa pedagogik texnologiyalarga qaraganda samaralidir. Ingliz tilini o‘qitishda emotsional omillarning kiritilishi, til o‘rganishni sezilarli darajada faollashtiradi. Bu esa o‘quvchilarni intellektual faoliyati emotsional faoliyat bilan qo‘llab quvvatlanadigan, topshiriqlarni eng samarali yodlashni va nutq qobiliyatlarini o‘zlashtirishni ta‘minlaydi. Masalan 7-sinfda “Bayramlar, ta‘til kunlari ” mavzusiga doir tarjimalar kiritamiz (1-jad.).

1-jadval

Bayramlar, ta‘til kunlari

1. When is Navruz celebrated in Uzbekistan?	O‘zbekistonda Navro‘z bayrami qachon nishonlanadi?
2. When is Independence Day in Uzbekistan?	O‘zbekistonda mustaqillik kuni qachon?
3. When is Lei day in the United Kingdom?	Birlashgan qurollikda lei kuni qachon?
4. When is New Year celebrated in China?	Xitoyda yangi yil bayrami qachon nishonlanadi?
5. When is the day National Kite Flying Day in Pakistan?	Pokistonda milliy varrak uchurish kuni qachon?
6. When is Holi celebrated in India and Nepal ?	Hindistonda va Nepalda holi bayrami qachon nishonlanadi?
7. When is the Constitution Day in Uzbekistan ?	O‘zbekistonda konstitutsiya kuni qachon?
8. When is St. Valentine`s Day ?	Qachon Buyuk Britaniyaga avliyo Valintin kuni?
9. When is World Victory Day celebrated?	Dunyo bo‘yicha g‘alaba kuni qachon?
10. When is the Dance Day in the	Qachon Buyuk Britaniyada raqs

UK?	kuni?
11. When is Teacher`s Day in Uzbekistan ?	Qachon O`zbekistonda o`qituvchilar kuni?
12. When is Youth Day in Uzbekistan?	O`zbekistonda Yoshlar kuni qachon?

Sinfda o`quvchilar 3 guruhga bo`linadi. 1-qator o`quvchilari 2-qatorga ,2-qator o`quvchilari 3-qatorga 3-qator 1-qator o`quvchilariga o`tilgan mavzu yuzasidan savollar berishadi .Masalan: savol bergan o`quvchiga 1 raqami qo`yiladi,javob bergan o`quvchi bergan javobiga qarab baholanadi. Bu usulda hattoki qaloq o`quvchilarda ham motivasiya uyg`onadi.

Olingan natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatadiki, “intensiv o`rganish|” eng yuqori mahsuldorlikni beradigan chet tilini o`rganishning intensiv va uzluksiz jarayoni sifatida tushunilishi kerak. Metodika - fan, predmeti o`qituvchi va talaba faoliyati bo`lib, intensivlik ikki tomonidan ma`lum vaqt davomida mashg`ulotlar davomida mehnat xarajatlari darajasini, ya`ni o`qituvchi va o`quvchining mahsuldorligini ifodalaydi.

Tavsiyalar. Dastlabki ingliz tilini o`rgatish - bu o`quvchilarning o`quv ma`lumotlarini qayta ishlash jarayoni, bu mahorat darajasiga etkazilgan, chet tilida fikr bildirish vositalari va usullarini o`zlashtirishni anglatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kirish ma`lumotlari miqdori qancha ko`p bo`lsa, shuncha ko`p vaqt talab etiladi va shunga muvofiq, qancha vaqt mashg`ulotlarga ajratilsa, shunchalik ko`p o`quv ma`lumotlari kerak bo`ladi.

Adabiyotlar

1. O` Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tili o`qitish metodikasi //”Sharq” nashriyoti. Toshkent.2003. B. 218-220.
2. Avliyakulova N.X. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari. O`quv qo`llanma.- T: 2001.-68b.
3. Нишноналиев У.Н. Модульные педагогические технологии.- Профессиональное образование. М: 2002.-№ 14. –С. 10-12.
4. Педагогическая технология /Под.ред.Кукушкина В.С.-Серия “Педагогическое образование” - Ростов. Издательский центр. Март, 2002.103 с.
5. Sh.Sh.Atakulova. Britaniya ingliz tilisi va amerika ingliz tilisi o`rtasidagi farqlar/“Fan va ta`limni rivojlantirishda yoshlarning o`rni”. 23-noyabr 2018. UzFAN 75 yilligiga bag`ishlangan ilmiy amaliy konferensiya. 1 qism. 187-188 betlar.
6. Irina Panferova. Ingliz tilini o`qitishning zamonaviy metodlari: o`xshashlik va farqli jihatlar / Ilmiy-metodik elektron jurnal. Toshkent. № 1(5)/2015. 100-105-betlar.

DASTURIY TA'MINOTLAR ASOSIDA TALABALARNI KASBIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Tursunov I.E. - Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnika oliy o'quv yurti talabalariga oliy matematikani o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanish va bu talabalarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish, tarqatish va taqdim etish texnologiyalari sifatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, dasturiy vosita, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi, texnologiya, kompyuter texnologiyalari, matematik kutilish, dispersiya va o'rta kvadrat chetlanish.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Турсунов И.Е. - преподаватель Ташкентского института текстильной и легкой промышленности

Аннотация. В данной статье речь идет об использовании программных средств при обучении студентов технических вузов высшей математике и их значении для развития профессиональных способностей учащихся.

Разработаны теоретико-методологические основы использования новых информационных технологий как технологий обработки, передачи, распространения и представления информации с использованием вычислительной техники.

Ключевые слова: педагогическая технология, программный инструмент, лично-ориентированная технология обучения, технология, вычислительная техника, математическое избавление, дисперсия и среднеквадратичное отклонение.

DEVELOPMENT OF A PROFESSIONAL ALTERNATIVE CULTURE OF STUDENTS BASED ON SOFTWARE

Tursunov I. E.-Teacher of the Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Annotation. This article deals with the use of software for teaching students of technical universities in higher mathematics and their importance for the development of professional abilities of students.

The theoretical and methodological foundations for the use of new information technologies as technologies for processing, transmission, distribution and presentation of information using computer technology have been developed.

Key words: Pedagogical technology, software tool, personality-oriented learning technology, computer technology, mathematical disposal, variance and standard deviation.

“Pedagogik texnologiya - bu ta’lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan texnik va kadrlar zaxiralarini va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda bilimlarni o‘rganish va o‘zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli” (YuNESKO).

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi ПФ-5847-son farmonida oliy ta’lim standartlari, xususan: nazariy bilimlarni bosqichma-bosqich olishga yo‘naltirilganligi ta’kidlangan. Bu xalqaro tajribaga asoslangan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tizimdir.

Maqola Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida oliy matematikani o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan va bu yo‘nalishdagi ko‘p yillik tajribaning umumlashtirilishi bo‘lib, unda professional yo‘nalish tamoyilini amalga oshirish zarurligiga e’tibor qaratilgan. Universitet bitiruvchilari matematik bilimlarga to‘liq ega bo‘lishlari va kelajakda amaliy mazmundagi aniq amaliy masalalarni yechishda qo‘llashlari kerak. Texnologik ta’limdagi matematika kursi muhim rol o‘ynaydi. Bu matematikaning ixtisoslashtirilgan fanlarni o‘rganish uchun asos bo‘lganligi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan texnika oliy o‘quv yurtlarida matematikani o‘qitishda o‘quv jarayonining kasbiy yo‘nalishini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda. Matematikani o‘qitishning kasbiy yo‘nalishi o‘quv jarayoniga zamonaviy usul va texnologiyalarni kiritishni talab qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchiga o‘zining ish tajribasiga qarash uchun yangicha uslubda ko‘plab “o‘z” usullarini tanlash imkoniyatini beradi. Bugun, zamonaviy darslarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun yangitdan o‘z pozitsiyangizni anglash, nima uchun va qanday o‘zgarishlar kerakligini anglash va eng avvalo o‘zingizni o‘zgartirish zarur.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida oliy matematika 1-2 kurslarda o‘rganiladi. O‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, darslarni tashkillashtirishdagi kamchiliklarning asosiy sabablari:

Matematikani o'rganish uchun past motivatsiya, bu o'zlarining ta'lim faoliyatini mustaqil ravishda nazorat qila olmaslik, mavzularni o'rganishga kam soatlarning ajratilishi, ko'p miqdorda yozish, yozilgan ma'lumotlarning ma'nosini tushunishga ulgurmasligi va matematik tayyorgarlik darajasining pastligidadir.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki:

- yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishni nazariy va amaliy asoslash pedagogik tizim sifatida faoliyat yurituvchi, texnika oliy o'quv yurtlarida talabalarining kasbiy tayyorgarligi jarayonini takomillashtirish vositasi sifatida berilgan;

- tadqiqotda mavjud bo'lgan yangi axborot texnologiyalari yordamida to'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklari talabalarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etish g'oyalari va qoidalari, prinsiplari va tushunchalari, yondashuvlari va texnologiyalari to'plami ilmiy bilimlarni tarkibiy tuzish muammosini hal qilinish maqsadida amaliy masalalarni dasturiy ta'minotlar yordamida yechish mumkinligi asoslangan.

- yangi axborot texnologiyalari, shu jumladan mezon bo'yicha to'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklari talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishning o'ziga xos mezonini ishlab chiqildi.

Tadqiqot obyekti: to'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklari talabalarini kasbga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: to'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklari talabalarining kasbiy tayyorgarligini yangi axborot texnologiyalari yordamida takomillashtirish.

Tadqiqot gipotezasi: agar texnika oliy o'quv yurtlarida to'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklari talabalarining kasbiy tayyorgarligi, dasturiy ta'minotlari paydo bo'lishi va rivojlanishining o'tkazilgan ilmiy-pedagogik tahlili asosida, yangi ma'lumotlardan foydalanishni nazariy va amaliy asoslash yanada samarali bo'ladi.

Maqsadga erishish va tadqiqot gipotezasini sinash uchun quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- to'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklari talabalarini kasbiy tayyorlashda yangi dasturiy ta'minotlar mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini, amalga oshirishning asosiy turlari va shakllarini hamda didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

- yangi dasturiy ta'minotlar yordamida to'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklari talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va uni texnika oliy o'quv yurtlarida muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik usullari ko'rsatildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari quyidagilardan iborat bo‘ldi: zamonaviy axborot jamiyati haqidagi falsafiy g‘oyalar, ta’limni axborotlashtirish nazariyasi, pedagogik tizimlar va pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish nazariyasi, metodikasi va amaliyotiga bag‘ishlangan.

Ushbu tadqiqotimizda to‘qimachilik va paxta sanoat yo‘nalish mutaxassisliklar talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha oliy matematika fanining matematik statistika bo‘limiga doir masalalarning amaliy yechimlari keltirildi.

1-masala. «JIZZAX PLASTEKS MCHJ» QK – yigiruv va to‘quv korxonasi sexlarida zamonaviy mashinalari joylashgan bo‘lib, ularning ishlashini uzoq kuzatish natijasida 1 mln. m jun ip uchun o‘rtacha W_1 %i 25 dan 35 gacha bo‘lgan uzilishlar soniga tushadi, W_2 %i – 35 dan 45 gacha bo‘lgan uzilishlar soniga, W_3 %i – 45 dan 55 gacha, W_4 %i – 55 dan 65 gacha, W_5 %i – 65 dan 75 gacha uzilishlar kuzatildi. Uzilishlarni X deb olsak, uning taqsimotini jadval tariqasida tuzing va matematik kutilish, dispersiya, o‘rta kvadratik chetlanishini aniqlang.

a) $W_1 = 15; W_2 = 50; W_3 = 25; W_4 = 10; W_5 = 0$

b) $W_1 = 25; W_2 = 45; W_3 = 25; W_4 = 7; W_5 = 3$

v) $W_1 = 15; W_2 = 40; W_3 = 30; W_4 = 10; W_5 = 5$ 1-rasm. Yigiruv va to‘quv korxonasi sexlarida ishlash jarayoni.

Yechish. Hisoblash qulay bo‘lishi uchun uzilishning o‘rta qiymatini olamiz.

Tasodifiy X miqdorning barcha mumkin bo‘lgan qiymatlari ehtimolini topamiz:



$$P_{W_1} = \frac{15}{100} = 0,15$$

$$P_{W_2} = \frac{50}{100} = 0,5$$

$$P_{W_3} = \frac{25}{100} = 0,25$$


$$P_{W_4} = \frac{10}{100} = 0,1$$

$$P_{W_5} = \frac{0}{100} = 0$$

X diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonunini tuzamiz:

X	30	40	50	60	70
-----	----	----	----	----	----

P	$0,15$	$0,5$	$0,25$	$0,1$	0
-----	--------	-------	--------	-------	-----



2-rasm.

2-rasmda masala shartining X diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonunini gistogramma shaklida tasvirlangan.

Matematik kutilish, dispersiya va o'rtqa kvadrat chetlanishni topamiz:

$$M[X] = \sum_{i=1}^5 X_i P_i = 30 \cdot 0,15 + 40 \cdot 0,5 + 50 \cdot 0,25 + 60 \cdot 0,1 + 70 \cdot 0 = 43$$

$$D[X] = M[X^2] - M[X]^2; \text{ bu yerda } M[X^2] = \sum_{i=1}^5 X_i^2 P_i$$

$$M[X^2] = 30^2 \cdot 0,15 + 40^2 \cdot 0,5 + 50^2 \cdot 0,25 + 60^2 \cdot 0,1 + 70^2 \cdot 0 = 1920$$

$$D[X] = 1920 - 43^2 = 71$$

$$\sigma[X] = \sqrt{D[X]} = \sqrt{71} = 8,4$$

Javob: $M[X] = 43$; $D[X] = 71$; $\sigma[X] = 8,4$.

2-misol: Tituv mashinasining uzoq vaqt ishlashi va to'xtalishini kuzatish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, mashina to'xtalishsiz – W_1 %, bir marta to'xtatilganda – W_2 %, ikki marta to'xtatilganda – W_3 %, uch marta to'xtatilganda – W_4 %, to'rt marta to'xtatilganda – W_5 % va oxiri besh marta to'xtatilganda – W_6 % ishladi. To'xtalishlar sonini X ning tasodifiy qiymati deb hisoblab, uning taqsimlanish qonunini va tavsifini hisoblash kerak, ya'ni matematik kutilishini, dispersiyani va o'rtqa kvadrat chetlanishni hisoblash kerak, agar:

a) $W_1 = 15; W_2 = 40; W_3 = 25; W_4 = 15; W_5 = 5; W_6 = 0$

b) $W_1 = 5; W_2 = 20; W_3 = 40; W_4 = 25; W_5 = 8; W_6 = 2$

v) $W_1 = 20; W_2 = 40; W_3 = 25; W_4 = 10; W_5 = 5; W_6 = 0$


3-rasm. Tituv mashinasining ishlash jarayoni

Yechish.



a) X diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonunini tuzamiz:

X	0	1	2	3	4	5
P	0,15	0,4	0,25	0,15	0,05	0



4-rasm.

4-rasmda masala shartining X diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonunini gistogramma shaklida tasvirlangan.

X ning matematik kutilishini va dispersiya hamda o'rtacha kvadratik chetlanishni topamiz:

$$M[X] = \sum_{i=1}^6 X_i P_i = 0 \cdot 0,15 + 1 \cdot 0,4 + 2 \cdot 0,25 + 3 \cdot 0,15 + 4 \cdot 0,05 + 5 \cdot 0 = 1,55$$

$$D[X] = M[X^2] - M[X]^2; \text{ bu yerda } M[X^2] = \sum_{i=1}^6 X_i^2 P_i$$

$$M[X^2] = 0^2 \cdot 0,15 + 1^2 \cdot 0,4 + 2^2 \cdot 0,25 + 3^2 \cdot 0,15 + 4^2 \cdot 0,05 + 5^2 \cdot 0 = 3,55$$

$$D[X] = 3,55 - 1,55^2 = 1,15 \quad \sigma[X] = \sqrt{D[X]} = \sqrt{1,15} = 1,07$$

Javob: $M[x] = 1,55; D[x] = 1,15; \sigma[x] = 1,07$.

Natijalar va xulosalar. Tadqiqot xulosalari va natijalarining ishonchliligi va asosliligi dastlabki nazariy va uslubiy pozitsiyalarning aniqligi, tadqiqotning predmeti, maqsadi, vazifalari, o'rganilayotgan mantiqqa mos keladigan tadqiqot usullari to'plamidan foydalanish bilan ta'minlandi.

To'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklari talabalarini kasbiy tayyorlash jarayoni bilan bog'liq ijobiy natijalar bergan eksperimental gipotezalar asosida quyidagi qoidalar keltirilgan:

- kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish, tarqatish va taqdim etish texnologiyalari sifatida yangi dasturiy ta'minotlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari hamda to'qimachilik va paxta sanoat yo'nalish mutaxassisliklar talabalarini kasbiy tayyorlashda dasturiy taminot uning ajralmas pedagogik jarayoni sifatida ko'rib chiqish kelajakda to'qimachilik va paxta sanoati sohasidagi mutaxassislarning zarur kasbiy fazilatlarini bilan bog'liq. O'qituvchi faoliyatidagi eng muhim nuqta bu o'quvchilarga o'rganilayotgan muammoga chuqur kirib borish va ularni hal qilish yo'llarini taklif qilishdir. Bu o'qituvchiga har bir o'quvchining individual rivojlanish traektoriyasini

aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, matematikani o‘qitish jarayonida ananaviy ta’lim shakllari va innovatsion texnologiyalarning kombinatsiyasi hozirgi kunda eng samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5847-son. Toshkent sh., 2019-yil 8-oktabr.
2. X.K.Abduraxmanova, A.A. Abduraxmanov va I.Tursunov “Uchebnoye posobiye po razdelam Visshey matematiki”. O‘quv qo‘llanma, Toshkent-2020.
3. X.K.Abduraxmanova, A.A. Abduraxmanov va I.Tursunov “Современные методы обучения высшей математике студентов технологических вузов” TDPU Ilmiy axborotlari ilmiy nazariy jurnal. 2021/1 son.
4. Rakhimov Kh.A. The Importance of Distance Education for Adult Students in Uzbekistan. Hindiston 2020 y.
5. Rakhimov Kh.A. “Methodological support of instructing mathematics in e-learning environment” Psychology and education (2021) 58(2): 4981-4987.

ZULFIYA LIRIKASI VA HOZIRGI SHE’RIYAT POETIKASI

Umurova G.H. - Samarqand davlat chet tillar instituti professori

Annotatsiya. Maqolada shoira Zulfiya badiiy olami va uning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shoira Zulfiya ijodiy maktabi vakilalari ijodi va ularning mahorati maqolada o‘z ifodasini topgan. Shuning bilan birga shoira Zulfiya she’rlari bilan shoira izdoshlari bo‘lgan – shogirdlari adabiy olami qiyosiy tahlilga tortilgan. Ularning ijodiga, poetik olamiga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy olam, lirik turkum, obrazlilik, janr, mavzu, g‘oya, lirik kechinma, badiiy mahorat, tahlil, talqin.

ПОЭТИКА СОВРЕМЕННОЙ ПОЭЗИИ И ЛИРИКА ЗУЛЬФИИ

Умурова Г.Х. - профессор Самаркандского государственного института иностранных языков

Аннотация. В статье проанализированы художественный мир поэтессы Зульфийи и его особенности. В статье отражены творчество представителей творческой школы поэтессы Зульфийи и их мастерство. В то же время сравнительно проанализированы стихотворения поэтессы Зульфийи и

литературный мир учеников – последователей поэтессы. Выражено отношение к их творчеству и поэтическому миру.

Ключевые слова: художественный мир, лирический сериал, образность, жанр, тема, идея, лирический опыт, художественное мастерство, анализ, интерпретация.

ZULFIYA LYRICS AND POETICS OF MODERN POETRY

Umurova G.H. - Professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation. The article analyzes the world picture of the poetess Zulfiya and its peculiarities. The work of the representatives of the creative school of the poetess Zulfiya and their skills are reflected in the article. At the same time, followers of the poet Zulfiya with her poems - her students were involved in a comparative analysis of the literary world. Attitudes towards their work and poetic world are expressed.

Key words: world picture, lyrical series, imagery, genre, theme, idea, lyrical experience, artistic skill, analysis, interpretation.

Zulfiya o‘zbek adabiyotida lirik turkumning nodir namunalarini yaratdi, janrning turmush manzaralarini aks ettirish imkoniyatlarini oshirdi. U yaratgan turkumlarning boshqa o‘zbek shoiralari, jumladan, O.Hojiyeva, G.Jo‘rayeva, H.Xudoyberdiyevlarning lirik turkumlariga ta’siri katta bo‘ldi. Shuni e’tiborga olib, shoira ijodining gultojiga aylangan qator turkumlarning o‘ziga xos jihatlari, alohida qirralarini konkret misollarda tahlil qilishga urinib ko‘ramiz.

Turkum – “janr, mavzu, g‘oya tamoyillariga yoki personajlarning umumiylikiga ko‘ra, muallif tomonidan tarixiy davr, yagona poetik kayfiyatga mos ravishda ongli ravishda uyushtirilgan asarlar guruhidir” [5; 398-399]. Biroq turkumning an’anaviy ta’rifi uning tabiatidagi murakkablikni batamom ifodalay olmaydi. Bizningcha, muammoning birligi, syujet chizig‘ini tashkil etadigan konfliktlar qolipining, obrazli-uslubiy yechimning yagonaligi turkumni yuzaga keltiruvchi faol omillardan hisoblanadi.

Janrni yuzaga keltiradigan yetakchi unsurlardan biri o‘zini obzor kompozitsiyada namoyon etadigan aloqa turi, ya’ni asarning shunday tuzilishiki, unda “uyushtiruvchi markaz fabulaning yagona mag‘zi emas, balki g‘oyaviy-tematik vazifa, muammo, nuqtayi nazar birligi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shu aloqa tufayli markaz ta’sirida material tanlanadi va guruhlanadi” [1,77]. Obzor kompozitsiyada muallif o‘zini yaqqol ifodalaydi, aynan unda muallif g‘oyasi va

muallif “irodasi” tajassum topadi; asar yaxlitligini “fikrni birlashtiruvchi unsur” ta’minlaydi.

Zulfiyaning qator turkumlari misolida kuzatadigan bo‘lsak, ijtimoiy voqelik, shoirlar dunyoqarashi, realistik tasvir madaniyati janr tabiatiga ichki sifat o‘zgarishlarini olib kirganligini ko‘ramiz. Xususan, turkumlardagi bosh qahramon – shoironing goyaviy-estetik ideali. Lirik qahramonining olam va odam to‘g‘risidagi o‘y-mushohadalari, psixologik kechinmalari silsilasi, voqeaband holatlar syujet oqimini belgilab berayotir. “O‘ylar”, “Kamalak”, “Qozog‘iston o‘lanlari”, “Tong ila shom aro” turkumlari o‘zining ijtimoiy-falsafiy mazmuni bilan ramzlarga asoslangan realistik idrok va ifoda madaniyatining yangi yo‘nalishlarini aks ettiradi. Ularda hayot materialini badiiy shaklga solishda asosan voqeabandlik asosiy omil sifatida ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, Zulfiya she’riy turkumlarida lirik, falsafiy o‘y-mushohadalar silsilasi, publitsistik chekinishlar, da’vat, inkor va iqrar, e’tirof belgilari, psixologizm, hissiy kechinmalar kayfiyatini berish, ruhiy holatlar suratini chizish, psixologik portretlar yaratish kabi usullarga ham ko‘plab murojaat etiladi.

Shoira avtobiografiyasiga taalluqli voqealarning she’riy shakllardagi ifodasi Zulfiya poetik ijodining e’tiborga loyiq jihati hisoblanadi. Shaxs – poeziya – taqdir birgalikda shoira poetik dunyosining yaxlit birlik sifatida shakllanishini ta’minladi. “Hijron kunlarida” turkumiga kirgan “Sensiz” she’ri ana shunday she’rlardan ekanligi bilan alohida ajralib turadi:

Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho‘kkanimda tiz,
Farzandlar ko‘tardi qo‘limdan tutib. (“Tong bilan shom aro”, 19-20-betlar).

Lirik qahramon kechinmalari ularning ifoda shakliga mos tushgan. She’r matnini tashkil etgan so‘zlarning yarmidan ko‘prog‘i his-tuyg‘ularni (shodlik, aza, zaif, to‘y, qayg‘u, noshudlik, tund ruhlik, rashk, g‘amnok, mayus) ifodalab, emotsional holatlarni (“tuyg‘ular zoriga solganda quloq”, “tirik ekan nega tashlab ketmading”, “tirik ayrilishning dog‘i og‘irmish”, “izingdan yurmasdim soyaday g‘amnok”) tavsiflaydi.

Qahramonning qizg‘in istig‘forlari-yu, iqrarlari – bu, aslini olganda, kuygan ko‘ngilning beshta ritorik xitob shaklidagi chorasiz hayqiriqlaridir (“Tirik ekan nega tashlab ketmading?”; “Xo‘rlik kemirarmish umrni chaynab!”; “Nega, nega meni tashlab ketmading?”; “Qalaming mujdasin kutardim mushtoq...”; “Tashlab ketmading-a, boshlab ketmading?!”).

Shoironing boshqa asarlariga nisbatan bu she’rda metaforalar juda ko‘p (har nega qalqon, afzal ko‘rganing, soyaday g‘amnok, xo‘rlik kemirarmish umrni, mudhish egov va boshq.).

Kompozitsiya nuqtayi nazaridan “Sensiz” har biri voqelikning muayyan bo‘laklarini tavsiflovchi uch qismga osongina bo‘linadi: birinchi qism (she‘r boshidagi ikki band) bizga qahramonning og‘ir ruhiy va jismoniy holatini ko‘rsatadi, ikkinchi qism – so‘nggi banddan tashqari barcha misralar – lirik qahramonni “ayamay tashlab ketgan” yaqini nomiga gina-kuduratdan iborat. Uchinchi qism (so‘nggi bandning oxirgi misrasidan boshqa) – tuyg‘ulari butunlay chalkashib, ko‘nglini iztirob, g‘ashlik egallagan lirik qahramonning o‘zini oqlashga bo‘lgan urinishi, iqroridir. Shoira lirik qahramoni o‘zini xuddi moddiy dunyoga jon-tani bilan chambarchas bog‘langandek his qiladi. Ayonki, tashqi realiyalarning har qanday lirik tasvirida tagma‘no orqali muallifning emotsional bahosi sezilib turadi. Biroq Zulfiyada – borliqning tashqi va ichki ko‘rinishlari birikishi natijasida – narsa-buyumlarning obrazlari semantik jihatdan ikki planli, ikki yo‘nalishli bo‘lib gavdalanadi. Bir tomondan, ular obyekt, tashqi dunyoni ifodalasa, boshqa tomondan – uni qabul qilayotgan lirik ongni xarakterlaydi.

Zulfiya she‘rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo‘nalishini, avj pardasini, maqsad, g‘oya va ideallarini umuminsoniy fikr va tuyg‘ular belgilaydi. Zotan, Zulfiya ijodining haroratini ta‘minlagan omil ham undagi jo‘shqin va faol insonparvarlikdir. Shoiraning hammani “yuragiga yaqin olishi”, barchani “ko‘zu qosh singari do‘st”, “taqdirdosh, birodar” deb bilishi shundan. U o‘z she‘riyati orqali o‘zbek xalqining insoniyligini, ma‘nan go‘zalligini, ulug‘ ishlarga qodir ekanligini jahonga haqqoniy namoyish qildi.

Albatta, shoira yaratgan turkumlar boshqa ijodkorlarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmadi. Jumladan, buni O.Hojiyeva, G.Jo‘rayeva, H.Xudoyberdiyevlarning ijodida kuzatish mumkin. Bu ijodkorlar borasida Zulfiyaxonim bir qancha bebaho va samimiy fikrlarni bildirganlar: “Oydin va uning tengqurlari bo‘lgan qizlarimiz ijodi o‘zbek adabiyotimizda salmoqli ekani o‘ta iftixorli. Bularning hech biri ikkinchisiga o‘xshamaydi, har birining o‘z qo‘shig‘i, o‘z uslubi, rangin qalami bor.” [6,8] Masalan, H.Xudoyberdiyevaning 1968-yilda “Ilk muhabbat” nomi bilan chop etilgan ilk she‘riy to‘plamida shoiraning:

“Oqarganda sochlar eslaymiz,

Sarxush bahor, kuz o‘tganini.

Kimlarnidir rad etganmiz biz,

Kimlar bizni rad etganini... –

misralarini o‘qib, yosh Xalima qaysi jur‘at, qaysi hayotiy tajribasi bilan inson umr bahori o‘tib, kuz kirib kelgani-yu, sochlar oqarganini, endi hayotga kirib kelayotgan insonning kimlarnidir rad etib, kimlar uni rad etganini” [4, 248-250] kuylashga botinoldi degan savolga yuz tutamiz.

Shuningdek, Halima Xudoyberdiyeva she‘rlarida ona mehri, o‘zbek ayoli, mehr-muhabbat, vafo va sadoqat, hayot va inson kabi mavzular asosiy o‘rinni

egallaydi va mana shu jihatlari bilan ham shoira Zulfiya maktabi vakilasi, izdoshi ekanligi uning she'rlari orqali akslanaveradi.

Yoki Oydin Hojiyeva ijodidagi “lirik turkum” laridan o‘rin olgan vafoga, sadoqatga yo‘g‘rilgan she‘rlarida aynan shoira Zulfiya ta‘sirini yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

*Bilamanki, seningsiz bahorim yo ‘q
Ham seningsiz qanoat, qarorim yo ‘q,
Bu bir balo ishq, uning takrori yo ‘q,
Hech jahonda sen kabi dildorim yo ‘q!* [7,48]

Bundan tashqari shoira Zulfiyaning iste‘dodli shogirdi va izdoshi Gulchehra Jo‘rayevada:

*Yashararsan sevgi faslida,
Sevging bo‘lsa musaffo azal
Sevilmagan yoring vaslidan,
Yiroqdagi yor hajri afzal!* [2,83]

kabi bir qancha misralarida Zulfiya she‘rlarining haroratini sezishimiz mumkin.

H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva, G.Jo‘rayeva kabi shoira Zulfiya shogirdlarining she‘rlarini o‘qir ekansiz, ularning qaysi chashmadan suv ichgan, kimning ijodidan ilhomlangan ekan degan savollarga javob topganday bo‘lasiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, XX asr o‘rtalarida jahon feminazatsiyasi so‘z san‘atiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi, natijada “Ayollar adabiyoti” tushunchasi paydo bo‘ldi. Bu adabiyotning tipologik belgilari, xos xususiyatlari, ayricha mavqei jahon adabiyotshunosligida bir qadar o‘rganilgan. Zulfiya ijodida lirik kechinma nafaqat bevosita ifodalanadi, balki bilvosita – ichki olamning o‘ziga xos ruhiy “kod”iga aylangan tashqi dunyo obrazlari orqali gavdalanadi va o‘zining poetik ifodasini topadi. Shoira Zulfiya o‘zbek adabiyotiga o‘zidan so‘ng katta poetik maktabni meros qilib qoldirdi. Bu poetik maktabining an‘analaridan oziqlangan o‘zbek she‘riyati obrazlilik va murakkablashish hisobiga yuksalmoqda. Zulfiyaning qator turkumlarini yakunlasak, ijtimoiy voqelik, realistik tasvir madaniyati janr tabiatiga ichki sifat o‘zgarishlarini olib kirganligini ko‘ramiz. Xususan, turkumlardagi bosh qahramon – shoiraning goyaviy-estetik ideali. Lirik qahramonining olam va odam to‘g‘risidagi o‘y-mushohadalari, psixologik kechinmalari silsilasi, voqeaband holatlari she‘rlarda syujet oqimini belgilab bergan. Zulfiya o‘zbek adabiyotida lirik turkumning nodir namunalarini yaratdi, janrning turmush manzaralarini aks ettirish imkoniyatlarini oshirdi. U yaratgan turkumlarning boshqa o‘zbek shoirlari, jumladan, O.Hojiyeva, G.Jo‘rayeva, H.Xudoyberdiyevalarning lirik turkumlariga ta‘siri katta bo‘ldi. Bu esa shoira Zulfiya

izdoshlari ijodida ham Zulfiya she'riyatining davomiyligi, abadiyligi mujassam ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Гин М.М. О своеобразии реализма Н.А. Некрасова. Петрозаводск, 1966.
2. Jo'rayeva G. Eng yaqin yulduz. T., "Yosh gvardiya", 1979.
3. Zulfiya. Yillar sadosi. – Toshkent: "Adabiyot va san'at" nashriyoti. 1995.
4. Mahmudova D. Halima.esse-qissa. Toshkent, "O'zbekiston", 2016.
5. Сапогов В.А. Цикл // КЛЭ. – М.: 1975. Т.8.– С. 398-399.
6. Hojiyeva O. To'rt tanho. Toshkent, O'zbekiston, 2013.
7. Hojiyeva O. Navo. She'rlar. T., "Yosh gvardiya", 1977.

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANNI O'QITISH MAZMUNI VA MUAMMOLARI

Eshonqulov Sh.U. – Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi zamon pedagogika fanlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarga asosan, inson tomonidan axborotlar o'zlashtirilishining didaktik jarayon tizimini uchta o'zaro bog'liq komponentlar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin: ya'ni motivizatsiya, talabaning bilish faoliyati, ta'lim jarayonini boshqarish.

Kalit so'zlar: Axborot, axborot tizimlari, axborot texnologiyalari, predmeti, tuzilishi, nazariyasi, amaliyoti, texnik, tarbiyaviy, madaniy, estetik, uslubiy ahamiyati.

СОДЕРЖАНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА В СРЕДЕ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Эшонкулов Ш.У. - преподаватель Джизакского политехнического института

Аннотация. На основе исследований современной педагогики и психологии систему дидактических процессов усвоения информации человеком можно представить в виде трех взаимосвязанных компонентов: мотивация, познавательная деятельность учащихся, управление учебным процессом.

Ключевые слова: информация, информационные системы, информационные технологии, предмет, структура, теория, практика, техническое, образовательное, культурное, эстетическое, методологическое значение.

CONTENT AND PROBLEMS OF TEACHING SCIENCE IN E-LEARNING ENVIRONMENT

Eshonkulov SH.U. - Teacher of Jizzakh Polytechnic Institute

Annotation. Based on research in modern pedagogy and psychology, the system of didactic processes of human assimilation of information can be imagined in the form of three interrelated components: motivation, student cognitive activity, management of the educational process.

Key words: Information, information systems, information technology, subject, structure, theory, practice, technical, educational, cultural, aesthetic, methodological significance.

Zamonaviy o‘qitish jarayonini tashkil etish berilayotgan ma’lumotning nazariy saviyasiga talablarni oshirishga, ta’lim muassasalarida o‘qishning dastlabki kunlaridan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, ularda fanlarning nazariy tushunchalarini hosil qilishga, umumlashtirish va mantiqiy mulohaza yuritish malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Ta’lim muhiti qandaydir ilgaridan belgilab berilgan, qanaqadir bir ma’noli narsa emas. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning uchrashuvi qayerda boshlansa, o‘sha yerdan ta’lim muhiti boshlanadi, qaysiki ular birgalikdagi faoliyatning manbai sifatida alohida institutlarda, ta’lim dasturlari, ta’lim subyektlari orasida ta’lim jarayoni tashkil etilib muhit loyihalanadi va quriladi. Bunday muhit ta’limni tashkil etish jarayonida subyekt (o‘qituvchi va talaba)larning birgalikdagi faoliyatining fazosi sifatida izohlanadi.

Keyigi yillarda pedagogik adabiyotlarda “Axborotlashgan ta’lim muhiti” kabi tushunchalar kirib kelmoqda. Bu atamalar informatika va pedagogikada turli jihatdan talqin qilinmoqda va ta’riflanmoqda. Biz ulardan bir nechtasini keltirib o‘tamiz:

Axborotlashgan ta’lim muhiti - ta’lim jarayoni subyekti inson bilan bog‘liq axborot, texnik va o‘quv metodik ta’minotlarning birgalikdagi tizimli tashkil etilishdan iborat.


Oliy ta’limning axborot muhiti – bu dasturiy, texnik, tashkiliy-metodik vositalar majmui yordamida ta’limiy, ilmiy aloqalarni, axborotlardan tezkor foydalanishni ta’minlaydigan, axborotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiradi.

Elektron ta'lim muhitiga mutaxassislikka tayyorlash jarayonini axborot texnologiyalariga asoslangan muhitni tashkil qilishning maksimal samarasiga mazkur jarayonning psixologik, texnik, texnologiya, axborot, huquqiy, metodik va boshqa tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirishga erishish mumkin.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ("O'zstandart") agentligining 2017-yil 10-noyabrdagi №05-896-sonli qarori "Elektron ta'lim" milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta'lim resurslariga yagona talablarga asosan elektron ta'lim muhitida foydalaniladigan, elektron o'quv adabiyotlarga, elektron ta'lim resurslariga qo'yiladigan talablar yoritib berilgan. Unga ko'ra elektron o'quv adabiyotlarini yaratishda modullik, to'liqlik, ko'rgazmalilik, tarmoqlanish, boshqaruvchanlik, ko'nikuvchanlik, kompyuterli qo'llab-quvvatlash, yig'iluvchanlik tamoyillari, shuningdek didaktik, texnik, texnologik talablar yoritilib, tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilishi ko'zda tutiladi [1].

Elektron ta'lim muhiti bu - axborotlashgan ta'lim muhitining sinonimi sifatida foydalanuvchilarning ta'limiy manbalariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan, mutaxassislikka tayyorlash jarayonining shaxsiy kompyuterlar, telekommunikatsiya, metodik va tashkiliy muhiti sifatida ta'riflash mumkin [2].

Olib borilgan tadqiqotlardan elektron ta'lim muhiti quyidagilarni o'z ichiga olishi aniqlandi.



Elektron ta'lim muhiti tarkibi

Insonlar kompyuterlardan internet tarmog'ida ishlashda, ta'lim olish jarayonida, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda, korxonada ishlarini avtomatlashtirishda, multimedia ilovalarini yaratishda va hokazolarda foydalanadilar.

Shaxsiy kompyuter – bu foydalanuvchilarga qulay dasturiy ta'minot bilan jihozlangan, shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan kichik o'lchamli kompyuterdir. Shaxsiy kompyuter to'plami tizimli blok, monitor, klaviatura va sichqoncha qurilmalaridan iborat bo'ladi. Tizimli blok kompyuterining ishlashi uchun zarur

bo'lgan barcha komponentalarni o'z ichiga oladi. Kompyuterda axborotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va jo'natishda foydalaniladigan uskunalarning barchasi tizimli blok ichida joylashgan bo'ladi.

Shaxsiy kompyuterlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Xususan, ta'lim sohasida ulardan foydalanish samarali natijalar olib keldi. Ular nafaqat korporativ boshqaruv uchun, balki tibbiyot, arxitektura, kommunikatsiyalar, tadqiqot, sport va ta'lim kabi boshqa sohalarda ham samarali ekanligi isbotlandi. Bir vaqtlar faqat ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida va davlat boshqaruv idoralarida qo'llanilgan ushbu mashinalar endi dunyodagi barcha umumta'lim maktablarida keng ko'lamli, ommaviy foydalanilmoqda. Kompyuterlar har qanday kasbda samarali faoliyat yuritish tarzini o'zgartirib, ta'lim tizimi jarayonida foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Elektron pochta didaktik imkoniyatlari: bir vaqtda axborotlarni ko'p sonli mijozlarga uzatish, server kompyuterda saqlanadigan fayllarni foydalanuvchilar so'roviga ko'ra uzatish, hamkorlar bilan axborot almashinish, yuborilgan axborotni egasiga yetib borgani yoki yetib bormagani hakida avtomatik javob qaytarish, axborotlarni guruhli muhokama etish, foydalanuvchilarni qiziqtiradigan har qanday elektron axborotlar bazasiga ulanish va h.k.;

Telekonferensiyaning didaktik imkoniyatlari: anjuman ishtirokchilari bilan matnli, grafik va ovozli axborotlarni uzatish, almashinish, tayyorlash, bosmadan chiqarish, sinxron va assinxron kommunikatsiyani ta'minlanganligi, qulay vaqtda anjuman materiallarini jo'natish, qabul qilish, bunday vaqtda barcha xabarlarini turi bo'yicha raqamlanishi, tizimlashtirilishi undan foydalanishni osonlashtirish;

Elektron doskaning didaktik imkoniyatlari: bir elektron doska xabarlarini boshqa elektron doska xabarlariga aniq manzilsiz (barchadan-barchaga) joylashtirish, uzatish, foydalanuvchini qiziqtirgan axborotlarni qidirish va uni egasi bilan bog'lanish, birga ishlash uchun hamkorlar izlash, qiziqtirgan axborotlarni bosmadan chiqarib olish va boshqalardan iborat.

Elektron ta'lim muhitida telekommunikatsiya quyidagi vazifalarni bajaradi:
talabalarga matn, grafik va ovozli axborotlarni yetkazib berish;

elektron pochta, moodle, chat orqali talaba va o'qituvchi o'rtasida fan sohasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;

talabalarni o'z tengdoshlari, boshqa oliy ta'lim muassasasi talabalari bilan forumlar, konferensiyalar, telekonferensiyalar va turli axborot almashinuvlarini tashkil etish.

3. Metodik ta'minot - mutaxassislarni o'qitishning didaktik vositasi bo'lib, uning tarkibiy qismini aniqlaydi va muayyan shaklda ko'rsatib beradigan pedagogik tizimning integratsiyalashgan axborot modelidir.

4. Tashkiliy muhit o'quv dasturida ko'rsatilgan mavzuni maqsadiga mos ma'ruza, amaliy, seminar va mustaqil ta'limni tashkil etish jarayoni. Uning asosini texnologik xarita, mashg'ulot ишланмаси ҳамда календар режалар ташкил etadi.

Oliy ta'limda "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fanini o'qitishning maqsadi – talabalarni zamonaviy texnik vositalar, operatsion tizimlar va uskunaviy vositalardan foydalanish usullari, hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish tamoyili va uslublari bilan chuqur hamda har tomonlama tanishtirishdan iborat [3].

Fanning vazifalari talabalarni zamonaviy operatsion tizimlar, matnli va jadvalli axborotlarni qayta ishlash dasturlarining funksional imkoniyatlari bilan tanishtirish, boshqaruv jarayonlarida shaxsiy kompyuterlardan foydalanishning nazariy asoslari va ularni turli tarmoq va sohalariga tatbiq qilish usullarini o'rgatish, ma'lumotlar ba'zasini boshqarish tizimlari va obyektga mo'ljallangan dasturlash tillarini o'qitish, internet tizimi va lokal hisoblash tarmoqlarida ishlash uchun amaliy ko'nikmalarni berishdir.

"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar davlat ta'lim standarti, fan dasturi, ishchi o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

Ushbu fanni o'qitishda elektron ta'lim muhitini tashkil etuvchi metodik ta'minotning mavjud emasligi, o'qituvchilarning iqtisodiyotga oid masalalarni yechishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarining yetarli emasligi;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fani o'qituvchisida iqtisodiyot sohasiga oid bilimlarning, iqtisodiyot o'qituvchisida esa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligining yetarli darajada emasligi;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitish uchun metodik ta'minotning, xususan, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, adabiyotlarning yetarli emasligi va mavjud adabiyotlarning zamon talabi darajasida emasligi.

Elektron ta'lim muhiti o'qituvchi uchun yangi qirralarni kashf etadi. Ushbu muhit oliy ta'lim tizimi o'qituvchisidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan yuqori darajada foydalanishni talab etadi. Shuning uchun "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fani o'qituvchisi o'z malakasini uzluksiz oshirib borishi, kasbiy tayyorlanishi uni axborot-ta'lim muhitida ishlashi uchun zaruriy shartlaridan biridir.

Shuningdek, elektron axborot-ta'lim muhitida faoliyat olib boradigan o'qituvchidan yuqori pedagogik natijalarga erishish uchun tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlar ham talab etiladi .

Shu sababli pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, yangi avlod o'quv kurslarini rivojlantirishga va o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, elektron ta'lim muhitini yaratish va rivojlantirish muhim bosqichlardan biri hisoblanadi O'z tadqiqotlarida oliy ta'limning "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fani o'qituvchisiga qo'yidagi talablar qo'yilishini ko'rsatib o'tadi .

Masofaviy ta'lim kurslarini tashkil etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda multimedia vositalari bilan ishlay olishni bilishi;

O'quv mashg'uloti davomida talabalarga ijobiy munosabat bildirishi, buning uchun ma'lum psixologik barqarorlikka ega bo'lishi va u bilan hamkorlikda ishlay olishi;

Mashg'ulot davomida samarali faoliyat yuritishi;

Mashg'ulotlarning aniq taqvimini va o'quv dasturiga mos topshiriqlarni barcha turlarini ishlab chiqishi, zaruriy tarkibiy qismlarni oldindan bilishi va bajarilishini talab qilishi;

Talabalar bilan axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida faol ma'lumot almashishga tayyor bo'lishi;

O'quv topshiriqlarini bajargan talabalarni faol rag'batlantirib borishi;

Talabalarga nazorat topshiriqlari va uning natijalari to'g'risida ma'lumotlar berib borishdan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayonini loyihalashtirish bosqichlari quyidagilardan iborat.

A. Tashkiliy – tayyorgarlik bosqichi. Talabalarni mavzuda belgilangan ta'lim maqsadlari bilan tanishtirish jarayoni.

1. Talabalarni o'quv ish rejalari bilan tanishtirish.
2. Talabalarni ZPT ma'ruza matnlari bilan tanishtirish.
3. Talabalarni kerakli o'quv adabiyotlari bilan tanishtirish.
4. Talabalarni mazmuni o'rganishga imkon beruvchi axborotlar paketi bilan ishlashni tashkillashtirish.
5. Mashg'ulotlar sifati va samaradorligini ta'minlovchi ko'rgazmali qurollar va vositalarni tayyorlash.
6. Talabalarning hamkorlikda ta'lim olish mexanizmini yaratish. Kichik guruhlar faoliyatini tashkillashtirish.
7. O'quv materialini ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya, mustaqil ishlash va jamoa bo'lib ta'lim olishga mos bo'lishga taqsimlash.
8. Har bir talabaning "shaxsiy daraja"sini belgilash, ya'ni talabalarni qobiliyatiga mos kichik guruhdagi o'rni (kuchli, o'rtacha, kuchsiz)ni aniqlash.
9. Har bir talabaning "shaxsiy daraja"sini ko'tarish (rivojlantirish) mexanizmini yaratish:

- o'qituvchining hamkorlikda ta'lim olish metodiga asoslanib, har bir talabaning kichik guruhdagi faoliyatini qayd qilib borishi (kuzatishlari, baholashlari)ni tashkillashtirish;

- har bir talabaning kichik guruhdagi faoliyatini talabalar jamoasi tomonidan qayd qilib borilishi(talabalarning o'zlari talabalar faoliyatini kuzatishlari va baholashlari)ni tashkillashtirish;

- har bir talabaning "shaxsiy daraja"si o'sishini ta'minlovchi mustaqil vazifalari ajratilishini tashkillashtiri;

- har bir talabaning "shaxsiy daraja"si o'zgarishini vaqti-vaqti bilan(reja asosida) baholash, natijalarini esa oshkor holda e'lon qilishni tashkillashtirish;

- talabalarning "shaxsiy daraja"si o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar bilan ularning ota-onalarini tanishtirish ва биргаликда чора тадбирларни белгилаш;

- ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlaridan farq qiluvchi yangi ta'lim shakli

– talabalarning jamoa bo'lib ta'lim olishini tashkillashtirish;

- ma'ruzadan oldin talabalarni ma'ruza matnlari bilan tanishishi va

uni mustaqil yoki kichik guruhlarda hamkorlikda o'rganishni tashkillashtirish;

- talabalarni o'rganilayotgan fanni o'zlashtirish mezonini bo'lgan reyting ishlanmalari bilan tanishtirish.

Xulosa qilib aytganda, har bir o'qituvchi-pedagog dars mashg'ulotlarini olib borishda o'z faoliyatini tahlil qila olish va shu asosda tegishli xulosa chiqara olishga erishish kerak. Agarda o'qituvchi o'z mashg'ulotlarining samaradorligini baholay olmasa, u holda o'zi yo'l qo'ygan kamchiliklarni sezmaydi va bu faoliyatda ijodiy yondashuv ham bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. O'zstandart agentligining 2017-yil 10-noyabrdagi №05-896-sonli qarori. "Elektron ta'lim" milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta'lim resurslariga yagona talablar. O'zDSt 36.2030.2017.

2. Положение об электронной информационной образовательной среде ОГУ. от 15.09.2017 № 64-Д. <http://www.osu.ru/doc/4410>

3. Informatsion-kommunikatsion texnologiyalari fan dasturi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun 2016. №BD-5230600-2.02 son bilan ro'yxatga olingan.

4. Aripov M., Axmedov A.B., Ikramov X.Z., Irmuxammedova R.M.va boshq. Informatika. Axborot texnologiyalari. 2-qism. -Toshkent, 2003.

5. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. – Toshkent: —Universitetl 2000.

6. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе.-М.: Просвещение, 1985.-С.208.
7. Батышев С.Я. Блочно-модульное обучения. –М.:Транс-сервис, -1997. –С. 225.
8. Бершадский М.Е., Гузеев В.В. Дидактические психологические основания образовательной технологии. –М.: Центр «педагогический поиск», -2003. –С.256.
9. Беспалька В.П. Педагогика и прогрессивные технологии. –М.: Педагогика, -1995. –С.286.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING NUTQINI O'STIRISH VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'RGANISH

Abdullaeva M.A. - Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada oliy ta'lim sohasida kechayotgan islohotlar, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi xorijiy mamlakatlarning amaliy tajribasini o'rganish kreativ yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish masalalari ilmiy nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ yondashuv, oliy ta'lim muassasalari, pedagog, metodist, talabalar, nutq o'stirish, tafakkur.

ИЗУЧЕНИЕ ОПЫТА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В РАЗВИТИИ РЕЧИ И МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Абдуллаева М.А. - старший преподаватель Андижанского государственного университета

Аннотация. Данная научная статья научно освещает опыт зарубежных стран в развитии речи и мышления студентов высших образовательных учреждений. В статье также представлена научно-теоретическая база повышения качества образования на основе творческого подхода к проводимым реформам в высшей школе, изучения практического опыта зарубежных стран, как Россия, Великобритания, Германия, Япония.

Ключевые слова: творческий подход, высшие образовательные учреждения, педагог, методист, студенты, развитие речи, мышления.

STUDYING THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN GROWING THE SPEECH OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND DEVELOPING THEIR THINKING

Abdullaeva M.A. - Senior Lecturer Andijan State University

Annotation. This scientific article scientifically covers the experience of foreign countries in the development of speech and critical thinking of students of higher education institutions. The article also provides a scientific and theoretical basis for improving the quality of education on the foundation of a creative approach to the ongoing reforms in higher education, the study of practical experience of foreign countries such as Russia, Great Britain, Germany, Japan.

Key words: creative approach, higher education institutions, pedagogue, methodologist, students, speech development, thinking.

Mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim sohasidagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish, oliy ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ta'limga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etgan holda tashkil etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda ko'rsatilgan "yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish" masalalariga oliy ta'limda o'qish davridan boshlab e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk Britaniyada talabalar va bolalar nutqini o'stirish, tafakkurni rivojlantirish, ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy-rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasash usulidan foydalanish kerak, deb hisoblaydilar. Amalda ingliz bolalar bog'chalarida (amaldagi til va matematika bo'yicha majburiy mashg'ulotlardan tashqari) suv, qum bilan o'yinlar va harakatli o'yinlar orqali tadqiqot faoliyatiga katta ahamiyat beradilar.

O'rganishlarimiz shuni ko'rsatdiki, bunday maqsadlar yuqori texnologiyali dasturlar yaratilishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki, Buyuk Britaniyada bolalarning mustaqil, erkin fikrlashlariga ko'proq ahamiyat qaratilgan, shuningdek ularda

pedagog tomonidan aniq harakatlar ketma-ketligi, balki olinadigan natijalar ham bayon etilgan.

Quyida biz bir nechta xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil etamiz.

Rossiyadagi maktabgacha ta'lim tizimi doimo o'zgaruvchan holatda bo'lib, u muntazam ravishda yangilanadi, ko'rinishini o'zgartiradi va mukammallashib boradi. Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni go'dakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari, nutq va tafakkurini, dunyoqarashini shakllantirib borishlari lozim. Shuningdek, talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantishda, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga olgan pedagogik jarayonlarga alohida e'tibor beriladi.

Rossiyaning oliy ta'lim tizimi "O'quv jarayoni modernizatsiyasi Konsepsiyasi"ga asoslangan. Nazariy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oliy ta'lim mazmunini to'ldirishga stereotip yondashishlarni o'zgartirish kerak, ta'lim berish jarayoni esa quyidagi tamoyillar ketma-ketligi asosida ko'rilishi lozim:

– o'qitishning rivojlantiruvchi xarakteri asosida o'qitishni olib borish talabalarning yashirin va salohiyatli xislatlarini namoyon qiladi;

– talabaning rivojlanishi uning his-tuyg'ulari va yoshiga mos bilim olishning ratsional shakllariga tayanadi;

Noyob madaniyat va an'analar davlati hisoblangan Buyuk Britaniyaning ingliz ta'lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri sifatida tan olingan. Alohida e'tirof etish joizki, Britaniya ta'lim dasturlari eng yuqori standartlarga mos keladi.

Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki bolaga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib, uning rivojiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak, deb hisoblaganlar. Oliy ta'limning asosiy maqsadlari: har bir talabaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, o'qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg'ayrat, deb taxmin qilinadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda oliy ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar, xorijiy tajribalarni o'rganish zamirida pedagog xodimlarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Chunki oliy ta'lim tizimi oldida turgan kechiktirib bo'lmaydigan o'ta muhim va dolzarb muammolar ta'lim mazmunini takomillashtirishning didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni va ta'lim jarayoniga kreativ yondashishni taqozo qiladi.

Janubiy Koreya asosan, bolalarning boshlang'ich, har tomonlama rivojlantiruvchi ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratadilar. Bolalar uch yoshdan boshlab, koreys va ingliz tillarida o'qish va yozishni o'rganadilar. Shu yoshdan boshlab matematika sir-asrorlarini kashf qiladilar. Koreyslar bolalarning jismonan sog'lom va baquvvatligiga, shuningdek, musiqa saboqlarining o'zlashtirilishiga alohida e'tibor qaratadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab bolalarga juda ham katta hajmda uy vazifalari beriladi, ingliz tili mashg'ulotlarida alohida so'z va jummalarni tarjima qilishdan tashqari o'z fikr va qarashlarini sodda hamda ravon tilda ifodalashga yo'naltiriladilar.

Germaniyada oliy ta'lim muassasalari talabalari nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayoniga jiddiy munosabatda bo'linadi. O'quv materiallari bilan ta'minlanganlik, ta'lim uchun shart-sharoitlarning mavjudligi tufayli til muhiti, o'qituvchining pedagogik mahorati, ijtimoiy muhit, talabalar uchun to'liq psixologik iqlim yaratilgan. Aytish joizki, mazkur oliy ta'lim muassasalarida nutq o'stirish jarayoniga alohida e'tibor qaratiladi, Germaniyada rus va nemis tillarida faoliyat yuritadi.

Yaponiyada bolalarni tarbiyalash metodi to'g'risida quyidagi keng tarqalgan iborani keltiradi. Bilingval o'qitish – ta'lim jarayonini bir necha tilda olib borishga ko'proq ahamiyat beriladi. Albatta bola tarbiyasida onaning roli turlicha, lekin bolalarning o'z tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqoti, birga o'ynashi va birgalikda mehnat qilishi uy sharoitida erishib bo'lmaydigan natijalarga, ya'ni uning sog'lom va garmonik rivojlanishiga imkoniyat beradi.

Xitoyda o'qitishning interaktiv metodlarini Internetning global tarmog'idan foydalangan holda, birinchi navbatda o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tanqidiy va ijodiy tafakkurini o'stirishga, mustaqil ma'lumot olishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan pedagoglar faoliyatini to'liq qamrab olish maqsadida foydalanilmoqda.

Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi xorijiy mamlakatlarning amaliy tajribasini o'rganish asnosida aytishimiz mumkinki, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi. Shuningdek, ilm debochasi bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida kreativ yondushuv asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish, oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga erishish har qanday ta'lim tizimining o'quv-uslubiy ta'minoti, ta'lim menejmenti va nazoratini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishga imkon yaratadi.

Kuzatuv va tahlillarimiz asosida aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish,

uzluksizligini ta'minlashda innovatsion pedagogik kommunikativ texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Aytish o'rinliki xorijiy mamlakatlar tajribasida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan, shuningdek ota-onalarning bolalar bilan ishlash soati ham ancha vaqtni tashkil etadi.

Fikrimizcha, mazkur muammoni hal qilish uchun ota-onalar o'rtasida pedagogik psixologik o'quv soatlarini tashkil qilish, ularni ta'lim - tarbiya jarayoniga to'liq jalb etish maqsadga muvofiqdir. Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari jarayonida ota-onalar uchun biz tomonimizdan tashkil etilgan "Ochiq eshiklar kuni", konsultativ kunlar, ko'rik-tanlovlar, treninglar, mahorat darslari bolalarni o'qitish, rivojlantirish, tarbiyalashda samaradorlikka erishishga xizmat qildi.

Yuqoridagi fikrlarimiz mantiqiy davomi sifatida aytishimiz mumkinki, bolalarning aksariyat vaqtlari oliy ta'lim muassasalarida o'tar ekan, demak barcha faoliyatlar xususan: nutqni rivojlantirish, sirlarini chuqur egallash zamirida talaba o'zi eshitgan, ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi hamda borliqqa munosabatni anglay boradi.

Bilamizki, tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat, bunda narsa va hodisalarning eng murakkab xususyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud bo'ladi, ya'ni fikr ma'naviy hodisadir. U faqat til orqali, moddiy hodisa (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlar) tarzida reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi.

Tajriba va kuzatuvlarimizga asoslanib oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonining zamonaviy standartlarini ishlab chiqish va joriy etishda quyidagi muammolar yechimini topishga qaratilgan ta'lim mazmunini takomillashtirish nazarda tutiladi:

- xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish va integratsiyalashuviga erishish; (Onlayn muloqot, masofaviy o'qish, davlat grantlari asosida o'qituvchilarning malaka oshirishlari;)

- o'qituvchi-talabalar bilan ota-onalari o'zaro hamkorligida ta'lim berish va ta'lim olish borasidagi erkin mobilizatsiyasiga erishish;

- oliy ta'lim sohasini boshqaruv tizimi uchun maqbul yagona qoida va talablar tizimini yaratish;

- xalqaro standartlarga mos bilim, ko'nikma va malaka talablari va ularni baholash tizimlarining bir xilligiga erishish;

- barcha turdagi faoliyatlarni o'tkazishda talabalarni erkin muloqot qilishlari uchun imkoniyat yaratish;

- ta'lim jarayonlarida an'anaviy ta'lim usullari o'rniga zamonaviy, innovatsion ta'lim usullarini ishlab chiqarish bilan integratsiyasi bilan uzviyligini ta'minlash;

Shuningdek, pedagogik jarayonlar mavjud ekan, pedagogik texnologiyalar ham rivojlanib takomillashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan unga bo'lgan yondashuvlar, qonuniyatlar va tamoyillarga ham o'zgartirishlar kiritilib, takomillashtirib boriladi. Pedagogik texnologiyaning prinsipial asoslarining qo'yidagicha ba'zi bir qirralari A.K.Kolechenko tomonidan aniqlangan:

- tarbiyalovchi o'qitish tamoyili;
- o'qitish, rivojlantirish, tarbiyalashda samaradorlikka erishish tamoyili;
- yuz foiz teskari aloqa tamoyili;
- doimiy takrorlash tamoyili;
- optimal psixik hayajonlanish tamoyili;
- talabalarning o'quv jarayonidagi maksimal ishtirokini ta'minlash tamoyili;
- yaqin rivojlanish zonasiga yo'naltirilganlik tamoyili.

Yuqoridagi olimlar fikriga tayangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonining axborot-metodik ta'minoti ommaviy (bayramlar, aksiyalar), jamoaviy individual faoliyat shakllarini interaktiv modellashtirish bilan qayta aloqasini ta'minlash asosida takomillashtirish ya'ni: joriy va istiqbol rejalarga muvofiq tabaqaviy yondashuvga asoslanish, shuningdek, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib ta'lim jarayonini tashkil etish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib biz, tadqiqotimiz obyekti hisoblangan talabalarning psixologik xususiyatlarini ko'rib o'tishni lozim topdik. Psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra bu bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi hususiyatlaridan biri ularning serharakatligi, qiziquvchanligi va taqlidchanligidir. Asosiy faoliyat turi o'yin bo'lganligi sababli talabalar o'zlarining faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sarmazmun hayotimizning hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettiradilar va bu jarayonda ularning nutq va tafakkuri rivojlanib boradi.

Shu o'rinda aytish joizki, oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqini o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham bevosita bog'liq jarayon bo'lib hisoblanadi.

P.F.Lesgaftning fikricha bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez perseptiv harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va holatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushirishning ichki va tashqi tuzilmasini bog'lay olishda ko'rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning asosida insoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi.

N.U.Bikbaevaning ta'kidlashicha, bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonida bolaning predmet va ularning xususiyatlarini qabul qilishda namoyon bo'luvchi sensorik qobiliyatlari atrof-muhitni bilish sohasining rivojlanishida o'zgacha ahamiyatga ega. Ularning sensorik qobiliyatlarini rivojlantirish kontekstida, fikrlash, tasavvur bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir masalalarni yechishga qaratilgan ijodkorlik qobiliyatlari jadal rivojlanadi.

D.R. Babaevaning ilmiy izlanishlarida nutq asosidagi tarbiya jarayonida shaxsning sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallay boradi. Bu me'yor va qoidalar shaxs axloqini boshqaradi. Uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Tevarak-atrofni o'rganishda tengdoshlarining bog'lanishli nutqini rivojlantirish ularning nafaqat intellektual, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

M.Montessorining "Bolalar-boshqacha" kitobida borliqni bilvosita aks ettiradigan sensorik, intellektual, ijodkorlik kabi dunyoni anglash jarayoni tafakkur yordamida amalga oshiriladi.

"O'zim bajarishimga yordam ber" g'oyasi asosida M.Montessori bolalarda mustaqil erkin ijodiy o'yinlar vositasida nutq va tafakkur jarayonini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, o'yinlar orqali bolalar yangi bilimlar o'zlashtirishda tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda faoliyat yuritadilar. Fikrlash nutq o'stirish jarayoni bunda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va pedagog, psixolog olimlar tadqiqotlari tahlili asosida aytishimiz mumkinki, ta'lim psixologiyasida talabalar mustaqil fikrlash jarayonini o'rganish, turli jarayonlarning pedagogik psixologik qonuniyatlarini yaratishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ko'pgina tadqiqotchilar oliy ta'lim muassasalari talabalariga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalarini ishlab chiqish talabalarning nutqini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etishadi. Ammo, afsuski, kreativ yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarining bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish pedagogik tahlil mavzusiga aylanmagan. Har qanday insonning ijodiy faoliyatini shakllantirishning asosli tizimi oliy ta'lim muassasalari talabalarda boshlanadi. Bizning fikrimizcha, narsa va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyatini vujudga keltiradigan tafakkur jarayoni til bilan uzviy aloqada mavjud bo'ladi.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, talabalarda dialogik nutqni rivojlantirishning muhim omillaridan biri ularda nutq madaniyatini rivojlantirishdan iboratdir. Yana bir muhim omil "fikir tarbiyasi" bo'lib, fikrlovchining ichki dunyosi qanchalik boy bo'lsa, uning fikrlash saviyasi ham, xatti-harakati ham shunga yarasha bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini tabiatining asosiy qonuniyati bo'lmish

serharakatlilikni va qiziqishlarini cheklamay, uni maqsadli tashkil eta bilish bu yoshdagi bolalarda teran, tiniq, mantiqiy, erkin, mustaqil, badiiy, ijodiy tafakkur darajalarini tarbiyalashda kutilgan samarani beradi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishi, tabiat va jamiyat hodisalarini o'ziga xos tarzda tasvirlab, xulosalar chiqarishi inson tafakkuri orqali kechadi, nutq orqali ifoda etiladi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshidagi davrdan boshlab bolalar nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish milliy tarbiyashunoslikning bosh maqsadi bo'lgan – barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kamol topishida qiziqishning ahamiyati juda katta, chunki talaba qiziqqan narsasini imkon qadar chuqurroq bilishga intiladi va binobarin, uzoq vaqt davomida u bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu, o'z navbatida fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Amaliy tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalari talabalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi, ular o'zlarining shirin nutqlari orqali fikrlarini ifoda etadilar. Aksariyat ota onalarimiz bolalarning savollariga javob bergani "vaqt" topa olmasliklari ulardagi qiziquvchanlikni susayishiga sabab bo'ladi.

M.Bakinaning "Zamonaviy bolalar, zamonaviy o'yinlar" maqolasida til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir degan fikr aytilib, aynan bolalarda tafakkurning taqqoslash, analiz va sintez qilish jarayonlari o'yinlar orqali nutqda ifoda etiladi. Fikrimizcha, bugungi kun bolalarini ko'proq telemulfilmlar, mobil aloqa vositalaridagi o'yinlar qiziqtiradi. Va bu holat aksariyat ota-onalarimiz uchun "qulay" bo'lib tafakkur aqliy faoliyat, ongli xatti-harakatlar majmui ekanligini unutib qo'yadilar. Vaholanki bolalar tafakkurini rivojlantirish tevarak-atrof, ijtimoiy muhit hamda borliqni bilish asosi, inson faoliyatini oqilona, samarali tashkil qilishning muhim sharti hisoblanadi. Bolalar fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi hamda borliqqa munosabatini anglay borishi kerak. Buning uchun ota-onalar farzandlari uchun "bo'sh vaqt" ajratib oliy ta'lim muassasalarida o'rgangan mashg'ulotlarini takrorlashlari, ular bilan sayohatga chiqishlari, bolalarga xos ertak, hikoya va she'r qo'shiqlarni bolalar bilan birga ijod qilishlari ulardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bunday jarayonlarda bolalar turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar va analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar.

Demak, kreativ yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish kontekstida, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, odob-axloq aqidalarini tarkib toptirish, uning tarixiy

bosqichlari, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlovchi quyidagi pedagogik maqsadlarga qat'iy rioya etish taqozo qilinadi. Bunda:

- talabalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda mavjud milliy qadriyatlarning uning o'zi tomonidan qabul qilinishi, ularni bilishi va anglashi bolalarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga xizmat qiladi;

Jamoa bilan muntazam ravishda bir kunlik sayrga chiqishdan maqsad bolani chidamlikka o'rgatish va o'zi atrofidagi hududni o'rganish. Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. Balkim, aynan shuning uchun ham Yaponiyada turli daraxtlar, tabiat hodisalariga bag'ishlangan milliy bayram va festivallar ko'p bo'lsa kerak. Yoshlikdan go'zallikni sevishni va tabiatni his etishni o'rgatilgan yapon bolalar bu tuyg'ular bilan umrbod yashaydilar.

Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3261-son qarori. // «Xalq so'zi», 2017-yil 11-sentabrdagi soni.

2. «Ilk qadam». Maktabgacha ta'lim muassasalari davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V.Grasheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. – T.: MTV, 2018. – 69-bet.\

3. Berdalieva G.A. Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T.: 2019

4.<https://edunews.ru/education-abroad/sistema-obrazovaniya/doshkolnoe.html> - Elektron resurs. 2020-yil 17-iyulda murojaat etilgan.

O'QUV FAOLIYATIDA PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURTI TALABALARI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mamatqulova M.V. - Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv jarayonida pedagog tomonidan pedagogika oliy o'quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlanishning modeli yoritib berilgan. Uning asosiy sistema hosil qiluvchi komponentlari bayon etilgan. Talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlari kuchga kirishiga olib keladigan asosiy pedagogik omillarga to'xtalgan.

Kalit soʻzlar: determinatsiya, genetik, genotip, pedagogik ijod, ijodiy faoliyat, gnoseologik fenomen, pedagogik qonuniyat, pedagogik prinsip, muammoli vaziyat, intellektual malakalar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВОУ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Маматкулова М.В. - преподаватель Кокандского государственного педагогического института.

Аннотация. В статье описана модель обеспечения развития творческих способностей студентов педагогических вузов в образовательном процессе и его основные и системообразующие компоненты. В нем акцентируется внимание на основных педагогических факторах, которые приводят к вступлению в силу законов развития творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: детерминация, генетика, генотип, педагогическое творчество, творческая деятельность, gnoseологический феномен, педагогический закон, педагогический принцип, проблемная ситуация, интеллектуальные способности.

DEVELOPING THE CREATIVE TALENTS OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITY IN EDUCATIONAL ACTIVITIES THEORETICAL FUNDAMENTALS

Mamatkulova M.V. - teacher of Kokand State Pedagogical Institute

Annotation. This article describes the model of ensuring the development of creative abilities of students in pedagogical universities in the educational process and its main system-forming components. It focuses on the main pedagogical factors that lead to the entry into force of the laws of development of creative abilities of students.

Key words: determination, genetics, genotype, pedagogical creativity, creative activity, epistemological phenomenon, pedagogical law, pedagogical principle, problem situation, intellectual skills.

Jamiyatimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichida mutaxassislarining kasbiy ijodiy saviyasiga, fanning soʻnggi yutuqlarini hamda ilgʻor texnologiyalarni ishlab

chiqarish va ijtimoiy sohaga tadbiq etish muddatlarini qisqartirishga qo'yiladigan talablar oshib bormoqda.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlari oldiga hayotda o'z o'rnini topa oladigan, istiqbolli, kasbiy faoliyatini ijodiy amalga oshirishga tayyor, ya'ni nafaqat yetarli murakkab vazifalarni hal qilishga, balki muammolarni ilgari surishga, prinsipial yangi ijodiy yechimlarni topishga qodir bo'lajak mutaxassisni rivojlantirish vazifasi qo'yilgan.

Psixologiyada shaxs rivojlanish yo'llarini tushuntirishda bir-birini to'ldiradigan uchta yondashuv mavjud:

1) genetik, psixik xossalar determinatsiyasida asosiy rolni nasliylikka ajratadigan yondashuv;

2) muhitli, uning vakillari psixik qobiliyatlarning rivojlanishida hal qiluvchi omil tashqi sharoitlar deb biladi;

3) genotip – muhit o'zaro hamkorligi, bu yondashuv tarafdorlari individ muhitga moslashishining nasliy qirralarga bog'liq turli tiplarini farqlaydi.

O'quv jarayonida pedagog tomonidan pedagogika oliy o'quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ta'minlanishi manzarasini yaratish uchun modellashtirish metodidan foydalandik. Modellashtirishning asosiy afzalligi o'rganilayotgan obyekt haqida qilingan axborotning yaxlitligidir. Modelni qurishda pedagogik tadqiqotlar tajribasi, modellashtirish jarayoniga taalluqli bo'lgan umumilmiy talablarga asoslandik.

O'quv jarayonida pedagogika oliy o'quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning biz ishlab chiqqan modeli qator o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga oladi. Modelning asosiy va sistema hosil qiluvchi komponentlaridan biri maqsadli komponent sanaladi. Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda, o'rganilayotgan sistemaning maqsadi pedagogika oliy o'quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Belgilangan maqsadning muvaffaqiyatli realizatsiyalash uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak bo'ladi:

- talabalarni ijod, pedagogik ijod, ijodiy faoliyat mexanizmlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish;
- bo'lg'usi o'qituvchilarda ijodiy faoliyatga pozitiv munosabatni shakllantirish;
- faoliyatni ijodiy darajada amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxs sifatleri, shuningdek, ko'nikmalarni shakllantirish.

Sistemaning nazariy – metodologik komponentini ishlab chiqishda pedagogik omillar, qonuniyatlar, pedagogik jarayonni tashkil qilish prinsiplariga asoslandik.

Ma'lumki, pedagogik omil har qanday pedagogik jarayonning harakatlantiruvchi kuchi sanaladi. O'quv – tarbiya jarayonida aniq omillarni

realizatsiyalashda o'qitish va o'qish faoliyati yo'nalishi va xarakterini, oxir – oqibatda o'quv jarayoni natijalarini o'zgartirishning ma'lum qonuniyati obyektiv zarurat bilan namoyon bo'ladi. Qonuniyatlarni aniqlash istalgan ilmiy nazariyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Pedagogik jarayon qonuniyatlari pedagogik faoliyatni tashkil qilishda asosiy talablarni o'z ichiga olgan; uning yo'nalishini ko'rsatib beradigan rahbarlik qoidalarida, ya'ni prinsiplarda o'zining konkret ifodasini topadi. Qonuniyatlar obyektiv tarzda mavjud, prinsiplar esa qonuniyat mohiyatini normativ shaklda aks ettiradigan gnoseologik fenomen sanaladi. Ya'ni pedagogik qonuniyat va pedagogik prinsip «mavjud» va «lozim» kabi nisbatlanadi.

Adabiy manbalar va pedagogik ish tajribasi tahlili asosida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlarining kuchga kirishiga olib keladigan asosiy pedagogik omillar guruhiga to'xtaldik. Aniqlangan qonuniyatlar talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadigan pedagogik faoliyatni tashkil qilish prinsiplarini shakllantirish imkonini beradi.

1-omil. O'quv faoliyatining ijodiy xarakteri.

Ijodiy qobiliyatlar ijodiy faoliyat uchun zarur, biroq S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha: “ Inson o'z hayot yo'lida bajaradigan, amalga oshira boradigan faoliyatda shaxsning barcha psixik xususiyatlari nafaqat namoyon bo'ladi, balki shakllanadi ham ”. Qobiliyatlar u yoki bu sifatlarga ega bo'lgan insonning dunyo bilan o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadi.

Inson faoliyati natijalari umumlashtirib, «qurilish materiali» misol uning qobiliyatlari qurilishiga kiradi. Demak, o'quv faoliyatining ijodiy xarakterini ta'minlash omili asosiy bo'lishi kerak. Yetakchi tadqiqotchilar shunday fikr bildiradi.

Ijodiy faoliyat ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, degan qonuniyatni keltirish mumkin. Ijodiy faoliyatning protsessual tomoni muammoni topish va hal qilishdan iborat. O'qitish haqida gap borar ekan, o'quv muammosi deganda nimani tushunishni aniqlashtirib olishimiz lozim bo'ladi.

Biroq har qanday vazifa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi. O'quv muammosi deganda «aqliy izlanish yo'nalishini belgilaydigan, noma'lum bo'lganning mohiyatini tadqiq qilish (tushuntirishga) qiziqish uyg'otadigan va yangi tushuncha yoki harakat usulini aniqlashtirishga olib keladigan o'zlashtirish jarayonining mantiqiy – psixologik qarama-qarshiligining aks etishi (namoyon bo'lishi) tushuniladi»

1. Andriadi I.P. Osnovi pedagogicheskogo masterstva: Ucheb. posobiye dlya stud. sred. ped. ucheb zavedeniy. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 1999.-160 s.

Muammoli o'qitish sharoitlarida muammoli vaziyat yaratishga katta ahamiyat beriladi. U o'quv muammosini shakllantirishdan oldin, uni hal qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Psixolik va pedagoglar muammoli vaziyat mohiyatini

turlicha ta'riflaydi, biroq har ikkala tomon ham uning uchun xarakterli bo'lgan ayrim belgilarni ko'rsatadi. Bular: 1) intellektual qiyinchilik holati yuzaga keladi; 2) ziddiyatli vaziyat yuzaga keladi; 3) o'quvchi ega bo'lgan hamda masalani tushunish, tushuntirish, yechish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar mos kelmay qoladi.

Muammoli vaziyatni yaratish usullari ma'lum:

- tanlov, qaror qilish, vaziyatini yaratish;
- fakt, hodisalarni qiyoslash, taqqoslash;
- kashfiyotlar, ixtirolar tarixiga ekskursiyalar. Hodisalar, jarayonlar o'rtasidagi sabab oqibat aloqalarini, munosabatlarni aniqlashni taklif qilish;
- nazariya va o'quvchining hayotiy tajribasi o'rtasidagi nomuvofiqliklarni ko'rsatib beradigan usullar, faktlarni namoyish qilish;
- odatiy hodisaga prinsipal yangicha qarash;
- aynan bir hodisani tushuntirishga ikki yoki ortiq yondashuvni taqqoslash;
- turli fanlar nuqtayi nazaridan eksperiment, tushuntirishni talab qiladigan masalalarni qo'yish. Muammoli vaziyat o'quvchilar ijodiy faolligining «akkumulyatori» sanaladi. O'quv faoliyati ijodiy xarakterini ta'minlash uchun u muammoli o'qitish uchun xarakterli bo'lgan muammolilik prinsipi asosida tashkil qilinishi lozim.

2-omil. Ijodiy faoliyat uchun zarur bilim va malakalarni o'zlashtirish. Biz o'rganayotgan ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijodiy malakalar bu iyerarxiyaning oliy darajasiga taalluqli. Bu ixtisoslashuv doirasida bevosita ijodiy jarayonni ta'minlaydigan malakalar jami (yig'indisi). Bu malakalar, eng avvalo, asosiy pisixik jarayonlar xarakteri va ularning odatda, kasbiy faoliyat doirasidan tashqari bo'lgan tobora umumiy qonunlari bilan bog'liq. O'rganayotganimiz ijodiy qobiliyatlar bilan ularning rivojlanishi uchun maqul malakalar o'rtasidagi muvofiqlikni umumlashgan.

- Ijodiy qobiliyatlar; ijodiy malakalar; muammoni ko'rish.

Qarama qarshiliklarni aniqlash, muammoli savollarini qo'yish, vazifani fondan ajratish, muammoni reprezentatsiyalashning boshqa usullarini izlash, kichik muammolarga bo'lish

Idrokning to'liqligi

Obyektning aloqa va munosabatlarini ko'rish, obyekt strukturasi ko'rish, obyekt (hodisaning) jiddiy va jiddiy bo'lmagan belgilarini ajratish, turli obyekt (hodisa)larda jiddiy umumiy qirralarni ko'rish, anchagina o'xshash obyekt (hodisa)larda jiddiy farqni ko'rish

Xotiraning tayyorligi bilimlarni sistemalashtirish, bilimlar sistemasini to'ldirish va qayta qurish (bilimlar dinamikligi) bilimlarni yangi vaziyatlarga ko'chirish. Abstraksiyalash (mavhumlashtirish), analogiyalarni izlash, ma'lum bo'lgan bilim va harakat metodlarini mavjud sharoitlarga nisbatan baholash, yengil

assotsiatsiyalash va tasavvur obyektlarni detalizatsiyalash elementlari bilan taqqoslash, obyektning qism sifatida butunga kiritib taqqoslash, mos kelmaydigan elementlarni qiyoslash asosida «bevosita» taqqoslashlar, turdoshlik bo'yicha aloqalarni aniqlash, obyektlarni boshqa ko'rinishda tasavvur qilish; agglyutinatsiya yo'li bilan yangi obrazlar yaratish.

Nozik fikrlash, boshqa g'oyaga ko'chish, odatiy vaqt aloqalarini o'zgartirish, odatiy makon aloqalarini o'zgartirish, odatiy umumiylik aloqalarini o'zgartirish.

Fikrlash dialektikligi, qarama-qarshilik munosabatlarini aniqlash, dialektik birlashtirish, dialektik vositalash, dialektik murojaat, dialektik aylantirish.

Fikrlashning originalligi, ma'lum usul yoki nazariyadan voz kechish, faoliyatning qo'shimcha mahsullaridan foydalanish.

Bashoratlash (prognozlash) istiqbolli rejalashtirishni amalga oshirish, qarorning har bir qadami natijalarini bashorat qilish.

Fikrlashning tanqidiyligi g'oyani baholash mezonlarini tanlash, g'oyalarni mezonlar nuqtai nazaridan tahlil, optimal qaror g'oyasini tanlash.

Ajratilgan ijodiy malakalar ijodiy faoliyat mexanizmlarini amalda realizatsiyalash uchun zarur, ulardan ayrimlari esa ta'rifda evristikalar bilan to'liq mos keladi, bu ularning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Faoliyat maqsad va vazifalariga muvofiq harakatlarni bajarishning muvaffaqiyatlilikini kafolatlaydigan malakalar shakllangan sanaladi. Psixologik – pedagogik adabiyotlarda malakalar shakllanishining turli bosqichlari farqlanadi. Ijodiy malakalarga ko'proq yaqini intellektual malakalar sanaladi. Ular ham (A.V, Usova tasnifiga ko'ra) bilish va (R.F.Krivoshanova tasnifiga ko'ra) fanlararo malakalarga kiradi.

Ijod uchun zarur malaka va bilimlarni bu masalaga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'rganish asosida aniqlashtirib, quyidagi qonuniyatni to'la ishonch bilan aytishimiz mumkin: ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish ijodiy faoliyat uchun zarur bilim va malakalar bilan dialektik o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Uni amalda realizatsiyalash pedagogik faoliyatni tashkil etishga asosiy talablardan biri - ijodiy faoliyatga tayyorlashda sistemalilikka amal qilish orqali amalga oshiriladi.

3-omil. Ijodiy qobiliyatlarning erishilgan darajasini hisobga olish, ta'lim jarayonida uning barcha shakllari va metodlarida, qanday xususiyatlar va qay darajada hisobga olinishidan qat'iy nazar, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni ta'limni individuallashtirish deyiladi.

Shu sababli har bir talabaning rivojlanish darajasini aniqlash zarur, rivojlanish darajalarini nivelirlashga yo'l qo'yib bo'lmaydi, ya'ni individuallashtirish butun ta'lim davri davomida saqlanadi; rivojlantiruvchi topshiriqlar optimal murakkablikda bo'lishi kerak. Bu barcha xulosalarni ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga nisbatan ham keltirish mumkin.

Shu asosda keyingi qonuniyatni shakllantirish mumkin: ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlariga, ularning namoyon bo'lish darajasiga bog'liq. Ushbu qonuniyat ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishining erishilgan darajasini hisobga olish asosida individuallashtirish prinsipi orqali realizatsiyalanadi.

4-omil. Shaxsning ijodiy faoliyatini rag'batlovchi va boshqaruvchi.

Psixologiyada ma'lumki, shaxs bir butunlik sifatida rivojlanadi. «Madaniy rivojlanishning mohiyati insonning o'z xulq atvor jarayonlarini egallashidan iborat, biroq buning zaruriy omili shaxsning bo'lishi sanaladi, shu bois u yoki bu funktsiyaning rivojlanishi shaxsning umumiy rivojlanishi hosilasi va u bilan belgilangan bo'ladi», shu sababli ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini ijodkor shaxsning bosh qismlaridan ajralgan holda o'rganishimiz mumkin emas. Aytildanlardan quyidagi qonuniyat kelib chiqadi: ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ijodkor shaxsning boshqa komponentlari tomonidan rag'batlantiriladi va boshqariladi.

Pedagogik sharoitlarning quyidagi kompleksi o'quv faoliyatida pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydi:

- motivatsion sharoitlar: pedagogning kasbiy faoliyatida ijodning o'rni va ro'lini asoslash; muammolar yechimi uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lishini anglab yetish;

- konstruktiv sharoitlar: talabalarga ijodiy faoliyat mexanizmlari haqida bilim berish; ta'lim mazmuniga ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni kiritish; tegishli metodik ta'minot;

- tashkiliy sharoitlar: o'quv – ijodiy faoliyatni tashkil qilish metod va shakllaridan foydalanish; ta'limni tashkil qilishning gurux va individual shakllaridan foydalanish;

- kommunikativ sharoitlar: o'qituvchi kommunikativ madaniyati ancha yuqori darajada shakllanganligi; o'qituvchi va talabalarining subyekt – subyekt o'zaro hamkorligi sifatida dialogdan foydalanish.

Ishlab chiqilgan modelning o'quv faoliyatiga tadbiiq qilishning yakuniy natijasi bo'lg'usi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish asosida oshirish.

Adabiyotlar

1. Абрамов С.А., Зима Е.В. Начала информатики. М.: Наука. Гл. ред. физ.-мат. лит., 1989.-256 с.

2. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. - М.:Наука, 1980.-335 с.

3. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. М.: Мысль, 1995.- 160 с.
4. Адамар Ж. Исследование психологии процесса изобретения в области математики. Франция. 1959 г. Пер. с франц. М.: Изд-во «Советское радио», 1970.-152 с.
5. Белкин А.С. Ситуация успеха. Как её создать: Кн. для учителя. М.: Просвещение, 1991. - 176 с.
6. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989.- 190 с.
7. Педагогика и психология высшей школы/ под ред. С.И. Самыгина. - Ростов н/Д, 1998. 544 с.
8. Усова А.В. Формирование у учащихся общих учебно-познавательных умений в процессе изучения предметов естественного цикла. — Челябинск, 1997.-178 с. Анастаси А. Психологическое тестирование. В 2-х т. Т.1. М.: Педагогика, 1982. - 318 с.
9. Галперин П.Й. Психология развития учеников и учение о поэтапном формировании умственных действий // Исследование мышления в советской психологии: Сб. научных тр. М., 1966. - С. 236-277.

AXBOROT TA'LIM MUHITIDA TALABALARGA AXBOROT TIZIMLARI HAQIDA O'QITISH

**G'aniyeva O.S. - Oliy ta'lim Vazirligi huzuridagi Ta'lim muassasalarida
elektron ta'limni joriy etish markazi bosh mutaxassisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarga axborot muhiti, axborot ta'lim muhitida axborot tizimlari haqida asosiy tushunchalar va axborot tizimlari yaratish qulayliklari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot texnologiyalari, axborot muhiti, axborot tizimi, ma'lumotlar bazasi, dastur, dasturlash tillari, Web texnologiyalar, web server.

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ИНФОРМАЦИОННЫМ СИСТЕМАМ В ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

**Ганиева О.С. - главный специалист Центра внедрения электронного
обучения в образовательных учреждениях Министерства высшего
образования**

Аннотация. Данная статья предоставляет студентам информацию об информационной среде, основных понятиях информационных систем в

информационной среде обучения и удобстве создания информационных систем.

Ключевые слова: образование, информационные технологии, информационная среда, информационная система, база данных, программное обеспечение, языки программирования, веб-технологии, веб-сервер.

STUDENTS TRAINING IN INFORMATION SYSTEMS IN THE INFORMATION AND EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Ganieva O.S. - Chief specialist of the Center for the introduction of e-learning in educational institutions of the Ministry of Higher Education.

Annotation. This article provides students with information about the information environment, the basic concepts of information systems in the information learning environment, and the convenience of creating information systems.

Key words: education, information technology, information environment, information system, database, software, programming languages, web technologies, web server.

Zamonaviy bilimlar sari yangicha yo‘llarni o‘rganish, ta‘lim olish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish – bugungi kunning haqli ravishda talabiga aylandi. Bugungi kunda ta‘lim oluvchilarning bilim olish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O‘quv jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki talabalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini orttirishdan iborat.

Pedagogik ta‘lim tizimi, zamon talablariga javob beradigan, talabalarni turli kasbiy sohalarda faoliyat olib borishga tayyorlash uchun axborot-kommunikatsiyaning ilmiy asoslangan model va texnologiyalarini taklif qilgan holda, rivojlanib boradi. Zamonaviy sharoitlarda shiddat bilan ortib borayotgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida malakali mutaxassislarga talabni orttirib, oliy pedagogik ta‘limning yaxlit tizimida ularning kasbiy tayyorgarligini modernizatsiyalash zaruratini belgilaydi.

Ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi Oliy Majlisga

Murojaatnomasida ham dolzarb masalalar qatorida ilm-fan va ta'lim, ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy hayot munosabatlariga alohida urg'u berilganligi bejiz emas. Modomiki, ta'lim tizimining markazida inson kapitali, uni to'g'ri taqsimlash, undan samarali foydalanish va maqsadli yo'naltirish turar ekan, bunda maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimini jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari, ta'lim jarayonining barcha subyektlari bilan yaxlit bir butunlikda bugungi kun talablari asosida tashkil etish hamda ta'limning to'liq uzluksizligiga erishish oldimizda turgan muhim vazifalardandir [1].

Inoyatov U.I. ijtimoiy pedagogik zaruriyatdan kelib chiqib o'z qarashlarini quyidagicha belgilaydi. Pedagogik innovatsiya – bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir [2].

Bunday tizimning maqsadi deganda, ta'limning mazmun-mohiyati, belgilarini, imkoniyatlarini, vazifalarini, taraqqiyot bosqichlari va tamoyillarining rivojlanish mexanizmlarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar hamda bu borada pedagoglarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim-tarbiya tizimi sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishish tushuniladi.

Ta'limda shaxsiy natijalarga erishish, ta'lim oluvchilarning motivatsion resurslarini rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini amalga oshirishni, har bir talaba uchun individual ta'lim dasturlari hamda trayektoriyalarini tuzishni talab etadi. Axborot muhitning mohiyati va tarkibini o'rganishda ikki toifaga bo'lib o'rganiladi. Bular: obyektiv va subyektiv. Axborot ta'lim muhitining subyektlari ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar. Obyektlari esa o'qitish vositalari va o'quv faoliyati instrumentlari, metodikalari, moddiy baza, pedagogik mahoratni dasturiy ta'minotda individual boshqarish sohalari, kommunikatsiya usullari (tashkiliy-boshqaruv, tushuntirish-motivatsion, javob-muomala, texnik, emotsional) kiritiladi. Obyektlar bu axborot va o'quv harakatlarini tashuvchilar bo'lsa, subyektlar mazkur ma'lumotlarni o'zlashtiradi va ongida qayta ishlab, o'quv faoliyati jarayonida o'zgartirib dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va mazmuni, e'tiqod, salohiyat va boshqa shaxsiy sifatlarga aylantiradi.

Axborot tizimi axborotni qayta ishlashning axborot-kompyuter tizimini o'zida ifodalaydi. Axborot tizimi – o'z tarkibida kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, axborot va dasturiy ta'minot hamda odamlarning birgalikdagi faoliyat yuritish jarayonini aks ettirib, u iste'molchi uchun axborot ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi. Axborot tizimlarining asosiy vazifasi hodisa va jarayonlar kechishini boshqarish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Shuningdek, axborotlarga asoslangan

maqsadi oldindan belgilangan va shu maqsadga erishish dasturi ishlab chiqarilgan boshqariluvchi jarayonga maqsadli ta'sir ko'rsatadi [4].

Axborot tizimini o'qitishda o'qituvchining vazifasi ta'lim oluvchining imkoniyati, qobiliyati, iste'dodini hisobga olgan holda, tizim uchun turli O'quv materiallarini ishlab chiqish va ularni tizimga joylashtirish hisoblanadi.

Axborot tizimlarini hozirgi kunda qanday texnologiyalar yordamida yaratilishi, Web serverlarni tanlash va o'rnatish, Web dasturlash tillari bilan ishlash, ma'lumotlar bazasini loyihalash, ma'lumotlar bazasiga Web texnologiyalar yordamida murojaat etish, foydalanuvchi interfeysining dizayni, Web texnologiyalar va ma'lumotlar bazasi integratsiyasi, turli so'rovlar bilan ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish kerak.

Butun dunyo tarmog'ida joylashtirilgan barcha gipermatnli hujjatlar Web dasturlash tillari yordamida yoziladi. Web-dasturlash dasturlashning bir bo'limi bo'lib, Web-ilovalarni ishlab chiqish uchun yo'naltirilgan.

Talabalarga Web-dasturlash fanini o'rgatish bilan bir vaqtda , internet asoslari, hozirda keng tarqalgan va ommalashgan axborot tizimlarini tahlil qilish va ulardan foydalana olish, Axborot tizimlarini yaratishda dasturlash tilini to'g'ri tanlay bilish; Axborot tizimlarini loyihalashtirishning zamonaviy usullari va vositalari; Axborot tizimlari yaratish texnologiyalari va tizimlari: ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni himoyalash usullari; Web texnologiyalari va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari integratsiyasini o'rgatish zarur [5].

Axborot tizimlarni yaratish reja-loyihasi bo'yicha nazariy-ilmiy bilimlar berishdan iborat. Talabalarda axborot tizimlarini yaratishning zamonaviy usullarini, axborot tizimlarni loyihalash va yaratish, axborot tizimlarida ishlash bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyarbda O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'limi Tizimini 2030-Yilgacha Rivojlantirish Konsepsiyasini Tasdiqlash to'g'risida PF-5847-son Farmoni.

2. Inoyatov U.I. Zamonaviy elektron didaktik vositalarni yaratish, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo// Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollor// Xalqaro ilmiy konferensiya T.: 27-aprel, 2018-yil.

3. Knuhts D. The art of computer programming // <http://higherorderfun.com/blog/2011/02/16/programming-is-art/>

4. Aripov.M. va bosh. Informatika axborot texnologiyalari. – T.: Universitet, 2007.

5. Fayziyeva M. O‘quv jarayoniga moslashuvchi Web tizim – axborot ta’lim muhiti komponenti sifatida. Pedagogika// Pedagogika-Toshkent, 2016.

ADABIY TA’LIMDA XALQ DOSTONLARI TAHLILINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

(10-sinf Rustamxon dostoni misolida)

**Islomova H.A. - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
doktoranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil etish orqali o‘quvchilar ma’naviy dunyoqarashini o‘stirish haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, qo‘shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql, doston, pedagogik g‘oya.

ХАРАКТЕРИСТИКА АНАЛИЗА НАРОДНЫХ ЭПОСОВ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

(10 класс по образцу эпоса Рустамхана)

**Исломова Х.А. - докторант Узбекского государственного института
искусств и культуры**

Аннотация. В данной статье представлены отзывы о развитии духовного мировоззрения учащихся путем анализа образцов устного народного творчества.

Ключевые слова: устное народное творчество, песня, пословица, загадка, легенда, повествование, анекдот, сказка, пословица, Былина, педагогическая идея.

CHARACTERISTICS OF ANALYSIS OF FOLK FRIENDS IN LITERARY EDUCATION

(10th grade on the example of Rustamkhan's epic)

**Islomova H.A. - Doctoral student of the Uzbek State Institute of Arts and
Culture**

Annotation. This article provides feedback on the development of the spiritual worldview of students by analyzing samples of oral folk art.

Key words: folk oral creativity, song, proverb, riddle, afsona, narration, anecdote, fairy tale, transplant, epic, pedagogical idea.

Hozirgi davrning ilg'or g'oyalari orasida ta'limga kulturologik yondashuv g'oyasi tobora ko'proq muhim o'rin egallay boshladi. Ta'lim tizimida gumanitar ta'lim, xususan, adabiy ta'lim muhim o'rin egallaydi. Adabiy ta'lim adabiyot va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik kabi muhim va ahamiyatli masalani chetlab o'tolmaydi. Madaniyat va adabiyot uchun milliy va umumbashariy tamoyillarga munosabat masalasi juda muhimdir. Agar o'quvchilar ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni anglamasa, moddiy qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'ysa, doimiy inqiroz holatidan chiqmaydi.

Madaniyat va bilimning birligi har doim o'ziga xos bo'lgan, shuning uchun uni "ma'naviyat" tushunchasi bilan tavsiflash mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganlar bilan bog'liq holda, maktabda milliy qadriyatlarni yuqori darajada idrok etadigan ma'naviyatli o'quvchi shaxsni rivojlantirish va tarbiyalash zarurligi a'yon bo'lmoqda. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllanishi o'tmish asarlari xususan, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishni uyg'otish kerak.

Nazarimizda, metodik fan oldida turgan vazifalardan biri bu o'rta maktabdagi adabiyot o'quv dasturi tarkibi va mazmunini doimiy ravishda o'zgartirish emas, balki mavjud o'quv dasturida adabiy ta'limni takomillashtirish zaxiralarini ochishdir.

Agar biz o'quvchilarda turli davrlarda yaratilgan har xil voqelikni aks ettiradigan asarlarga bo'lgan qiziqishini shakllantirsak milliy va badiiy asarlarning chuqur g'oyasini anglaydilar.

Adabiy ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab, o'quvchilar nafaqat adabiyot va xalq og'zaki ijodi asarlariga bo'lgan qiziqishlari uyg'onibgina qolmay balki ularning milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini anglaydilar.

Har qanday yoshdagi o'quvchilar xalq og'zaki ijodini adabiyotdan ko'ra qiziqroq deb bilishadi.

Adabiy dasturlardagi xalq og'zaki ijodi va turli janrdagi badiiy asarlar, o'quvchining madaniyatini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Xalq og'zaki ijodi va badiiy asarlarni o'zbek milliy madaniyatini anglash nuqtayi nazaridan o'rganish adabiy ta'lim ancha samaralidir. Adabiyot, San'at va madaniyat asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish muhimdir.

Xalq og'zaki ijodi dostonlarining ta'lim imkoniyatlari keng bo'lib o'quvchilarda axloqiy va ma'naviy tarbiya beribgina qolmay insonning hayotdagi tushunchalarini yuksaltiradi. Xalq og'zaki ijodi dostonlarining teranligi, ravon tili

tahlil jarayonida o'quvchiga o'z xalqining milliy madaniyati dunyosiga yo'l ochib beradi

Shu bilan birga, ba'zi bir bog'liq muammolarga, masalan, xalq og'zak ijodini idrok etish muammosiga, adabiy ta'lim jarayonida fikrlashning (obrazli va mantiqiy) psixologik va pedagogik yondashuvlarni aniqlash kerak. Xalq og'zaki ijodi asarlarining estetik boyligi va idrokning yoshga bog'liq cheklashlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni faqat o'quvchini madaniy kontekstda shaxs sifatida shakllantiradigan bilim va ko'nikmalarni to'plash va rivojlantirish jarayonida bartaraf etish mumkin. Adabiy ta'limning samaradorligini oshirish, adabiyotni madaniy yondashuv asosida o'rganish zarurati bilan bog'liq. 10-11 sinflar adabiyoti jarayonida epik folklor janrlarini o'rganish tizimini, shuningdek, adabiyotni o'zlashtirish jarayonida o'zbek xalq og'zaki ijodini milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida idrok etish uchun zarur bo'lgan turli xil o'qish qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan uslubni ishlab chiqishdir.

Xalqning ma'naviy boyligi, birinchi navbatda asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari – qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, naql va dostonlarda o'z aksini topgan. Chunki ularda xalqning pedagogik g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy-axloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda aniq, ibratli va qiziqarli tasvirlangan, hikoya qilingan voqea-hodisalarda o'rnak bo'ladigan o'gitlar berilgan, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an'analari, urf-odatlar va falsafasi bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodi asarlari badiiy jihatdan yuksak takomilga ega ekanligi, tinglovchilarning, ayniqsa, yosh bolalarning oson tushunishiga, idrok etishiga qulayligi tufayli xalq pedagogikasining eng muhim, ko'p qamrovli va tarbiyaviy ta'siri g'oyat kuchli tarmog'i hisoblanadi. Chunonchi, maqollar xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida vujudga kelgan fikrlarni lo'nda, aniq va obrazli ifodalovchi bir vosita bo'lsa, naqlar hayotiy tajribalari, nasihatimiz fikrlari, donishmandligi, axloq qoidalari va falsafasini sodda syujet, ibratli mazmunda ifodalovchi hikoyalardir. Ertaklar esa falsafa, axloq, din, badiiy to'qima va hayototga asoslangan xalq donishmandligining mahsulidir. Shu bois ertakdagi to'qima voqea-hodisalar silsilasida xalqning ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlar, axloq-odobning o'ziga xos milliy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Rivoyatlar ham asosan ijtimoiy-maishiy voqealarni, tarixiy shaxs va hodisalarni uydirmalar vositasida bayon etuvchi kichik hajmli hikoyalar bo'lib, ularda lutf va nazokat, aql va idrok, ishq va vafo, adolat va sahovat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik madh etiladi, zulm va zorlik, xaqizlik va bosqinchilik qoralanadi.

Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining yirik namunasi hisoblangan dostonlarda umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlar, marosimlari, an'analari, orzu-umidlari, erk va ozodlik

yoʻlidagi mardonavor kurashlari, vatanparvarligi, sevgi-muhabbatga sadoqati, kelajakka yaqqol ifodalangan. Buni «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Rustamxon», «Murodxon», «Oysuluv», «Shirin bilan Shakar», «Kuntugmish» kabi dostolarida koʻrish mumkin. Chunki bu dostonlar, avvalo, xalq pedagogikasining tarkibiy qismini tashkil etib, ularda oila va bola tarbiyasi, kelin-kuyov masʼuliyatli va burchi, ota-ona va oʻzgalarga hurmat tuygusi, doʻstlik va hamkorlik, xayru sahoovat va mehmonnavozlik, sevgi va sadoqat, jasurlik va qahramonlik fazilatlarini kabi maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar ulugʻlangan. Misol uchun bu dostonlarda qanday milliy qadriyatlar oʻz ifodasini topganini koʻzdan kechiraylik.

«Rustamxon» dostoni Oqtosh viloyatining bahodiri Rustamxonga bagʻishlangan boʻlib, uning kundoshlar tuhmatiga yoʻliqqan onasi Huroyimni jallodlardan qutqarish yoʻlidagi jasurligi va onasi bilan oʻz yurtidan boshini olib ketgan davridagi gʻaroyib va hayotiy sarguzashtlari tasviridan iborat. Dostondagi tarbiya vositalaridan biri shuki, unda xalqimizning ayolga samimiy munosabati, onaga nisbatan hurmat va eʼzoz, onalik va bolalik baxtu iqboliga boʻlgan mehru muruvvati gʻoyat hayajonli lavhalarda tasvirlangan. Masalan, otasi Sultonxon podsho buyrugʻi bilan 300 jallod tomonidan onasi Huroyimning Mansur doriga haydab ketilganligini eshitgan oʻn toʻrt yoshli Rustamxon otni egarlab, jang asboblarini olib, ikki tozisini yoʻlga solib, jallodlar ketidan quvlab boradi va ularga qarshi jangda katta gʻayrat-matonat koʻrsatadi. Dostonda begunoh onani-tuhmatga yoʻliqqan Huroyimni qutqarish, unga omonlik tilash yoʻlida xalqning diniy qarashlari, islom gʻoyalari bilan bogʻliq tasavvuridan ham gʻoyat oʻrinli foydalanilgan. Avvalo, uch xotindan ham farzand koʻrmay, shohlik shavkatini ham tashlab ketishga rozi bolgan Sultonxon diniy udumga kora, soʻfi-darveshlardan fotiha olgandan keyin, «hademay Huroyim degan oʻrtancha xotini homilador boʻlib qoladi». Soʻngra xalqning diniy tushunchasiga kora, Mansur dori begunoh tuhmat bilan oʻldiriladigan kishilar uchun qurilgan.

Shu bois Huroyimning begunoh oʻldirilishini istamagan xalq xudoga iltijosini Huroyim tilidan shunday izhor etadi:

«...Senga osilgandir tuhmatning bari,
Begunoh quridi oyimning shoʻri,
Tort ming gaz koʻtaril Mansurning dori,
Otganda etmasin jallod arqoni!

Huroyim bu soʻzni aytib boʻlgandan keyin dor shiqirlab, poyidan qoʻzgalib koʻtariladi. Dor ham endi bu tuhmatdan xazar qiladi...» (Rustamxon, 386-387-sahifalar).

Dostonda sharqona tarbiyaning yana bir korinishi farzand odob-axloqi, mehr-shavqati va burchining ota-onaga itoatida, hurmat qilishida, gap qaytarmasligida namoyon bolishidir. Chunonchi, Rustam zolimlarni yengib, onasini eson-omon

ko'rgandan keyin, endi Oqtoshga qaytamizmi, deb onasidan maslahat so'raydi. Onasi shunday javob qaytaradi:

«Meni desang Oqtosh elga bormayman,
Otangning diydori qursin, ko'rmayman,
Qaytib borib, bu ish esimga tushib,
Sira, bolam, burungiday bo'lmayman...

Rustam esi kirib qolgan, kitob oqib har gapning ma'nosiga tushunadigan bolgan, serfahm, aqli ko'p yigit edi. Enasining so'zlarini tinglab, ma'nosiga tushunib, ...enasining gapi ma'qul bo'lub: . Ena, unday bo'lsa ixtiyor sendada. Sen shu gaplarni aytding; men otamning qoshiga bormayman, sendan ayrilib qolmayman. Tirik bo'lsak, bir tepada, o'lik bo'lsak bir chuqurda. Endi senning hayoling qaerda bo'lsa, mening ham hayolim shu yerda, dedi». (Rustamxon, 390-391-sahifalar).

Ona va bola o'rtasidagi shu birgina samimiy muloqotdan ajdodlarimizdan meros qolgan hurmat, mehr-muhabbat qoidalari targ'ib etilgani yaqqol ifodalangan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bunday ota-onaga, kattalarga hurmat qoidasi asosini e'zozlash, rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash, xizmatga tayyor turish, avaylash, ma'qullash, to'g'ri maslahat berish, ranjitmaslik, samimiy va iltifotli bo'lish kabi muhim insoniy fazilatlar tashkil etishi ta'kidlangan. «Rustamxon» dostonida bunday ma'naviy qadriyatlar va milliy an'analarni unda tasvirlangan barcha voqea-hodisalar va obrazlarda korish mumkin. Zotan, dostonning asosiy g'oyaviy yo'nalishi ham – ona yurtga muhabbat qo'yish, oddiy kishilarga muruvvat ko'rsatish va yaxshilik qilish, dushmanga nisbatan gazab va nafrat bildirish, olijanob ezgu niyatlar yo'lida qat'iyat, dovyuraklik va jasurlik ko'rsatish, katta yoshdagi kishilarga jumladan, ota-onaga mehr-shafqatli, muruvvatli, sahovtli bo'lish, insonlar o'rtasidagi birodarlikni ulug'lashdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Karimov. I. A «Yuksak manaviyat- yengilmas kuch» Toshkent, «Manaviyat» 2008-y.
2. Bahodirov O. Yangicha an'ana va urf-odatlar hayotga. «O'zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1985-y.
3. Beruniy A.R. «Ruhiyat va ta'lim tarbiya haqida». «Oqituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1992 yil.
4. Abdurahimova D., Dadasheva S. «Xalq ogzaki ijodi-tarbiya vositasi. T., 1995.
5. Safo Ochil «Mustaqillik va tarbiya masalalari». T.: O'zbekiston, 1996.
6. Musurmonov A. «Ta'lim-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish». T.: O'qituvchi, 1993.

7. Murodov M. «Sirli sandiq ochildi». T.: Oqituvchi. 1996. 22.1-4 sinf «O‘qish mashg‘ulotliklari».

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH MUHIM OMIL SIFATIDA

Buvorayeva G.SH. – Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish borasidagi metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, boshlang‘ich sinf, ota-ona, o‘qituvchi, ma‘muriyat, sport tadbiri, ta‘lim, tarbiya, shakllantirish, musobaqa, omma.

ОРГАНИЗАЦИЯ ФИЗКУЛЬТУРНО- СПОРТИВНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛАХ В КАЧЕСТВЕ ВАЖНОГО ФАКТОРА

Бувораева Г. Ш. - магистр Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. Статья посвящена организации физкультурно-спортивных мероприятий в начальной школе, включающей организацию физкультурно-спортивных мероприятий среди учащихся начальных классов общеобразовательных общеобразовательных школ и даны методические рекомендации по их проведению.

Ключевые слова: физическая культура, начальная школа, родитель, учитель, администрация, спортивное мероприятие, образование, воспитание, формирование, соревнование, сообщество.

ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS EVENTS IN PRIMARY SCHOOLS AS AN IMPORTANT FACTOR

Buvorayeva G.SH. - Master of the Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article is devoted to the organization of physical culture and sports events in primary school, which includes the organization of physical culture and sports events among primary school students in general secondary schools and methodical recommendations on conducting are given.

Key words: physical education, primary school, parent, teacher, administration, sports event, education, upbringing, formation, competition, community.

Jamiyatimizda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda oʻz irodasi, kuchi va imkoniyatlariga boʻlgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik ona Vatanga sadoqat tuygʻularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yoʻnaltirilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va maʼnaviy sogʻlomlikning asosi ekanini targʻib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga oʻz qobiliyat va isteʼdodlarini roʻyobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Oʻzbekiston Respublikasi hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirish maqsadida: Oʻzbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi tasdiqlangan [1].

2020-yil 30-oktyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6099-son Farmoni imzolandi. Mazkur, Farmon ijrosini taʼminlash maqsadida barcha taʼlim muassalari, shuningdek, tashkilotlar ham ommaviy sportning turli yoʻnalishlari boʻyicha ixtisoslashtirilib, bu boradagi ishlar jadal ravishda amalga oshirilmoqda. Bu oʻz navbatida bugungi kunning jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga masʼuliyatli vazifalarni yuklaydi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda, albatta, umumiy oʻrta taʼlim tizimida olib boriladigan Jismoniy tarbiya darslarining mazmunini takomillashtirish hamda uning parametrlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarning sogʻligini mustahkamlash barobarida ularda ham taʼlimiy, ham tarbiyaviy xususiyatlarni shakllantirib borish lozim. Bu esa nafaqat jismoniy tarbiya darslari balki, darsdan tashqari sogʻlomlashtirish tadbirlarida ham amalga oshirishga keng imkoniyat yaratib beradi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida sport tadbirlarini tashkil etish va oʻtkazish hozirgi kunda asosan yuqori sinflarda tashkil etilishini inobatga olsak, unda faqatgina taʼlimiy jihatlarning shakllanayotganligini koʻrishimiz mumkin. Aslida mazkur

jarayon o‘tib kelayotgan yosh avlodning maktabga qadam qo‘ygan ilk kunlaridanoq amalga oshirish ularning ta‘limiy–tarbiyaviy va jismoniy sifatlarini shakllantirib borishda asosiy fundament vazifasini o‘taydi.

Jismoniy tarbiya sohasidagi tadqiqotlarda asosiy urg‘u u yoki bu (jismoniy) sifatlarni shakllantirishga qaratilgan. Lekin, boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarning harakat faoliyati psixologik, anatomik, fiziologik, ta‘limiy-tarbiyaviy hamda immun faoliyati impulsining bir maromda muvaffaqiyatli rivojlanishini ko‘rsatadi. Bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan amalga oshiriladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishda hamda ularni kelgusi hayotiy jarayonlarga tayyorlashda muhim omil sifatida e‘tirof etish mumkin.

Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan tashkil etiladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish orqali ularning yetuk shaxs sifatida shakllanib borishini ko‘rib chiqamiz.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar bilan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish juda qiziq, lekin ayni paytda juda ko‘p tayyorgarlikni talab qiladi. Birinchidan, tadbirga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish uchun batafsil, aniq reja tuzish lozim va uni maktab ma‘muriyati tasdiqlashi kerak bo‘ladi. Tadbirga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni bevosita boshqarish uchun tashkiliy qo‘mita tuzilishi kerak. Unga jismoniy tarbiya o‘qituvchilaridan tashqari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maktab ma‘muriyati a‘zolari kiritiladi[4].

Tashkiliy qo‘mitani tuzish bayramni muvaffaqiyatli nishonlashning muhim shartidir, chunki bitta jismoniy tarbiya o‘qituvchisi yoki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi paydo bo‘lgan barcha savollarni hal qilishi qiyinchilik tug‘diradi. Tashkiliy qo‘mita tuzilgan yoki tuzilmaganligidan qat‘iy nazar, tadbirga tayyorgarlik ko‘rayotganda, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun targ‘ibot ishlari qanchalik mohirona amalga oshirilsa, uning natijasi shu qadar yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazida foydalanish mumkin bo‘lgan turli shakllar va usullar juda xilma-xil bo‘lib ularga quyidagilar kiradi: varaqalar, devor gazetalari, shiorlar va murojaatlardan tortib maxsus sport burchaklariga, ko‘rgazmalar va maktab radio dasturlariga qadar. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni jismoniy tarbiya darslarining kirish (nazariy) qismida targ‘ibotni ishlarini amalga oshirish, jismoniy tarbiya va sportning har bir kishiga qanday foyda keltirishi haqida gapirish orqali o‘quvchilar ongini shakllantirish lozim bo‘ladi. Sport musobaqasiga tayyorgarlik ko‘rayotganda, bitta muhim vazifani yodda tutish kerak: jamoalarga yoki ishtirokchilarga musobaqaga tayyorgarlik ko‘rishga yordam berish va musobaqa shartlari hamda qoidalariga rioya etishlarini ta‘minlash lozim bo‘ladi. Buni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilar amalga oshirishi mumkin.

Har bir sport tadbirida, albatta, maktab hamshirasi (tibbiy mutaxassis) bo‘lishi nazarda tutiladi. Tadbirda sport zallari va o‘yin maydonchalari, sport inventarlari va jihozlari, shuningdek, natijalarni o‘lchash jihozlari va boshqa inventarlar kerak

bo'лади. Bularning barchasini oldindan tayyorlab qo'yish jismoniy tarbiya mutaxassisiga yuklatiladi. Ishga iloji boricha maktab o'qituvchilari (ehtimol yuqori sinf o'quvchilari) va ota-onalar qo'mitasi a'zolaridan ko'proq jalb qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, joylarni ta'mirlash, ko'kalamzorlashtirish, bezatish va markirovka qilish bo'yicha barcha ishlar maktab o'qituvchilarining o'zlari tomonidan bajarilishi shuningdek, mavjud sport anjomlari va jihozlarini ta'mirlashga, yetishmayotgan sport anjomlari va aksessuarlarini turli o'yinlar, estafeta poygalari va sport attraksionlariga tayyorlashga yordam berishlari lozim[3].

Sport tadbirlarining muhim va tantanali daqiqalaridan biri g'oliblarga sovrinlar topshirishdir. Ularni tayyorlash va sotib olish maktab ma'muriyatiga, ota-onalar qo'mitasiga, homiylarga yuklatilishi mumkin. Har qanday jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining muvaffaqiyatli o'tishi ko'p jihatdan hakamlar hay'atining aniq ishi va vakolatiga bog'liq. Shuning uchun hakamlarni tanlash va ularni muayyan musobaqalar, o'yinlar yoki musobaqalarga hakam etib tayinlash masalasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi [5].

Tadbir arafasida hakamlar bilan seminar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bosh hakam, albatta, maktab direktori yoki jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lishi lozim. Chunki, mazkur shaxslar sport tadbirlaridagi turli murakkabliklarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musobaqaning madaniy tashkil etilishi ham ko'p jihatdan hakamlarga bog'liq. Sport maydonchalari va sport zallariga buyurtma berish (agar maktab imkoniyati bo'lmasa), musobaqa natijalari to'g'risida o'z vaqtida va to'liq ma'lumot berib borish darkor. Tadbirni o'tkazishda, ayniqsa uning sport qismini, musobaqalar, o'yinlar va musobaqalarning ayrim turlariga qancha vaqt kerakligini oldindan aniqlash juda muhimdir. Har bir tadbir uchun tayyorgarlik va o'tkazish rejasi tuziladi, uning qoidalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: maqsad va vazifalar, dastur, vaqt va joy, ishtirokchilarning yoshi va jamoa tarkibi, g'oliblarni aniqlash va mukofotlash tartibi va boshqalar.

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirining umumiy dasturi va uning alohida qismlarini (sport, jismoniy mashqlar va ko'ngilochar) yakuniy ishlab chiqishni boshlashdan oldin, musobaqada nechta jamoa yoki ishtirokchi ishtirok etishini, qancha tomoshabin qatnashishini bilish kerak.

Har bir tadbirda hozir bo'lganlarning barcha toifalari qiziqishi nuqtayi nazaridan o'g'il bolalar ham, qizlar ham, ota-onalar ham, muxlis, sifatida ishtirok etadi. Bu esa jismoniy tarbiya va sport tadbirining qiziqarli va yuqori darajada o'tishini ta'minlab beradi. Har bir sport musobaqasining o'ziga xos tafsilotlari va an'analari bo'lishi juda muhimdir. Sport tadbirlarining yorqin nomlari bolalarning qiziqishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan: "Quvnoqlar va zukkolar", "Bizning sport zalimizda o'yin-kulgi", "Salom, qo'shni jamoa", "O'tish-sakrash", "Basketbol partiyasi", "Kichik bolalar shousi-o'ynoqilar", "Ertaklar mamlakatiga sayohat" va boshqalar. Har bir jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining o'ziga xos xususiyatlari timsol, bayram musobaqalari ishtirokchilari uchun nishon, taklifnoma, shior va

qo‘shiqlar bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi, agar iloji bo‘lsa, mustaqil ravishda ishlab chiqarilishi kerak. Yorqin, grafikali, zukko plakatlar va taklifnomalar bolalarni e‘tiborini tortadi, qiziqtiradi, ulardagi bo‘lajak kelgusi hayotdagi voqealar haqida yoqimli tasavvur hosil qiladi va ularni unda ishtirok etishga undaydi. Ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazishda, maktab havaskor jamoalarining chiqishlari dasturning ko‘ngilochar qismiga kiritilishi sport tadbirining muvofaqiyatini ta‘minlab beradi [2].

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazishda quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o‘tkazish jadvali, sport bayramining vazifalari – sport tadbirlari ularning dasturi va tuzilishi jihatidan juda xilma-xil bo‘lishi mumkin. Bu bayram mavzusini tanlashga, uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga bog‘liq. Sport bayramlari “Sportchi kuni” yoki “Bolalar kuni” ga, qish bilan xayrlashishga, yil boshiga va boshqalarga bag‘ishlanishi mumkin. Bunda ishtirokchilar paradi (sport formasida maydonga kirgan guruhlar, qurilish va rekonstruksiya); guruhlarning ko‘rgazmali chiqishlari (umumiy rivojlanish mashqlari, she‘rlar, qo‘shiqlar); o‘yinlar va attraksonlar; sport tadbirining yakunlanishi (“medallar” bilan taqdirlash va h.k.).

Bayram sport musobaqasi shaklida o‘tkazilishi mumkin, unda 2 yoki undan ortiq jamoa qatnashadi, jamoalarning o‘z nishoni, shiori, sardori va jamoa rahbari bo‘lishi nazarda tutiladi.

2. Sport bayramining vazifalariga - jismoniy tarbiya va sportni targ‘ib qilish; har xil sport turlari bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlash va ularga ko‘rsatmalar berish; o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash va ularda ta‘limiy-tarbiyaviy, hamda jismoniy rivojlanganlik darajalarini aniqlash; eng kuchli sportchi o‘quvchilarni aniqlash va ularni tuman, shahar va respublika musobaqalariga tayyorlash; shaxsning uyg‘un rivojlanishi; vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni targ‘ib qilish.

Vazifalar samarali hal qilinishi mumkin, agar quyidagi prinsiplarga rioya qilinsa:

- tadbirni tashkil etishda uning vazifalariga muvofiqligi ta‘minlansa;
- maktabning rejimini hisobga olgan holda, sport tadbirining vaqti va joyi bo‘yicha ishtirokchilarning mavjudligi ta‘minlansa;
- raqobatbardosh mashqlarning tayyorgarligi, ishtirokchilarning jinsi va yoshiga mosligi aniqlansa;
- ishtirokchilar, hakamlar va tomoshabinlar xavfsizligi ta‘minlansa;
- sport tadbirining aniqligi va ravshanligi, ochilish va yopilish marosimidan, ishtirokchilar natijalarini aniqlashda obyektiv yondashish, ishtirokchilarni o‘z vaqtida yutuqlarini sarhisob qilib borish va mukofotlash ta‘minlansa va boshqalar.

Xulosa tariqasida shuni ta‘kidlash joizki, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining tashkil etish asnosida boshlang‘ich sinf

o'quvchilarini ta'limiy-tarbiyaviy, jismoniy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ta'limning muhim omili sifatida e'tirof etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-Qarori.

2. Ismoilov T.U. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirish tadbirlari asosida tashkil etishning pedagogik asoslari. Diss...ped.fan.nom. Toshkent-2011-yil 138-b.

3. Otajonova Sh.A. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari. Diss...ped.fan.nom. – T., 2001.-125 b.

4. Предигер, А. В. Особенности организации и проведения физкультурно-массовых мероприятий с детьми младшего школьного возраста / А. В. Предигер. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2015. – № 1.2 (81.2). – С. 42-44. – URL: <https://moluch.ru/archive/81/14739/> (дата обращения: 13.08.2021).

5. Mahkamjonov K.M. Sport baramlarini tashkil qilish va o'tkazish. Toshkent-2014-y. TDPU bosmaxonasi. 247-b.

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Achildiyeva M.E. - Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ona tilini namunalar va maxsus mashqlar asosida amaliy, muntazam va izchil o'rgatish orqali adabiy-badiiy nutq shaklini shakllantirib borishni taqozo qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: nutq, nutq madaniyati, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, metodika, ona tili darslari

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Ачильдиева М.Э. – магистр Термезского государственного
университета**

Аннотация. Предусмотрено формирование литературно-художественной речевой формы родного языка посредством практического, систематического и последовательного обучения на основе примеров и специальных упражнений. Основная задача уроков родного языка в начальных классах состоит из подготовки учащихся к познавательной деятельности, формирования коммуникабельной и способной к доступному изложению своей мысли личности.

Ключевые слова: речь, культура речи, начальная школа, учащиеся, методика, уроки родного языка.

METHODOLOGY OF FORMATION SPEECH CULTURE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Achildiyeva M.E. – magister of Termez State University

Annotation. This article discusses the formation of a form of literary and artistic speech through practical, regular and consistent teaching of the native language on the basis of examples and special exercises. The main task of primary school mother tongue lessons is to prepare students for learning activities, to form a person who is able to communicate with others, to communicate their ideas in an understandable way to others.

Key words: speech, speech culture, primary school, students, methodology, native language lessons

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘rta ta‘lim muassasalari, xususan, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari ta‘limi tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi tasdiqlanib, u «milliy va umumbashariy ma‘naviy qadriyatlar, mehnat ko‘nikmalari, ijodiy tafakkur, tevarak olamga va kasb tanlashga ongli munosabat negizida fan asoslari bo‘yicha tizimli bilimlar olinishini ta‘minlash, bilimlarni o‘zlashtirishga ehtiyojni kuchaytirish, tayanch o‘quv, ilmiy va umummadaniy bilimlar, ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish»ga yo‘naltirilgan. Hususan, boshlang‘ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to‘g‘riligi ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o‘qituvchining o‘quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlardan biri sanaladi

Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o‘tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o‘rin egallagan. Forobiy to‘g‘ri so‘zlash, mantiqiy xulosalar

chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq sohibi bo‘lish haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisi, jismlarga, ya’ni substansiya (mustaqil, o‘z-o‘zidan mavjud) va aksidensiya (tasodifan namoyon)lariga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidentiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi.

Uchinchi ilm logikadir: u ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri va nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz”.

Nutq atamasi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, so‘zlash, nutq; gapirish qobiliyati ma’nosini bildiradi. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi.

Ma’lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o‘rni va roli qadimdan ko‘pchilikni qiziqtirib keladi. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida nutqni mahnaviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so‘zlash quvvati haqida shunday deydi: “...so‘zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazziyatli va achchiq narsalarni fahmlaydi”. M.Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida “Adab boshi – til” maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma’naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog‘li ahamiyatli ekanligiga urg‘u berganini ko‘rsatadi. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so‘z orqali a’yon bo‘lishini aytib, nutqning ravon bo‘lishiga da’vat etadi: “O‘quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro‘shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro‘-e’tiborni ham kishi til orqali topadi. Hech qachon ko‘p gapirma. Juda oz so‘zla. Tuman so‘z tugunini bitta so‘z bilan yozib yubor, ya’ni oz so‘zlarga ko‘proq ma’no singdirish payidan bo‘lgin”.

Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida so‘zlash madaniyati quyidagicha e’tirof etadi: “... xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar, .har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashiringan bo‘ladi.”

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlarda til, lug'at boyligi va nutq madaniyati haqida bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi.

Boshlang'ich sinf ona tili dasturiga kiritilgan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, so'z yasalishi, morfemik (so'z tarkibi), grafik, orfografik, orfoepik, grammatik mashqlarga ajratish mumkin. Mazkur mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil o'quvchilarning nazariy tushunchalarni o'zlashtirishlariga yordam berishi, lug'atini boyitishi, bog'lanishli nutqini o'stirishi jihatidan keng qamrovli bo'lib, o'quvchilarning tilni har tomonlama o'zlashtirishlarini ta'minlashini nazarda tutadi.

Ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf "Ona tili" darsliklaridagi mashq matnlarining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savol-topshiriqlarni tahlil qilish, ularning o'quvchilar nutqini tadrijiy ravishda o'stirib borish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatdi. "Ona tili" darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, o'quvchilar lug'atini boyitish, nutqini o'stirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos bo'la olmaydi. Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma'lumot berishga mo'ljallangan terma to'qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bog'lanishli nutqni egallashga ijobiy ta'siri kam. Oddiy so'zlashuv nutqi shaklidagi "qashshoq" matn o'quvchi nutqini boyitish uchun manba bo'la olmaydi. O'quvchilarning o'zbek adabiy tilini egallashlari mashq matnlarining badiiyligiga, til komponentlariga boyligiga bog'liq.

Darslarni didaktik o'yinlar vositasida olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Quyida boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin namunalarini keltiramiz.

"Zanjir" o'yini. O'qituvchi tilda mahnodoshi bo'lgan so'z aytadi, o'quvchilar parta ketma-ketligida unga ma'nodosh so'zni topib aytadilar. Ma'nodoshi qolmagan paytda navbatdagi o'quvchining o'zi tilda ma'nodoshi bor so'z aytib o'yinni davom etishiga yordam beradi. Bir qator parta o'quvchilari bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin. O'yin ketma-ketlikda davom ettiraveriladi. Masalan, bir qatorda 10 ta o'quvchi o'tirgan bo'lsa uchta, to'rtta mahnodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin. 4-sinfda 304-mashq bajarilib bo'lingach bu o'yin uyushtirilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Masharipova U. Formirovanie kommunikativnix kompetentsiy

mladshix shkolg'nikov na osnove razvitiya svyaznoy rechi // XIII-mejdunarodnoy konferentsii "Obrazovanie cherez vsyu jizng': neprerqvnoe obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya" №13-ya mejdunarodnaya konferentsiya. Sank –Peterburg. (LGU) 2015. –S. 116-117

2. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. –T.: O'qituvchi. 1995. 80-b

3. Nisanbayeva A.Q. O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari

4. Nishonaliyev U.N. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar //Xalq tahlimi j. – T.: 1999. 6-son. – 28-31-b.

5. Nurullayeva Sh.U. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi. ped. f. n. dissertatsiya, Qarshi: 2008. 145 b.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Soliyev O.F. - Farg'ona viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlikning mavjudligi uning o'z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga yetkazish asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, kompetentlik, innovatsion, kompetentsiya, kommunikativ.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СЛУШАТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

**Солиев О.Ф. - преподаватель Ферганского областного центра
переподготовки и повышения квалификации народного образования.**

Аннотация. В статье описаны основы усвоения учителем современных методических знаний, навыков и умений, а также наличие педагогической компетентности в развитии компетентной личности в его педагогической деятельности.

Ключевые слова: развитие, компетентность, инновации, компетентность, коммуникация.

CHARACTERISTICS OF DEVELOPING PEDAGOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE PROCESS OF PROFESSIONALISM

**Soliyev O.F. - Teacher of the Fergana Regional Center for Retraining
and Advanced Training of Public Education**

Annotation. This article describes the basics of a teacher's acquisition of modern methodological knowledge, skills and abilities, as well as the presence of pedagogical competence in the development of a competent person in his pedagogical activity.

Key words: development, competence, innovation, competence, communication.

Zamonaviy ta'lim rivojiga bolgan e'tibor shaxsning nafaqat aqliy o'sishida, balki shu bilan birgalikda uning ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy kamolotidagi uyg'unlikni ham talab etadi. Bu jarayonning to'laqonli amalga oshuvi asosan o'qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik bilimlari va mahorati bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalarida jahonga yuz tutishi, o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olganligi, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tobora chuqurroq kirib borayotganligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oldiga yuksak ma'naviy-axloqiy vazifalarga ega bo'ladigan, har jihatdan raqobotbardosh mutahassislarni tayyorlash vazifasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Ushbu vazifani hal etish maqsadida davlatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan 2017–2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida"gi qaroriga muvofiq barcha oliy o'quv yurtlarida 2017–2018-o'quv yilidan boshlab sirtqi, maxsus sirtqi, qayta tayyorlash kurslari faoliyat boshladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli "Umumiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash tog'risida"gi qaroriga muvofiq uzluksiz ta'lim, xususan pedagogik kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining ta'lim mazmuni yangilanishi, o'quv reja fan dasturlari va DTS kompetentsiyali yondashuv asosida qayta ishlanishi

lozim. Mazkur kompetensiyali yondashuv asosida shakllantirilgan DTS amaliyotga joriy etish oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari: ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi. Zamon bilan hamnafas professor-o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatini yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o'qitishda interfaol metodlar, pedagogik, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishni yo'lga qo'yishi lozim. Ma'lumki, yuqorida qayd etilgan innovatsiyalar ta'lim-tarbiya jarayoniga majmua holda joriy etilishi o'qituvchidan muayyan metodik bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, pedagogik kompetentlik (layoqat)ni talab etadi.

O'qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlikning mavjudligi uning o'z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga yetkazishni nazarda tutishiga asos bo'ladi. Shuni qayd etish kerakki, o'qitish jarayoniga kiritilgan innovatsion ta'lim muhiti talablari asosida bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga muayyan o'zgartirishlar kiritilishi lozimligi e'tibordan chetda qolmoqda. Pedagog kadrlarni tayyorlashda uning pedagogik faoliyatiga majmuali yondoshilmaganligi oqibatida bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatining dastlabki adaptatsiya davrida muayyan qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarini bitirgan bakalavrlar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritishi e'tiborga olinsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining metodologik asoslari bilan tanish bo'lmaganligi sababli, ularning kasbiy motivatsiyasining pasayishi, o'z kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirish bo'yicha maqsadli izlanish olib borishi sust bo'lishi kuzatiladi, natijada ular tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini shablon tarzida tashkil etishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda o'qituvchilarning pedagogik kompetentlik (layoqat) iga aniqlik kiritish zarurati vujudga keladi. Ta'lim oluvchilarning bilim samaradorligini oshirishda pedagog kasbiy faoliyatning qadriyatga yo'naltirilgan asosi bu – "kompetensiya" va "kompetentlik". Uning tuzilishi va mazmuni quyidagicha: Kompetensiya – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil etishga tayyorligi. Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik — noananaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga ega ekanligi anglatadi [2].

Pedagogik kompetentlik – bu o'qituvchining kasbiy-psixologik xususiyati bo'lib, pedagogik faoliyatni tashkil etish va boshqarishda subyektiv shart-sharoitdagi

amaliy-nazariy harakatini ifodalovchi sifatlar yig'indisi sanaladi. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirishi lozim. Lekin mazkur kompetensiyalarning mazmun-mohiyatidan xabardor bo'lmagan, o'quvchilarda mazkur kompetensiyalarni tarkib toptirish mazmuni, metodikasi va texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lmagan bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatida muayyan qiyinchiliklarni his etadi.

Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

Pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining namunaviy o'quv rejasiga "Pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati" kursi kiritilishi;

Bo'lajak pedagogik kadrlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga zamin tayyorlaydigan pedagogika, psixologiya, pedagogik texnologiyalar va mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi kurslarining namunaviy va ishchi dasturlari mazmuniga tayanch va xususiy fan kompetensiyalarining mazmun-mohiyati, o'quvchilarda mazkur kompetensiyalarni tarkib toptirish mazmuni, metodikasi va texnologiyalari kiritilishi;

Bo'lajak pedagogik kadrlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, barkamolligini ta'minlashga zamin tayyorlaydigan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-aniq fanlar, ilmiy-nazariy tayyorgarligini amalga oshirishga mo'ljallangan mutaxassislik fanlarni o'qitishda talabalarda kasbiy-pedagogik, shuningdek, tayanch va xususiy fan kompetensiyalarni tarkib toptirishga e'tibor qaratish;

Bolajak pedagogik kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, kasb malakasini ortirish maqsadida "Mutaxassislik fanlarni o'qitishda kompetentsiyaviy yondashuvni amalga oshirish metodikasi" maxsus kursni o'qitishni yo'lga qo'yish;

Talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholash reyting tizimiga muayyan o'zgartirishlar kiritish. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash barobarida, ularning tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni egallaganlik darajasini aniqlash maqsadida nostandart adaptiv test va o'quv topshiriqlaridan foydalanish yuzasidan tavsiyalar tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim [3].

"2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" da belgilangan uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish kabi muhim vazifalardan kelib chiqqan holda, 2021-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori qabul qilindi [4].

- pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta'lim muassasalari, Institut hamda hududiy markazlarda joriy etiladigan pedagogik tayyorgarlik modullari bo'yicha bakalavriatning so'nggi 2 bosqichida tahsil olayotgan talabalar o'qishga qabul qilinadi;

- modullar bo'yicha o'qitish talabalarning Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishdan bo'sh bo'lgan vaqtda Xalq ta'limi vazirligining granti va to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

- modullarni Xalq ta'limi vazirligining granti asosida o'zlashtirgan talabalar Oliy ta'lim muassasalarini bitirganidan so'ng ikki yildan kam bo'lmagan muddatga ishlab berish uchun vazirlik tomonidan davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga taqsimlanadi;

- modullarni o'zlashtirganlik to'g'risidagi sertifikatga ega shaxslarga Oliy ta'lim muassasalarida o'qishni bitirganidan so'ng qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan mutaxassisligiga oid fanlardan umumiy o'rta va professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi.

- ilmiy-texnik taraqqiyot, yangilanib borayotgan jamiyatning mahoratli pedagog shaxsiga nisbatan ortib boruvchi talablari bilan o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosiy qismining o'z-o'zini rivojlantirib borish sharoitida faoliyat yuritishga tayyor emasliklari o'rtasidagi ziddiyatlar kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu kabi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishdan iboratdir.

Mutaxassislar tashkilotchilik kompetentlikni rivojlantirish, malaka oshirish ta'lim tizimlarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis kompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi. Agarda "kompetentlik" va "kompetentlilik" tushunchalarning kelib chiqishiga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohatlar esa shaxsning har tomonlama rivojlanishini rag'batlantirishni, inson uchun butun hayoti davomida zarur bo'ladigan kasbiy kompetensiyalarini, ta'lim xizmati va mehnat bozorining o'zora ta'sirlashuvini, o'qituvchi malakasi va kompetensiyasiga yagona talabni joriy etishni ta'minlaydi. Ta'limga kompetentli yondoshuvni joriy etish esa bu masalalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi. Kompetentlilik (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining uning ijtimoiy-professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalar bajarish, muammolar hal qilishga yetarliligi ham haqiqiy moslik darajasi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati,

kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. Ta'limda kompetentli yondoshuv deyilganda, ta'lim oluvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi [5].

Kompetentlik yondoshuvi ta'lim sifatini baholash uchun ham juda muhim hisoblanadi, chunki, ta'lim oluvchi tomonidan erishiladigan asosiy ta'limiy natija – kompetentlik hisoblanadi, uning asosiy ko'rsatkichlari esa, bir tomondan ta'lim standartlarining me'yoriy talablariga muvofiqligi, ikkinchi tomondan, shaxsning va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga mosligidir.

Shunday qilib, kompetentlikning birinchi tarkibiy qismi me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan ta'lim natijalaridan iborat. Ikkinchi tarkibiy qismini ijtimoiy talablar va ehtiyojlar belgilaydi, bu qism jamiyatning rivojlanishiga mutanosib ravishda universal, o'zgaruvchan bo'lib, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilib turiladi.

Adabiyotlar

1. Nurumbekova Ya.A. Kattalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari "Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. 27-aprel, 2018-yil. – B. 17.

2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015.

3. Tolipova J.O. "Kompetentsiyaviy yondashuv talablari asosida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish muammolari." Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. 27-aprel, 2018-yil. – B. 227-228.

4. 2021-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4963-son qarori.

5. Turmatov J.R. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari. "Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar". Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. 27-aprel, 2018-yil. – B. 242.

“UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI” FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI

Norquziyeva M.Sh. – Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Umurtqalilar zoologiyasi" fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ularni darsga tadbiiq qilishning ustuvor yo'nalishlari ko'zda tutilgan. Shuningdek mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayoniga yangiliklarni joriy etishda pedogoglarning tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: zoologiya, multimediya, model, resurs, texnologoya, tajriba.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА «ЗООЛОГИЯ ПОЗВОНОЧНЫХ» - ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА

Норкузиева М.Ш. – преподаватель Джизакского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются приоритеты использования современных технологий в преподавании зоологии позвоночных в высшей школе и их применение на занятиях. Также имеется информация о роли учителей во внедрении инноваций в образовательный процесс в высших учебных заведениях страны.

Ключевые слова: зоология, мультимедиа, модель, ресурс, технология, опыт.

THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SUBJECT "SPIRITUAL ZOOLOGY" IS A FACTOR TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON

Norkuziyeva M.Sh. - Teacher of Jizzakh State Pedagogical Institute

Annotation. This article discusses the priorities for the use of modern technologies in the teaching of vertebrate zoology in higher education and their application in the classroom. There is also information about the role of teachers in the introduction of innovations in the educational process in higher education institutions of the country.

Key words: zoology, multimedia, model, resource, technology, experience.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab axborot texnologiyalari davriga o'tish natijasida ta'lim sohasiga oid axborotlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Bu o'z navbatida har bir biologiya o'qituvchisi o'quv reja va dasturlarda belgilangan mavzular doirasidagi bilimlarni egallash bilan chegaralanib qolmasdan, ijodiy

faoliyat yuritishi, tadqiqot ishi qilishi, ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga sharoit yaratish muhim vazifalardan ekanligini taqozo qilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassalarida ta'lim – tarbiya jarayoniga yangiliklarni joriy etishda har bir pedagog asosiy rol o'ynaydi. Ta'lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, yangi dastur, standartlar yaratilmasin, ularning ta'lim jarayoniga qay darajada tadbiq etilishi, eng avvalo, o'qituvchga bog'liq bo'lib qolaveradi. Shu bois biologiya o'qituvchisi o'qitish jarayoniga kundalik axborotlarni uzluksiz ravishda o'rganib, o'z ish faoliyatiga to'liq tadbiq qilib borishi natijasidagina ta'lim – tarbiya jarayonining zamon talablari darajasida bo'lishiga erishadi.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida multimediali texnologiyalar muhim sanaladi va uning muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligi hisoblanadi. Kompyuter va multimediali proektorning paydo bo'lishi esa ma'ruzachi nutqini tovush, video va animatsiya hamkorligida sifatli tashkil etishning barcha zaruriy jihatlarini o'zida mujassam qilgan ko'rgazmali materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkon berdi.

Multimediali texnologiya – bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, videotasvir, ovoz va h.k.

So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar shular jumlasidan.

Multimedia mahsuloti:

Birinchidan, foydalanuvchiga, albatta, interfaollikni taqdim etadigan, ya'ni inson va kompyuter o'rtasida buyruq va javoblar almashinuvini ta'minlab, dialog muhitini yaratadigan dasturiy mahsulot;

Ikkinchidan, turli video va audio effektlar ishlatiladigan muhit.

Macromedia Direktor – taqdimot va multimedia mahsulotlari yaratishga xizmat qiladi. Ushbu dastur MMX – texnologiyalar bilan, shuningdek, tugmalar, slaydlar, klip va animatsiyalar bilan ishlashga imkon beradi.

Multimedia ilovalari quyidagilarga bo'linadi:

Taqdimotlar;

Animatsion roliklar;

O'yinlar;

Videoilovalar;

Multimediali galereyalar;

Audioilovalar.

Ta'lim resurslarini tanlash – mavjud shart – sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, talaba va mashg'ulotni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli

tanlanilishi, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. O'qitish va o'qish strategiyasi – belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim usuli, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

Ta'lim vositalari

- 1) Darslik;
- 2) O'quv qo'llanma;
- 3) Jadvallar;
- 4) Tarqatma va didaktik materiallar;
- 5) Yo'l – yo'riqlar;
- 6) Texnologik xaritalar;
- 7) Tipik xatolar xaritasi;
- 8) Topshiriq varaqalari kiradi.

O'quv jarayonida quyidagi turdagi modellar qollaniladi:

1. O'quv modellari (ta'lim jarayonida qo'llaniladi; ko'rsatmali qurollar, ko'rgazmali vositalar, ta'limiy dasturlar).
2. Tajriba modellari (ilmiy, amaliy tajribalarni olib borishda qo'llaniladi; loyihalashtirilayotgan obyektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi).
3. Ilmiy – texnik modellar (jarayon va hodisalarni tadqiq etishda qo'llaniladi; qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar).
4. O'yin modellari (turli vaziyatlarda obyekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida qo'llaniladi; kompyuter, sport, iqtisodiy, ishchanlik o'yinlari va b).
5. Imitatsion modellar (real voqelikni u yoki budarajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajorlar, mexanizmlar).

Bilgiya o'qituvchisi nazoratchi sifatida har bir talabaning o'quv faolligini oshirishga yordam berishi lozim. Bu o'rinda uning yordami quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- Talabalarga savollar berish;
- Talabalar tomonidan keluvchi turli savollarga o'rinli javob qaytarish;
- Talabalar o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatli, noaniq, muammoli bahslarga aniqlik kiritish;
- Ma'lum masalalar bo'yicha talabalarning yagona xulosaga kelishlariga ko'maklashish;
- Talabalarning ehtiyojlariga ko'ra favqulodda zarur ma'lumot, axborotlarni bera olishga tayyor turish;
- Ma'lum masalalar yuzasidan guruh bo'yicha qaror qabul qilish imkoniyatini yaratish.

Umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitishda axborot texnologiyasidan foydalanish mashg'ulot samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun mavzularni o'qitishga axborot texnologiyasini joriy qilishga oid multimedia ilovasi ishlab chiqildi. Shuningdek assessment texnologiyasi talabalarning bilim ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshiriq, bahs – munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 20-29.
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 31-61.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5349-son Farmoni.
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2009. – b. 145.
5. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2006, № 6. - b. - 25-28.

AVTOBIOGRAFIK BITIKLARDI IJODKOR SHAXS QIYOFASINING KO'RSATILISHI

Ubaydullayev N.X. – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Samarqand viloyati hududiy bo'linmasi o'qituvchisi

Annotatsiya. O'zbek adabiyotida xotira va avtobiografik asarlarning yozilish tarixi, kelib chiqishi va rivojlanishi ancha qadimga borib taqaladi. Bu janr doimo muammoli vaziyatlarga oydinlik kiritib kelgan. Avtobiografik asarlar zamonaviy adabiyotda ham dolzarb va adabiyot qoidalarining barcha talablariga javob beradi. Qadimda allomalar o'zlarining hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni avlodidan

avlodga qoldirish maqsadida qo‘lyozmalar, tosh bitiklar, sopol idishlarga yozib qoldirishgan. Shu sabab o‘zlarining asarlari orqali ko‘pgina ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan.

Kalit so‘zlar: avtobiografik asar, realistik asar, ijodkor, shaxs qiyofasi, memuar, xotira, estaliklar, biografik asar, darslik, muammoli ta’lim, zamondoshlar fikri.

ИЗОБРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В АВТОБИОГРАФИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Убайдуллаев Н.Х. - преподаватель Самаркандского областного филиала Центра обучения и повышения квалификации по основам делопроизводства на государственном языке при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация. История, происхождение и развитие мемуаров и автобиографических произведений в узбекской литературе уходят корнями в глубину веков. Этот жанр всегда вносил ясность в проблемные ситуации. Автобиографические произведения также актуальны в современной литературе и отвечают всем требованиям правил литературы. В древние времена ученые писали на рукописях, каменных надписях и керамике, чтобы передавать информацию о своей жизни и творчестве из поколения в поколение. Вот почему благодаря их работе до нас дошло много информации.

Ключевые слова: автобиографическое произведение, реалистическое произведение, творчество, личный образ, мемуары, память, мемуары, биографические произведения, учебник, проблемное обучение, современная мысль.

AUTOBIOGRAPHIC INSTRUCTIONS CREATIVE PERSONALITY

Ubaydullayev N.X. - Teacher of the Samarkand regional branch of the Center for Training and Advanced Training in the basics of office work in the state language at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Annotation. The history, origin and development of memoirs and autobiographical works in Uzbek literature go back a long way. This genre has always brought clarity to problematic situations. Autobiographical works are also relevant in modern literature and meet all the requirements of the rules of literature. In ancient times, scholars wrote on manuscripts, stone inscriptions, and pottery to

pass on information about their lives and works from generation to generation. That's why a lot of information has come down to us through their work.

Key words: autobiographical work, realistic work, creative, personal image, memoir, memory, memoirs, biographical work, textbook, problem-based learning, contemporary thought.

Adabiyotshunos olim Bahodir Karimov «Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur» nomli ilmiy monografiyasida «Badiiy asar va biografik ma'lumot» salavhasi ostida yozgan qaydlarida ijodkor tarjimayi holiga quyidagicha ta'rif beradi: «Yozuvchi va shoirlarning, umuman, san'atkorning tarjimayi holini-biografiyasini asarlaridan, ayni chog'da asarlarini tarjimayi holidan ayricha tasavvur etish mushkul. Zotan, dunyo adabiyotshunosligida masalaning shu jihatini bo'rttirib, uni muayyan tizim holatiga keltirgan biografik metod ham bor... Biroq voqea-hodisalarning badiiy talqinida ijodkorning ruhiy kechinmalari, hayotiy tajribalari in'ikos qiladi-ki, bu haqiqatni hech kim inkor eta bilmaydi. Yozuvchi biografiyasi esa qaysidir yo'sinda uning asarlarida o'z ifodasini topadi. Va qaysidir darajada san'at asarining originalligini tahmin etadi. Yozuvchi hayotidagi o'zgarishlar, ruhiy kechinmalar, dunyoqarashidagi silkinishlar fonida badiiy asarni talqin qilish o'zining ijobiy samarasini beradi, albatta [1, B.183-184]».

2015-yil umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun chiqarilgan «Adabiyot» darsligida [2,B.133-141] Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasi o'quvchilar hukmiga havola etilardi. 2020-yilda chop etilgan «Adabiyot» darsligida [3,B.93-109] esa, milliy qadriyatlarimizni tarannum etuvchi, bolalikning beg'ubor xotiralaridan hikoya qiluvchi ushbu asar olib tashlandi. Bunga nima sabab bo'ldi, bizga qorong'u. To'g'ri, ko'p qavvatli binoda yashovchi o'quvchi «Uloqda» hikoyasini tasavvur qilmasligi mumkin, biroq bobolarimizdan bizga meros qilib qoldirgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, milliy an'analarimiz haqidagi asarlarni ko'rgazmali qurollar, video lavhalar orqali namoyish etishga intilsak, bolada aniq tasavvur paydo bo'ladi. Bu usul darsning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bizningcha, ushbu hikoya darslik mundarijasidan o'rin olgani ma'qul edi.

Nega bu haqda so'zlayapmiz? Chunki, Abdulla Qodiriyning hayot yo'lini o'rganishda «Uloqda» hikoyasini o'rni beqiyos. Asar voqeasidagi lavhalar to'qima emas, o'zi o'nib-o'sgan jonajon mahallasidagi odamlar haqida bilgan, ko'rganlarini qalamga oladi. Yozuvchining bolalik xotiralari qayd etilganligi bilan ahamiyatlidir. Habibulla Qodiriyning yozishicha, 1936-yilda otasi «Uloqda» hikoyasini qayta nashrga tayyorlarkan, sarlaha tagiga «Bu hikoya 1915-yilda yozilgan edi. Bolalik davrimni yodgori bo'lgani uchun ortiqcha o'zgartirishlar kiritmadim[4,19-b.]» degan izoh qoldiradi. Bundan ko'rinadiki, yozuvchi ko'rganlarini bo'rtirmasdan aniq, real voqelikka tayanib ish ko'rgan. Asar personajlari ham o'zi tanigan bilgan insonlardir.

Zahmatkash va faol adabiyotshunos olimlardan biri Sobir Mirvaliyev o'zining «O'zbek adabilarini» kitobida o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy va uning tarjimai holi haqida quyidagilarni bayon etib, yozuvchining 1926-yilga qadar kechgan hayotiga oydinlik kiritib, shunday yozadi:

«Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada...tug'ilg'onman Yoshim to'qqiz-o'nlariga borg'ondan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lub, o'rischa yozuv-chizuv bilaturg'on odamga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'ris maktabiga yubordi. 1912-yilda manufaktur bilan savdo qiluvchi bir kishiga yilig'a 50 so'm barobariga prikazchik bo'lub kirdim Shu miyonalarda bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadig'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim, 1913-yilda o'zbekcha «Sadoyi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi... 1913 yilda chiqqan «Padarkush» ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim [5,B.27-28]».

Maktab darsliklarida shoir va yozuvchilarimizni tarjimai holi haqida o'zlari bayon qilgan ma'lumotlar yoxud farzandlari, zamondoshlari tomonidan bildirilgan voqealar asosida berilsa, o'quvchini qiziqishi, ishonchi ortadi. Adiblarga nisbatan mehri va muhabbati oshadi. O'quvchi yozuvchi asarini o'qir ekan, qahramonlari xarakterida adibning qiyofasini gavdalantirishga harakat qiladi. Barcha ijobiy xislatlar ularga tegishli, deb hisoblaydi.

Taniqli olmon olimasi Ingeborg Baldauf o'zining «XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar» nomli ilmiy-publisistik risolasida Abdulla Qodiriy haqidagi qarashlari, kuzatishlari, fikr-mulohazalarini quyidagicha bayon etadi: «Modomiki, Abdulla Qodiriyning o'zi kitobdagi voqealarni «*tabiiy*» deb atagan ekan, demak, ular o'ta realistik, ya'ni har holda agar joiz bo'lsa, «*ilk realistik*»dir[6,B.55]».

Olima Ingeborg Baldaufning fikrlarida jon bor edi. Negaki, adibning deyarli barcha asarlari real voqelikka asoslanadi. Qahramonlari ham o'sha davr odamlaridir. Yozuvchi yon-atrofdagi insonlar xarakterini chuqur kuzatadi, o'rganadi. O'shalar hech bo'lmaganda epizodik obrazga aylanadi, qoladi.

«Hol tarjimasidagi saktalik va soxtaliklar» xususida fikrlar bildirgan adabiyotshunos A.Rasulov yozuvchi biografiyasi bilan uning asari orasidagi uzviy bog'lanish, ruhiy yaqinlik ahamiyatiga alohida e'tibor beradi: «Yozuvchi holati bilan ijodi orasida uzviy bog'liqlik bor. Har qanday asarda yozuvchi ruhi, holi, qalbi aks etadi. Asarlar sinchiklab o'rganilsa, ular yozuvchi holati, ruhiyati haqida ko'p narsalar so'zlab beradi [7,27-b.]».

Darhaqiqat, adibning barcha asarlarida hayot haqiqati boricha ko'rsatiladi. Buni o'g'li Habibulla Qodiriy ham tasdiqlaydi. U o'zining «Otam haqida» kitobida adibning o'g'li prototiplarga oid ishonchli taxminlarni ilgari suradi. Adibning Usmonboy ismli zamondoshining o'ziga xos dunyoqarashi, tashqi ko'rinishlarini quyidagicha ta'riflaydi: «Usmonboyning yurish-turishi, kiyinishi, gap-so'zi, qiyofasi qisman bo'lsa-da, Yusufbek hoji obrazida aks etganday...», deb yozadi. Yusufbek hoji siymosini ayrim qirralarini yana bir shaxsga qiyos qiladi. Bu muallif Abdulla Qodiriyning Eshonguzar mahallasidagi tanishi «mulla Alijon ismli domla» deya taxmin etadi [8,113-b.]».

Adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov «Badiiylik – bezavol yangilik» nomli kitobida yozuvchi Abdulla Qodiriyning ijodiga baho berar ekan quyidagilarni aytadi: «...Abdulla Qodiriy yangi adabiyotning yetuk san'atkori. Uning ayni yetilgan pallasi Oktabr to'ntarishi yillariga to'g'ri keldi. Menga qolsa, «Uloqda» hikoyasi ulkan san'atkorning tug'ilgani haqidagi suyunchi-xabar edi. Abdulla Qodiriy har ikkala romanida «xalqimiz tarixidagi eng kir davr»ni aks ettiradi. Boshqacha aytganda, romanlarda ijtimoiy-siyosiy zimiston tasvirlandi. Tim qora tunning bezagi, quvonchi yorug' yulduzlardir...

Abdulla Qodiriy badiiy xarakter yaratish ustasi edi. Yozuvchining bu san'ati tirik odamlar obrazlarini ishonarli ko'rsata olishida ko'zga tashlanadi. Hozirgi paytda o'zbek sho'ro adabiyotining qahramoni masalasi yechilmagan muammo bo'lib turibdi. Qariyb yetmish yildan ziyod vaqt davomida o'zbek sho'ro adabiyoti qahramon xarakterini yaratishda sun'iylikka yo'l qo'yib keldi [9, 154-155-b.]».

«Uloqda» hikoyasi buyuk adibning dunyoga kelganidan xushxabardir, deydi olim. Asarni sodda, ravon tilda bayon qilinishi o'quvchini o'ziga rom qiladi. Voqealar rivoji hayotiyli, obraz va personajlarni ishonchli yaratilganligi bilan ham ajralib turadi.

Abdulla Qodiriy qahramonlarining ichki dunyosini yaratishda sun'iylikdan qochdi va tabiiylikni ma'qul ko'rdi. Bu bilan kitobxon qalbini zabt etdi.

Adabiyot darsliklarida Abdulla Qodiriyning hayoti yo'li haqida gap ketganda, dastlab o'zi yozib qoldirgan avtobiografiyasidan, qolaversa, o'g'li Habibullo Qodiriyning «Otam haqida» nomli biografik xarakterdagi xotira kitobidan hamda badiiy asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bir o'rinda shunday yozadi: «Qodiriy tug'ilgan yillar yuqorida aytilganidek, Qodir bobo oilasida hiyla iqtisodiy tanglik hukm surgan davr bo'ladi. Qodiriy bobo bu vaqtlarda yetmish yoshlardan oshib ancha kuch-quvvatdan qolgan, biror yerdan doimiy daromadlari yo'q, to'ng'ich o'g'illari Rahimberdi amakim endi o'n besh yoshga kirgan, qo'llaridan hali biror ish kelmaydi, bog'ning daromadi esa besh jonning (1897-yilda kichik – Qudratulla amakim tug'iladilar) yillik ro'zgoriga albatta yetmaydi. Bu davrlar to'g'risida dadamning o'zlari shunday yozadilar:

– Boshida boy oilada tug‘ildimmi yoki kambag‘al oiladami, albatta, bilmadim. Ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qornim oshga to‘ymaganidan aniq bildimki, besh jonning tamog‘i faqat 80 yoshli bir chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog‘ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog‘ mevalari oftobga uchrab qolsa, biz ham ochlikka duch kelib, qishi bilan javrashib chiqar ekanmiz [10, 6-b.]».

O‘quvchi o‘sha davr muhitini ich-ichidan his qiladi. Ocharchilik bo‘lishiga qaramay yozishni, o‘qishni kanda qilmay, o‘tkir zehn bilan Sa‘diyning «Guliston», «Rustami doston», «Hotamtoy», «Mashrab», «Navoiy», «Kalila va Dimna» kabi kitoblarni o‘qiganligi hayratga soladi. Hozirgi zamon bolasi bilan qiyoslasak, osmon bilan yercha farq bor. Shuncha shart-sharoitlar yaratilgan(qorni to‘q, usti but) bo‘lishiga qaramay, ayrim tanbal, dangasa o‘quvchilar ham oramizda yo‘q emas. Adibning tarjimayi holidan ibrat axtarib, ruhlanib, unga o‘xshashga intilgan yoshlar ham talaygina.

Yana «Otam haqida» biografik asariga murojaat qilsak:

«Rahimberdi amakimning xotini – Robi opoqoyim derdilar:

–Mulla Abdulla bola kezlaridan serfikr, o‘z so‘zli edi. Uni haqsiz ranjitsalar, chidolmay, ko‘zlarini shokosa qilib qarab turardi-da, ko‘z yoshlarini duv to‘kib yuborardi [11,7-b.]».

Bundan ko‘rinadiki, Abdulla Qodiriy yoshligida adolatsizlikka chiday olmaydigan bola bo‘lgan. Yosh bo‘lishiga qaramay o‘zining mustaqil so‘ziga ega, fikri tiniq, sermulohaza yigit bo‘lganligini xotiradan anglab olamiz.

Maktabning adabiyot darsliklarida Abdulla Qodiriyning hayot yo‘li va ijodini o‘rgatishda yuqoridagi jihatlarga e‘tibor qaratilsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘lardi. O‘qituvchi yangi mavzu bayonini yoritishdan oldin o‘quvchilardan ijodkor haqida bilgan, eshitganlarini so‘rab o‘tishi lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilarga dars mobaynida muallimlar tomonidan adiblarning hayot yo‘li haqida atroflicha hikoya qilinsa, yaxshi bo‘lar edi. O‘quvchi adib asarlarini o‘qir ekan, u yurgan manzillarda xayolan sayohat qiladi, turli taqdirdagi kishilar bilan uchrashadi, katta-kichik achinarli va quvonchli voqealarning guvohi bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur: ilmiy monografiya.–T.: Akademya nashr, 2014-y.183-184-betlar.
2. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot(5-sinf darsligi I qism).–T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015-y., 133-141-betlar.

3. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (5-sinf darsligi). –T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2020-y., 93-106-betlar.
4. Qodiriy H. Otam haqida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-y., 19-bet.
5. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. –T.: Yozuvchi, 2000-y., 27-28-betlar.
6. Ingeborg Baldauf. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. –T.: Ma'naviyat, 2001-y., 55-bet.
7. Rasulov A. Ilmi g'aribani qo'msab... –T.: Ma'naviyat, 1998-y., 27-bet.
8. Qodiriy H. Otam haqida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-y., 113-bet.
9. Rasulov Abdug'afur. Baddiylik–bezavol yangilik. –T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007-y., 154-155-betlar.
10. Qodiriy H. Otam haqida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-y., 6-bet.
11. Qodiriy H. Otam haqida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-y., 7-bet.

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA QO‘LLANGAN SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING FUNKSIONAL - SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Rashidova U.M. – Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning liro-epik asarlaridan biri bo'lgan, “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Layli va Majnun” dostonida qo'llangan inson tana a'zolari nomi bilan bog'liq bo'lgan somatik komponentli frazeologizmlar o'rganilgan. Xususan, oyoq, bosh, quloq, ko'z singari kishi a'zolarining nomlari – somatizmlar asosida shakllangan umumturkiy frazeologizmlarning funksional-semantik xususiyatlari asosli misollar yordamida aniqlangan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili frazeologik tizimi, somatizm, umumturkiy iboralar, semantik ma'no, uslubiy xususiyatlar, o'z ma'no, ko'chma ma'no, kitobiy va eskirgan frazemalar.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ЭПОСЕ “ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН”

Рашидова У.М. – доцент Самаркандского государственного университета

Аннотация. В статье исследованы фразеологизмы с соматическим компонентом, связанные с названием членов человеческого тела, использованные в эпосе “Лейли и Меджнун” из Хамсы, которое является одним из лиро-эпических произведений Алишера Навои. В частности, названия таких органов человека, как ноги, голова, уши, глаза, были определены на обоснованных примерах функционально-семантических свойств общетюркских фразеологизмов, сформированных на основе соматизмов.

FUNCTIONAL AND SEMANTIC PROPERTIES OF SOMATIC PHRASEOLOGISTS IN THE EPOS "LEILI AND MEJNUN"

Rashidova U. M.-Associate Professor of the Samarkand State University

Annotation. In the article, somatic component phraseologisms related to the name of the human body members, which is one of the Lyro-epic works of Alisher Navoi, in which the composition "Khamsa" is used "Layli and Majnun" is studied. In particular, the names of the members of a person, such as feet, head, ears, eyes – were determined using substantive examples of the functional-semantic properties of the generalized phraseologisms formed on the basis of somatisms.

Key words: phraseological system of the Uzbek language, somatism, universal expressions, semantic meaning, stylistic features, proper meaning, figurative meaning, obsolete phrasemes.

Alisher Navoiy nafaqat yetuk adabiyotshunos, balki mohir tilshunos olim sifatida ham qadrlidir. Uning asarlari tilini kuzatar ekansiz, unda so‘z qo‘llash mahoratini yuksak darajada ekanligiga guvoh bo‘lasiz. Navoiy o‘z asarlari tilida iboralar ham rang-barang bo‘lib, turli ma‘nolarni ifodalashga xizmat qilgan.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi ekan, uning asarlarida qo‘llangan juda ko‘plab frazeologizmlar ham o‘zbek tili frazeologik tizimining asosini tashkil etadi. Alisher Navoiyning lirik asarlarida qo‘llangan iboralar uning liro-epik asarlarida, jumladan, “Xamsa” dostonlarida qo‘llangan frazeologizmlardan farqli tomonlarga ega. Shuningdek, “Xamsa” tarkibiga kiruvchi har bir liro-epik asar (doston) til vositalari qo‘llanishining, jumladan frazeologizmlar qo‘llanishi jihatidan ham farqli tomonlarga ega. Bunga birgina “Layli va Majnun” dostonida qo‘llangan frazeologizmlarning struktural-grammatik va semantik-uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish asosida ham ishonch hosil qilish mumkin.

Masalan, tilimizda “oyoq // ayog // ayog” soʻzi eng qadimgi, umumturkiy soʻzlardan biri boʻlib, “odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki oʻrinalishi uchun xizmat qiladigan “aʼzo” maʼnosini bildiradi [10, 1, 522]. Bu umumturkiy soʻz yordamida tilimizda oʻttizdan ortiq iboralar shakllangan. Shulardan biri “ayogʻ uzotmoq” iborasi boʻlib, biz oʻrganayotgan “Layli va Majnun” dostonida “oyoqni choʻzib yashamoq, yurmoq” maʼnolarini ifodalaydi:

*Gʻam zaʼfida dasht uzra yotsang,
Qum bistar ekin ayogʻ uzotsang;
Har bargki xastavor yotti,
Yer bistarida oyoq uzatti*

Hozirgi vaqtda “oyoq uzatmoq // oyoq choʻzmoq” iborasi polisemantik ibora sifatida tilimizda faol qoʻllanadi. Uning dastlabki maʼnosi “*koʻngli tinchimoq, gʻam-tashvishdan holi boʻlmoq*”, keyingi, koʻchma maʼnosi esa “*oʻlmoq, jon bermok*”dir [OʻTIL, 1, 523]. Sh.Rahmatullayev lugʻatida esa “oyogʻ(i)ni uzatmoq” iborasining faqat “*qazo qilmoq*” maʼnosi koʻrsatilgan [9, 190].

“Layli va Majnun” dostonida “*boshiga tushmoq*”, “*boshiga tufroq sovurmoq*”, “*boshiga urmoq*”, “*bosh ostonaga yetmoq*”, “*boshi quyi boʻlmoq*”, “*bosh tortmaslik*” singari bir qancha “bosh” komponentli umumturkiy frazeologizmlar qoʻllangan. Jumladan, “boshiga tushmoq” iborasi “ogʻir ahvolga tushmoq, tashvishga tushmoq” maʼnolarini bildiradi:

*Бир кун эрикиб маҳи муаддаб,
Тушти бошига ҳавоий мактаб*

Hozirgi vaqtda “boshiga tushmoq” iborasi “*hayotida kutilmagan tarzda sodir boʻlmoq*” maʼnosida qoʻllanadi [9, 45].

“Boshiga urmoq” umumturkiy iborasi dostonida “boshiga baxtsizlik yogʻilmoq” maʼnosini ifodalash uchun xizmat qilgan:

*Boshigʻa ki urdi zahm gardun,
Boshi toʻkidin adadda afzun.*

“Boshini silamoq” umumturkiy iborasi esa “mehribonlik koʻrsatmoq” maʼnosini bildiradi:

*Boshin siladi firoqi avbosh,
Kim yogʻdurgum bu bosh uza tosh.*

“Boshi quyi boʻlmoq” umumturkiy iborasi “*izza boʻlmoq, uyalmok*” maʼnolarini ifodalashga boʻysundirilgan:

*To qoʻpti kelib dimogʻigʻa xush,
Boshi quyi erdi, ogʻzi xomush.*

“*Boshni quyi solmoq*” iborasi Alisher Navoiy asarida “*egilmoq, mute boʻlmoq, taslim boʻlmoq*” maʼnolarini ifodalash vositasi sifatida qoʻllangan:

Maqsudlarin chu aylabon fosh,

Posux tilayu quyi solib bosh.

Shu bilan birga “Layli va Majnun” dostonida “bosh” somatizm komponenti asosida shakllangan ayrim umumturkiy iboralar hozirgi tilimizda uchramaydi. Ana shunday arxaik, umumturkiy iboralardan biri “boshini erkin chekmoq” bo‘lib, bu ibora “boshini g‘oz tutmoq, boshini baland, mag‘rur tutmoq” ma’nolariga ega bo‘lgan:

Kim bag‘rig‘a xor tiktim erkin,

Ne ko‘kka boshimni chektim erkin.

Tilimizda “bosh(i)da tosh chaqmoq” iborasi “ortiq darajada azoblamoq, qiynamoq” ma’nolarini bildiradi [9, 45]. “Lpyli va Majnun” dostonida esa xuddi shu ibora “boshiga tosh yog‘dirmoq” shaklida qo‘llangan:

Atfoli junun jafu qilib fosh,

ar lahza boshumg‘a yog‘durub tosh.

“Boshiga tufroq sovurmoq” iborasi ham umumturkiy bo‘lib, “boshiga g‘am-alam yukini sochmoq, qiynamoq, azob bermoq” ma’nolarini bildiradi:

Boshiga sovurdi oncha tufroq,

Go‘yo yiqildi bu ko‘han toq.

“Quloq” so‘zi umumturkiy bo‘lib, “eshitish organi va uning tashqi qismi” degan ma‘noni bildiradi [10, 616]. Tilimizda ana shu somatizm so‘z yordamida “quloq bermoq”, “quloqdan qolmoq”, “qulog‘iga quymoq”, “qulog‘idan nari ketmaslik”, “qulog‘i ding bo‘ldi”, “qulog‘ini pishitmoq”, “qulog‘ini burab qo‘ymoq”, “qulog‘i og‘ir”, “qulog‘i tinchidi”, “qulog‘ini tishlab ketmoq”, “quloq-miyasini yemoq”, “quloqlari ostida shavla qaynatmoq”, “quloq solmoq”, “quloqqa olmoq”, “qulog‘iga yetkazmoq”, “qulog‘idan kun ko‘rinadi” singari juda ko‘plab umumturkiy frazeologizmlar shakllangan [8]. “Layli va Majnun” dostonida xuddi ana shunday umumturkiy iboralardan “quloqqa olmoq”, “quloqqa solmoq”, “qulog‘iga yetmoq” kabilar qo‘llangan. Jumladan, “quloqqa solmoq” va “qulog‘iga yetmoq” umumturkiy iboralari “eshitmoq, xabardor bo‘lmoq, xabar topmoq” ma’nolarini bildiradi:

Bu bir necha so‘z quloqqa olg‘il,

Balkim necha dur quloqqa solg‘il;

Kim yetti qulog‘ig‘a xurushi,

Aytur edi bu xabar Surushi kabilar.

“Quloqqa olmoq” umumturkiy iborasi esa xuddi hozirgi vaqtda bo‘lgani singari [9, 355], “Layli va Majnun” dostonida ham “tinglamoq, aytganini qilmoq” ma’nolarini ifodalaydi:

Bu bir necha so‘z quloqqa olg‘il,

Balkim necha dur quloqqa solg‘il.

“Qon” umumturkiy soʻz boʻlib, “tirik organizmda yurak faoliyati tufayli aylanib yurib hamma organ va xujayralarni oziqlantiradigan, modda almashinishni taʼminlaydigan qizil suyuqlik” maʼnosini bildiradi [10, 596]. Bu soʻz yordamida “qonini buzmoq”, “qonini soʻrmoq”, “qoni qaynadi”, “qon kechmoq”, “qon yutmoq”, “qon qilmoq” kabi iboralar shakllangan. Ana shunday umumturkiy iboralardan Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida “qon yutmoq”, “qon qilmoq” kabi bir nechta qoʻllangan. Masalan, “qon yutmoq” iborasi dostonida “azob chekmoq, mashaqqatga duchor boʻlmoq” maʼnolarida qoʻllangan. Dostonning X bobi sarlavhasi tarkibida qoʻllangan “qon yutmoq” iborasi yana bir umumturkiy ibora - “koʻziga issiq koʻrinmoq” bilan bir matn tarkibida kelib, asar bosh qahramoni Qaysning ichki olamidagi kechinmalarni ifodalash vositasiga aylangan: “Qaysning adam majlisidin qutulib, vujud mahdigʻa tutulgʻoni va qon yutmoqdin xoʻrish va ishq doyasidin parvarish topqoni va ishq zoti choshnisidin el koʻziga shirin azaliy haroratidin xaloyiq nazarigʻa isigʻ koʻrungi”.

Tilimizda “qon qilmoq”, “yuragini qon qilmoq”, “yurak-bagʻri qon boʻldi” singari umumturkiy iboralar polisemantik xususiyatga ega. Bu iboralarning bir maʼnosi “ruhay azoblanmoq” boʻlsa, yana bir maʼnosi “diltang boʻlmoq, ziq boʻlmoq”dir [9, 321]. “Layli va Majnun” dostonida esa bu umumturkiy ibora “jonlantirmoq, hayot bagʻishlamoq” maʼnolarida qoʻllangan:

Layli ishqin tanimda jon qil,

Layli shavqin yuragimda qon qil.

Shunisi muhimki, E.Umarovning maʼlumotlariga qaraganda, shoir lirikasida “qon qilmoq” iborasi “qon aylamish”, “qon boʻldung”, “qon qilur”, “qonlar qilur”, “qon etmoq” singari bir qancha leksik va grammatik variantlarga ega boʻlib, “ruhan azob bermoq, qiynamoq, tavbasiga tayantirmoq” maʼnolarida qoʻllangan [2, 126]:

Ul gʻamza qon qilurga, ul koʻz vafo qilurgʻa,

Bedodu zulm bois, nozu itob moniʻ.

Tilimizda “koʻz” somatizmi asosida yuzdan ortiq umumturkiy iboralar shakllangan. Bu haqda A.Isayev, keyinchalik A.Mamatov singari frazeolog olimlar maxsus kuzatishlar olib borganlar. Jumladan, A.Isayevning kuzatishlariga qaraganda, tilimizdagi “koʻzga koʻrinmoq”, “boʻyniga olmoq”, “tilini tiymoq”, “koʻzi och (boʻlmoq)”, “boʻyin sunmoq” singari frazeologizmlar qadimgi turkiy tilda ham faol qoʻllangan. Qadimgi turkiy tildagi 249 ta iboradan hozirgi kunga kelib u yoki bu oʻzgarishlar bilan 54 tasi saqlanib qolgan, boshqalari esa asta-sekinlik bilan isteʼmoldan chiqib ketgan [6]. Bunday holatni biz Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni tilida ham kuzatamiz. Masalan, “koʻz oldiga keltirmoq”, “xayol qilmoq” maʼnolarini ifodalash uchun asarda “koʻzga kiyurmoq” iborasi qoʻllangan. Hozirgi kunda esa bu ibora tilimizda arxaiklashgan:

Tasvir etibon yuzi xayolin,

Ko‘zga kiyurub qadi misolin.

Dostonda “ko‘ziga uyqu solmoq” uch komponentli iborasi “yutuqlardan esankiramoq, o‘zidan ketmoq, ko‘zini g‘aflat uyqusi bosmoq” ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan:

Bedilni yengib edi bu qayg‘u,

Kim baxt ko‘ziga soldi uyqu.

Tilimizda “ko‘zini ochmoq – ko‘zi ochildi” iborasi juda faol qo‘llanib, “hushyor qilmoq, yaxshi-yomonni tushunadigan qilmoq” kabi ma’nolarni bildiradi [9, 140]. “Layli va Majnun” dostonida esa “ko‘z ochmoq” iborasi “kasaldan turmoq, bardam bo‘lmoq” ma’nolarini ifodalagan:

Sohibi hafaqon kuyov ko‘z ochti,

Boshidag‘i el sari so‘z ochti.

Yuqorida keltirilgan baytda “ko‘z ochmoq” iborasiga qofiyadosh bo‘lgan “so‘z ochmoq” iborasi ham qo‘llangan. Bu ibora “gapirmoq, so‘zlashga imkon bo‘lmoq” ma’nolarida qo‘llangan. Shoir o‘z asarida juda ko‘p o‘rinlarda baytning har bir misrasi tarkibiga qofiyadosh iboralarni kiritib, ohangdorlikni oshirishga erishgan. Masalan, “bosh qo‘ymoq” va “yosh to‘kmoq” umumturkiy iboralarning qo‘llanishi haqida xuddi ana shu fikrni aytish mumkin:

Zayd olig‘a har zamon qo‘yub bosh,

Arz ayladi sayldek to‘kub yosh kabilar.

“Ko‘ngil” so‘zi umumturkiy bo‘lib, “kishining his-tuyg‘u, kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil” ma’nolariga ega [10, 415]. Bu so‘z Alisher Navoiy davrida ham juda faol qo‘llanishda bo‘lgan. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ning guvohlik berishicha, “ko‘ngul // ko‘ngil” umumturkiy so‘zi ulug‘ shoir asarlarida asosan uch ma’noda qo‘llangan hamda bu so‘z yordamida o‘sha davridayoq “ko‘ngul bermoq”, “ko‘ngul bog‘lamoq”, “ko‘nug olmoq”, “ko‘nglini ovutmoq”, “ko‘ngli ozmoq”, “ko‘ngli ochilmoq”, “ko‘ngli sovumoq”, “ko‘ngli tosh”, “ko‘ngul uzmoq”, “ko‘ngli qaro”, “ko‘nglini qaro etmoq”, “ko‘ngli qattig‘”, “ko‘ngli yumshoq”, “ko‘ngul g‘ash qilmoq” singari bir qancha umumturkiy frazeologizmlar shakllangan. Yuqorida keltirilgan “ko‘ngil” komponentli umumturkiy iboralarning ma’lum qismi “Layli va Majnun” dostonida ham qo‘llangani ma’lum bo‘ldi. Masalan, “ko‘nglini olmoq” iborasi “o‘ziga yaqin olmoq, ishqiga sazovor qilmoq” ma’nolarini bildiradi:

K-ey tanima hayrat o‘ti solg‘an,

Ko‘nglumni burun nazarda olg‘an.

“Ko‘nglini ovutmoq” umumturkiy iborasi esa “ko‘ngliga taskin bermoq, tinchlantirmoq” ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan:

Ul kom ila ko‘nglini ovutma,

Bu ravza sari ani yovutma.

“*Ko‘ngil og‘ritmoq*” umumturkiy iborasi “Layli va Majnun” dostonida “alam chekmoq, qayg‘uga tushmoq” ma’nolarini bildiradi:

- *aning ko‘ngli jarohatlarin muning ham ko‘ngli og‘ritqani va aning talh komin achitqani.*

Shu bilan birga “Layli va Majnun” dostonida qo‘llangan ayrim “ko‘ngil” komponentli iboralar hozirgi o‘zbek tili frazeologik tizimida mavjud emas; ular kitobiy va eskirgan (arxaik) xarakteri bilan ajralib turadi:

*Ya‘ni ki sug‘urdi tig‘i bebok,
Ko‘ngli aro soldi chok uza chok;
Ko‘nglung o‘tidin sovutmog‘ungdur,
Ul borida yor tutmog‘ungdur;
Bu dashtda ko‘pdurur qaboyil,
Kim ko‘ngli emas biriga moyil;
Ko‘ngliga masoyil ancha ma‘lum,
Ki bo‘lmay yuz kutubda marqum;
Avvalda ko‘p ayladim taammul,
To ko‘ngluma kirdi bu taxayyul .*

Shunday qilib, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida *oyoq, bosh, quloq, qon, ko‘z* singari kishi a’zolarining nomlari – somatizmlar asosida shakllangan frazeologizmlarni umumturkiy iboralar deb hisoblab, ularning semantik-pragmatik xususiyatlarini ma’lum darajada ko‘zdan kechirdik.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 2-tom. –Toshkent, Fan, 1987. -619 b.
2. Ahmedov T. “Layli va Majnun” dostonida tasviriy vositalarning ishlatilishi haqida // Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. – Toshkent, Fan, 1968, 206-221-betlar.
3. Ahmedov T. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni. – Toshkent, Fan, 1970. – 141 b.
4. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent, Fan, 1983. – 160 b.
5. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasining ba’zi masalalari // Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 126.
6. Исаев А. Древнетюркские соматические фразеологизмы // Труды СамГУ, новая серия. № 277. Вопросы фразеологии VII. – Самарканд, 1976. – С. 212-220.
7. Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat masalalari. – Samarqand: SamDU nashri, 2007.

8. Mamatov A. Frazelogizmlar shakllanishining nazariy asoslari. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 1997. – B.
9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 49-50.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, besh jildlik. Birinchi jild. T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 384-bet.

LIRIKADA TUYG‘ULAR OLAMI

Xalova M.A. - Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Maqolada she‘riyatda his-tuyg‘ularning ifodalanishi o‘z aksini topgan. Bu kabi nazariy fikrlar shoira Zebo Mirzo she‘riyati va uning o‘ziga xos jihatlari bilan ifodalangan. Ijodkorning she‘rlaridagi vafo, sadoqat mavzularining o‘ziga xos jihatlari, shuningdek poetik tahliliga munosabat bildiriladi. Shoira she‘riyatida lirik qahramon tabiati, lirik kechinma va uning mohiyati shoira she‘rlari orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: lirika, lirik kechinma, qahramon tabiati, mavzu, g‘oya, taassurot, voqelik, estetik olam, badiiy tafakkur, tahlil, talqin, obrazlilik, buyoqdorlik.

МИР ЧУВСТВ В ЛИРИКЕ

Халова М.А. - Самаркандский государственный институт иностранных языков, доцент (PhD)

Аннотация. В статье отражено выражение эмоций в стихах. Подобные теоретические идеи выражены в поэзии поэта Зебо Мирзо и ее особенностях. Стихи автора посвящены особенностям тем преданности, а также поэтическому анализу. В поэзии природа лирического героя, лирический опыт и его сущность анализируются через стихи поэта.

Ключевые слова: лирика, лирический опыт, характер главного героя, тема, идея, впечатление, реальность, эстетический мир, художественное мышление, анализ, интерпретация, образность, живопись.

THE WORLD OF EMOTIONS IN LYRICS

Khalova M.A. - Associate Professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages, (PhD)

Annotation. The article reflects the expression of emotions in poetry. Such theoretical ideas are expressed in the poetry of the poet Zebo Mirzo and its peculiarities. The author's poems are devoted to the peculiarities of the themes of fidelity and devotion, as well as to the poetic analysis. In poetic poetry, the nature of the lyrical hero, the lyrical experience, and its essence are analyzed through the poet's poems.

Key words: lyrics, lyrical experience, the nature of the protagonist, theme, idea, impression, reality, aesthetic world, artistic thinking, analysis, interpretation, imagery, painting.

Lirikada lirik kechinma, qahramon olami va tuyg'ulari asosiy o'rinda turadi. Ma'lumki, lirikada jo'shqin o'y-fikrlar, taassurotlar, aqldan tashqari tuyg'u-istaklar kabi inson ongining ayro holatlari [1] bosh planga ko'tariladi. Lirika degan edi F.Shlegel, - doimo o'z-o'zicha muayyan holatni, masalan, hayratning jo'sh urishini, g'azab, og'riq, quvonchning lahzalik shiddatini – aslida butun bo'lmagan allaqanday butunlikni tasvirlaydi. Bunda hislarning birligi zarur bo'ladi [7,62]. Lirik poeziyadagi predmetga bunday qarashni zamonaviy fan o'ziga meros qilib olgan [2]. Demakki, lirika hislar va tuyg'ular birligida voqealanadi. Bu voqelik kitobxon estetik olamini go'zallashtirib, yuksaklarga parvoz ettiradi.

Shoira Zebo Mirzo lirik asarlari nihotada jo'shqin va ko'ngilga yaqin. Shoiraning she'rlarini o'qiganda "Haqiqiy she'rning mazmunini gapirib bo'lmaydi, uni his qilish kerak" degan fikrning to'g'ri ekanligini e'tirof qilasan kishi. Darhaqiqat, tuyg'u va hissiyotni hikoya yoki bayon yo'li bilan aniq tasvirlab, suratini chizib berish mushkul ish. Lekin uni muayyan matn orqali his qilish, tuyish mumkin. Bu amal kishi ma'naviyati va ruhiyatini boyitadi va oziqlantiradi. Shoiraning "Tamom" she'rini kuzatib ko'raylik.

Men endi ketaman...

Uni kechirdim.

Kechirdim eng so'nggi g'animimni ham.

Endi tinch yashayman tog'lar yurtida

Daraxtlar,

Shamollar,

Maysalar bilan...

Bu yerda lirik qahramon "men"i sevilmaganidan yoki dil izhori rad etilganidan tushkin kayfiyatda emas, balki ruhiga yaqin odamni topmaganidan ko'ngli o'ksiyapti. Hayotda ruhi uyg'oq kishilar kamligidan o'ksiyapti. Chunki uning ruhi baland, ma'naviyati g'oyat yuksak. Shundan nihoyatda kechirimli, hatto g'animini ham kechira oladi. Axir odam tabiatan noqis bo'lsa, buning uchun uni ayblab bo'lmaydi-ku. U tabiatdan ko'ngliga yaqinlik izlaydi. Majnun – Qays

odamlardan mehr-oqibat ko‘rmagach, dala-dashtda yovvoyi hayvonlar bilan do‘stlashganidek, Zebo Mirzoning lirik “men”i ham tabiat qo‘ynidan panoh topadi. Tabiat bilan dardlashgisi, sirlashgisi keladi:

*...Dardsiz nigohlardan, g‘amsiz ohlardan,
Shu o‘t-o‘lanlarga yaqinman ko‘proq.
Avliyodek cho‘kka tushib o‘tirgan
Qoyalar bag‘ridan topaman panoh.*

Shu o‘rinda mumtoz shoirimiz Pahlavon Mahmudning bir ruboiysi yodga tushadi. Ruboiyda:

Ko‘hna qalam tole emas, dog‘ bitar,

Dard ekaman, bir-bir unib bog‘ bitar,- deya yozgan edi. Darhaqiqat, asl badiiy asar tuyg‘ular tasviridan dunyoga keladi. Har bir ijodkor odamning haqiqiy bepayon olami – uning o‘zidir. Bu cheksiz olam haqida mulohaza qilishning cheki-chegarasi yo‘q. Ammo teran mushohadali, iste’dod egalarining bu borada aytadiganlari juda ko‘p. Bu kabi qalb egalari daryolar bilan so‘zlashadi, qushlar bilan tillashadi, daraxtlar bilan dardlashadi. Demak, shoiraning qoyalar, daraxtlar, maysalarni diliga yaqin olishi bejiz emas, chunki ularning bag‘ri to‘la dard, lirik qahramonga “dardsiz oh”lardan ko‘ra yaqin. Shoiraning tabiatga ko‘chgan iztirobi, dardlari ham meva tugadi. She’rning quvvati ham mana shunda. Shoira yozadi:

*Ko‘zim tushsa kuyadi oftob,
Qo‘lim cho‘zsam, to‘kilar dilim.
Aytsam, gunoh aytmasam azob,
Bu qanday dard,
Bu qanday o‘lim?*

Bu ishq dardi. Uning otashi shunday kuchliki, yaqinlashsa oftobni kuydiradi. Uning g‘am shulasi dilni shunday iztirobga soladiki, bunga dosh berolmagan ko‘ngil oh uradi. Bu oh o‘tidan butun olam yonadi. Bu o‘tda lirik qahramon ham qaqnus misol kuyadi. Mana shu xil kuyib-yonishdan haqiqiy oshiq-mashuqlik yuzaga keladi. Bunday fikrlarni muhabbatning mohiyatini qalban his qilgan, hamda butun vujudidan o‘tkaza olgan ijodkorgina ayta oladi. Bu kabi ijodkor sifatida Zebo Mirzoni e’tirof etishimiz mumkin. Haqiqiy shoir tilsiz narsalarga zabon baxsh etadi, ko‘z ilg‘amaydigan, ko‘rinmaydigan narsalarni ko‘rsata biladi. Zebo Mirzo shunday ijodkor bo‘lganligi uchun ham uning she’rlaridagi kenglik, soddalik, obrazlilik insonga xos belgilar bilan yanada mukammallashadi va bu hol she’rxonga huzur beradi, dunyosini boyitadi:

*Tuni bilan yoqqan yomg‘irlar
Yuvib o‘tdi tonglar yuzini.
Men izladim o‘zim uchun sir
Bo‘lgan baxtning yorug‘ yuzini...*

Tongning ko‘plikda ishlatilishi uning kengliklar quchog‘iga singib ketgan holatda tasavvur qilinishini ta‘minlagan bu she‘rda shoirning katta iste‘dodi namoyon bo‘ladi. Bu misralar hayot haqiqatiga mos keladigan reallik ekani va ijodkorning kayfiyatini eng munosib yusinda aks ettira olishi bilan diqqatga molikdir. Zebo Mirzoning har bir she‘ri uchun tabiatni tasvirlash asosiy maqsad emas. U har bir she‘rida tabiatning biror bir holatini o‘ziga xos tarzda ifoda etgan bo‘lsa-da, mana shu tasvirlarga insonning ko‘ngil holatini muhrlashga intiladi.

“She‘riy asarni anglash, undagi muallif ko‘zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib yetish, she‘r g‘oyasinig mag‘zini chaqish uni o‘qishdan, yanada aniqrog‘i ifodali o‘qishdan boshlanadi” [5, 83], -degan ta‘kidlar ancha o‘rinli va asoslidir. Shu ma‘noda shoira Zebo Mirzo she‘riyati o‘qirmanda ham, kitobxonda ham katta taassurot va huzurbaxsh tuyg‘ularni shakllantiradi va uyg‘otadi:

*Yondi, o‘chdi, so‘nggi chiroq ham,
Derazaga tikilgan xiyol,
Sirlarini tunlarga aytdi,
Yomg‘irlarda ivigan Ayol...
...Yuzlaringga yuzim bosgali
Ko‘nglim edi – eng chiroyli taxt.
Sen chiqmading...
xabar olmading...
Eshigingdan yig‘lab qaytdi Baxt...*

Zebo Mirzo she‘rlarining aksariyatida kuchli obraz, porloq fikr ko‘pincha so‘nggi badda beriladi. Lirik qahramon o‘z qismatining g‘amboda ekanligidan nolib kelar ekan, tuyg‘ular junbushi borgan sari pog‘onama-pog‘ona yuksalib boraveradi. Shoira Zebo Mirzo faqat o‘z shaxsiy hayoti qobig‘ida qolishi mumkin bo‘lmagan darajadagi ijodkordir. Shoira tasvirlagan qalb kechinmalari tashqi olamda ro‘y berayotgan voqelikka munosabat sifatida namoyon bo‘lganligini kuzatish mumkin.

Darhaqiqat, ko‘ngildagi muzliklarni eritib, yuraklarga bahoriy iliqlik olib kirish – chin shoirning vazifasi. Asl shoir o‘zi uchun yozadi, ammo yozganlari qalbiga doir bo‘lgani bois o‘zgalarga ta‘sir qiladi, ularni bezovta etadi va o‘zgartiradi [6, 380]. Chinakam iste‘dod hayotning har qanday holatidan go‘zallik topishi, turmushdagi har qanday jo‘n narsa zamirida hikmatni ko‘ra bilishdir. Shoira shunday yozadi:

*Maysalar titrog‘i kirar jonimga,
Chayqalar ko‘ksimda olov dengizi...
Gulladim sochimdan tirnog‘imgacha,
Men qanday daraxtman,
Men kimman o‘zi?*

She’rda shoirani qiynagan, insoniylik nima ekanini bilishga intilgan uning mohiyatini anglashga bo’lgan ishtiyoq, qalb kechinmasi, kechinma qaridagi isyon doimo zabt etganligini his qilish mumkin:

*...Hatto xayolan ham
Yonimdan o’tma,
Dunyo ayriladi, axir, hushidan.
Oh, ular-ku, ular,
O’zim ham hatto
Qo’rqaman olovning
Uyg’onishidan!..*

Chinakam ijodkor odamni, uning ko’nglini bir chetga qo’yib, tabiatning go’zalligi haqida she’r bita olmaydi. Tabiat odamning ko’ngli, uning murakkab tuyg’ulari sari olib boradigan bir yo’lgina xolos. Zero, shoira Zebo Mirzo ta’kidlaganidek: *Tuni bilan qiynaldi yurak, Yeta olmay nur yo’llariga. Isming qo’ndi kapalak kabi, Goh tushimga, Goh qo’llarimga...* demak, lirik qahramon bezovta, uning qalbi nimagadir intilmoqda, neni kutmoqda, shu sababli ham “tuni bilan qiynaldi yurak”.

She’rning botiniy olami – tuyg’u mazmunidir. Mana shu olamga boshlovchi, unga eltuvchi, undan xabar beruvchi san’at – nihoyatda go’zal, san’atkor esa hassos. Balki san’atning ilohiyliги ham shundadir. She’rning keying bandlarida tuyg’ular pog’onama-pog’ona mukammallashib ijodkor “men”I reallasjib boraveradi. E’tiborimizni she’rning so’nggi misralariga qaratib ekanmiz, lirik qahramon maqsadini ilg’agandek bo’lamiz:

*Sen kelmading,
Biroq bu gal ham...
Men kunning qon yuziga boqib —
g’ijimlanib otilgan xatday —
Yuragimni yubordim yoqib!..
Tuni bilan yomg’irlar yog’di...*

Ozurda yurak, g’amdan ezilgan yurak, ayriliqdan yig’lagan yurak – g’ijimlanib otilgan yurak. Bu kabi o’xshatishlar, tashbehlar faqat Zebo Mirzogatagina xosdir. Bu kabi go’zal misralarni faqat o’qish emas, musiqa singari eshitish, his qilish lozim. She’rda hijronning alamzadaligi shu yo’sin kitobxon xotirasiga saqlanib qoladi. Ayriliqning nihoyatda og’irligi, insonni botanan va zohiran zabt etishi she’r davomida san’atkorona tasvirlangan.

Xullas, Zebo Mirzo she’rlari orqali qolipga tushmaydigan, qirg’oqlarni yuvib ketishga qodir qudratli tuyg’ular egasi bo’lganligini ko’rsatadi. Chinakam she’r hamisha kuchli tuyg’ular po’rtanasi, yoniq hislar olovidan tug’iladi. Tuyg’ulari o’ziga

xos shoirning bitganlari ham hech kimnikiga o‘xshamaydi. Chunki asl tuyg‘ular insonning qalbida, yuragining qa’rida yashaydi.

Adabiyotlar

1. Petersen I. Die Wissenschaft von der Dichtung. Bd 1. Weik und Dichter. – Berlin, 1939. – S. 119-126.
2. Сквозников В.Д. Лирика//Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Роды и жанры литературы. М., 1964. С. 175–179.
3. Zebo Mirzo. Nur kukunlari. T.: 2004.
4. Normatov U. Ijod sehri. T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.
6. Jabborov N. Zamon Mezon She’riyat. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashri-matbaa ijodiy uyi, 2015.
7. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qtish metodikasi. –T.: Bayoz, 2010.
8. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
9. Шлегель Ф. Эстетика. Философия. Критика: В 2 т. Т. 2.

ABDULLA ORIPOV POEZIYASIDA VATAN-ONA YURT OBRAZI MANZARALARI

Narziyeva M.N.– Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘zning beqiyos qudrati, adabiyotning sehrli kuchi hamda takrorlanmas iste’dod egasi Abdulla Oripov she’riyatida Vatan manzaralari, ona diyor tabiati va mo‘jizalari tahlil qilingan. Abdulla Oripov ijodini ona yurt, ona diyor tushunchalari boyitib turadi. Shu boisdan Abdulla Oripov she’riyati haqida so‘z ketganda, mitti yulduzdan tortib, ona Vatanimizning cheksiz dasht-u kengliklari qadar yastanib ketgan bag‘rikeng o‘zbekona she’riyat, yurtning qir-adirlari, sayhonlari-yu sahrolari misol dillardan joy olib, qalblarda qadr topgan, zahmatkash xalqning mehrparvar qo‘llari yanglig‘ aziz va sermazmun nazm ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

Kalit so‘zlar: manzara, vatan, qiyofa, qadriyat, paxta, oltin, milliy o‘zlik, badiiy tafsil, tuzum, mustaqillik.

ПЕЙЗАЖИ С ИЗОБРАЖЕНИЕМ РОДИНЫ В СТИХАХ АБДУЛЛЫ АРИПОВА

**Нарзиева М.Н. - преподаватель Самаркандского государственного
университета**

Аннотация. В этой статье анализируются пейзажи Родины, природа и чудеса родного края в поэзии Абдуллы Арипова, обладающего непревзойденной силой слова, волшебной силой литературы и неповторимым талантом. Творчество Абдуллы Орипова обогащено понятиями родного края. Поэтому, когда речь идет о поэзии Абдуллы Арипова, перед нами предстает бескрайняя узбекская поэзия, простирающаяся от карликовой звезды до бескрайних степных просторов нашей Родины, примеры грязи, Сайханов и пустынь страны, дорогие сердцу, добрые руки трудолюбивого народа.

Ключевые слова: пейзаж, родина, образ, ценность, хлопок, золото, национальная идентичность, художественная деталь, строй, независимость.

LANDSCAPES OF THE IMAGE OF THE MOTHERLAND IN ABDULLA ARIPOV'S POETRY

Narziyeva M.N. – Teacher of Samarkand State University

Annotation. This article analyzes the landscapes of the Motherland? Nature and Wonders of the native land in the poetry of Abdulla Aripov, who has an unsurpassed power of words, the magical power of literature and unique talent. The concept of the Motherland occupies an important place in the work of Abdulla Aripov. The creativity of Abdulla Aripov is enriched with the concepts of his native land. Therefore, when we are talking about the poetry of Abdulla Aripov we are faced with boundless Uzbek poetry, stretching from a dwarf star to the endless steppe expanses of our Homeland, examples of mud, Saykhans ana deserts of the country, dear to the heart, kind hands of hardworking people.

Key words: landscape, homeland, image, value, cotton, golpeod, national identity, artistic detail, system, independence

Alloh yaratgan eng buyuk mo'jizalardan biri insondir. Vaholanki, dunyoda millionlab mavjudotlar bor, ularning qanchasi ilm-fanga ma'lum-u, qanchasi hali kashf qilinmagan. Eng kichik zarradan tortib bugungi kunda dunyoda eng katta mavjudot deb tan olingan ko'k nahanggacha bo'lgan barcha jonzotlar orasida birgina inson nutq bilan siylandi, so'z qudrati bilan sharaflandi, inson tafakkuri doirasiga sig'adigan barcha olamlarda ulug'landi. Inson ko'ngli Ka'ba singari muqaddas hisoblanib, unga ilohiy tuyg'ular, odamiylik sifatlari joylandi. Butun borliq inson uchun yaratildi, oddiygina tuproqdan yaralgan odam farzandi o'zi yaralgan zaminni ona deb bildi, unda unib-o'suvchi nabotot va hayvonotga mehr qo'ydi. Go'yoki yerdan ungan chechak borliqqa go'zallik ulashgani kabi inson ham o'zi tug'ilgan yerning obodligiga, yashnashiga o'z hissasini qo'shishga intiladi. Shu bois butun borliq, Ona tabiat ijodkorlarning ilhom manbaiga aylandi. "Adabiyot u yoki bu yumush bilan band bo'lgan xalqning o'y-xayollari, orzu umidlari, armon va xo'rsiniqlarining ulkan, yaxlit ruhiy-ma'naviy olam — arxetipga urilib, atrofga

sochilgan aks sadosidir, aslida! Shunga ko'ra har qanday millatning istalgan davr adabiyotini qo'lga olib, hijjalab o'rganib chiqish degani o'sha millatning ma'lum davrda boshidan, yuragidan kechirganlari bilan tanishish, deganidir. Biroq buning bitta sharti bor: shu xalq va shu davrga mansub shoir (yoki har qanday boshqa san'atkor) o'z qismati bilan, dunyoqarashi-yu olgan ta'lim-tarbiyasi, yashash tarzi bilan shu xalqqa va shu xalq yaratgan davr kayfiyatiga mansub bo'lmog'i zarur! [6, 171-b] Insoniyat yaralgandan buyon ajdodlarimiz tomonidan yozilgan minglab kitoblar ona tabiatga, uning go'zal ta'rif-u tavsifiga bag'ishlanganligining ham sababi shunda bo'lsa, ne ajab. Bu go'zalliklarni qog'ozga tushirib, boshqalarga ulashadigan, o'zining va xalqning dardlarini badiiy tarzda boshqalarga tortiq etadigan kishilarga nisbatan birgina "shoir" so'zini qo'llaymiz. Bu so'z zamirida ba'zan qanchalik mas'uliyat, zalvorli yuk yotganligini ba'zan o'ylab ham ko'rmaymiz. Bu yukni shoirlikka da'vogarlarining barchasi ham ko'tara olmaydi. Chunki shoir xalqning barcha jim turganda ham el dardini oshkora ayta oladigan tili, nomard-u nojinslarga qarshi qayralgan qilichi, yurtini va elini tarannum qiladigan sayroqi qushi hisoblanadi. Shu bois el e'tirofiga erishgan ijodkorlar obro'-e'tibor topadi. Kelajak sari eltuvchi bu shukuhli karvonning boshida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Navoiy, Boburlar qatori Abdulla Oripovning ham o'z o'rnini bor. Abdulla Oripov ijodida Vatan tushunchasi muhim o'rin tutadi. "Ustoz Abdulla Oripov ijodini ona yurt, Vatan tushunchalaridan ayro holda tasavvur qilish aslo mumkin emas. Ta'bir joiz bo'lsa, mehr-muhabbat va hikmatga to'lig' bu ijodni she'riyatdagi Vatan, Vatandagi she'riyat deb ta'riflamoq o'rinlidir. Abdulla Oripov deganda — osmondagi mitti yulduzdan boshlanib, ona Vatanimizning cheksiz dasht-u kengliklari qadar yastanib ketgan bag'rikeng o'zbekona she'riyat, yurtning qir-adirlari, sayhonlari-yu sahrolari misol dillardan joy olib, qalblarda qadr topgan, zahmatkash xalqning mehrparvar qo'llari yanglig' aziz va sermazmun nazmiy umr ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Undan qadrdon manzilu makonlarning havosi ufurib turadi",- deydi atoqli shoir Sirojiddin Sayyid [5, 5-b.].

Vatan, bu tushuncha doirasida qaraluvchi turli manzaralar to'g'risida fikr yuritganda shuni yodda tutish lozimki, shoir qiyin davrda, sho'rolar mafkurasi ayni gullagan davrlarda ijod qildi. Shoir ulg'aygani sayin bu tuzumning mazmunan puch ekanligi, uning go'yalari aslida istibdod, zulm kabilardan oziqlanishini anglab yetdi va hayotda buning bir necha bor guvohi bo'ldi. Shoir o'z fikrlarini ochiq-oydin aytish imkoni bo'lmagani bois ularni o'z she'rlarida turli ramzlar, ishoralar vositasida berishga harakat qildi. Bu uning yaxlit holda Vatan tushunchasi doirasida birlashuvchi "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "O'zbekistonda kuz" she'rlari hamda "O'zbekiston" qasidasida, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Aslida, sobiq tuzum gullab-yashnagan davrda Vatan manzaralari, millat, milliy qadriyatlar to'g'risida fikr yuritishning o'zi qahramonlik sanaladi. Yirik adabiyotshunos olim N.Jabborov o'sha davrning haqiqiy manzarasini quyidagicha ta'riflaydi: "She'r yaratilgan 1964-yilda vatan, xalq haqida chuchmal, ta'sirsiz so'zlar nazm namunasi o'laroq taqdim etilar, ularning deyarli barchasida bir xil yashasinchilik ruhi hukmron

edi. O‘zbek she‘riyatida birdaniga yashin chaqnadi, momoqaldiraq guldiradi go‘yo. Bu yashin sababli vatanning butuntitifoq, millating – sovet, degan soxta tuyg‘ularga o‘t ketdi. Bu momoqaldiraq Vatan haqidagi ko‘ngilda yashirinib yotgan kechinmalardan bong urdi. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” – bunday savolni ungacha hech kim bu tarzda kun tartibiga qo‘ya olmagan edi”[2, 3-b.]. She‘rning ilk misralari ritorik so‘roq bilan boshlanadi. *Men nechun sevaman O‘zbekistonni; Nechun Vatan deya yeru osmonni; Aslida, dunyoda tanho nima bor; Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo; Yoki quyoshimi sevgimga sabab?*kabi bir-biriga zanjirdek ulashgan savollar ijodkorni ham, o‘quvchini ham bir muddat o‘yga toldirmay qo‘ymaydi.

She‘rning keyingi misralarida keltirilgan savollar ham mazmunan yuqoridagi fikrlarning mantiqiy davomi sifatida butun boshli millat, yurt, til, o‘tmish kabi tushunchalarni birlashtirib, o‘quvchining Vatan manzaralari to‘g‘risidagi tasavvurini kengaytiradi boradi:

*Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men
O‘paman: «Tuproq‘ing bebaho, Vatan!»
Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig‘ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?»[4, 20-b.]*

Bu satrlarni o‘qir ekan, Markaziy Osiyodan tortib Sibirning muzli o‘lkalarigacha Vatan deb tushunuvchi o‘quvchi ruhiyatida keskin o‘zgarish, ongida parchalanish yuz beradi. Shoirning nima demoqchi ekanligiga qiziqishi ortib, unga qo‘shilib shu savollarga javob axtara boshlaydi. She‘rning davomida bu masala oydinlashadi:

*Xo‘sh, nechun sevaman O‘zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona, go‘zal so‘zlardan oldin
Men ta‘zim qilaman ona xalqimga.*[4, 20-b.]

Shoirimizning she‘rlarini ichdan shu‘lalandirib turgan yana bir narsa bor. Bu – xalqqa bo‘lgan muhabbat. U xalq haqida yozish kerakligi uchun, ijodning ijtimoiy tomonlari ham bo‘lishi lozimligi uchun yozmadi; u xalqini jonidan sevgani uchun, uning dardlaridan dardmand bo‘lgani uchun, iqbolini sog‘ingani, mashaqqatlaridan ozurda bo‘lgani, zamon shamollarida mayishganidan ezilgani uchun yozdi [8,22-b.]. Shuning uchun bo‘lsa kerak, uning she‘rlarini o‘qish barobarida o‘quvchi Vatan tushunchasining mohiyatini to‘liqroq anglaydi, bu so‘z millat, ajdodlarimizning achchiq qismati, o‘tmish va kelajak, taqdir tushunchalari bilan uyg‘unlashgan holda milliy o‘zlikdan iborat ekanligini his qiladi. “Sho‘ro zamonida yurt va millat to‘g‘risidagi haqiqatni to‘la-to‘kis ifodalash imkoni yo‘q edi. Tildan, tarix va qadriyatlardan bahs yuritish ham yozilmagan qonunlarga

ko'ra cheklangan edi. Shu boisdan aksariyat shoirlar Vatan va millatini baxt, baxtiyorlik, ulkan zafarlar og'ushida tasavvur etar, yozgan she'rlari ham soxta ko'tarinkilikka asoslanar edi. Abdulla Oripov she'rlarida esa "Vatan" so'zi-asosiy so'z va bosh tushuncha bo'lib qolmasdan, milliy his-tuyg'u va haqiqatlarni ochib ko'rsatadigan kalit hamdir.[1, 15-b.] Bu gaplarning ayni haqiqat ekanligini Abdulla Oripovning o'zi ham e'tirof etadi. U o'z xotiralarida, suhbatlarda bu haqda to'xtalib o'tgan. "Xalqimizning, Vatanimizning bardavom kelajagini, nurli istiqlolini menimcha mantiq belgilaydi. Aslida adolatning oyoq osti bo'lishi mantiqning buzilishidir. Mantiqan O'zbekiston o'z hurriyatiga ega bo'lishga haqli edi. Insoniyat genetikasida shunday g'alati tuyg'ular mavjudki, bu tuyg'ular yaxlit armon va umid ustiga qo'yilishi ham mumkin. Sho'ro tuzumida bizning qalbimizdagi armon yaxlit shunday edi. Vatanni ozod ko'rish edi bizdagi istak. O'sha davrda bu haqida o'ylash uchun o'tkir optimist bo'lish kerak bo'lgandir, lekin har holda yuragimizda umid, harakatimizda shasht bor edi. Siz yuqorida ta'kidlagan "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'ri bundan 35 yil ilgari yozilgan. U davrda O'zbekistonning paxtasi uchun, oltini uchungina "hurmat" qilishgan. Holbuki, o'sha paxta ham meniki, oltin ham. Ammo men nima uchun sevaman O'zbekistonni! Agar muzliklarda yashagan bo'lsang ham, xalqim, men chukcha yo yoqutga o'xshagan bo'lganimda ham sen uchun jonimni berar edim-ku, degan muxolif kayfiyat bilan yozilgan edi-da.

Xalqimizning buyuk o'g'lonlarini, necha-necha allomalarini qurbon qilgan u tuzum haqida gapirish ayanchli",- degan edi A.Oripov Adiba Umirova bilan bo'lgan suhbatida [3, 4-b.].

Abdulla Oripovning Vatan, millat taqdiri mavzularida yozilgan she'rlarini ifoda uslubiga ko'ra ikki guruhga – mustaqillikka erishganimizgacha va undan keyingi yillarda yaratilgan she'rlarga bo'lish mumkin. Mustaqillikka erishgunga qadar yozilgan she'rlarda "kosa tagida nimkosa" usuli yetakchilik qilganligi seziladi. Bu davrda yozilgan she'rlarning asosiy xususiyati shundaki, ularda ichki iztirob, ruhiyatda sodir bo'layotgan isyon, yurtni ozod ko'rish istagi bo'rtib turadi. Ko'ngildagi vulqon kabi portlashga tayyor bu fikrlarni shoir ehtiyotkorlik bilan turli ramzlar, ishoralar orqali o'quvchi hukmiga havola etadi.

"Minorai Kalon tepasidagi laylak" she'ri Buxoroni dushman egallab olgach, mahmadona mang'it davlati, beklar, amirlar tashlab ketganligi, hatto bulbullar ham tark etganligi, ammo birgina shaharda qolganligi haqida. She'rni ikki xil talqin qilish mumkin. Birinchidan, Buxoroning amirlar qo'lidan xalos qilinishi va mehnatkash xalqning ozodlikka erishishi bevosita ruslarning xizmatlari sifatida talqin qilinishi sobiq sho'rolar mafkurasiga to'la mos kelar edi.

She'rning o'sha davrda qiyinchiliksiz nashr qilinishi so'zsiz shu qarashlar tufayli bo'ldi. Ikkinchidan, she'rda hamma ham sezavermaydigan ikkinchi ma'noning mavjudligidir. Shoir o'z yurtini mustaqil va ozod ko'rish istagini turli ramzlar orqali ifodalagan. Bu, ayniqsa, laylak haqida fikr yuritganda "oyoqlari g'o'zaga o'xshar, qanotlari esa paxtadek oppoq" degan fikrlarning berilishidir. Zukko

o'quvchi bu misralardan shoirning g'o'za deganda yurtimizni, tongdan shomgacha paxta dalasida mehnat qiladigan xalqimizni nazarda tutganligini, tuzumlar qanchalik o'zgarmasin o'zbek xalqi o'z yurtini tashlab ketmasligi, ozodlikka intilishiga, shuningdek, salkam bir asr hukm surgan paxta yakkahokimligiga ishora qilayotganligini ilg'ab oladi. Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'rida o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi, yurtni asrab qolish uchun kechgan shonli kurashlar, moziy o'choqlarida toblangan milliy o'zligi, armonlari va istiqboli tarixiylik va zamonaviylik bo'yoqlariga uyg'unlashgan holda Vatan qiyofasida namoyon bo'ladi. *Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor, Ko'ragoniy javdallarida; Qotil qo'li qilich soldi mast, Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh; Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas, U – Ulug'bek ko'zidagi yosh ...*[4, 4-b.] misralari orqali buyuk O'zbekistonning jahon ilm-fani rivojiga salmoqli hissa qo'shgan farzandlari fojiasi, shoirning yurt o'tmishi uchun chekkan armonlari poetik tasvir ostiga olingan.

Quyidagi parchada esa Vatan butun umri dalada o'tgan dehqon qiyofasida ko'rinadi:

*Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov.
– Tashqarida izillar yomg'ir,
– Kir, bobojon, yayragil biroz.
Deding: – Paxtam qoldi-ku, axir,
Yig'ishtiray kelmasdan ayoz.
Ketding, umri mahzanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.*[4, 6-b]

"Vatanim manim..." Abdulla Oripovning "O'zbekiston" nomli she'rining har bir bandi mana shu ikki so'z bilan tugallanadi. Zotan, bu ikki so'zda iste'dodli shoir ijodining butun mohiyati aks etadi.[6, 345-b]

Abdulla Oripov ijodida har bir badiiy tafsil, albatta, Vatan degan muqaddas tushunchaga borib bog'lanaveradi. Ijodkor tabiatning betakror mo'jizalaridan hayratlangan chog'da ham bir zumga bo'lsa ham vatanini, ona diyorini yoddan chiqarmaydi.

Shoir o'zini Vatanning , go'zal tabiatning ajralmas bo'lagi deb biladi. Shu bois she'rlarida tabiatdagi narsalarga murojaat qilib, o'z sirlarini bayon qiladi. "Tog'lar" she'rida ham shu holat ko'zga tashlanadi:

*Eh, siz tog'lar, dilrabo tog'lar, Yosh qalbimni maftun etgansiz.
Yoshlik, baxtni kuylagin, deya, Ijodimga ilhom tutgansiz.*

Abdulla Oripov "Bahor" she'rida bahorning go'zal olamini tasvirlab beradi. Hayratlanarlisi shundaki, she'rning so'nggi misralariga ko'z yugurtirar ekansiz "Baxt kabi axir yagona", "Tetapoya go'dakday shirin" deya ta'riflanayotgan bahor o'z o'rnini vatan madhiga bo'shatib beradi:

Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,

*Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim.
Faqat sen qalbimga cho'ktirmay malol,
Charchagan ruhimga ilhom solursan.
Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol,
Faqat sen dunyoda mangu qolursan*[4, 91-b].

Ko'rinadiki, Abdulla Oripov she'rlarida ko'p qo'llaniladigan inson ma'naviyati, tabiat manzaralari, millat, yurt, til, o'tmish kabi tushunchalar o'zaro birlashib, Vatan manzaralarini hosil qiladi.

Adabiyotlar

1. Ashurova G.N. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat. Filol. fanlari nomzodi ... diss. Avtoref. – Toshkent, 2008, 154-b.
2. Jabborov N. Kinoya va ramzlar zamiridagi haqiqat. /O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent: "Mumtoz so'z", III kitob, 2014.
3. Men nechun sevaman O'zbekistonni?... Ustoz Abdulla Oripov bilan suhbat. <https://bepul.ru/abdulla-oripov-men-nechun-sevaman-ozbekistonni>
4. Oripov Abdulla. SAylanma.–T.: Tafakkur qanoti, 2018, 128-b.
5. Sayyid Sirojiddin She'r va umr hikmati. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2019,154 b.
6. She'r — borlik va yo'qlik orasi. <http://ulugbekhamdam.uz/B.171>.
7. Qo'shjonov Matyoqub.Saylanma: 2 jildlik. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982, 345-b.
8. G'aniyev I., Afoqova N. Ozod ruh falsafasi. – T.: Fan, 2006, 151-b.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATETIKA FANINI O'RGANISHDA LOYIHA ISHINING AHAMIYATI

Yusupov X.A. - Respublika ta'lim markazi metodisti

Annotatsiya. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishini kuchaytiriradi. Shu maqsadda umumiy o'rta ta'lim metematikasiga loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat matematika fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Kalit so'zlar: Loyiha ishi, kompetensiya, visual, matematika, geometriya, 3D, informatika, Milliy o'quv dasturi.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОЕКТНОЙ РАБОТЫ ПРИ ИЗУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Юсупов Х.А. - методист Республиканского образовательного центра

Аннотация. Формирование базовых компетенций у студентов повышает их интерес к изучению общих наук за счет небольших исследований. С этой целью был введен проект по общей средней математике. Это не только улучшает качество обучения математике, но также открывает возможности для междисциплинарного и научного общения в повседневной жизни и повышает эффективность обучения.

Ключевые слова: проектная работа, компетенция, визуализация, математика, геометрия, 3D, информатика, учебная программа.

THE IMPORTANCE OF PROJECT WORK IN STUDYING MATH IN SECONDARY EDUCATIONAL SCHOOL

Yusupov.Kh.A. - Methodist of the Republican Education Center

Annotation. The formation of basic competencies in students increases their interest in the study of general education through small-scale research. To this end, a project was introduced in general secondary mathematics. This not only improves the quality of learning in mathematics, but also opens up opportunities for interdisciplinary and scientific communication in everyday life and increases the effectiveness of education.

Key words: Project work, competence, visual, mathematics, geometry, 3D, computer science, curriculum

Matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning kuzatuvlar orqali amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratishga bo'lgan ko'nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirishdan iborat. Bu haqda "Umumiy o'rta ta'limda matematika ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi" da keltirilgan.

O'quvchilar bir o'quv yilida o'zlari qiziqqan faqat bitta loyiha ishini bajarishlari kerak. Loyiha ishi mavzulari o'qituvchilar tomonidan muammoli vaziyat yoki keys sifatida tanlanadi. Loyiha ishi uchun ajratilgan soatlarda o'qituvchi: boshida loyiha ishi mavzularini o'quvchilar orasida taqsimlaydi, ularni bajarish uchun yo'riqnomalar va maslahatlar beradi. So'ng tayyor loyiha ishlaridan namunalar keltiradi, o'quvchilarning loyiha ishini bajarishi davomida yuzaga kelgan savollariga javob beradi hamda oxirida loyiha ishi himoyasini o'tkazadi.

Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilar alohida-alohida yoki qiziqishlariga qarab 3-4 kishilik guruh bo'lib ishlashlari ham mumkin. Bunda guruhiy ishga ko'proq urg'u bergan ma'qul. Loyiha ishi o'quv yili oxirida o'tkaziladigan himoya bilan tugaydi. Himoyani bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida konferensiya tarzida o'tkazilishi mumkin. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilarning individual yoki guruhiy ishi quyidagi o'quv faoliyatlarni o'z ichiga olishi mumkin: o'z izlanish faoliyatlarini rejalashtirish, vazifalarni o'zaro taqsimlab olish, oldilariga o'quv maqsadlarini qo'yish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, mavzuga doir muammoli vaziyat yechimlarini qidirish, ulardan eng maqbulini tanlash va uni asoslash, zarur hollarda so'rovlar yoki tajribalar o'tkazish, loyiha ishi natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash, o'z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash, loyiha ishi himoyasi uchun taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish. Bu faoliyatlar mos fan doirasida ajratilgan soatlar hisobidan amalga oshiriladi. O'quvchilar loyiha ishi muammosi bo'yicha izlanishlarini odatda darsdan tashqari mustaqil mashg'ulotlarda olib borishadi. Turli fanlardan dars soatlari sifatida ajratilgan mashg'ulotlarda esa ular maslahatlarni tegishli fan o'qituvchilaridan olishadi, hisob-kitoblarni matematika darslarida, taqdimot slaydlarini informatika darslarida bajarishadi, xullas bu soatlarda o'z mavzulari bo'yicha guruh bo'lib ishlashadi hamda boshqa guruh ishlari bilan tanishishadi. Matematikaga oid loyihalar nafaqat muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi, balki uni hayot davomida yaxshiroq o'rganishi mumkin bo'ladi.

Ushbu loyihalar o'quvchilarga regalashtirish va o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi, chunki ular "Fikrlash va aql qobiliyatlaridan" foydalanadilar.

Loyiha ishini bajarish bosqichlari:

- ishni rejalashtirish va vazifalarni o'zaro taqsimlab olish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish;
- berilgan muammo yechimlarini qidirish, eng yaxshi yechimni topish va uni tasoslash;
- zarur bo'lsa, so'rovlar yoki tajribalar o'tkazish;
- ish natijalari bo'yicha hisobot yozish, taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish.

Loyiha ishi mavzulari amaliy, nazariy va tadqiqot xarakterida bo'lishi mumkin:

- amaliy ishda fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar hayotiy muammolarni yechishda qo'llaniladi;
- nazariy loyiha ishlarida esa matematikaning biror mavzusi chuqurroq o'rganiladi;

- tadqiqot ishlarida esa biror notanish matematik masala yoki hayotiy muammoni yechish ustida kichik ilmiy izlanish olib boriladi.

Amaliy loyiha ishi namunasi.

Loyiha topshirig'i:

“O‘zbekiston aholisi sonining o‘shishi” mavzusida kichik tadqiqot o‘tkazing. Bu tadqiqot quyidagicha o‘tkazilishi mumkin. Oldin sinf o‘quvchilarining oilasida nechta bola borligi haqida so‘rov o‘tkaziladi. So‘rov natijalariga ko‘ra jadval, so‘ng chiziqli diagramma tuziladi. Aytaylik, quyidagi diagramma hosil bo‘lgan bo‘lsin. (1-rasm)




Diagramma asosida quyidagi savollarga javob berish orqali loyiha ishi bajariladi: a) Sinfda jami nechta oiladan o‘quvchilar tahsil oladi?

b) Nechta oilada bittadan bola bor?

d) Oilalarning nechtasida eng ko‘p bola bor?

e) Nechta oilada oltita bola bor?

f) Diagrammadan qanday xulosaga (taxminga) kelish mumkin?

g) Sinfni O‘zbekistonning kichik bir bo‘lagi sifatida olib, bu xulosalarni butun O‘zbekiston uchun ham aytish mumkinmi? Nega?

Shu va shunga o‘xshash savollar qo‘yib tadqiqotni davom ettirish mumkin. Albatta, javoblar taxminiy bo‘ladi. Bu jarayonda sonli natijalar emas, balki izlanish jarayonining o‘zi muhim. Loyiha ishi mavzulari quyidagicha ham bo‘lishi mumkin: “Dunyoning eng baland binolari” mavzusida internetdan olingan ma’lumotlar asosida tadqiqot o‘tkazing va taqdimot tayyorlang.

Mashhur matematik Jon fon Neyman shunday degan: “Matematikada siz narsalarni tushunmaysiz; sen shunchaki ularga o‘rganib qolasan.” Biroq, men uning fikriga qo‘shilmayman. Agar biz matematik narsalarni, masalan, loyihalarni ishlab chiqsak, albatta matematikaning qanday ishlashi haqida tushunchaga ega bo‘lishimiz kerak deb o‘ylayman. Ushbu loyihalar o‘quvchilar uchun qiziq bo‘ladi, chunki aksariyat o‘quvchilar matematika mavzusini ko‘rganlarida uni to‘liq anglay olmaydilar. Loyihalar - bu amaliy dastur bo‘lib, maktablar dasturiga kiritilishi kerak.

Matematik loyihalar juda muhim matematik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:


- Sinflarda o‘rgatilgan tushunchalarni ushbu tushunchalarning amaliy qo‘llanilishi bilan muvofiqlashtirish;

- Ijodkorlik va bilim bilan birgalikda jamoaviy ish, muvofiqlashtirish va muloqotni rivojlantirish;
- Matematikaning g'oyalarini yaxshiroq tushunish;
- Tushunchalarni diagramma, grafik va tasvirlar ko'rinishida tasavvur qilish yaxshi tushunishni osonlashtiradi;
- Ularning muammolarni hal qilish, fikrlash va rejalashtirish ko'nikmalarini takomillashtirish;
- Ta'limga yaxlit yondashishga olib keladigan hayotiy qarorlarni qabul qilish. Ushbu maqolada matematik loyihalar uchun bir nechta mavzuni taqdim etamiz, bu sizga oddiy matematik loyihalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

1. Pifagor teoremasining vizual isboti

Ushbu teorema to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasidagi kvadratning maydoni bo'yicha bosh ikki tomonning kvadratlari yig'indisiga teng ekanligini bildiradi.


Bu loyiha ishi Pifagor teoremasi va uning isbotini o'quvchilarga tushuntirishda qo'l keladi.



Loyiha turi – Geometriya, Qurilish

Loyiha uchun material – lego to'plami, taglik pritasi. Yoki rangli qog'oz va eskizlar.

Aytaylik, biz 3-4-5 o'lchamdagi uchburchakni xohlaylik. Unda bizga $9 + 16 + 25 = 50$ ta lego kerak. Lego o'rniga rangli qog'ozdan ham foydalansa bo'ladi.



Rangli qog'ozdan 3×3 ; 4×4 ; 5×5 o'lchamdagi 3 ta kvadratni qirqib olamiz. Ushbu kvadratchalarni uchburchak tomonlariga mahkamlaymiz. 3 m tomonga 3×3 o'lchamdagini va hokoza.

$$3 \times 3 + 4 \times 4 = 5 \times 5$$

$$9 + 16 = 25$$


$$25 = 25$$

Biz tomonlari $a = 3 m; b = 4 m; c = 5 m$ bo'lganda ko'rdik. $a = 6 m; b = 8 m; c = 10 m$ bo'lgan holda ham shu holat yuz beradi. Boshqa sonlar kelganda ham.

2. Balandliklar va masofalar

O'quvchi burchak tushunchasi bilan geometriyada 7-sinfda, trigonometriya tushunchasi bilan birinchi marta 9-sinfda tanishadi. Ushbu kompetensiya amaliy hayotda juda muhim rol o'ynaydigan balandliklar va masofalarni tushunish uchun juda keng qo'llaniladi. Bu, shuningdek, har xil yuqori darajadagi tadqiqotlar uchun asos yaratadi. Yaxshi tushunishni rivojlantirish uchun o'quvchilardan diagramma va grafikalar chizish va tushunchalarni bir-biriga bog'lashni so'rash mumkin.

Bajarishimiz kerak bo'lgan ushbu loyiha ishi 7-sinf o'quvchilarini Geometriya fanidan "Burchak bissektrisasining xossalari" mavzusini, 9-sinf o'quvchilari trigonometriya mavzularini tushuntirishda muammolarsiz xal qilishda zarurdir. Yana ham tushunarliroq aytadigan bo'lsak, o'quvchilarni matematik mazmun va amaliy kompetensiyalari rivojlantirishda foydali. O'qituvchi "Burchak bissektrisasining xossasi" teoremasini va uning isbotini berishdan oldin ushbu amaliy loyiha ishidan boshlasa o'quvchilarda mavzuga bo'lgan e'tibor ortadi.



Daraxtning balandligini qanday o'lchash mumkin.

Loiha turi – Geometriya, Qurilish

Loyiha uchun material – Qog'oz, o'lchov lentasi. Agar qog'oz to'g'ri to'rtburchaklar shaklida bo'lsa (to'rtburchak emas), kvadrat olish uchun uni kesib tashlashingiz kerak. *Qog'ozni bukib, o'tkir burchaklari 45 bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchak yasaymiz.*



90° burchakni ushlab turing va uchburchakning qolgan qismini o‘zingizga burang. Uchburchakning qirralari yerga parallel ravishda yotadi va bitta qirralari vertikal bo‘ladi. Ko‘zlaringizni ko‘tarib, eng uzun chekka bo‘ylab qarashingiz mumkin. Siz ko‘rib turgan eng uzun qirraga uchburchakning gipotenuzasi deyiladi.


Uchburchakning tepasiga to‘g‘ri keladigan daraxtning tepasini ko‘rmaguningizcha daraxtdan uzoqlashing. Daraxtning yuqori qismini to‘g‘ri ko‘rmaguningizcha bir ko‘zingizni yoping va boshqa ko‘z bilan gipotenuza bo‘ylab qarab turing. Sizning gipotenuza bo‘ylab qarashingiz daraxtning tepasiga to‘g‘ri keladigan nuqtani toping. (4-rasm)

Agar turgan nuqtamizdan terakkacha masofani o‘lchab, unga bo‘yimizni qo‘shsak, terakning bo‘yi chiqadi.

Bu o‘lchashni yana bir necha usuli bo‘lib, bu usullardan burchak medianasini hamda trigonometriyani tushuntirishda fodalaniish mumkin.

3. 3D figuralarni yasash va tushunish.

O‘quvchi tushunishi kerak bo‘lgan 3-o‘lchovli turli xil shakllar mavjud, masalan, kublar va kuboidlar asoslari. Ushbu 3 o‘lchovli raqamlar uchun hisob-kitoblar 2 o‘lchovli raqamlar kabi oson emas. Shuning uchun yaxshi loyiha ishi 3-o‘lchovli figuralarni vizualizatsiyalashga yordam beradi, shuningdek o‘quvchilarga u bilan bog‘liq turli xil formulalar va hisob-kitoblarni tushunishga yordam beradi.



4. O‘xshashlik va kelishuv

9-sinfda paydo bo‘ladigan geometriyaning yana bir juda muhim kompeyensiyasi - bu uchburchaklarning o‘xshashligi. Ushbu tushunchani tushunishda o‘quvchilar ko‘pincha juda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli, bir qator topshiriq va savollarni echishga qodir bo‘lgan juda ko‘p miqdordagi ilmiy-tadqiqot ishlariga ega bo‘lgan loyiha ishi o‘quvchiga o‘xshashlikning nomuvofiqligi tushunchasini o‘rganishiga yordam beradi.

Ushbu maqola orqali siz uchun tuzgan matematik loyihalar mavzularining eng qiziqarli ro‘yxatlari edi. Umid qilamizki, ushbu maqola foydali bo‘ldi va o‘quvchilarga o‘rganish, o‘sish va rivojlanish uchun u erda eng qiziqarli mavzularni tanlashga yordam beradi. Ushbu mavzular o‘quvchilar uchun eng foydali ekanligi isbotlangan. Eng yaxshisini tanlang va sizga eng mos keladiganini.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ - 637 son Qonuni 2020 yil 23 sentabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
4. Umumiy o‘rta ta’limda matematika ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi.
5. A.A’zamov va boshq. Geometriya 7-sinf: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik /– qayta ishlangan va to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent:, 2017. – 160 b.
6. B. Q. Xaydarov. Matematika 5-sinf: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, 2-qism /– qayta ishlangan va to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent:, 2020. – 144 b.
7. Т. В. Волосовец, В. А. Маркова, С. А. Аверин, STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Москва. Лаборатория знаний 2019.

NOFIZIK MUTAXASSISLIK TA’LIM YO‘NALISHLARIDA FIZIKA FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O‘QITISH

Irmatov F.M. - Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqola nofizik mutaxassislik yo‘nalishlarining ba’zi bir amaliy mashg‘ulotlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida bajarishga bag‘ishlangan. Nofizik mutaxassislik yo‘nalishlarining talabalari uchun Interactive Physics simulyatoridan foydalangan holda fizikaviy masalalarni yechish keltirilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, ta’lim, jarayon, holat, daraja, dastur, samara.

ПРЕПОДАВАНИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ НАПРАВЛЕНИЯХ НЕФИЗИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ирматов Ф.М. - преподаватель Джизакского государственного педагогического института

Аннотация. Статя посвящена внедрению некоторых практических занятий по нефизическим специальностям на основе современных образовательных технологий. Для студентов неспециалистов предусмотрено решение физических задач с использованием симулятора Interactive Physics.

Ключевые слова: технология, образование, процесс, статус, степень, программа, эффект.

TEACHING PHYSICS IN PRACTICAL SPECIALTIES IN NON-PHYSICAL SPECIALTIES USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Irmatov F.M. - teacher of the Jizzakh State Pedagogical Institute

Annatation. The article is devoted to the introduction of some practical classes in non-physical specialties based on modern educational technologies. For non-specialized students, physical problems are solved using the Interactive Physics simulator.

Key words: technology, education, process, status, degree, program, effect.

Hozirgi jamiyatimizning maorif sohasida zamonaviy ta'lim texnologiyalari juda faol qo'llanilib kelinmoqda, ayniqsa, bunday holatlar fanlarni o'qitish jarayonida sezilarli darajada kuzatilmoqda.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda o'qitish jarayonlarining samaradorligini oshirish faqatgina qo'llaniladigan texnologiyalar shakliga bog'liq bo'lmay, balki o'qitish jarayonida yuzaga keladigan individual masalalarning yechimini topishda qo'llaniladigan pedagogik ishlarning sifatiga ham bevosita bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda talabalardan yuqori darajada kompyuter savodxonligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishidagi asosiy terminlar mazmun mohiyatini tushunish, zaruriy dasturiy maxsulotlardan va servis dasturlar imkoniyatlaridan mustaqil ta'lim olishda samarali foydalanishlari talab etilmoqda.

Konstruksiyalay oladigan, baholay biladigan va ratsionalizatorlik qila oladigan, qolaversa, taffakkuri rivojlangan, faol ijod qiladigan mutaxassislarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday masalani yechimi kelajak mutaxassislarni o'qitish metodikasi va mazmuniga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning avzalligi shundaki fanni o'qitishda o'qituvchi o'quv-tarbiya jarayonida o'zining rolini o'zgartirishi lozim bo'lib qoladi, yani talabalarga axborotlarni beruvchi shaxs sifatida emas balkim faoliyatni tashkil etuvchiga, maslahat beruvchiga va qo'yilgan masalaning yechimini

topishda hamroh bo'lishiga to'g'ri keladi, yani o'qituvchi va talaba funksiyasi almashtiriladi.

O'qituvchi talaba bilan hamkorlik munosabatda bo'lishiga talaba ma'suliyatni va ko'pgina masalalar yechimini topishda mustaqillikni o'ziga olishiga to'g'ri keladi [1].

O'qitiladigan mavzularni bayon etishdan oldin o'qituvchi ba'zi bir holatlarda talabalardagi inertlik va nafaoligini engishi zarur bo'lib ularni shu mavzuga qiziqishini uyg'otadi.

Aytish joizki, bilimni asosi bu faqatgina o'quv fanlari bo'lib qolmay, balki taffakur va faoliyat usullari ham. Hozirgi zamon yuqori darajali tayyorgalikka ega bo'lgan mutaxassis etishtirish bilan chegaralanmasdan, balki o'qitishda yangi texnologiyalarni taqdim qila oladigan kadr etishtirish ta'lim muassasalarining asosiy maqsadiga aylanmoqda.

Konkret ishlab chiqarish muhiti sharoitlarida moslasha oladigan kadrlarni, yangi yechimni topadigan, menejment funksiyasini bajara oladigan mutaxassis etishtirib chiqarish talab qilinmoqda.

O'qitish faoliyatida innovatsiya bu-ijtimoiy va bozor talablaridan farqli ravishda maorif xizmatlari ko'rinishidagi yangi bilimlarni, usullarni qo'llash. O'qitish texnologiyalarini qo'llash natijalari o'qituvchini ustaligiga kam bog'liq bo'lib, u o'qituvchining barcha yig'ilgan ustalik komponentlari bilan aniqlanadi:

- mavjud bo'lgan fundamental va amaliy bilimlari; yangi kasbiy va boshqaruv sohada muvaffaqiyati o'zlashtira oladigan qobiliyatli, ijtimoiy-ijodiy sharoitlarda xushyor va dinamik sezuvchan; innovatsion bilim fazosi sharoitida yuqori insoniylik sifatlariga ega bo'lishi; oliy ta'lim muassasalari sharoitida o'quv laboratoriya mashg'ulotlarida o'tkazib bo'lmaydigan tajribalarni, hodisa va jarayonlar texnologiyalarini kompyuterli modellarini qo'llagan holda o'quv tajribalari tarkibini ko'paytirish.

Fizikadan masala yechish talabalarning dunyoqarashlarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masala yechish ko'p hollarda fizika darslarining tarkibiy qismi bo'lib, o'qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda va uni mustahkamlashda, o'tilganlarni takrorlashda, talabalarning mustaqil ishlarida va bilimlarini sinab ko'rishda masala yechishdan foydalanadi.

Interactive Physics dasturidagi harakat instrumentlaridan foydalanish mumkin va talabalarning o'zlari mustaqil ravishda muhandis yoki ilmiy mutaxassislar kabi fizikaviy jarayonlarni modellashtirish imkoniyatiga egadirlar. Interactive Physics simulyatoridan foydalangan holda fizikaviy masalalarning shartini animatsiya holda modelini yaratish talabalarga fizikaviy masalalarga bo'lgan qiziqishining ortishiga olib keladi. Talabalar Interactive Physics simulyatori orqali biron-bir fizik masalani olgan holda, uni modellashtirishga kirishadilar. Talabalar kompyuter modelini yarata

turib masalalar ustida yaxshi bosh qotiradilar, fizik mohiyatini anglab etadilar hamda yechiladigan masalaning fizik jarayonini jonli ko‘rinishda ko‘z oldiga keltiradilar. Natijada talaba berilayotgan fizik masalalarni qiyinchiliksiz yechish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘ldi.

Ma’lumki, ba’zi bir jarayonlar yoki fizikaviy modelning tasnifi chizma plakatlarda to‘liq o‘z aksini topmaydi. Buning ustiga jarayonning o‘zgarishini ko‘rish imkoniyati umuman mavjud emas. Ta’kidlash kerakki, Interactive Physics dasturiga o‘xshash dasturlar fizikani o‘qitishdagina emas, umuman ta’lim tizimida noyob dasturiy mahsulot hisoblanadi. Misol uchun “Физикон” kompaniyasining “Открытая физика” va “Физика в картинках” elektron dasrlıklarida mavjud bo‘lgan modellar pedagogik nuqtai nazardan funksionalligi, interfaolliги jihatdan alohida ajralib turadi. Ammo u yerda keltirilgan tayyor modellardagi fizik kattaliklarni o‘zgartirishi mumkin, lekin qo‘shimcha boshqa fizik kattalikni kiritish mumkin emas. Interactive Physics dasturida yaratilgan modelda talaba fizik jarayonga bevosita «aralashib» turishi, uning parametrlarini o‘zgartirib, yangi parametrlarni kiritishi, amal qilinayotgan qonuniyatga qanday ta’sir qilayotgani to‘g‘risida xulosalar chiqarishi, talaba o‘zini loyiha konstruktori sifatida qarashi, bilim olish va uni chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Dastur tajriba natijalarini sonli integrallash orqali amalga oshiradi. Interactive Physicsda sonli integrallash metodining ikki usuli mavjud: Eyler va Kutta-Merson (boshqa nomi ham mavjud Runge-Kutta 5-darajadagi metodi deb ham nomlanadi)[2].

IP dasturidan mexanika bo‘limini o‘qitishda foydalanishning o‘ziga xos pedagogik qulaylik tomonlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Bu dasturning asosiy muhim tomoni shundaki, unda har xil fizikaviy modellarni “uskunalar shkafi” dan foydalanib yaratiladi.

Dastur fizikaviy jarayonlarni jonli ko‘rinishda tasvirlash imkoniyatini berib, unda tezlanish, ko‘chish, kuch va tezlik vektorlarining yo‘nalishlarini, tezlik, tezlanish, kuch va boshqa kattaliklarning vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigini tasvirlash mumkin. IP dasturidan virtual laboratoriya ishlarida, eksperimental masalalarda foydalanish mumkin.

Interactive Physics dasturi:

fizikaviy hodisalarni jonli va tabiiy ko‘rinishda tasvirlash; kuzatish qiyin bo‘lgan jarayonlarni ham namoyish eta olish; tadqiqot ob’ekti sifatida foydalanish; fizikaviy hodisani bir necha marta takrorlash; fizika faniga bo‘lgan qiziqishni orttirish; talabalarda tadqiqotchilik faoliyatini orttirish; talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Interactive Physics dasturi orqali fizika fanini o‘qitishda yangi turkum mashg‘ulotlarni kiritish mumkin. Misol uchun:

Virtual laboratoriya ishlari; namoyish eksperimentlari; tadqiqot eksperimentlari; masala tuzish; masalani tahlil qilish va h.k.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda fizika fanini o'qitishga oid yaratilayotgan elektron ta'lim resurslari ko'payib bormoqda. Yaratilgan elektron ta'lim resurslarining tarkibida fizik jarayonlarni aks ettirgan elektron darsliklar va virtual laboratoriya, namoyish tajribalarining kompyuter modellari maxsus dasturlash tillari talab qiladigan dasturiy ta'minotlar orqali yaratilmoqda. Yaratilgan kompyuter modellarini yaratish uchun maxsus dasturlash tillarini bilish va fizikavaiy qonuniyatlarni juda yuqori darajada bilish talab qilinadi. Lekin ayrim hollarda yaratilgan modellarda fizik jarayon umuman, fizika qonunlariga to'g'ri kelmasligini kuzatish mumkin. Bu hol esa, juda achinarli va pedagogik nuqtai nazardan xavfli holat. Agar fizika fani o'qituvchisi fizikaning biron-bir bo'limidan biror bir kompyuter modelini yaratish niyatida bo'lsa, u holda o'qituvchidan maxsus dasturlash tilini bilish talab qilinadi. Interactive Physics simulyatori o'qituvchidan maxsus dasturlash tillarini bilishni talab qilmaydi, bu Interactive Physics dasturining afzallik tomonlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, kompyuterning ta'lim-tarbiya sohasidagi ahamiyati beqiyos. U ta'lim tizimini ma'muriy boshqarishdan tortib alohida maktab faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishgacha, o'quv predmetlarini o'rganishni tashkil qilishdan tortib o'quvchilarning individual mashg'ulotlarini tashkil etishgacha bo'lgan muammolarni qamrab oladi. Kompyuter ma'lumotlarni saqlovchi, ularni qayta ishlovchi, turli shakl va metodlarda o'quvchilarga etkazuvchi o'ta qulay vosita sifatida tan olinmoqda. Kompyuterning ta'lim berishdagi vazifasi dars jarayoni bilan chegaralanmaydi. Talabalar u bilan mustaqil ishlab, hatto uyda ham bilim olishlari mumkin. Shuningdek, kompyuter tarmoqlaridan foydalanish, masofadan o'qitish hozirgi kun uchun orzu bo'lmay qoldi. Bu nogiron bolalar uchun ta'lim olishning yagona imkoniyati, iqtidorli, o'ta qiziquvchan o'quvchilar uchun mustaqil ta'lim olish vositasi ham.

Kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p bo'lib, talabalarda malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; talabalarining ishlash sur'ati jadallashadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida talaba ta'lim sub'ektiga aylanadi; talabalar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda, darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin tavsifini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi va hokazo. Shu sababli ta'limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish bo'yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ular

bilan bir qatorda Respublikamizda ham turli yoʻnalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari oʻtkazilmoqda.

Talabalarning fizikadan masala yechish va laboratoriya mashgʻulotlarida shugʻullanishlari fizika kursini oʻqitish jarayonining muhim va samarali qismini tashkil qiladi. Shu sababli masala yechish va laboratoriya mashgʻulotlarini toʻgʻri tashkil qilish, uni rivojlantirishga oid masalalarni ishlab chiqish fizika taʼlimida muhim ahamiyatga ega.

Fizikani oʻqitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bir qator afzalliklarga ega. Masalan, maʼruzadan olingan bilimlar kompyuter texnologiyalari asosida masala yechish, laboratoriya mashgʻulotlari, fizik jarayonlarni modellashtirish mashgʻulotlari bilan qoʻshilsa, oson oʻzlashtirilishidan tashqari, oʻrganilayotgan hodisalarning fizik maʼnosini ongli idrok etishga yordam beradi.

Talabalar ushbu holda maʼruza bilan masala va laboratoriya mashgʻulotlari masalalar yechishni oʻzaro bogʻlab, nazorat qilish imkoniyatlariga ega boʻladilar.

Maʼlumki, koʻpgina fizikaviy masalalarni yechishda talaba masaladan kelib chiqqan holatda, fizika qonuniyatlarining matematik formulasini yozadi va hosil boʻlgan tenglamalar sistemasidan masala shartida soʻralayotgan fizik kattalikni keltirib chiqaradi, kerak boʻlsa, tahlil qiladi. Mana shu bilan masala yechish jarayoni tugaydi. Lekin talaba shu ishlagan masalasini tajribada tekshirib koʻrish imkoniyatiga ega boʻlmaydi.

Haqiqatan ham, biron-bir jismning boshqa sayyorada (kuchli yoki kuchsiz maydonda, masalan, gravitatsion maydonda) harakatini kuzatish yoki havoning qarshilik kuchini eʼtiborga olgan holda, gorizontga burchak ostida otilgan jismning harakat traektoriyasini, maʼlum bir vaqtdan keyin vaziyati qanday boʻlishini tasavvur etish qiyin boʻladi. Shu bois hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalarining oʻquv jarayoniga keng kirib kelganligini eʼtiborga olib, fizika fanining anʼanaviy oʻqitish mexanizimiga qoʻshimcha element kiritish, yaʼni modernizatsiyalash vaqti keldi.

Bu talabadan oʻrganilayotgan muammoning mohiyatini chuqur his qilishni va fizik jarayonning mohiyatini chuqur tushunishga yordam beradi. Bunday mashgʻulotlarni tashkillashtirish uchun taʼlim tizimida maʼlum bir maʼnoda inqilobiy oʻzgarishga olib kelgan Interactive Physics dasturdan foydalangan holda tashkillashtirishni tavsiya qilamiz [2].

Demak, Interactive Physics dastur paketidan foydalangan holda fizikaviy masalalarning shartini animatsiya holda modelini yaratish talabalarga fizikaviy masalalarga boʻlgan qiziqishini orttiradi. Talabalar Interactive Physics dasturi orqali biron-bir fizik masalani olgan holda, uni modellashtirishga kirishadilar. Talabalar kompyuter modelini yarata turib, masalalar ustida yaxshi bosh qotiradilar, fizik mohiyatini anglab etadilar hamda yechiladigan masalaning fizik jarayonini jonli

ko‘rinishda ko‘z oldiga keltiradilar. Natijada talabalar berilayotgan fizik masalalarni qiyinchiliksiz yechish malakasiga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar

1. Сакович С.М. Инновационные технологии и методы обучения в профессиональном образовании: Статья. -М., 2010.

2. Xamidov V.S. Interactive Physics muhitida fizik jarayonlarni modellashtirish. Ta’limda Axborot-Kommunikatsiya texnologiyalari. III jild. – Toshkent, 2006. –b. 294-298.

3. Abdurahmonov Q.P., Xamidov V.S. Fizika fanidan masalalar yechishda Crocodile Technology dasturidan foydalanish. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturini amalga oshirishda fizikani o‘qitish muammolari. -Toshkent shahar texnika oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-uslubiy seminar maqolalari. 2010-yil 31-mart.

4. Qobilov B., Niyozxonova B., Qodirov J. Fizika o‘qitishda Internet resurslarni qo‘llash: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T., 2013.

SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ochildiyeva S.E. - Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tasavvurni aniqlash va uning rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash eng murakkab psixologik muammolaridan biridir. Boshlang‘ich sinfga qabul qilingan bolalarning psixologik xususiyatlari, oilaviy muhiti, o‘zlashtirish darajasi qandayligi, maktabga tayyorgarligining qay darajada ekanligini chuqur o‘rganish talab qiladi. Ko‘plab olimlarning ijodiy tasavvur bo‘yicha qarashlari, izlanishlari, tadqiqotlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvur, ijodiy tasavvur, ijodiy fikrlash, ijodiy tasavvur, ijodiy tasavvurni tashkil qilish usullarini qo‘llash.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ВООБРАЖЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ В ОБУЧЕНИИ ГРАМОТЕ

Очильдиева С.Э. – магистр Термезского государственного университета

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития творческого воображения студентов. Определение воображения и выявление специфики его

развития - одна из самых сложных психологических проблем. Психологические особенности детей, принятых в начальную школу, семейное окружение, уровень успеваемости, уровень готовности к школе требуют углубленного изучения. Изучены взгляды, исследования и исследования многих ученых, посвященных творческому воображению.

Ключевые слова: воображение, творческое воображение, творческое мышление, творческое воображение, использование творческого воображения.

METHODOLOGY OF DEVELOPING STUDENTS 'CREATIVE IMAGINATION DURING LITERACY TEACHING

Ochildiyeva S.E. – magister of Termez state university

Annotation. This article addresses issues of developing students' creative imagination. Defining the imagination and identifying the specifics of its development is one of the most complex psychological problems. The psychological characteristics of children admitted to primary school, the family environment, the level of mastery, the level of readiness for school require in-depth study. The views, researches and studies of many scientists on creative imagination have been studied.

Key words: imagination, creative imagination, creative thinking, creative imagination, use of methods of organizing creative imagination.

Tasavvurni aniqlash va uning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash eng murakkab psixologik muammolaridan biridir. A.Ya.Dudetskiyning fikriga ko'ra, tasavvurning taxminan 40 ta tahrifi bor, lekin uning tabiati va boshqa aqliy jarayonlardan farqi shubha ostiga olinadi [1]. A.V.Brushlinskiy tasavvurni belgilashdagi qiyinchiliklar, ushbu konsepsiyaning chegaralari aniq emasligi bilan bog'laydi [2].

Haqiqatan ham, tasavvur fikrlash jarayonlari bilan chambarchas bog'liq, turli xil bilimlardan iborat. Biroq, bizning fikrimizcha, tasavvurlarning o'ziga xosligi mavjud bo'lib, u har doim uning ta'riflarida aks etmaydi. Bizning vazifamiz yana bir aniq ta'rif berish emas, balki tasavvurning bu o'ziga xosligini ochib berishdan iborat.

Ijodiy tasavvur deb bizning tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur va obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan tasavvur turiga aytiladi. Ijodiy tasavvur natijasida san'at, adabiyot, texnika sohalarida yangiliklar yaratiladi va uning obrazlari tamoman yangi, original obrazlar bo'ladi.

Ijodiy tasavvurning o'ziga xos xususiyati yaratilayotgan obraz haqiqatda yo'q, biron yangi obraz bo'ladi. So'ngra jamiyatning yoki xayol qilayotgan insonning ehtiyojlari yangi obrazning yaratilishiga turtki bo'ladi. Ijodiy tasavvur so'zlar va

moddiy narsalarda paydo bo'ladi. Orzu va shirin tasavvur qilishlar ijodiy tasavvurning alohida turlari sifatida ijodiy tasavvurning kelajakka qaratilgan faoliyatidir. Demak u orqali istiqbol obrazlari yaratiladi.

Ijodiy tasavvurni rivojlantirishni mustaqil omil sifatida belgilab, uning rivojlanishini boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvuri misolida o'rganib chiqildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurining tarkibiy qismlari deb quyidagilardan iborat:

- ijodiy fikrlash;
- ijodiy tasavvur;
- ijodiy tasavvurni tashkil qilish usullarini qo'llash.

Tasavvurni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagicha ta'sir qiladi:

1. Bolalarning jismoniy va intellektual rivojlanishiga.
2. O'rtacha o'quvchining rivojlanishini belgilovchi muhitni yaratishga.
3. Bola vazifani mustaqil ravishda bajarishga.
4. Yuqori darajali erkinlik darsliklarini taqdim etish, ishlarining o'zgarishi va

h.;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishda bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish lozim. Umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim davriga mos keladigan rivojlanish bosqichi xronologik chegaralari turli mamlakatlarda va turli xil tarixiy sharoitlarda farqlanadi. Bu chegaralar shartli ravishda 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha oraliqda belgilanishi mumkin. Ularning mazmuni rasman qabul qilingan boshlang'ich ta'lim shartlariga bog'liq [3].

Maktabga bolani qabul qilish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash vaqtida o'qituvchiga bir qator vazifalar yuklatiladi:

- maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini va uning faoliyati, aloqasi, xulq-atvori, aqliy jarayonlarni o'qitish paytida ehtiborga olish kerakligi darajasini aniqlash;

- imkoni boricha mumkin bo'lgan bo'shliqlarni bartaraf etish va maktabga tayyorgarlik darajasini oshirish;

- kelgusida maktab o'quvchilarining shaxsiy tasavvurini hisobga olgan holda strategiyasi va taktikasini rejalashtirish.

Ushbu muammolarni yechishda o'qituvchilardan boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolalarning psixologik xususiyatlari, oilaviy muhiti, o'zlashtirish darajasi qandayligi, maktabga tayyorgarligining qay darajada ekanligini chuqur o'rganish talab qiladi.

M.M.Baxtinning fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanish bosqichi sifat jihatidan o'ziga xos bosqich hisoblanib, yuqori mental funksiyalar va

shaxsiyatning rivojlanishi ushbu bosqichda olib boradigan faoliyat doirasida amalga oshiriladi. Bola tarbiyaviy faoliyatga jalb qilinishi barcha ruhiy jarayonlar va funksiyalarni qayta qurish boshlanishini belgilaydi [4].

Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qishga nisbatan to'g'ri munosabatni yaratishi ta'limning – bu kuchli harakat, diqqatni jalb qilish, intellektual faoliyat, o'z-o'zini cheklashni talab qiladigan mehnatga aylanishiga imkon yaratadi. Agar bola bu jarayonda qiyinchiliklarga uchrasa, anglashi qiyin kechsa, u xafa bo'ladi, ta'limga salbiy munosabatda bo'la boshlaydi. Bunday bo'lmasligi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishni bayram emas, o'yin emas, jiddiy, mashaqqatli ish emas, balki juda qiziqarli bo'lishini tahminlashi lozim. Chunki unday jarayon ko'plab yangi, qiziqarli, muhim, zaruriy narsalarni o'rganishga imkon beradi. Shu o'rinda boshlang'ich sinf darsliklariga yangicha yondashish g'oyasi paydo bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangi g'ayritabiiy narsalar yaratish qobiliyatining yuqori bo'lishi fikrlash funksiyalarining rivojlanishi ham yuqori bo'ladi. Masalan, o'zi uchun yangilik bo'lgan narsalarni fikrlash va tasavvur qilish orqali amalga oshiradi. Besh yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashga alohida ehtibor qaratish aql-idrokni, yahni majoziy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish uchun eng maqbul yo'l hisoblandi.

Fikrlash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari doimo obyektlar, hodisalar va ularning o'zaro aloqalari haqida taassurotlar bilan ongini boyitib boradi. Hodisalar va obyektlar o'rtasidagi yangi aloqalarni yuzaga keltiradigan ko'plab birikmalar mavjud.

Boshqa aqliy vazifalar singari tasavvurlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi bilan o'zgaradi. Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda tasavvur funksiyasining faollashuvi kuzatiladi. Dastlab, qayta tiklash (kichik yoshda ertakli tasvirlarni tasavvur qilish imkonini beradi), keyin esa ijodiy (buning natijasida asosan yangi tasvir yaratilgan) fantaziya shakllanishi uchun o'zlarining faol ishlarini namoyon eta boshlaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining faoliyatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tasavvur obrazlaridan amaliy foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, ularga nisbatan shaxsiy emotsional munosabatni ham bildiradi. Bu hol ko'pincha ularning ijodiy o'yinlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning kattalar faoliyati haqidagi, ularning o'zaro munosabati to'g'risidagi tasavvuri aks etadi. Ular o'zlarini katta yoshdagi odamlar bilan birga harakat qilayotgandek his qiladilar. Hatto, voqelikning bevosita qatnashchisi vazifasini o'taydilar.

Demak, katta yoshdagi insonlar ularga hayotning ijobiy obrazlarini tasavvur qilishda ko'maklashish bilan birga, bolalarning har qanday voqelikka ijobiy nuqtayi

nazar bilan qarashiga zamin yaratish lozim. Ijobiy xislatlarni bolalar ongida hosil qilish ulardagi ijodkorlikka, yaratuvchanlikka, izlanuvchanlikka, fantazyaviylikka hamda erkin ijodiy fikr yuritishga olib keladi. Barcha ezgu ishlar, ezgu amallar, ixtirolar, badiiy asar namunalari – barcha-barchasi hayotga ijobiy yondashish natijasida yaratiladi.

Harakatga undovchi xohish-istak bolaning ijtimoiy tasavvuri bilan bog‘liq bo‘lib, bevosita idrok qilish mumkin bo‘lgan vaziyat mohiyatini anglashga imkon beradi va yangi faollikka undaydi. Psixologik manbalardan ma‘lumki, mazkur yoshdagi bolalarning o‘zlari xohlamagan faoliyatga (yozishga, rasm chizishga, mehnatga, harakatli o‘yinga) majbur qilish mumkin emas. Ular o‘zlari xohlamagan mashg‘ulotlardan tez charchaydilar. Shunday mashg‘ulotlarga amaliy jihatdan ijodiy yondashib, harakatga undovchi, rag‘batlantiruvchi alomatlar kiritilsa, bolalar ishga astoydil, butun vujudi bilan kirishib ketadi. Natijada, shu mashg‘ulotga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Bolalar ham band bo‘ladi, ham ko‘p mahlumotlarni o‘zlashtiradi va o‘z vaqtida ortda qolmasdan o‘zlashtirishga erishadi.

Shaxsiy tajribalardan ma‘lumki, biror qiziqarli hayotiy hodisa yoki multfilm qahramonlari muhokama qilinganda, o‘quvchilar birdan turli xildagi, rang-barang fikrlar bildira boshlaydilar. Shunday vaziyatlarda ular o‘z aqliy imkoniyatlaridan ko‘p narsalarni bilishi ma‘lum bo‘lib qoladi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: nega ular darsga oid mavzular yuzasidan gapirganlarida bunday ishtiyoq bilan so‘zlamaydilar? Chunki multfilmlarni tomosha qilganlarida tasavvur yaqqol namoyon bo‘ladi. Ularni qiziqtiruvchi tasviriy ifodalar, boy rang-tasvir namunalari, tasavvur qilish imkoniyati to‘laligicha yoritiladi. Shularni hisobga olib, darsliklarda, dars jarayonida bolalarni xuddi shunday qiziqtiradigan, ularning ijodiy tasavvurini rivojlantiradigan, boy rang-tasvir namunalariidan foydalanilgan, tabiatiga, yosh xususiyatiga mos mavzular ko‘proq berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlarning turfa xilligi darslardagi shunday vaziyatlarning asosi bo‘ladi. O‘quvchilarning ruhiy muvozanatdan chiqishi esa ularni ma‘naviy kamolot sari yetaklash garovi.

Forobiyning fikricha, ta‘lim-tarbiya jarayonining har bir bosqichida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi o‘ziga xos tarzda fikrlash, tasavvur qilish va his etish orqali amalga oshadi. Inson tug‘ilganidan fikrlash, tasavvur qilish quvvatiga ega bo‘ladi va u bolaning o‘sishi bilan rivojlanib boradi. Olimning fikricha, inson aqliga sig‘adigan tushunchalarning kishi ongida saqlanib qolishi bilishning natijasi sanaladi. “Bolada katta imkoniyatlarga ega ko‘ngil bor, – deydi Forobiy, u, – his-tuyg‘u tasavvur orqali anglash xususiyatiga ega. Hissiyot va tasavvur bilan fikrlar tushuniladi”. Inson tug‘ilishi bilan fikrlash, tasavvur qilish quvvatiga ega bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikrlariga qo‘shilgan holda, uning kichik yoshdan shakllanib, bola ulg‘aya borishi bilan rivojlanib borishini alohida ta‘kidlash lozim.

S.Rahimov o'zining tadqiqotlarida sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini o'rganib chiqar ekan, Ibn Sinoning ta'limda bilimlarni o'zlashtirish tasavvur etish orqali amalga oshirilganda katta samara berishini alohida ta'kidlaganini eslatadi. Bu jarayon daxl qilish, ko'zi orqali ko'rish, bevosita ishtirok etish yo'li bilan amalga oshishi zarurligini asoslagan. Ibn Sinoning qarashlariga ko'ra, o'quvchi bilimi asosida mantiqiy fikrlash, shaxsiy kuzatish, tasavvur qilish va tajriba bor. Alloma ta'lim-tarbiyada tasavvur boy bo'lishiga ehtibor qaratgan. Tadqiqotchi ustoz shogirdining tasavvuriy xususiyatlarini inobatga olishi, ularni shaxsining bilimdonligi bilan qiziqtirishi, ta'limning turli metodlaridan foydalanishi kerak deb hisoblagan.

X.Tillashevning ta'kidlashicha, Umar Hayyom ham ijodiy tasavvur o'quvchi taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini alohida ta'kidlagan. U o'zidan avvalgi olimlarning ishlarini o'rganib, ularda o'quvchini bezovta qilish, qiziqtirish uchun ijodiy tasavvurni rivojlantiruvchi, ongli ravishda o'zlashtirish bilan bog'liq qarashlarning yo'qligi noma'qul ekanligini ta'kidlagan. Umar Hayyom u yoki bu matematik holatlarni tushuntirishda erkin yondashuv zarurligini qayd etgan va o'quvchini ta'lim jarayoni davomida mustaqil ravishda ijodiy tasavvurga da'vat qilib, yo'naltirib turilishi kerakligini ko'rsatgan. U maxsus yo'llar bilan o'quvchilarni boy tasavvuri orqali mustaqil mulohaza yuritishga odatlantirish, masalani o'zi hal qilishga o'rgatish zarurligini ko'rsatgan.

Tasavvur qilish vaziyatni noaniqligi juda yuqori bo'lganida bilimni ta'minlaydi. Ham bolalar, ham kattalardagi tasavvur funksiyasining umumiy ahamiyati yengillashtiriladi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi tasavvur funksiyasi juda kuchayadi. Ba'zi bolalarning tajribasi va atrofida dunyoni obyektiv baholash uchun qobiliyati yetarli emas. Tasavvur – bu majoziy fikrlashning asosi bo'lib, insonga ma'lum vaziyatda harakat qilish va muammolarni to'g'ridan-to'g'ri amaliy choralarsiz hal qilishga imkon beradi. Amaliy harakatlarning imkonsizligi, qiyinligi yoki oddiygina bo'lmaganligi tufayli, bu uning hayotida katta yordam beradi. Tasavvurni tarbiyalash, uni shakllantirish, rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quvchi tasavvurini o'stirish hamisha ustozlarning zimmasidagi muhim bir vazifa ekanligi millatparvar kishilarning doimiy diqqat markazida bo'lgan.

Adabiyotlar

1. Дудетский А. Я. Теоретический вопрос воображения и творчества. – Смоленск, 1974. – 76 с.
2. Брушлинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение. – Воронеж, 2006. – 392 с.
3. Виготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М., 1991. – 93 с.

4. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. – М., 1975. - 502 с.

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA MONITORING VA DIAGNOSTIKA ISHLARI

Choriyeva D.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti 'qituvchisi

Annatation. Ushbu maqolada ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha bir qator ustuvor choralar ko'zda tutilgan, ular orasida ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini yaratish asosiy o'rinni egallaydi. Ulardan maktabgacha ta'lim muassasasida foydalanish boshqariladigan tizimning holati va undagi o'zgarishlarning obyektiv manzarasini ko'rishdagi muammolar, shuningdek, ta'limning jadal rivojlanishi davrida o'qituvchilar pedagogik jarayonning mazmunini yangilashda, yangi avlod dasturlarini tanlash va amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelganliklarida ham ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: "Monitoring" tushunchasi, ta'lim sifatini nazorat qilish, monitoring va diagnostika ishlari, Lotin monitoringi hosilasi, kuzatuv, nazorat qilish, ogohlantirish funksiyalari, pedagogik monitoring.

КОНТРОЛЬНО-ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ РАБОТА В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Чориева Д. А. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье предусмотрен ряд приоритетных мероприятий по обеспечению качества образования, среди которых основное место занимает создание системы контроля качества образования. Их использование в дошкольном образовательном учреждении можно увидеть и в том, что проблемы построения объективной картины состояния управляемой системы и изменений в ней, а также в том, что в период интенсивного развития образования педагоги сталкиваются с трудностями обновления содержания педагогического процесса, выбора и реализации программ нового поколения.

Ключевые слова: понятие "мониторинг", контроль качества образования, контрольно-диагностическая работа, производная от латинского мониторинга, функции наблюдения, контроля, предупреждения, педагогический мониторинг.

MONITORING AND DIAGNOSTICS WORK IN MODERN PEDAGOGY

Chorieva D. A. - teacher of the Tashkent State Pedagogical University

Annatation. This article provides for a number of priority measures to ensure the quality of education, among which the main place is occupied by the creation of a system of quality control of education. Their use in preschool educational institutions can be seen in the fact that the problems of building an objective picture of the state of the managed system and changes in it, as well as in the fact that during the intensive development of education, teachers face difficulties updating the content of the pedagogical process, choosing and implementing new generation programs.

Key words: the concept of "monitoring", quality control of education, control and diagnostic work, derived from the Latin monitoring, the functions of observation, control, warning, pedagogical monitoring.

Ta'limning hozirgi bosqichida ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy va funksional tarkibiy qismi bu ma'lum darajadagi bilimlarni o'zlashtirishning "foydali" bo'lishining yakuniy mahsulotlaridagi ta'lim samaradorligini baholashdir.

Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha bir qator ustuvor choralar ko'zda tutilgan, ular orasida ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini yaratish asosiy o'rinni egallaydi.

«Monitoring» tushunchasi bir qator sohalarda: iqtisodiyot, sotsiologiya va pedagogikada ko'rib chiqiladi, bu uning keng qo'llanilishini ko'rsatadi.

Ichki pedagogikada pedagogik monitoring muammolarini tadqiq qilish paydo bo'ldi, ular tomonidan V.I.Andreyev, V.P.Bespalko, M.B.Guzayrov, V.A.Kalney, A.N.Mayorov, S.E.Shishov shug'ullangan.

"Pedagogik diagnostika" tushunchasi nemis o'qituvchisi Karlxaynts Ingenkamp tomonidan taklif etilgan, u "mohiyatiga ko'ra, pedagogik faoliyat barcha pedagogik faoliyat kabi ko'p yillar davom etadi. Doimiy ravishda dars berganlar har doim o'z harakatlarining natijalarini aniqlashga harakat qilishgan".

Zamonaviy pedagogikada monitoring va diagnostika ishlari hali ham kam uchraydi, ammo ulardan maktabgacha ta'lim muassasasida foydalanish boshqariladigan tizimning holati va undagi o'zgarishlarning obyektiv manzarasini ko'rishga imkon beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab maktabgacha tarbiya muassasalari rahbarlari pedagogik monitoring va uni amalda qo'llash texnologiyasi to'g'risida aniq tasavvurga ega.

Muammolar shuningdek, ta'limning jadal rivojlanishi davrida o'qituvchilar pedagogik jarayonning mazmunini yangilashda, yangi avlod dasturlarini tanlash va

amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelganliklarida ham ko‘rish mumkin. Shu sababli, o‘quv va uslubiy xizmatlarga bo‘lgan ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlarni doimiy ravishda o‘rganishga asoslangan pedagogik monitoring modelini ishlab chiqish kerak.

“Monitoring” tushunchasi Lotin monitorining hosilasidir va kuzatuv, nazorat qilish, ogohlantirish funksiyalarini bajarishga qaratilgan ba’zi harakatlarni amalga oshirishni anglatadi.

Pedagogik monitoring - bu pedagogik tizim faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tashkil qilish, to‘plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish, uning holatini kuzatishni ta'minlaydigan, shuningdek, pedagogik tizimning rivojlanishini bashorat qilish imkoniyatini beradigan shakl.

Pedagogik monitoring tibbiy, sotsiologik va psixologik monitoring doirasida o‘tkaziladigan tekshirish usullari bilan ham, mazmuni bilan ham bog‘liq.

Monitoring uchta darajadagi natijalarni kuzatishni o‘z ichiga oladi (monitoring obyektlari):

- O‘qituvchilar;
- Bolalar;
- Ota-onalar.

Tanlangan monitoring obyektiga qarab, monitoring turi aniqlanadi, ularni amalda bajarish bilan bog‘liq aniq maqsad va vazifalar belgilanadi. Monitoring ikkita asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi. Birinchidan, faoliyat parametrlari va jarayonning xarakteristikalarini nazorat qilinadi, chunki bu ma’lumotlar samarali bo‘lganlarga nisbatan eng informatsion va tezkor hisoblanadi. Ikkinchidan, monitoring olib boriladi, monitoring obyektining holatini baholash va prognozlar beriladi.

Amaliyotchilar ko‘pincha monitoring va tashxis kabi tushunchalarni chalkashtirib yuborishadi. Monitoring pedagogik diagnostika bilan juda o‘xshash bo‘lsa ham, ushbu tushunchalarni ajratib ko‘rsatish kerak.

Diagnostika - bu ilmiy tadqiqotlar jarayonida ilgari kashf qilingan va yetarlicha to‘liq, o‘ziga xos tavsifga ega bo‘lgan, diagnostikotning xotirasida saqlanadigan va olingan m’lumot bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan hodisaning mohiyatini ochishga qaratilgan faoliyat.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko‘ra, diagnostika tadqiqotida allaqachon tayyor bo‘lgan konsepsiyalar tizimi mavjud bo‘lib, ularning yordamida tashxisning o‘zi belgilanadi, uning yordamida ushbu konsepsiya umumiy tushuncha ostida olib boriladi.

Monitoringning o‘ziga xos xususiyatlari:

Monitoring 1, 3, 5 yillik kuzatuv tizimini o‘z ichiga oladi.

Monitoring - pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida ongli va tizimli ravishda yo‘naltirilgan maxsus tizim.

Monitoring o'tkazishda asosiy e'tibor prosessual xususiyatlarga, ya'ni pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlariga qaratiladi, chunki bu prosessual ma'lumotlar samarali ma'lumot bilan taqqoslaganda ancha muhim va tezkor.

Bir qator izlanishlarda A.Talix monitoringning mohiyatini belgilovchi bir qator vazifalarni aniqlaydi:

1. O'z vakolati doirasida ta'lim tizimining holatini doimiy ravishda monitoring qilish va u to'g'risida tezkor ma'lumot olish;
2. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarni va ularni keltirib chiqaradigan omillarni o'z vaqtida aniqlash;
3. Ta'lim tizimidagi salbiy tendensiyalarning oldini olish;
4. Ta'lim tizimidagi eng muhim jarayonlarning rivojlanishini qisqa muddatli bashorat qilishni amalga oshirish;
5. Ta'limni metodik ta'minlashni amalga oshirish samaradorligi va to'liqligini baholash.

Monitoring - bu o'quv jarayonining doimiy monitoringi bo'lgani uchun unga quyidagi tashkiliy va uslubiy talablar qo'yiladi:

Monitoring ko'rsatkichlari to'plami va shakli ma'lum vaqt davomida doimiy bo'lishi kerak;

Ko'rsatkichlar iloji boricha ilmiy rejada yetarlicha chuqur o'rganilgan va ta'lim sifati darajasini yetarlicha aks ettiradigan o'quv jarayonining hodisalarini hisobga olishi kerak;

Ko'rsatkichlar ta'lim sifatini boshqarishning baholash xususiyatiga ega bo'lishi kerak;

- Vaqti-vaqti bilan (yiliga kamida 1 marta) ishlatilgan ko'rsatkichlar to'plamini to'g'irlash kerak.

Shunday qilib, monitoring ko'p funksiyalarni amalga oshiradigan yaxlit tizimdir.

Monitoringning bir qator jihatlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Uzluksizlik (uzluksiz ma'lumotlarni yig'ish);
2. Diagnostika (kuzatilayotgan obyekt, tizim yoki jarayonning haqiqiy holatini taqqoslashingiz mumkin bo'lgan model yoki mezonlar mavjudligi);
3. Axborot mazmuni (kuzatilayotgan jarayonlardagi buzilishlar to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'lgan eng muammoli ko'rsatkichlar va mezonlarni kuzatish mezonlari tarkibiga kiritish);
4. Ilmiy (modelning yaroqliligi va kuzatilgan parametrlar);
5. Qayta aloqa (kuzatilayotgan jarayonga tuzatishlar kiritishga imkon beradigan natijalar to'g'risida monitoring obyektidan xabardor bo'lish).

N.Kalinina va L.Egorova asarlarida ma'lumotlarning tarqalishi ta'limni monitoring qilish uchun alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Jamoatchilik

fikrini shakllantirish, jamiyatni xabardor qilish kabi qarorlar qabul qilishda ta'sir qilish vositalarining muhimligini inkor qilmasdan, ularni ta'lim sohasida monitoring qilish uchun asosiy deb bilish mumkin emas.

Ta'lim sohasidagi monitoring ta'lim muassasasining o'zi yoki rahbarlar tomonidan bildirilgan ta'lim tizimining fikrini hisobga olmasdan to'liq bo'lmaydi.

Umuman olganda, tadqiqot ma'lumotlarini olish bosqichi va ularni tahlil qilish o'rtasida boshqa bosqichni ta'minlash kerak. Monitoring natijalarini mamuriyat bilan muhokama qilish kerak. Buning zarurati yana bir talab bilan olingan ma'lumotlarni keyinchalik ko'rib chiqish va undan amalda foydalanish bilan izohlanadi. Munozaraning o'zi ma'lumot olishning ilmiy usuli deb nomlanishi mumkin emas, ammo uning ahamiyatini kuzatish juda aniq bo'lib ko'rinadi.

Darhaqiqat, ta'lim sohasidagi monitoring juda murakkab va ayni paytda ishonchli bo'lgan ma'lum bir axborotni tarqatish tizimini ta'minlashi kerak.

Buning sababi kuzatuv usullarining faqat ikki guruhi mavjudligi:

1. Axborot to'plash va joriy ma'lumotlarni yozib olish usuli;
2. Olingan ma'lumotlarni hisobga olish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va pedagogik jarayonni tartibga solish usuli.

Shunday qilib, ta'lim muassasasida monitoringdan foydalanish muammosining dolzarbligi quyidagilardan iborat:

1. O'quv jarayonining muvaffaqiyati va samaradorligini aniqlash;
2. O'qituvchilarni o'quv jarayonida o'zini-o'zi tahlil qilish va ularning faoliyati dinamikasini mustaqil baholash;
3. O'quv jarayoni holatini tegishli sifat menejmentini amalga oshirish;
4. O'quv jarayoni obyektlari yoki subyektlarining rivojlanish istiqbollari bashorat qilish.

Maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimini isloh qilish bolani kasbiy pedagogik ta'sirlardan ijtimoiy himoya qilishga va ta'lim sifatini sinchkovlik bilan tahlil qilish va monitoringini talab qiladigan ta'lim xizmatlarining sifatini oshirishga qaratilgan.

Ta'lim xizmatlari sifatini aniqlash, maktabgacha ta'lim muassasasining shaxsiy pedagogik faoliyatini tahlil qilish, baholash va tuzatish uchun ishonchli materialni olish pedagogik monitoringni amalga oshirishga imkon beradi.

Zamonaviy bolalar bog'chasining pedagogik jarayoni har bir bolaning rivojlanishini ta'minlashga, uning o'ziga xosligini va o'ziga xosligini saqlab qolishga, qobiliyatlarni, moyilliklarni ochish uchun imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu sababli, pedagogik jarayonni samarali loyihalashtirishning kaliti har bir bolaning muammolarining imkoniyatlari va qiziqishlari to'g'risida ma'lumotlarning mavjudligi hisoblanadi.

Ta'lim standartida maktabgacha ta'lim maqsadlari belgilanadi. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang'ich bosqichlari va maktabgacha ta'limni tugatish bosqichlarida bolaning rivojlanishining quyidagi xususiyatlari maktabgacha yo'naltirish punktlari bilan bog'liq". Maqsadlar bolalarning rivojlanish dinamikasini, bolalarda monitoringning chastotasi va tarkibini baholashga imkon beradi.

Ilmiy tadqiqot usuli sifatida "monitoring" tushunchasi ekologiya, biologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, boshqaruv nazariyasida keng qo'llaniladi. Ekologik nuqtayi nazardan, bu "eng muhim parametrlarga ko'ra istalmagan og'ishlarning oldini olish uchun atrof-muhit holatini doimiy ravishda kuzatib borish va sotsiologik nuqtayi nazardan ijtimoiy muhitning holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning oz sonini aniqlash"dir. Ushbu konsepsiyaning ta'lim sohasiga o'tkazilishi ma'noni o'zgartirdi va zamonaviy sharoitda ta'lim monitoringi pedagogik tizim faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatishni tashkil etish, uning holatini doimiy monitoringini va rivojlanishini prognoz qilishni ta'minlaydigan tizim sifatida belgilanishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tizimida "monitoring" - bu nisbatan yangi tushunchadir, shuning uchun uning tashkil etilgan - "pedagogik diagnostika" va "nazorat" bilan o'zaro munosabatini aniqlashtirish kerak.

Boshqaruv faoliyatining bir turi sifatida nazorat doirasida, boshqariladigan obyektning rejalashtirilgan va haqiqiy holati, masalan, o'quv dasturini ishlab chiqish doirasidagi bolalarning yutuqlari taqqoslanadi.

Pedagogik diagnostika - bu pedagogik munosabatlar subyektlarining haqiqiy holati va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga, shuningdek, ularning rivojlanish tendensiyalarini pedagogik jarayonni maqsad qilish va loyihalash uchun asos sifatida bashorat qilishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir.

Monitoring quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- boshqarish obyektlari, ya'ni kuzatuv funksiyasining bajarilishi to'g'risida doimiy ravishda ma'lumot to'plash;
- o'zgarish dinamikasini aniqlash uchun obyektning xuddi shu mezonlar bo'yicha o'rganish;

O'lchov usullarining ixchamligi, minimalligi va ularni pedagogik jarayonga qo'shilishi.

Keyingi bosqich sifatida monitoring yo'nalishini aniqlash o'lchov vositalarini: monitoring doirasida diagnostika muolajalarini o'tkazish mezonlari va usullari ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Kriteriy deganda biror narsaning baholanishi, belgilanishi va malakasi belgilanadigan belgi tushuniladi; mezon - bu hukm, baholash mezon. Mezon obyekt, hodisa yoki jarayonning u yoki bu xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Monitoringda mezonlar bitta, ammo juda muhim talabga ega - mezon o'lashga imkon berishi kerak. Ba'zi mezonlar juda sust dinamikaga ega va ularni bir necha yilda bir marta o'lash mantiqan.

Monitoring mezonlari ishlab chiqilgandan keyingi keyingi bosqich - bu optimal vaqt oralig'ida kerakli miqdordagi ma'lumotlarni olish imkonini beradigan usullarni aniqlash hisoblanadi.

Ushbu usullarning xususiyatlarini va ulardan foydalanish xususiyatlarini ko'rib chiqsak, formalangan usullarga testlar, anketalar, proyeksion texnik usullar va psixofiziologik usullar kiradi. Ular muayyan tartibga solish, imtihon yoki sinov o'tkazish tartib-qoidalarining obykti (ko'rsatmalarga aniq rioya qilish, ogohlantiruvchi materialni taqdim etishning aniq belgilangan usullari, tadqiqotchining mavzu faoliyatiga aralashmasligi va boshqalar), standartlashtirish (diagnostika eksperimentlari natijalarini qayta ishlash va taqdim etishning bir xilligini belgilash), ishonchlilik va asosiligi bilan ajralib turadi.

Sinov. Testlar (inglizchadan "test" deb tarjima qilinadi) standartlashtirilgan va odatda bolalar o'rtasidagi miqdoriy individual psixologik farqlarni aniqlash uchun mo'ljallangan, qisqa va vaqt bilan cheklangan testlardir. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bolaga to'g'ri javob olishlari kerak bo'lgan vazifalardan iborat.

Sinov usullarini psixologik va pedagogik ishlarda amalga oshirish o'qituvchi sifatida ham, u yerda o'qituvchi va psixolog sifatida ham amalga oshirilishi mumkin. Bu testning yo'nalishi (uning qaysi sifatga yo'naltirilganligini o'lash uchun) va mutaxassisning test usullaridan foydalanishga tayyorligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, bolalarning "Bilim" ta'lim sohasini o'zlashtirish darajasini o'rganish uchun o'qituvchilar fan testlaridan keng foydalanishlari mumkin, bu yerda test topshiriqlarining materiallari haqiqiy obyektlar: kublar, kartalar, geometrik shakllar tafsilotlari va boshqalar ko'rinishida taqdim etiladi. Mavzu testlari katta maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik ta'limi mezonlari haqida ma'lumot olish, bolaning geometrik shakllarni o'zlashtirish darajasi, o'lcham parametrlari, obyektlar guruhlarini son bo'yicha hisoblash va taqqoslash qobiliyati, 10 ga teng ikkita kichikdan iborat (amalda) sonlarni tuzish, oddiy mantiqiy va arifmetik muammolarni echish imkonini beradi. .

O'z navbatida, maxsus texnik vositalar yoki maxsus jihozlardan foydalanishni talab qiladigan apparat sinovlari (reaktorlar, refleksometrlar va boshqalar) ko'pincha bolalar bog'chasida psixologlar yoki defektologlar tomonidan qo'llaniladi.

Proeksion texnik. Proeksion usullarning ajralib turadigan xususiyati ulardagi noaniq stimullardan foydalanish bo'lib, bola uni to'ldirishi, sharhlashi, rivojlanishi va h.k. Shunday qilib, bolaga syujet rasmlarining mazmunini, tugallanmagan jummalarni,

noaniq konturlarni izohlashni taklif qilish taklif etiladi. Ushbu usullar guruhida, topshiriqlarga berilgan javoblar ham to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lmasligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bolalar bog'chasidagi bolalarning yutuqlarini monitoring qilish jarayonida mutaxassislar test usullari va projektik metodlardan foydalanishlari mumkin. Ulardan tarbiyachi faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash zarur. Pedagogik diagnostika natijalariga asosan pedagogik jarayonni loyihalash amalga oshiriladi. Ta'lim amaliyotida o'qituvchi ishining reja-loyihada to'rt qismdan iborat bo'lishi shart bo'lgan talablar mavjud: dastlabki holatning xususiyatlari, faoliyat maqsadlarining asoslari, taklif qilingan harakatlar tizimining tavsifi va erishilgan natijalar tahlili. Shunday qilib, agar biron bir jiddiy muammolar aniqlanmagan bo'lsa, loyihada ushbu yosh bosqichiga xos bo'lgan sohalarga e'tibor qaratiladi. Bolaning individualligini saqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun o'quv vositalari va usullari taqdim etiladi. Agar bolaning rivojlanishida muammolar mavjud bo'lsa, muammolarni aniqroq ko'rsatadigan yoki ushbu muammolar bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan rivojlanishning barcha jihatlarini hal qilish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. L.N.Alekseyeva. Innovasion texnologiyalar eksperiment manbai sifatida / L. N. Alekseyeva // Tarbiyachi. - 2006. - № 3.
2. E.V.Bondarevskaya. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti [matn] / E.V. Bondarevskaya. - Rostov-Donu: Rostov pedagogika universiteti nashriyoti, 2008.
3. A.V.Bichkov. Innovatsiya madaniyati / A. V. Bichkov // Profil maktabgacha ta'limi. - 2005 - № 6.
5. T.X.Deberdeyeva. Axborot jamiyatida ta'limning yangi qadriyatlari / T.X.Debardeyeva // Ta'limdagi innovatsiyalar. - 2005. - № 3.

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT

**Ergashev.M.U. - Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar 11-
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi informatika fani oqituvchisi**

Annotasiya. Ushbu maqolada Respublikamizda ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsiyalar, axborot texnologiyalarini va ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning maqsadi, mazmuni va mohiyati ochib berilgan holda jahon va milliy tajribalarni solishtirish va takomillashtirish.

Kalit soʻzlar: innovatsion gʻoyalar, taʼlim tizimi, milliy dastur, pedagogik gʻoya, jahon tadqiqotchilari, milliy taʼlim sistemasi, kadrlar, oʻquv dasturi.

ВАЖНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ПРАКТИКА

**Эргашев М.У. - учитель информатики 11-й государственной
специализированной школы, Каттакурган, Самаркандская область**

Аннотация. В статье сравнивается и совершенствуется мировой и отечественный опыт, разъясняются цель, содержание и сущность использования инноваций, информационных технологий и передовых инновационных педагогических технологий в организации образовательного процесса в республике.

Ключевые слова: инновационные идеи, система образования, национальная программа, педагогическая идея, мировые исследователи, национальная система образования, кадры, учебная программа.

IMPORTANCE OF APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION: FOREIGN EXPERIENCE AND NATIONAL PRACTICE

**Ergashev.M.U. - Teacher of Informatics of the 11th specialized state
secondary school of Kattakurgan, Samarkand region**

Annotation. This article compares and improves world and national experience, explaining the purpose, content and essence of the use of innovations, information technology and advanced innovative pedagogical technologies in the organization of the educational process in the Republic.

Key words: innovative ideas, education system, national program, pedagogical idea, world researchers, national education system, staff, curriculum.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda toʻgʻri yoʻl topa olish mahoratiga ega boʻlgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, taʼlim va kasb-hunar dasturlarini ongli

ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni manaviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini kon'dalang qilib qo'ydi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar 60-yillarda paydo bo'lgan [1].

X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D. Chen, R. Yedem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning "hayoti va faoliyati" uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi [2].

Innovatsiya (inglizcha innovation) – "yangilik kiritish", "yangilik" demakdir.

A.I. Pirojkin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi, bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G. Kruglikov, A.S. Axiyezer, N.P. Stepanov va boshqalar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi. Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashdir [2,3].

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini

ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Yangilik-bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi "yangi" bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi: Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi. Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar: Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, yani innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi. Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir [4]. Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A. Slastenin, M.M. Levina, M.Ya. Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin: madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv; shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv; ko'p subyektli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish; individual - ijodiy (oqituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari) yondashuv. Oliy maktabda innovatsion faoliyatning subyektli oqituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi [5].

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan, ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi. Pedagogik texnologiya atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «techne»-mahorat, san'at, «logos»-tushuncha, o'rganish demakdir. Nega

bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni;

- rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

- fan-texnika taraqqiyotining ota rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimining tobora ko'payib borayotganligi;

- zamonaviy texnikalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, oquv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish kerakligi;

- talaba va o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari va texnik vositalarni yaxshi egallagan bo'lishi, o'quvchining qiziqish va intiluvchanligi to'g'ri yo'lga qo'yilganligi;

- o'qituvchi ta'lim jarayonini yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta'lim natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishganligi;

- o'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnika bazasining yaratilganligi;

- ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, o'quvchilarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

- o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilgor bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir [5].

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir hisoblanadi. Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan biri ta'lim jarayonida yangi

pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta'lim oluvchilarni o'qitishni jadallashtirish sanaladi. Respublikamizda ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga doir keng ko'lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to'plandi. Ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot

texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko'rsatmoqda.

«Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak. Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didaktik o'lim o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofiqi YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-o'quvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni jadal shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin. Professor N. Saidahmedovning fikricha, «Texnologiya shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida mujassamlashtirgan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir».

Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
- o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yoqotish;
- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;
- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat boladi. Amal — o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya: ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba va ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi [7].

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada. Zamonaviy pedagogik texnologiya pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Avvalo, zamonaviy pedagogik texnologiya nimani anglatadi?

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum bir pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsadi esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini oz navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi [8].

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, audial vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va ananaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish jarayondagi inqilobiy burilish va uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda ta'lim tizimida axborot texnologiyasi «o'quvchi yoki o'quvchi kompyuter» ortasidagi muloqotdir [9].

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bolib, u ta'lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo'llana boshlandi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, «sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ortiq boldi, yani axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini axborotlashtirish konsepsiyasi. Loyiha. O'zbekiston "O'qituvchi" 2004-yil 9-aprel.
2. Marasulova Z. Informatika ta'limda innovatsion texnologiyalar asosida uzviylikni ta'minlash // "Fizika, matematika va informatika" ilmiy-uslubiy jurnali. — Toshkent, 2011. №3. — 84-88-betlar.
3. <http://www.ziyonet.uz> — axborot-ta'lim resurslari portali.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии — М.: «Педагогика», 1989.
5. Avliyokulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari — Toshkent, 2001.
6. Ozbekiston Respublikasining «Ta'lim togrisida» gi Qonuni. Barkamol avlod — Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997-yil.
7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod — Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997-yil.
8. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O'zbekiston» 1999-yil.
9. Karimov I.A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. - T.: "Manaviyat", 2008. -176-b.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MUHITIDA KUTUBXONACHI MUTAXASSISLARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Abdurahmonova M.S. - Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi bosh kutubxonachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari muhitida kutubxonachi mutaxassislarining innovatsion kompetentligining ilmiy asoslari keltirilgan hamda hozirgi holati va nazariy asoslari tahlil qilingan bo'lib, mavjud

muammo va ziddiyatlar ko'rsatib berilgan. Shuningdek, innovatsion kompetentligini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari muhiti, innovatsion kompetentlik, kutubonachi mutaxassislar, kasbiy rivojlanish, axborot kompetentligi, mediakompetentlik, o'quv-uslubiy ta'minot, kompetentli yondashuv, kutubxonashunoslik, kompetensiyalar tasnifi.

СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БИБЛИОТЕКАРЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

**Абдурахманова М.С. – главный библиотекарь Республиканской
научно педагогической библиотеки**

Аннотация. В статье представлена научная база инновационной компетенции библиотекарей в области информационных технологий, проанализировано современное состояние и теоретические основы, выделены существующие проблемы и противоречия. Также представлены предложения и рекомендации по развитию инновационной компетенции.

Ключевые слова: информационная среда, инновационная компетенция, библиотекари, профессиональное развитие, информационная компетенция, медиакompetentность, учебные пособия, компетентный подход, библиотечное дело, классификация компетенций.

STATE OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCE OF LIBRARIANS IN THE SPHERE OF INFORMATION TECHNOLOGIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS

**Abdurahmanova M.S. - Chief librarian of the Republican Scientific and
Pedagogical Library**

Annotation. The article presents the scientific basis for the innovative competence of librarians in the field of information technology, analyzes the current state and theoretical foundations, highlights the existing problems and contradictions. There are also suggestions and recommendations for the development of innovative competence.

Key words: information environment, innovative competence, librarians, professional development, information competence, media competence, tutorials, competent approach, librarianship, classification of competencies.

Axborot-kutubxona faoliyatining zamonaviy rivojlanish bosqichi axborot texnologiyalarni jadal joriy etishni taqozo qiladi. Bu jarayon insoniyatning fandagi oxirgi yutuqlari, axborot texnologiyalari dunyo bozorining rivojlanishi bilan shartlangan. Axborot-kutubxonaga uning asosiy vazifasi – barcha toifadagi foydalanuvchilar uchun axborotdan erkin foydalanish huquqini ta'minlashni samarali amalga oshirish imkoni berildi. U kutubxonani yagona dunyo axborot borlig'iga integratsiyalashuvining kafolati bo'ldi.

Faol axborotlashtirish kutubxonachi-mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Kompyuter majmuining jadallik bilan kuchayishi va elektron kutubxona manbalariga bo'lgan ehtiyoj axborot texnologiyalarini erkin va samarali egallagan, yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Axborot texnologiyalarini egallash kutubxonachi-mutaxassislarning yuqori raqobatbardoshligi kafolatiga aylanadi, kelajakda jamiyatda munosib o'rin egallashiga imkon berib, kutubxonachi kasbini yangi sifat darajasini ta'minlaydi. Kutubxonalarning global axborot makoniga kirishi istiqbollari kutubxonashunoslik sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish, kasbiy o'sishi tizimining ishlash muammolarini chuqurroq tushunishni talab qiladi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda axborot kompetentligini kutubxona xodimlarining harakatchanligini ta'minlovchi kasbiy o'sishning muhim imkoniyati sifatida ko'rib chiqish kerak.

Kasbiy o'sish sharti sifatida axborot kompetentligini rivojlantirish, turli sabablarga ko'ra, zaruriy darajada axborot kompetentligiga ega bo'lmagan amaliyotchi-mutaxassislar uchun birmuncha dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy reallik va talablarga muvofiq kompetensiyalarni shakllantirish – kutubxonachi-mutaxassislarning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish yo'nalishlaridan biridir.

Kutubxonachi mutaxassislarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish olib borilayotgan ilmiy izlanishlar mazkur yo'nalishda quyidagi muammo va ziddiyatlar borligini ko'rsatmoqda:

- axborot texnologiyalari muhitida kutubxonachi-mutaxassisga qo'yiladigan talablar bilan axborot kompetentligini rivojlanganligining yetarli bo'lmagan darajasi o'rtasidagi tafovutning mavjudligi;

- kasbiy rivojlanishda axborot kompetentligining asos soluvchi ahamiyati va bu ko'rinish mohiyatining yyetarli bo'lmagan nazariy ishlanmalari o'rtasidagi farqning mavjudligi;

- kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligi darajasini oshirish va o'quv-uslubiy ta'minotning yetarli emasligi o'rtasidagi obyektiv ziddiyatlarning borligi va h. Zamonaviy kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligini

shakllantirishning ilmiy-nazariy va tashkiliy-amaliy qonuniyatini aniqlashga bo'lgan ehtiyoj mazkur tadqiqot konsepsiyasini belgilab berdi.

Zamonaviy tadqiqotlar tahlili ko'rsatdiki, ilm-fanda ko'rib chiqilayotgan muammoning yechimi uchun zaruriy bilimlarning muayyan hajmi to'plangan. XX asrda kompetentli yondashuvni ishlab chiqishda R.Uayt, D.Makkleland, R.Boyasis, L.M. va S.M.Spenserlar, A.Lyuchiya, R.Lepsing, Dj.Raven, G.Chitxem, D.Chivers va h.k. kabi xorijiy tadqiqotchilar ahamiyatli hissa qo'shdilar.

Kompetentli tarkibni ishlab chiqishda katta rol xalqaro tashkilotlarga taalluqli: Axborot-hujjatlashtirish Yevropa mutaxassisleri assotsatsiyasi (AVV8), Axborot-hujjatlashtirish assotsatsiyasi Yevropa Kengashi (ES1A) va boshqalar.

Rossiyada kompetentli yondashuv 1999-yilda Boloniya deklaratsiyasi imzolanganidan keyin faol muhokama qilina boshlandi. Ushbu masalaga psixologiya-pedagogika va ijtimoiy fanlar sohasida manfaatdor bo'lgan ko'plab mahalliy tadqiqotchilar murojaat qila boshladilar. Kompetensiya, kompetentlik mohiyati va tushunchaga oid apparatlar ta'rifi muammolari yetakchi olimlar: A.A.Verbitskiy, I.A.Zimnyaya, tomonidan tadqiq etildi[1]. Biz kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni o'rganishda shuni ta'kidlashni istardikki, mutaxassisni kasbiy tayyorlashda kompetentsiyaga asoslangan yondashuv o'quvchilarda uning mehnat bozorida muvaffaqiyatli moslashishini belgilaydigan asosiy kompetensiyalarni joriy etish va rivojlantirishdan iborat. Hozirgi vaqtda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyatini tahlil qilishni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy tadqiqot ishlari paydo bo'ldi, masalan, A.V. Xutorskiy "Didaktik evristika. Ijodiy o'rganish nazariyasi va texnologiyasi"[9] va kompetentsiya yondashuvini tahlil qilish bo'yicha ko'plab maqolalar (O.E. Lebedev, S.V. Frolova, MA Frolova, V.V.Kraevskiy, SA Drujilov). Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv – bu zamonaviy ta'lim maqsadlarini aniqlash, tuzilishi va mazmunini tanlash, ta'lim natijalari va o'quv jarayonini tashkil etishni baholashning asosiy tamoyillaridir[2].

Kompetensiyalar tasnifi (asosiy va professional), tuzilmalari va ta'lim sifatini baholash tizimlari hamda ta'lim standartlarida amalga oshirish muammolari ishlarida ko'rib chiqilgan.

Kutubxonachi-mutaxassisning kasbiy rivojlanishini takomillashtirishni o'rganishda kutubxonachilik tadqiqotiga yangi aspekt–kompetentli yondashuvni kiritishiga sabab bo'ldi. Avvalo, oliy kasbiy ta'limning yangi davlat ta'lim standartlarini tayyorlash va ishlab chiqishning ikki bosqichli tizimiga o'tish natijasida bo'lg'usi kutubxonachi-mutaxassisda kompetentlikni shakllantirishga bag'ishlangan materiallarni alohida ta'kidlash zarur.

Kutubxona mutaxassisining kompetentligi va kompetensiyalari mohiyatini o'rganish S.A.Ezova, B.S.Elepov ishlarida o'z aksini topgan bo'lib, kadrlar

malakasini oshirish va qo‘shimcha kasbiy ta‘lim tizimida kompetentli yondashuvga bag‘ishlangan[3, 4].

R.A.Chuchukalova va respublika pedagog olimlari ishlarida ta‘lim muassasalari kutubxonalaridagi mutaxassislarning axborot kompetentligini rivojlantirishni amaliy tadqiq etish natijalari yoritilgan[5, 6, 8].

G.V.Parvaukovaning doktorlik dissertatsiyasi aholida axborot kompetentligini shakllantirishga bag‘ishlangan. O.P.Kutkinaning dissertatsiya tadqiqoti ob‘ekti kutubxonachi-mutaxassisda mediakompetentlikni, I.N.Churikovaning tadqiqoti – kompyuter kompetentlikni shakllantirish bo‘lgan.

Tadqiqot davomida kutubxonachi-mutaxassisda axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga bag‘ishlangan nashrlar o‘rganildi va mutaxassisda axborot madaniyatini shakllantirish tuzilmasida kasbiy (kutubxonaga oid) ta‘lim tizimining o‘rni ko‘rib chiqiladi. Dissertatsiya tadqiqotining mantig‘i axborot texnologiyalarini axborot kutubxona faoliyatiga joriy etishning har xil aspektlarini tavsiflovchi ishlar mukammal o‘rganildi.

Yuqorida qayd qilingan muammolarni hal qilish uchun quyidagi vazifalarni hal etishni talab qiladi:

1. Kutubxonachi-mutaxassislarning axborot kompetentligi fenomenini uning kasbiy rivojlanishi kontekstida o‘rganishni taqazo etmoqda.

2. Kutubxonachi-mutaxassislarning axborot kompetentligini rivojlantirish mazmuni, tuzilmasi va omillarini aniqlash.

3. Kutubxonachi-mutaxassislarning axborot kompetentligi modelini yaratish va nazariy jihatdan asoslash.

4. Kutubxonachi-mutaxassislarda axborot kompetentlikning shakllanish mezonlari va ko‘rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.

5. Axborot kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan, kutubxonachi-mutaxassislar malakasini oshirish tizimlari uchun kursning o‘quv dasturini ishlab chiqish.

- kutubxonachi-mutaxassisda axborot kompetentlikning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni va umuman olganda, axborot jamiyatining qadriyatlarini anglasa;

- kutubxonachi-mutaxassis o‘zining individual axborot ehtiyojlarini kasbiy kompetentlikning zamonaviy talablari bilan o‘zaro aloqasini aniqlay olsa, bu uning kasbiy rivojlanishi sharti hisoblanishi to‘g‘risidagi taxminga asoslanadi.

- axborotlashib borayotgan jamiyatning o‘zgaruvchan sharoitiga moslashadigan hamda axborot texnologiyalari sohasida o‘z malakalarini takomillashtiradigan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ijtimoiy va kasbiy vazifalarini samarali hal qilish ko‘nikmasida namoyon bo‘luvchi shaxsning

kasbiy ahamiyatli fazilati sifatida tushuniladigan “kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligi” tushunchasiga aniqlik kiritildi;

- kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligini mohiyati, uning vazifalari (huquqiy-me’yoriy, gnoseologik, kommunikativ, moslashuvchan, baholovchi, rivojlanuvchi), xislatlari (dualizm, nisbiylik, tuzilmaviylik, akkumulyativlik, selektivlik, harakatchanlik, yaxlitlik, yarim funksionallik), ko‘p o‘lchovli va ko‘p darajali xarakteri tadqiq etilgan; kutubxonachi-mutaxassisning kasbiy rivojlanish sharti sifatida axborot kompetentlikning alohida komponentlari (kognitiv, ijodiy-amaliy va qadriyatli-motivatsion) va asosiy kompetensiyalar keltirilgan;

- kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligini rivojlantirish omillari (ichki va tashqi) aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

– kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligi modelini yaratish;

– O‘zbekiston Respublikasi kutubxonachi-mutaxassislarning axborot kompetentligi darajasini umumiy tashxisi natijalari;

– malaka oshirish kurslari uchun “Kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligi asoslari” o‘quv dasturini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi hamda Qashqadaryo viloyati axborot kutubxona markazining kutubxonachilari qamrab olingan. Tadqiqot bazasi Qashqadaryo viloyatining Axborot kutubxona markazi. Mazkur kutubxonalar yaxshi kompyuter majmui va ularda axborot texnologiyalaridan faol foydalanilgani uchun tanlangan.

Tadqiqot uch bosqichda o‘tkazildi. Birinchi – nazariy izlanish bosqichida (2017-2018 yy.) tadqiqot muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida uning obyekti, predmeti, farazi, metodologiyasi va usullari, tushunchaga oid ta’riflar belgilandi. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish kutubxonashunoslik nazariyasi va amaliyotida tadqiq etilayotgan muammolar holati to‘g‘risida tasavvurni shakllantirish, tutash fanlarda uning yechimiga yondashuvlar va tendensiyalarni aniqlash, shaxsiy ilmiy nuqtayi nazarni ishlab chiqish va axborot kompetentlik modelini nazariy jihatdan ishlab chiqish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqich (2018-2020-yy.) – tajriba-eksperimental bosqich bo‘lib, unda taklif qilingan modelni eksperimental tekshiruvdan o‘tkazish amalga oshirildi, kutubxonachi-mutaxassislarning axborot kompetentligini rivojlanish darajalarini tashxisi o‘tkazildi.

Uchinchi bosqich (2020-2021 yy.) – umumlashtiruvchi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish va tizimlashtirish amalga oshirildi, ma’lumotlarga aniqlik kiritish va tuzatish, tadqiqot materiallariga statistik ishlov berish ishlari olib borildi, tadqiqot natijalari umumlashtirildi hamda xulosa va tavsiyalar shakllantirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkin:

1. Kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ijtimoiy va kasbiy vazifalarini samarali hal qilishda, axborot texnologiyalari sohasidagi o'z malakalarini takomillashtirishda, kasbiy bilimlarini axborot jamiyatining o'zgaruvchan sharoitiga moslashtirish ko'nikmasida namoyon bo'luvchi shaxsning kasbiy ahamiyatli xislatini o'zida aks ettiradi.

2. Axborot kompetentligi qator funksiyalarni amalga oshiradi:

- me'yoriy-huquqiy (axborot jamiyatida amal qilish kerak bo'ladigan axloqiy me'yorlar, yuridik huquq me'yorlari tizimi sifatida namoyon bo'ladi);

- gnoseologik (inson tomonidan informatika nazariyasi va axborot texnologiyalarini bilishga, bilimlarni tizimlashtirishga yo'naltirilgan);

- kommunikativ (axborot jamiyatida kommunikatsiyani ta'minlaydi);

- moslashuvchan (axborot jamiyati sharoitlariga moslashishga ko'maklashadi);

- baholovchi (axborotning ahamiyatini, foydaliligini baholashni ta'minlaydi);

- rivojlantiruvchi (axborot jamiyatida qabul qilingan muayyan bilimlar va me'yorlar tizimi asosida faol hayotiy pozitsiya, mustaqillikni shakllantiradi).

3. Kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligi modeli o'z tuzilmasida quyidagi: axborot texnologiyalari va ularni ijodiy qo'llash bilan ishlash malakasi va ko'nikmalari majmui hisoblanuvchi faoliyatli-ijodiy, nazariy bilimlar tizimini aks ettiruvchi kognitiv hamda motivlar majmuini aks ettiradigan va kutubxonachi-mutaxassisda axborot kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish instrumenti bo'ladigan qadriyatli-motivatsion komponentlarga ega.

4. Kutubxonachi-mutaxassisning axborot kompetentligini rivojlantirish omillari ikki guruhga ajratiladi: ichki (individual-shaxsiy) va tashqi (kasbiy va ijtimoiy), bunda yetakchi rol ichki omillar (individual-shaxsiy): motivatsiya, intellektual rivojlanish, refleksiyaga qobiliyat, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishga beriladi.

Adabiyotlar

1. Вербицкий А.А., Ларионова О.Г. Личностный и компетентностный подход в образовании: проблемы интеграции. М. Логос, 2009. 336 с.

2. Вербицкий А.А. Контекстно-компетентностный подход к модернизации 2011

3. Езова С.А. Моделирование процесса библиотечного общения // Библосфера -2012-№ 3 – С.51-54

4. Елепов Б.С., Лаврик О.Л. Государственная публичная научно-техническая библиотека Сибирского отделения РАН в электронной среде:

новые направления деятельности // Тр. ГПНТБ СО РАН. – 2015. – № 8. –С.7 – 14.

5. Чучукалова Р.А. Информационная компетентность библиотекаря в системе информационного пространства Сибирского федерального университета : научное издание [статья из журнала] 2010, Научные и технические библиотеки.

6. Karimov O‘.U. Integrallashtirilgan axborot-kutubxona tizimlarini yaratish modellari, usullari va algoritmlari.- T., 2019.

7. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. - T., 2019.

8. G‘anieva D.A. Ta‘lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish. T.: Yangi asr avlodi, 2013.

9. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного обучения. - М.: Изд-во МГУ, 2003. - 416 с.

OLIV TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARIDA IJTIMOIV- KASBIY MAS‘ULIVYAT HISSINI RIVOJLANTIRISH

Ibragimov J.X. - Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy-kasbiy mas‘uliyat hissini rivojlantirish, talabalarda ijtimoiy-kasbiy mas‘uliyat hissini rivojlantirish shart-sharoitlarini aniqlash, talabalarda ijtimoiy-kasbiy mas‘uliyat hissini rivojlanganlik daraja indikatorlari, mamlakatda fuqarolik jamiyati, demokratik davlat qurish yo‘lida yosh-avlodni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, shuningdek ularning faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yo‘llari, pedagogik ta‘sir vositalari orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: talab, islohot, mas‘uliyat, tashabbuskorlik, ijtimoiy – professionallik, jamiyat, qadriyat, ijtimoiy-hayot, texnologiya

РАЗВИТИЕ ЧУВСТВА СОЦИАЛЬНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Ибрагимов Ж.Х. – исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье развитие чувства социально-профессиональной ответственности у студентов, определение условий развития социально-профессиональной ответственности у студентов, индикаторы степени развитости чувства социально-профессиональной ответственности у студентов, подготовка молодежи в качестве профессионала на пути строительства гражданского общества в стране, демократического государства, а также пути развития их активной гражданской позиции освещены посредством средств педагогического воздействия.

Ключевые слова: требование, реформа, ответственность, инициативность, социальный профессионализм, общество, ценность, социальная жизнь, технология.

DEVELOPING A SENSE OF SOCIAL AND VOCATIONAL RESPONSIBILITY IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ibragimov J.X. - researcher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article discusses the development of a sense of social and professional responsibility in students, the conditions for the development of a sense of social and professional responsibility in students, indicators of the level of development of a sense of social and professional responsibility in students, civil society in the country. training of the generation as a professional, as well as ways to develop their active civic position, through the means of pedagogical influence.

Key words: demand, reform, responsibility, initiative, socio-professionalism, society, values, social life, technology.

Mamlakatimizda ta'lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi yosh avlod malakali kadrlarini tayyorlashda shaxsiy mas'uliyat xissini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasida bilimli va zakovatli yosh avlod kadrlari masalasiga to'xtalar ekan: "jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi, Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"[1;] deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas.

Xususan, jamiyatimizning jadal rivojlanishi uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan muhim o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ta'lim tizimida olib

borilayotgan o'zgarishlar talabalarning oliy ta'lim muassasalarida o'qishni tugatgandan so'ng insoniy munosabatlar tizimiga, ya'ni kasbiy mahorati rivojlanishiga, shuningdek, ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirish [2;]da muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalari ta'limining sifat va darajasini baholash, tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilmoqda, shu bois qo'yiladigan maqsadga erishish uchun yakuniy natija va mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lga e'tibor tabora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637 son Qonunida kadrlar tayyorlashda, avvalo: davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablarni egallaganlik sifatlariga qarab talabalarning ijtimoiy-kasbiy mas'uliyatini rivojlantirish[3;] muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba shaxsida mas'uliyat hissini rivojlantirish muammosini tadqiq qilishning dolzarbligi ijtimoiy jarayonlarda jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi: ijtimoiy jarayonlarda bo'lajak o'qituvchilarda mas'uliyat hissini rivojlantirish uchun turli vaziyatlarda va turli holatlarda subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kuchayishi bilan izohlanadi. Shu sababdan, ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish tizimini tushunish va shakllantirish zarurati ham paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalishda oliy ta'lim tizimi jiddiy muammolarga duch kelmoqda, bu talabalarning kasbiy bilimlari hamda tayanch ma'lumot olish jarayonida mas'uliyat hissi va ijtimoiy tajribani rivojlanganlik darajasiga ham taalluqli. Shu bois oliy ta'lim muassasalari talabalariga ta'lim berish jarayonida ularning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga tayyor, yuksak ma'naviy xususiyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlash zarur.

Oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha malaka talablarida umumiy va kasbiy kompetensiyalarni o'rganishga asoslangan davlat buyurtmasi, kasbiy va axloqiy qadriyatlarga rioya qilishga qodir bo'lajak o'qituvchilarga qaratilgan. Bu, bir tomondan, ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida talabalarga bilim berishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish doirasida asosiy masalalarni chuqur tushunishga yordam berishi mumkin bo'lgan va talabaga individual va jamoa nuqtayi nazaridan ta'sir ko'rsatadigan mas'uliyat hissining sifatiga baho beradigan jarayonlarni ifodalaydigan tushuncha, hodisalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradigan tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi.

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida maqsadni oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirish jarayonlarini tushunishni tavsiflash bo'lib, bu jarayonlar uning sifatini baholash jarayonida o'z o'rnini topadi. Talabalarda ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat

hissining sifatini baholashga asosiy o‘rin belgilanib ta’lim tashkilotida talabalarning o‘zaro faoliyati va rivojlanish modelida qanday jarayonlar sodir bo‘lishiga asosiy diqqat-e’tibor qaratishni rejalashtirganmiz. Talabalar tomondan zarur kompetensiyalarni egallash jarayonini boshqarish ko‘nikmalari fanlararo jihatlariga tegishli bo‘lib, har bir kasb egasi uchun tashkiliy jihatdan harakat qilishini ta’minlashning zarur jihatlaridan biri hisoblanadi.

Bu muloqot va intefaoal (kommunikativ va interaktiv) qobiliyatlarni takomillashtiradigan va jamiyatdagi o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘nikmalar hisoblanadi. O‘zaro faoliyat ko‘nikmalariga o‘rgatishning o‘quv dasturini muhokama qilish davomida, biz jamoaviy ish zamonaviy amaliyotning ajralmas qismi ekanligini ta’kidlash mumkin. Xususan, muvaffaqiyatli jamoa ishi adaptiv muhitda boshqa odamlar bilan muloqot qila olish va o‘zaro faoliyat olib bora olish imkonini beradigan ko‘nikmalarga ega insonlarga bog‘liq. Talabalarni oddiy jamoaga qo‘shish ularni hamkorlikda va samarali ishlashga o‘rgatmaydi. Bu holat texnik jihatlardan tashqari, ta’lim jarayonining barcha subyektlari o‘z kasbiy faoliyatida samarali bo‘lishi uchun qo‘shimcha hamma ishlarni o‘z ichiga oladigan ijtimoiy ko‘nikmalarga muhtojligini anglatadi.

Talaba faoliyatida ijtimoiy voqelik kabi bir biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tushunchalar mavjud. Ushbu tushunchalar yordamida ularga tegishli ijtimoiy voqelikni tavsiflash va tushuntirish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish, shuningdek ijtimoiy sohada ularga ushbu yondashuvni amalga oshirishga imkonini beradi. Ijtimoiy va kasbiy tamoyillar bir butunlikka birlashtiriladi, oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayonida talabaning ijtimoiy-kasbiy mas’uliyat hissini hisobga olish imkoniyati haqida gapirish huquqini beradi deb aytish mumkin.

Bundan tashqari, quyidagi faktlarni qo‘shimcha sifatida keltirish mumkin. Ijtimoiy sohani talqin qilish quyidagi ikki muhim metodologik shartga rioya qilishni taqozo etadi:

- 1) faoliyat o‘ziga hos chegaralar doirasida o‘ziga xos voqeligini belgilaydi;
- 2) faoliyat turi, o‘ziga tegishli belgilangan o‘quv predmetiga nisbatan qo‘llaniladi.

Talabalarning oliy ta’lim muassasalari miqyosidagi seminar treninglar, fan klublari, iqtidorli yoshlar tashabbuskor g‘oyalar innovatsiyasi kabi tadbirlarda, birinchi navbatda, ijtimoiy sohada ishtirok etishini o‘rganishda, tadqiqotchilarning o‘qituvchilar tomonidan quyidagi tadqiqot masalalari o‘rganilgan:

- ishtirok etish tuzilishining asosiy elementlari nima?
- ishtirok etishning qanday usullar orqali o‘lchash mumkin?
- loyiha va tadbirlarda yoshlarning ishtirok etishlariga qanday to‘siqlar mavjud?

-oliy ta'lim muassasalarining kundalik hayotida ishtirok etish haqidagi tushunchaga asoslanib, ishtirok etish yoshlarning o'z salohiyatini tadqiq qilishga imkon berish orqali erishilgan yutuqlarni qo'llab-quvvatlash deb ta'riflanadi.

Xorijiy mamlakat olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda "faol ishtirok" – "talabalar o'zlarining ishtiroki ahamiyatga ega ekanligiga ishonishadi"; "mazmunli ishtirok" - kabi tushunchalarga alohida yondashish, shuningdek, "yoshlarning fikr-mulohazalarini tinglashni va ularga konstruktiv javob berishni nazarda tutadigan muloqot (dialog) [4;]" deb ta'rif berilgan.

E.G'oziev o'z tadqiqotlarida "tafakkur orqali inson hissiy bilish qobig'idan tashqari chiqib, sezgi va idroklarda bevosita aniqlash imkoniyati mumkin bo'lmagan murakkab holatlarni anglay boshlaydi[5; 7-b.]" deb ifodalab o'tgan.

G'.Shoumarov shaxs tarbiyasida sharq mutaffakirlari ilmiy-g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy sifatlarini rivojlantirish[6; 15-b.] masalalariga alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirish ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi ularning bilish faoliyati darajalarining turli tumanligi va turli tadbirlarda faol ishtirok etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissini namoyon etish uchun zarur bo'lgan shart - talabaning kompetentligi doirasini kengaytirish imkonini beruvchi yangi bilim va mas'uliyat tajribasini egallash ehtiyoji hisoblanadi.

Mas'uliyat hissining ijtimoiy va kasbiy kelib chiqishi va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun muvaffaqiyatlarni rag'batlantirishga e'tibor qaratishimiz kerak. Har qanday holatda ham rag'batlantirilganlik rag'batning kutilayotgan natijalari va qiymatlari bilan o'zaro faoliyat olib boradi va natija "motivatsiya" deb ataladi.

Faqat muvaffaqiyatga erishish motivi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatda motivatsiya kuchi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni kutish va muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz xatti-harakatlarga olib keladigan muayyan rag'bat qiymati bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Shuning uchun muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar har doim muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikning oldini olishga intilishning ikki ijoybiylikni o'rtasidagi yondashuvni olish o'rtasidagi ziddiyatga bog'liq bo'lishi kerak. Ijtimoiy ma'qullash kabi omil ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirish g'oyasini amalga oshirish ishiga jalb etilishi mumkin.

Muayyan sharoitlarda, ijtimoiy ma'qullashning ijobiy rag'batlantirish qiymati muvaffaqiyat ehtimoliga ta'sir qilishi va motivatsiyalarning har xil turlarini birlashtirilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, olimlarning ilmiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili natijalariga ko'ra, talabalarda ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissining o'ziga xosligi jamiyatning qadriyatlarini anglash va qabul qilishga bo'lgan integral shaxsiy sifat va bo'lajak kasbiy faoliyat haqidagi bilimlar va professional faoliyatda ijtimoiy-yo'naltirilgan xatti-harakatlarga tayyorlikning yig'indisidan iborat ekan.

Talabalarda ijtimoiy-kasbiy mas'uliyat hissining o'ziga xosligi bir xil mezonlar majmui bilan ifodalangan kognitiv-tahliliy, qadriyat komponentlarining o'zaro munosabati bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 25.01.2020
2. Сундуй Г.Д. Стратегия и тактика процесса воспитания совести в условиях духовного кризиса общества Г.Д.Сундуй // Вестник КГПУ им.В.П.Астафова. – 2013. - № 3 (25). –С.102–105, с. 102.
3. 2020-yil 23-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. www.lex.uz
4. Easterby Smith, Lyles. UPRAVLENIYE BIZNES ISSLEDOVANIYE. 0_Easterby_Smith_BAB1410B0222_Prelims.indd 3. 3/24/2015 5:53:56 PM
5. E.G'oziev Tafakkur psixologiyasi.: T-1990 y. 7-b.
6. G'.B.Shoumarov muallifligi ostida. Oila psixologiyasi.:T.2011 y. 15-b.

DASTURLASH TILLARI FANINI O'QITISHDA BLOG - TEKNOLOGIYASINING O'RNI VA AHAMIYATI

**Bobomuxamedova Sh.A. - Toshket davlat pedagogika universiteti
doktaranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Web 2.0 xizmatlaridan biri bo'lgan blog-texnologiyalar, ularning didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari hamda dasturlash tillarini fanini o'qitishda blog-texnologiyasidan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: AKT, Internet tarmog'i, blog, blog-texnologiyasi, moderator.

МЕСТО И РОЛЬ БЛОГ-ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ

**Бобомухамедова Ш.А. - докторант Ташкентского государственного
педагогического университета**

Аннотация. В статье рассмотрены одна из возможностей сервиса Веб 2.0, блог-технологии, их дидактические свойства и методические функции, а также использование блог- технологий в обучении языкам программирования.

Ключевые слова: ИКТ, сеть Интернет, блог, блог-технология, модератор.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF BLOG-TECHNOLOGY IN TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES

**Bobomukhamedova Sh.A. - doctoral student
Tashkent State Pedagogical University**

Annotation. The article considers one of the Web 2.0 services the generation of blog technology, didactic properties and methodical functions of blog technologies, the use of blog-technology in the teaching of programming languages.

Key words: ICT, Internet, blog, blog-technology, moderator.

Respublikamizda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, jadallashtirish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyati tizimli rivojlanishinig yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilmoqda.

Mamlakatda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)ni rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizning prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi Farmonining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" to'rtinchi yo'nalishiga berilgan sharhda "...uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishni nazarda tutadi" [1] degan jumlar qayd qilib o'tilgan.

Ta'lim jarayoniga AKT ning tatbiq etilishi talabalarga o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini o'zlashtirilishi va kasbiy bilimlarini chuqur egallanishiga; mustaqil faoliyat sohasining kengayishiga; o'quv faoliyatni intellektuallashtirishiga; axborotlashtirilgan jamiyati a'zosi sifatida ularda axborot madaniyatining shakllanishiga; talabalarda fanlarga bo'lgan qiziqish va faollikni oshirishga; talabalarining o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishlari maqsadida sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga olib keladi.

AKTning jadal sur'atlarda rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini axborotlashtirish jarayonidan yangi raqamlashtirish jarayoniga o'tishiga olib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o'tish zamon talabi bo'lib, "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi konsepsiyasining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Jumladan, yangi avlod raqamli texnologiyalari – sun'iy intellekt, robototexnika, internet, simsiz aloqa texnologiyalari va boshqalarning paydo bo'lishi tufayli oxirgi vaqtda biznes va ijtimoiy sohadagi faoliyat modellarini o'zgartirishning navbatdagi to'liqini avj olmoqda.

Ta'lim jarayonini tashkillashtirishda Web 2.0/3.0 xizmatlariga kiruvchi internet orqali aralash va masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun ta'limni boshqarish tizimi, ya'ni blog-texnologiyasi muhim rol o'ynaydi.

Interaktiv aloqa uchun virtual ta'lim hamjamiyatini yaratish hamda Internetga turli xil materiallarni joylashtirish imkonini beradigan teskari xronologik tarzda tartiblangan blog o'quv blogi hisoblanib, zamonaviy ta'lim vositasi sifatida ijodiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlaydi [2].

O'quv blogi-yozuvlar jurnali shaklidagi sayt bo'lib, ta'lim oluvchilar tomonidan turli axborotlarni saqlash va uzatish uchun foydalaniladigan, onlayn hamda oflayn rejimda muammoli vazifa va vaziyatlarni muhokama qilish, guruh loyiha ishlarini amalga oshirish uchun turli hamjamiyatlarni yaratish imkonini beradi.

Bloglarda axborotlar mavzular bo'yicha jamlanadi, boshlang'ich manbalarga havolalar beriladi, kerakli ma'lumotlarni izlash sezilarli darajada yengillashgan bo'lib, mustaqil ta'lim olishning eng muvaffaqiyatli vositalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, blog orqali o'qituvchining talabalar bilan hamkorlik qilish, qo'shimcha materiallar taqdim etish, tanishib chiqilgan kontentlarni muhokama qilish kabi shaxsiy ta'lim muhitini yaratish imkoniyatini yaratadi [3].

Y.V.Neustroeva blogni yaratish va tahrirlash uchun internetda ishlash bo'yicha elementar ko'nikmalar yetarli bo'lib, samarali ishlash uchun o'qituvchiga blogger - boshqaruvchi sifatida ishlash tavsiya etiladi, u talabalarni o'z blogiga taklif qiladi va keyinchalik ushbu guruh talabalarining barcha ishlarini masofadan turib boshqara oladi. Ushbu turdagi bloglar loyiha ishlari uchun qulay bo'lib, unda talabalarga tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati beriladi [4].

D.V.Moglan axborotni mavzular bo'yicha teskari xronologik tartibda tashkil etish va blogdagi gipermatnli tuzilish har bir talabaning individual ishlash va loyiha ishtirokchilari o'rtasida tarmoq orqali aloqa uchun joy yaratish imkonini berishini aytib o'tgan [5].

Blog o'qituvchi bilan sharhlar funksiyasi orqali muloqotga kirisha oladigan doimiy o'quvchilar davrasiga ega. Blogning ixtiyoriy yozuviga ierarxik daraxt ko'rinishida tuzilgan matn, audio, videoaxborot, sharhlar qo'shish mumkin. Ushbu ikki tomonlama xarakter blogda interfaollikni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, o'qituvchining shaxsiy blogda tizimli ishlashi uning kasbiy faoliyatiga yangi maqom – innovatsion faoliyatni beradi va uni zamonaviy, ijodiy, raqobatbardosh professional shaxs sifatida shakllantiradi.

Blog deganda, shaxsan o'qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari soatlarda amaliy vazifalarni hal qilish uchun yaratilgan, shuningdek, o'quv jarayoni ishtirokchilarining intellektual va aqliy rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda foydalanuvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq to'ldirilgan shaxsiy axborotlar tushuniladi [6].

Bloglarning ko'p jihatdan afzalliklari mavjud bo'lib, jumladan mustaqil ravishda ma'lumotlarni ochiq e'lon qilish, ta'limga oid yagiliklar to'g'risida sharhlar berish, elektron ta'limiy resurslar bilan boyitib borish mumkin. Bloglardan ta'lim muassasalarida har bir fanni o'qitishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, ular nafaqat o'qituvchi va talabalar o'rtasida ta'limiy muloqot jarayonini tashkil qilish vositasi bo'lib xizmat qilishi, balki talabalarga o'z fikrlari bilan o'rtoqlashish, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'lumotlar almashish imkoniyatini beradi.

Blog ta'lim jarayoniga moslashuvchan vosita bo'lib, ham individual ham jamoaviy vosita sifatida ishlatilishi mumkin [7].

O'quv maqsadlarining yangi yechimi (ularning shaxsiy ehtiyojlari, intellektual rivojlanish vazifalariga yo'naltirilganligi) muayyan ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni muammolarini ta'lim standartlari asosida hal qilishni talab qiladi.

Polsin, Snayder va Gunislarning fikrlariga ko'ra, kelajakdagi informatika o'qituvchilarini tayyorlashda dasturlash tillarini o'qitish doirasida ta'lim jozibador va bilimlarni amaliyotga qo'llashni ta'minlash maqsadida yangi bilim, usul va shakllarni joriy etish muhimdir [8].

Dasturlash tillarini an'anaviy tarzda o'qitish, odatda, talabalar tomonidan qabul qilinadigan murakkab vazifalar va savollarni o'z ichiga oladi, bu esa o'quv materiallarining noto'g'ri tushunilishiga olib keladi. An'anaviy usullar bilan dasturlash tillarini o'rganish muayyan dasturlash tilining sintaksisini o'rganishga asoslangan bo'lib, u talabalar orasida qiziqish uyg'otmaydi yoki o'zlashtirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Dasturlash tillarini o'qitish vositalari boshqa fanlarni o'qitishdan ko'ra mutlaqo boshqacha rol o'ynaydi.

Respublikamizda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, jadallashtirish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyati tizimli rivojlanishinig yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilmoqda.

Biz taklif etayotgan zamonaviy metodik tizimda Blog-texnologiyasini yangi usul sifatida, blogni o'zini esa vosita sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Blog-texnologiyasini joriy qilish pedagoglarga nafaqat o'z kasbiy sohasidan yaxshi xabardor bo'lish, balki talabalar salohiyatini: ijodkorligi, hamkorlikda ishlash

qobiliyati, kommunikatsiya ko'nikmalari, muammolarni kollaborativ hal qilishda tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ta'limning innovatsion metodlaridan foydalanishda ham ko'maklashadi.

Blog-texnologiyasi ta'limiy imkoniyatlarni o'zida mujassam etib, talabalarga o'z fikrlari bilan o'rtoqlashish, shaxsiy fazilatlar hamda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'lumotlar almashish imkoniyatini beradi.

Blog-texnologiyasidan foydalanish talabalarga Internetda samarali ishlashning nazariy asoslari va amaliy ko'nikmalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, onlayn muhitda xavfsizlikning asosiy qoidalari va xususiyatlarini tushunish orqali ularning axborot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

A.V.Filatova blog-texnologiyasining quyidagi didaktik xususiyatlarini taklif etgan:

- kognitiv faoliyatni rag'batlantirish; individual ta'lim uchun qulay muhit yaratish (dalillar va qarama-qarshi dalillar keltirish, xulosalar chiqarish, o'z mustaqil fikrni bildirish); empatiyani rivojlantirish; ta'lim avtonomiyasi va ijodkorligini rivojlantirish;

- rubrikatsiya va arxivlar tizimi orqali axborotni tezkor qidirish imkoniyati; RSS oqimlarini qo'llash orqali axborotdan tezkor xabardor qilish va axborotni yangilash imkoniyati;

- talabalarning motivatsiyasi va ijodiy fikrlashini shakllantirish; individual ta'lim uslublarini hisobga olish;

- motivatsiyani oshirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalariga nisbatan qo'rquv va ishonchsizlikni bartaraf etish;

- o'z-o'zini ifoda qilish erkinligi [9].

Blog-texnologiyasining ta'lim imkoniyatlarini tahlil qilish ulardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iboratligini ko'rsatadi: [10]

1) talabalar kelgusida bilim olish, filtrlash va o'zgartirish jarayonida, o'z materiallarini nashr etayotganda, aloqa va hamkorlik asosida yangi bilimlarni qurishni o'rganadilar, ya'ni ular o'z sohalari mutaxassisi bo'lib yetishadilar;

2) kerakli axborotlarni faol izlash va boshqalardan sharhlar olish jarayonida o'z bilimlari jarayonini mustaqil boshqara oladigan ta'lim texnologiyasining yangiligi o'qitish jarayoniga qiziqishni orttiradi;

3) bloglarda sharhlar yozish imkoniyati teskari aloqani amalga oshirish imkonini beradi va matndagi giperhavolalar orqali boshqa manbalarga murojaat qilish talabalarga bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi;

4) talabalar ijtimoiy jarayonlarda qatnashadilar, ba'zida o'quv jarayoni va "talaba-o'qituvchi" munosabatlaridan tashqarida bo'ladilar;

5) ta'lim jarayoni sub'ektlarining tarmoq hamjamiyatida o'zaro faol munosabati va aloqasi talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, yuqori

motivatsiyaga ega bo'lishi, talabning bilimlarini yangilash, talabalarning o'qituvchi hamda o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan interfaol ta'limni tashkil etishga imkon beradi.

Bundan tashqari, chuqurroq ta'lim maqsadlarini ko'zlaydigan bloglar mavjud bo'lib, ular o'qituvchilar tomonidan kurs mavzularini qo'shimcha muhokama qilish uchun olib boriladi, talabalarni olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda tahlil qilishga undaydi. Bunday bloglarda o'qituvchilar talabalar uchun savol va topshiriqlarni tuzadilar, shuningdek mavzu bo'yicha qo'shimcha material va manbalarga havolalarni joylashtiradilar. Blog-texnologiyasidan asosiy kursga qo'shimcha sifatida, talabalar va o'qituvchilarni murakkab masalalarni muhokama qilishga jalb qilish va materialga tashqi ma'lumot manbalarini kiritish usuli sifatida foydalaniladi [11].

Dasturlash tillarini o'qitishda blog-texnologiyasidan foydalanish borasidagi bugungi holatining tahliliga ko'ra quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. O'qishni an'anaviy tashkil etishda, mashg'ulotlarda vaqt yetishmasligi va o'quv kurslarining hajmi cheklanganligi sababli, hamma talabalar ham o'z fikrlarini bildirish va eshitish imkoniyatiga ega emaslar. O'quv jarayonida Blog-texnologiyasidan foydalanish, har bir talabaga bahs-munozaralarda ishtirok etish imkonini beradi, bu esa ta'lim jarayoni uchun yangi istiqbollarni ochib beradi. Blog-texnologiyasining yangiligi o'qitishni rag'batlantiruvchi omillardan biri bo'lib, ulardan foydalanish o'quv jarayoniga qiziqishni kuchaytiradi.

2. Blog-texnologiyasi Internetda ma'lumotlarni nashr etishning an'anaviy vazifalarini hal qilish bilan bir qatorda, foydalanuvchilar o'rtasida aloqa o'rnatish, o'zini tanishtirish, ijtimoiy aloqalarni yaratish va saqlash hamda psixoterapiya kabi bir qator funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi.

3. Ta'lim jarayoni subyektlarining tarmoq hamjamiyatida o'zaro faol munosabati va aloqasi talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, yuqori motivatsiyaga ega bo'lishi, talabning bilimlarini yangilash, talabalarning o'qituvchi hamda o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan interfaol ta'limni tashkil etishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni 1-ilovasi.

2. Белов С.А. Формирование коммуникативной составляющей ИКТ-компетентности будущих педагогов профессионального обучения средствами учебного блога. Автореферат. Барнаул-2014. 24 бет. 12 бетдан.

3. Стародубцев, В.А. Особенности современного образовательного процесса / В.А. Стародубцев, О.М. Шепель, А.А. Киселева // Высшее

образование в России: Научно-педагогический журнал министерства образования и науки Российской Федерации. – М., 2011. - № 8-9. – С.68-73.

4. Неустроева Е.В. Блоги и подкасты как средство медиаобразования на языковых уроках. С 132-137. Электронная среда в образовании: движение в будущее: материалы Международной заочной научно-практической конференции (Нижний Новгород, 17 марта 2013 года); отв. ред. Ю.С. Мануйлов. – Нижний Новгород: Центр научных инвестиций, 2013. – 288 с.

5. Моглан Д.В. Методика обучения объектно-ориентированному программированию бакалавров направления «педагогическое образование» в условиях сетевого сообщества. Диссертация кандидата педагогических наук: 13.00.02. Санкт-Петербург 2015. -250 с. 78 бетдан.

6. Науменко Л.С. Формирование профессионально-технологической готовности педагога к работе с персональным блогом. Диссертация кандидата педагогических наук: 13.00.01. -Челябинск. 2016. -236 с. 4-5; 46 бетдан.

7. Singer, A. (2009) '19 Reasons you should Blog and not just Tweet'. Digital Marketing and Social Media PR - The Future Buzz. 10/05/2009. [Online]. Available at: <http://thefuturebuzz.com/2009/05/10/reasons-you-should-blog-and-not-just-tweet/> (Accessed: 29/06/11).

8. Lai, H. & Chen, C. (2011) 'Factors influencing secondary school teachers' adoption of teaching blogs'. Computers & Education, (56). pp 948-960. Pp 725-738.

9. Snajdar, Gunis, 2016-Snajdar, L. and Gunis,J. (2016) Analysis of result in inquiry based informatics education of selected topics. Information and Communication Technology in Education 2016 pp. 169-180. Ostrava :University of Ostrava.

10. Polcin et al ., 2016-Polcin,D., Petrushkova,H. and Stando,,J. (2016) Support and Improvement of the Educational Process in Regional education in Slovakia Through Tablet Classrooms. In the third International Conference on Computer Science, Computer Engineering, and Education Technologies. Pp. 71-78. Lodz:Lodz university of technology.

11. Филатова А.В. Оптимизация преподавания иностранных языков посредством блог-технологий: дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – М., 2009. – 197 с.

12. Лазуткина Е.В. Использование блогов в формировании информационной культуры студентов // Открытое и дистанционное образование. – 2010. – №1. – С.68-73.

13. Дубова Н. Web 2.0: перелом в парадигме обучения // Открытые системы. – №9. – 2008. [Электронный ресурс]. – URL: <http://www.osp.ru/os/2008/09/5717450/> (дата обращения: 01.07.2013).

**BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING MA‘NAVIY-
AXLOQIY RIVOJLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH**

**Djurakulova M.S. – Samarqand viloyati, Tayloq tumani 27-umumiy
o‘rta maktab direktori**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zgarib, ma‘naviy-axloqiy rivojlanib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga mas‘ul bo‘lgan shaxslar ota-ona va ustozning, jamiyatning roli qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zgarib, axloq, fikr, kitob, ta‘lim-tarbiya, ma‘naviyat...

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВНЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО
РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

**Джуракулова М.С. - Директор 27-й общеобразовательной школы
Тайлакского района Самаркандской области.**

Аннотация. В статье говорится о важности роли лиц, родителей, школы и общества, которые несут ответственность за воспитание духовно-развивающегося молодого поколения.

Ключевые слова: этикет, мысль, книга, образование, духовность...

**DETERMINING THE LEVEL OF SPIRITUAL AND MORAL
DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Djurakulova M.S. - Director of the 27th comprehensive school of Taylak
district, Samarkand region**

Annotation. This article discusses the importance of the role of parents, schools and society in those who are responsible for the upbringing of the young generation, which is growing and developing spiritually and morally.

Key words: etiquette, ethics, thought, book, education, spirituality...

*“Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz
tarbiyalashimiz lozim.”
(Shavkat Mirziyoyev)*

Yangi asrda biz sifat jihatdan tamomila yangi xalqlar jamiyatiga, chuqur integrasiyalashgan iqtisodiy makonga, yagona kommunikatsiya va axborot tizimiga

kirish uchun shaxdam qadamlarni bosmoqdamiz. O'sha jamiyatda yashab ketish anchagina tayyorgarlikni, bilimni talab qilishini ham bugun anglab yetdik. Demokratik jamiyatning ustuvorliklariga mos keladigan yangicha ongni shakllantirish ikki asosiy omil ta'sirida, ya'ni bevosita ijtimoiy amaliyotga hamda ta'lim-tarbiyaning maqsadli yo'naltirilganligida amalga oshadi.

Ma'naviyat, xususan, ruhiyat tarbiyasi bugun davlat e'tiboridagi masalaga aylandi. Prezidentimiz avlodlarni, xalqning boy madaniy, tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, respublikamiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida qayd etib, farzand tarbiyasida birinchi o'rinda ota-onalar mas'ulligini qattiq ta'kidladilar. Bu vazifa tarbiyalanuvchilarning yoshi, kun va imkoniyatlariga mos holda ijro etila borilishi kerak.

Inson bolasining shaxs sifatida shakllanishi, uning bilish jarayonlarini o'sishi psixik rivojlanishi 0-17 yosh deb oladigan bo'lsak, uning o'rtasini 8-9 yosh emas, 3 yosh tashkil qiladi.

Demak, dastlabki 3-yil kiyingi 14-yilga teng bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning eng muhim vazifalaridan biri-bu o'quvchilar jamoasini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu nafaqat u yoki bu ta'lim-tarbiya muassasalarigina emas, balki konkret o'quv guruhi-sinfga ham taalluqlidir.

Bugungi kun o'qituvchisi, sinf rahbarlari, maktab psixologlarini qiynayotgan muammolardan biri, bu o'quvchilar guruhlarida shaxslararo munosabatlarni o'rganish va ularni maqsadga muvofiq tashkil qila bilish imkoniyatlarini beruvchi maxsus psixodiagnostik metodikalardan foydalanib, yuqorida ko'rsatilgan muammolarni yechimini o'rganishni va amaliyotda tasdig'ni kuzatishni o'z oldimizga qo'ydik. Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi yomonlikdan qaytaruvchi bu ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitob odob deyiladi.

Huquqiy demokratik davlatimiz, ochiq fuqarolik jamiyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalmish ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi, bu jarayonning sifati va samaradorligini oshirishga karatilgan tadbirlar majmuasidan iborat. Shu boisdan, mamlakatimizda yosh avlodning tarbiyasiga, sog'ligiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Prezidentimiz tomonidan 5 ta tashabbusni ilgari surilishi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va foydali mashg'ulotlar bilan ta'minlash, yoshlarning jismoniy kamoloti masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Pedagogik faoliyat va kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, tarbiyachilar o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lsagina ta'lim-tarbiya sifati mukammallashadi. Buning uchun zarur bo'lgan tayanch kreativ

kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Fikrimizcha, har bir tarbiyachi kasbiga sadoqat bilan yondashgan holda:

- intellektual-ijodiy tashabbuslar ko'rsatishi;
- kasbiy bilimlarining kengligi va teranligi;
- intellektual qobiliyatlarga ega bo'lishi;
- turli ziddiyatlarga tayyor turishi;
- ijodiy g'oyalarni ilgari surish va ularga tanqidiy munosabatlar bildira olish;
- yangiliklarga intilish;
- o'zining tajribalarini boshqalarning tajribalari bilan taqqoslagan holda o'zining imkoniyatlari, kamchiliklari va muvaffaqiyatlarini anglab yetishi;
- o'zidagi kreativ jihatlarni anglay olishi;
- o'zini ko'rsata olishi, yangiliklarni amaliyotga olib kirishga tayyor turishi;
- har bir pedagog tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonini loyihalashda ta'lim strategiyalardan o'zi uchun maqbulini tanlashi mumkin. (Strategiyalardan birining tanlanishi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy qiziqishlari, shuningdek, mavjud hayotiy vaziyatlarga bog'liq).

Tarbiya - "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya berish, tanini pok tutish, yosh vaqtdan to'g'ri maslahatlar berish, yaxshi xulqlarni o'rgatib, yomon xulqlardan saqlab o'stirish lozimdir. Bolani tarbiya qiluvchilar tabib kabidirki, tabib xastaning badanidagi jahl tarziga "yaxshi xulq" degan davoni, ichidan "poklik" degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozim. Xulqimiz yaxshi bo'lishini asosi tarbiyadir.

Milliy tiklanish va demokratik tamoyillarda o'tgan davr mobaynida bir qator tashkiliy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy ishlarni olib borish bilan birga milliy qadriyatlarimizni tiklash, kishilarda halollik, poklik, insonparvarlik, ota-ona va kichiklarga hurmat, mehnatsevarlik, adolat, samimiyligni targ'ibot qilish masalalari ham qo'yilgan. Shuningdek, "Milliy tiklanish va boshlang'ich ta'lim" masalasining ham kiritilishi bejiz bo'lmadi. Chunki bilimning asosi yoshlikdan berila boshlaydi va boshlang'ich ta'lim bilimlar poydevoridir.

Kishilarning o'z xulqi, urf-odatlar va an'analariga amal qilmasliklari xalq qadriyatlarini bilmaslikka olib keladi. Chunki har bir urf-odatlar, an'analar negizida milliy ruh, ma'naviyat, qadr-qimmat kabi ulug' insoniy fazilatlar yotadi.

Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya asosida tarkib topib, takomillashib borgan. Qur'oni karim oyatlaridan, payg'ambar alayhissalomdan hadislar, sharq allomalari va faylasuflarning kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Farzand necha yoshdan tarbiyalanishi kerak?, - degan savolga donishmandlardan biri "Tug'ilgan kundan boshlab", - degan javob bergan ekan. Shunday ekan ko'proq bola tarbiyasida ota-onalar mas'uldirlar.

Axloqiy yaxshi kishilar dushmanlarini ham osonlik bilan o'zlariga do'st qiladilar. Insonlarning hayvonlardan farqlari aql, ilm, so'z, odob, fikr, axloq bilandir. Shuning uchun dunyoda "Chin inson bo'laman" degan kishilarga bu bilimni o'qish, "axloq" yo'llarini o'rganish lozimdir. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmaydi. O'z aybini bilib, iqror bo'lib, uni tuzatmoq uchun kurashgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishida axloqiy jihatdan ularning ongini o'stirish, ularni to'g'ri fikrlay olishga o'rgatish lozimdir.

Ota-onaning vazifasi bolalarda o'z millati va unug tarixi, tili, madaniyat, ma'naviyati, qadriyatlarini, urf odatlari haqida to'la ma'lumot berish, o'zligini anglash, milliy ong, g'ururga ega bo'lish bilan bog'liq ilmiy bilim, ko'nikma va odatlarni shakllantirishdan iborat. Bolalarni tarbiyalash uzluksiz, izchil davom etishi kerak. Maktabgacha ta'lim va maktablarda, o'qituvchilar tomonidan olib borilishi kerak. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda bunga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Milliy tarbiya shaxsni o'z xalqi, millati bilan bog'laydi. Milliy ma'naviy madaniyatning barcha qirralari yosh avlod ma'naviy ongining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy tarbiyani shakllantirishda tarbiya usullari o'git, ibrat, qiyos, talab, maqtash, majbur qilish va boshqa usullardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek "Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum".

Bu aytilganlardan kelib chiqib o'quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni.
2. Maxmudov B.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni milly harakatli o'yinlar vositasida estetik tarbiyalashni dididak imkoniyatlari. p.f.f.d.diss. Nukus -2018-y. 65-66-b.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. "Ma'naviyat", 2008.
4. E.G'oziyev. Yosh davrlar psixologiyasi. Toshkent, 2002-yil.
5. Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1998-yil.
6. Safo Ochil. Mustaqillik va tarbiya masalalari. T.: O'zbekiston, 1996.

Bosh muharrir:

Umarov Alisher Yusubjanovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

Tahrir hay‘ati:

Asqarov A.A., Djurayev R.X., Begimqulov U.Sh., Muslimov N.A.,
Xaliqov A. A., Djamilova N.N., Mamarajabova Z.N., Masharipova U.A.,
Ishquvvatov V.T., Xalilova N.I., Nurullayev M.E.,
Djurakulova E.S., Axmedova N.M., Kurbanova Sh.I., Xo‘janazarov O‘.E.,
Abdug‘aniyev O.T., Isakulova N.J.

Tahriryat manzili:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy
e-mail: tdpuia@mail.ru

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tahrir va nashr”
bo‘limida chop etildi. Adadi 10 nusxa. Hajmi 15 b/t. Bichimi 60x84^{1/8}
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy